ALISHER NAVOIY



Layli va Majnun

10-47995 | 2020/114-A58
3s.
Alisher Navoiy
Layli va Majnun: doston
T.: 2020. - 344 b.

2020/114-A58

Alisher Navoiy

LAYLI VA MAJNUN

G‘afur G‘ulom nomidagi
nashriyot-matbaa ijodiy uyi
TOSHKENT – 2020

UO'K 821.512.133
KBK 84 (5Ў)1
H 14

1 - O'zbek adabiyoti
She'riyat.

Nashrga tayyorlovchi va mas'ul muharrir: **Vahob Rahmonov**

Navoiy, Alisher
Layli va Majnun: doston. /A.Navoiy. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2020. – 344 b.

"Layli va Majnun" shunchaki sevgi haqidagi asar emas, balki insonning insonga bo'lgan muhabbati haqidagi muhtasham obidadir. Pokiza va samimiy muhabbat dostoni siz, aziz kitobxonlarga muborak bo'lsin.

UO'K 821.512.133
KBK 84 (5Ў)1

20/114
Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston MK
A 58

ISBN 978-9943-6105-9-0

© G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2020

ID 47995
391

LAYLI VA MAJNUN

I

Ey yaxshi oting bila sarog‘oz,
Anjomig‘akim, yetar har og‘oz[1].

Ey sendin ulus xujastafarjom,
Og‘ozingga aql topmay anjom.

Ey aqlg‘a foizi maoniy,
Boqiy – sen-u, borcha xalq – foniy.

Ey elga adam baqoni aylab,
Zotingg‘a fanoni foni aylab,

Ey ilmingg‘a g‘ayb sirri ma’lum,
Mavjud – sen, o‘zga borcha – ma’dum.

Ey yo‘q qilibon adamni budung,
Yo‘qlug‘ni adam qilib vujudung.

Ey husnni dilpazir qilg‘an,
El ko‘nglin anga asir qilg‘an.

Ey husng‘a aylaganni shaydo,
Majnunlug‘ ila qilib huvaydo,

Ey ishq o‘tin aylagan jahonso‘z,
Har bir shararini xonumonso‘z.

Ey o‘rtab ul o‘tqa xonumonlar,
Ne xon-u ne monki, jism-u jonlar.

Ey kimniki, aylabon parivash,
Majnun anga yuz asiri g‘amkash.

Ey kimni qilib parig‘a majnun,
Ashki suyin oqizib jigargun.

Ey har sorikim, qilib tajalli,
Ul mazhar o‘lub jahonda Layli.

Ey oniki, Layli aylab otin,
Majnun qilmoq qilib sifotin.

Ey Majnunung xiraddin ozod,
Ohi beribon xiradni barbod.

Ey aql sening yo‘lungda g‘ofil
Kim, telba sening yo‘lungda oqil.

Ey bandalarig‘a jovidona,
Omurzish uchun tilab bahona,

Ey ashk suyidin aylabon past,
Do‘zax o‘ti shu’lasini payvast.

Ko‘k yer kibi past-u murtafe – sen,
Balkim, yer-u ko‘kka muxtare – sen,

Sun’ung bila to‘rt zid muvofiq,
Hukmung bila yetti ko‘k mutobiq.

Tun-kunki, qilur sipehr novard,
Sening talabingdadur jahongard.

Boshdinki, qadam qilibdurur mehr,
Istab seni bo‘ldi za’faronchehr.

Bordur talabingg‘a borcha moyil.
Lekin seni topmoq asru mushkil.

Har negaki, desa o‘xshamassen,
Sendin durur ul, sen ul emassen.

Har ne seni desa royi soyib,
Ul sendin-u sen aroda g‘oyib.

G‘oyibsen angaki, bo‘lsa nozir,
Nozirg‘a dog‘i bor ishda hozir.

Aflokka sen shitob berding,
Anjumg‘a bu nur-u tob berding.

Kun yuzini aylading mushakkal,
Tun ko‘zini aylading mukahhal.

Oy siymini aylading zarafshon,
Tunning shabasini gavharafshon[2].

Toqqa beribon libosi xoro,
Zarrin kamar etting oshkoro.

Qish mehrini chun itikrak etting,
Qorning sadafin arusak etting.

Yoz yomg‘uri yetgach, aylading bot,
Yer chakmanini yashil saqarlot.

Lola qadahini toshqa urdung,
Jola guharini boshqa urdung.

Gul yofrog‘ini havog‘a sochting,
G‘uncha girihin sabodin ochting.

Gulga beribon zumurradiy taxt,
G‘uncha kibi aylading javonbaxt.

Kecha anga bo‘lmasun debon biym,
Berding nargisga mash’ali siym.

Chun ko‘kni xusufzod qilding,
Oyning kumushin savod qilding.

Gohiki, kasofat etti mahtob,
Mehr oltunin aylading siyahtob.

Berding chu jihatqa zeb ila far,
Boshi uza tikting olti gavhar.

Unsurni tuzuk saroy qilding,
Devorini chordoy qilding.

Kiydurding ziynat aylamakdin,
To‘quz xil’at anga falakdin.

Ko‘k atlas-u borin zarhal etgan,
Anjum duridin mukallal etgan,

Jaybi aro tugma Tiyr-u Nohid,
Egnida tirozi Oy-u Xurshid.

Yo‘q, yo‘qki, bu yetti jirmi moviy,
Anda yetti chobuki samoviy-

Kim, borchalarini foil etting,
Sayr-u harakatga shog‘il etting.

Obo chu bularg‘a ot bo‘ldi,
Ul to‘rt ham ummahot bo‘ldi.

Aylab bu ato, anog‘a payvand,
Uch qilding arolarida farzand.

Har birining o‘zgacha sifoti,
Hayvoni-yu koni-yu naboti.

Andoq chu tuzuldi kadxudoliq,
Bu nav’ o‘ldi ato-anoliq.

Bir kimsaga to‘rt agar tarabdur,
Yetti aro to‘rt, bas, ajabdur.

Har milg‘a toqding ikki zanjir,
Qilding laqabin qazo-vu taqdir.

Gardunni sen aylading sabuksang,
Davronni sen aylading kuhanlang.

Gar bo‘lsa sipehr-u arz bir-bir,
Chun sendin erur senga ne tag‘yir?

V-ar topsa baqoi lonihoyat,
Ham sendin erur o‘shul inoyat.

Har shohki, andin el haroson,
Yo‘q qilmoq ani qoshingda oson.

Yo qaysi gadoki, noni yo‘q – to‘q,
Shoh etsang ani, kim, oytqoy yo‘q.

Zohidki, ulusqa qilg‘ay irshod
Solsang tomug‘ ichra kimga erod?

Fosiqki, erur bor ishi muhmal,
Yorliqasang oni kimga madxal?

Bas, olam ichini aylading qon,
Bir luqma yutarg‘a yutti ming qon.

Bas, johil erurki, beg‘am-u ranj,
To‘ktung etagiga maxzan-u ganj.

Bu ishta ne bilsun el kamohi,
Ne erkani hikmati Ilohi.

Lekin bu taraf ko‘ngulga yo‘ldur-
Kim, har neki aylading ish uldur.

Kimni nedin aylading navosoz,
Topqon anga ne ko‘p erdi, ne oz.

Har kimga ne berganing bas erdi,
Andin ko‘p-u oz kerakmas erdi.

Topqong‘a qanoat ulki qilmas,
O‘z maslahatini sencha bilmas.

Bizdin neki kelsa bejihatdur,
Sendin neki bo‘lsa maslahatdur.

Doim qilibon savol varzish,
Xoni karamingdin ofarinish.

Kunduz – sanga bir gadoyi rusi,
Xursheddin egnida kadusi.

Tun – dargahingga tilanchi zangi,
Egnida terisidur palangi.

2 - 335

Daryo sanga tolibi navola,
Kishti kafida yig‘och piyola.

Tog‘ lola tutub, nechukki, soyil,
Ochib etagin tilarga moyil.

Ya’ni bori uzradur panohing,
Bor ulchaki, bor gardi rohing.

Mulkung ikki bog‘i – ikki olam,
Sultonlig‘ erur sanga musallam.

Bog‘ing ikki vardi – mehr ila moh,
Ne bog‘-u ne vard, Alloh-Alloh!

Shonin bilmay xiradg‘a anduh,
“Jallat olouhu va sha’nuh”[3].

II

Pastlig‘ yuzidin munojot ul rafe’ ud-darajot hazratidakim, sanosida Aqli Kul tili lol, balki Aqli Kul tili shikastamaqol keldi va ul bobda ma’ziratni unutmoq va uzr demakdin o‘zni ma’zur tutmoq va ajz va nomurodlig‘ ko‘yiga qochmoq va gadoliq ashkin sochmoq va “shay’an lillah”[1] ovuchin ochmoq[2].

Pok sifatingda ahli idrok,
So‘z surmadi g‘ayri “mo arafnok”[3].

Har nav’ki, aylasam xitobing,
Yuz oncha biyik durur janobing,

Ulkim, “ana afsah”[4] etti da’vo,
Fosh etti bu da’vo ichra ma’no.

Ko‘rguzdi chu nukta ichra mu’jiz,
Olam fusahosi bo‘ldi ojiz.

Hamdingni demak chu bo‘ldi komi,
“Lo uhsi”[5] edi aning kalomi.

Ul ajzig‘a e’tirof qilsa,
Hamdingdin o‘zin maof qilsa.

Bas, nazmda so‘z degan meningdek,
Men xud neki, yuz tuman meningdek.

So‘z ajzini zohir aylamak ham,
O‘z ajzini zohir aylamak ham.

Insof ila keldi nosazoliq,
Yo‘q-yo‘qki, kamoli behayoliq.

Chun hamd-u sano ishi bu bo‘ldi-
Kim, Aqli Kul anda uzr qo‘ldi.

Ham gungmaqol bo‘lmoq avlo,
Bu uzrda lol bo‘lmoq avlo.

Qilmay da’voi xushadoliq,
Arz ayla, Navoiyo, gadoliq.

Yo Rab, eshigingda ul gadomen-
Kim, boshtin-ayoqqacha xatomen.

Mushkum bu xatoda bo‘ldi kofur,
Kofur ila mushkum o‘ldi benur.

Isyon o‘tidin kuyub jahonim,
Dudi bila tiyra xonumonim.

Rasvoliq o‘tin jahong‘a sochib,
Uchqunlarin osmong‘a sochib.

Ham ushbu o‘tum toshib jahondin,
Ham uchquni oshib osmondin,

Atfoli junun jafo qilib fosh,
Har lahza boshimg‘a yog‘durub tosh.

Majnunlug‘um ichra gar ko‘rub dev,
Mendin qocharig‘a aylabon rev.

Devonalig‘im, nechukki, majnun,
Sargashtalig‘im, nechukki, gardun.

Zanjiri junun erur nishoni,
Anduh sipehri Kahkashoni.

Jo‘lida sochim – bu charx aro tun,
Yo‘qkim, boshima kelib qaro kun.

Bu nav qaro kun ichra qorib,
Ya’niki, qaro kunum oqorib.

Zunnor belimg‘a nafs etib chust,
Kufr ichra belimni bog‘labon rust.

Har lahza ishimni charxi bebok
Ul rishta bila etib girehnok.

Yaxshiliq itib bu notavondin,
Holimni desam yomonroq ondin.

Holim sharhiki, bas, uzundur,
Bu turfaki, dam-badam fuzundur.

Bu ranjki, keldi jovidoni,
O‘zdin bo‘lmas ketarmak oni.

Men qilsam edi aning davosi,
Bo‘lmaq nega erdi mubtalosi.

Har necha emas manga bu oson,
Lekin sanga bordur asru oson.

Boq dard-u malolatimg‘a, yo Rab,
Rahm ayla bu holatimg‘a, yo Rab.

Lutf ayla o‘zung sori yo‘lum chek,
Chekting chu yo‘lum, tutub qo‘lum chek.

Tortib bu mag‘okdin chiqorg‘il,
G‘arqobi halokdin chiqorg‘il.

Chun ollima qo‘ymading yovuz yo‘l,
Sayr ichra nasibim ayla tuz yo‘l.

Shukrungg‘a tilimni qoyil ayla,
Sajdangg‘a boshimni moyil ayla.

O‘ksutma hidoyatingni mendin,
Kam qilma inoyatingni mendin.

Bo‘l rohnamun mango ul ishga-
Kim, bo‘lsa sanga rizo ul ishga.

Ul ish manga qil murod-u maqsud-
Kim, bo‘lsang o‘zung ul ishta xushnud.

Bir ishki, emas rizosi sendin,
Ermas bu qul iltimosi sendin.

Har qissada shukr sol tilimga,
Har g‘ussada sabr ber elimg‘a.

Har zuhdki, ujb erur anga zam,
Ko‘nglum haramig‘a qilma mahram.

Har jurmki, uzr erur anga yor,
Ul jurmni aylagil manga yor.

Gar uchmog‘-u gar tomug‘ durur yo‘l,
Sen lutf ila anda yo‘ldoshim bo‘l.

Raddig‘a qabulni mute’ et,
Jurmumg‘a rasulni shafe’ et.

III

Ul risolat sipehrining quyoshi na’tidakim, mag‘rib soridin tulu’ qilib, Makka avjida kamol tutti, balki anvori ashroqi bila mashriqdin mag‘ribqacha “Ka-sh-shamsi nisfun nahor”[1] yorutti va kufr shomida islom sham’i yoqti va shomg‘a yaqin uyoqti[2].

Ey jilvagahing sipehri axzar,
Raxshing izi rashki mehri anvar.

Ey mash’ali mehr sham’i johing,
Bal mehr-u sipehr – xoki rohing.

Bukim, sanga charx xoki rahdur,
Me’roj tuni munga guvahdur.

Ey rif’ating ollida falak past,
Ummatlaring anbiyog‘a hamdast.

Olamda risolating navidi,
Odamg‘a shafoating umidi.

Ey “kuntu nabiyan”[3] aylab og‘oz,
Chun xilqating ichra aytibon roz.

Odam shajaringg‘a meva monand,
Farzandingga olam ahli farzand.

Ey nurung o‘lub jahong‘a sobiq,
Balkim, to‘quz osmong‘a sobiq.

Zoting bila muftaxir jahon ham,
Sayring bila to‘quz osmon ham.

Ey rutbada xayling – ofarinish,
Yo‘q-yo‘qki, tufayling ofarinish.

Har necha jahon bo‘lub tufayling,
Bo‘lmay bu tufayl sori mayling.

Ey zotinga nomayi futuvvat,
Arqosida xotami nubuvvat.

Ul muhr xututi vasfi zoting,
Xotam “alif”i-yu “te”si oting.

Ey ilm sanga laduni anjom,
Maktab sori ranja aylamay gom.

Ollingga vale kelib muaddab,
Ilm ahli, nechukki, tifli maktab.

Ey sunmay ilikni xoma sori,
Ul nav’ki, xoma noma sori.

Nomang, vale andakim, bo‘lub fosh,
Xattidin ulus ko‘tarmayin bosh.

Ey po‘yada markabingg‘a ta’jil,
Ollingda haqir payki Jibril[4].

Hudhudg‘a ne poya, qadr-u somon,
Sayr aylasa yel uza Sulaymon[5].

Ey zumrai anbiyo shafei,
Olam eli buyrug‘ung mutei.

Buyrug‘laring elga qarz yanglig‘,
Sunnatlaring elga farz yanglig‘.

Qadring yeti charxdin muallo,
Zoting xud iki jahondin a’lo.

Sen bo‘lmasang anbiyoda kimdur-
Kim, nutqi javome’ ul-kalimdur.

Vah-vah, ne kalomi mu’jizoyin,
Yo‘q o‘yla rusulg‘a hargiz oyin.

Ahkomi bila jahon nizomi,
Nazmi iki olam intizomi.

Har bir alifi qilib sinon tez,
Kufr ahlig‘a ul sinoni xunrez.

Miqroz ila “lom-alif”lari rust,
Ta’n ahli tilin tutub, kesib chust.

Bu nomag‘a nusxa zoti poki,
Tengri so‘zidin ulusqa hokiy.

Sun' ilgi chekib bu nomag'a tam,
Orqosig'a bosti naqshi xotam.

Xotam dema oni, mushki tar de,
Yo'q mushkki, munxasif qamar de.

Ruxsoriki, keldi qursi xurshed,
Ul mehr qamarvash o'ldi jovid.

Chun jismi jahoni bo'ldi hoyil,
Nuri bu qamarning o'ldi zoyil.

Ul mehrg'a garchi munharifdur,
Chun hoyili bor munxasifdur.

Hoyil dema, bu jahoni sug'ro,
Sug'ro emas, ul xujasta tug'ro-

Kim, zoti qoshida yetti toram,
Toram dema, balki Arshi a'zam.

Me'roj tuni taboh bo'ldi,
Borcha anga xoki roh bo'ldi,

Bas, olame o'ldi zoti kubro,
Yuz onchaki, ushbu jirmi g'abro.

G'abro neki, ming sipehr chog'liq,
Nur ichra tuman bu mehr chog'liq.

Yer uzra kelib jahondin ortuq,
Charx uzra ekanda ondin ortuq.

Bo'lmasa jahondin ortug' ul pok,
Bas, bo'lmas edi matofi aflok.

20 114
Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston MK
A 58

Bo‘lmasa sipehrdin kiromi,
Arsh o‘lmas edi aning maqomi.

Gar mehrdin o‘lmasa munavvar,
Qilmas edi lomakonni anvar.

Gardundin o‘tar zamon buroqi,
Oy-kun bo‘lubon iki junoqi.

Islom tanig‘a ul kelib ruh,
As’hobi anga fido qilib ruh.

O‘n yori javohiri nafois,
Zohir qilib ul badang‘a o‘n his.

Ul to‘rtki, ding‘a keldi nosir,
Bu ruh tani uchun anosir.

Ul ruh-u xavos-u to‘rt unsure-
Kim, aqlg‘a soldilar tahayyur.

Bu jismg‘a mustadom bo‘lsun,
Suhbatlari bardavom bo‘lsun.

Oliki, riyozig‘a shajardur,
Avlodi shajar uza samardur.

Borisig‘a har guzin avqot,
Yuz ming salavot ila tahiyot.

IV

Ul shomi visoliningkim, "Va-l-layli izo yag‘sho"[1] oyati bo‘la olg‘ay aning sha’nida savodi yozilmog‘i va muningdek shomda ul musofiri samoviyning shabgir baland

qilmog'i va subhi visol eshiklari yuziga ochilmog'i va mehri murod topilmog'i[2].

G'am shomida zor-u ranjparvard,
Kezmak necha oy xayoli shabgard.

Necha g'am aro tuzub tarona,
Bu shomdin aytmoq fasona-

Kim, tuli hayotim etti nobud,
Savdosida hech topmadim sud.

Vah, ne kechakim, qaro baloye,
Kun ganjini ko'mgan ajdahoye.

Dilbar sochidek harosi jonda,
Men munda, nechukki, ko'nglum onda.

Bu shom fasonasi uzundur,
Haddin qaro qayg'usi fuzundur.

Fikrida tutar ko'ngulni qayg'u,
Savdosida ko'z bo'lur qarong'u.

Jon mehnati keldi zikri oning,
Umr ofati bo'ldi fikri oning.

Bu shomg'a istasang nihoyat,
Ul shomdin aylagil hikoyat-

Kim, rangi edi chu mushki nobi,
Har yulduzi rashki oftobi.

Shabnamlarikim, sochib zaroyir,
Olamni tutub nujumi soyir.

Tun gardin shabnami qilib gum,
G‘am tiyralig‘in dog‘i ul anjum.

Gardun chiqorib kecha palosin,
Davrong‘a yopib sahar libosin.

Tun dahr yuzidin oritib meng,
Kunduzni o‘ziga tutmayin teng.

Kunduz uyolib bu holatidin-
Kim, yerga kirib xijolatidin.

Bu ishga kulub sipehri xazro-
Kim, tishlarin aylab oshkoro.

Atfoli nujum aylabon mayl
O‘qurg‘a-vu o‘qumog‘i “Va-l-layl”.

Chun la’b-u nishot alarg‘a ortib,
Ustodi qazo falaqqa tortib.

Yo‘qkim, bori ranj-u g‘ussadin shod,
Ya’niki, falak g‘amidin ozod.

Qolmay falak ichra zulmat oti,
Borin supurub, malak qanoti.

Degilki, havoda yuz tuman hur,
Orazlaridin sochar edi nur.

Oraz xayidin sochib nihoniy,
Shudrun kibi obi zindagoniy.

Isoni taajjub aylabon lol,
Har yon falak uzra muztaribhol.

Bot-botki, olib dami ravonbaxsh,
Olamg‘a esib nasimi jonbaxsh.

Oqshom demagilki, subhi ummed,
Ne subhi umed, subhi jovid.

Mundoq kecha sham’i jilvasozi.
Ne sham’ki, mash’ali Tirozi.

Mash’al demagil, mahi munavvar,
Ne mash’al-u mahki, mehri anvar.

Tun o‘ylaki, mehri osmoni,
Olam elidin bo‘lib nihoni.

Bir xobgahi nihoni ichra,
Manzilgahi ummahoni ichra.

Bor ishdin etib o‘zini ma’zul,
Mahbub xayoli birla mashg‘ul,

Kim yetti baridi nurbaxshi,
Hamroh anga mahz nur raxshi.

Paykiga vujud to adam gom,
Ul paykka raxsh dog‘i hamgom.

Har yergaki, ko‘zlari tushub tez,
Ul yergacha ikkisiga bir xez.

Chun yetti ravandayi samoviy,
Ul mehi samog‘a bo‘ldi roviy-

Kim, vaslingga Haqdur orzumand,
Bo‘l sen dog‘i vaslidin barumand.

Bu raxshki, barqi garmravdur,
Yo‘q-yo‘qki, buroqi barqdavdur.

Xilqat aro nurdin sirishti,
Ne nur, farishtayi bihishti.

Yo‘q jismig‘a kimsa hamlidin dard,
Ne kimsaki, anda qo‘nmayin gard,

Loyiq sanga keldi bu janibat,
Otlanki, mahal erur g‘animat.

Bu so‘zni eshitgach ul yagona,
Go‘yoki tilar edi bahona,

Markab uza chiqti sekribon bot,
Yo‘ldosh ila yo‘lg‘a tushti, hayhot!

Ko‘kta tilaganni yerda topti,
Chun yer uza mindi, ko‘kka chopti.

Ul po‘yada markabi sabukpay,
Olam-olam qilur edi tay.

Gardunki, o‘zin yuziga ochti,
Anjum diramin boshig‘a sochti.

Chun ko‘rdi furug‘i tal’atini,
Oy chekmadi mehr minnatini.

Munshi ko‘rubon xati savodin,
Kayvon yuziga sochib midodin.

Zuhra yo‘lida tuzub navo zer,
Mutriblardek bo‘lub miyongir.

Isog‘a yetib chu kimiyosi,
Zarbaft bo‘lub quyosh libosi.

Bahrom ko‘rub biyik janobin,
Tashlab qilichin, o‘pub rikobin.

Birjisqa chun yetib rikobi,
Ish anga saodat iktisobi.

Soyislig‘ig‘a Zuhal urub fol,
Gazdasta bila qo‘lida g‘arbol.

Savr-u Hamal aylabon fig‘onlar,
Qurboni aning qilurg‘a jonlar.

Javzo ko‘zi to‘rt o‘lub boqardin,
Topib Saraton ham ul nazardin.

Ham Sher tutub yo‘lida go‘sha,
Ham Xo‘sha bo‘lub otig‘a to‘sha,

Jonsanj o‘lub izidin Tarozu,
Aqrab topib anda no‘shdoru.

Yoy go‘sha tutub qoshi xamidin,
Qo‘chqor o‘lub O‘chku maqdamidin.

Qubqa suyi obi zindagoni,
Ul suv bila toza Hut joni.

Bo‘lmay chu bu burjlarda sobit,
Durlar yo‘lig‘a sochib savobit.

Qolib chu o‘tib falaknavardi,
Gard ichra sipehri lojuvardiy.

Chun yuqori sekretib samandin,
Arsh egniga berkitib kamandin.

Kursi dog‘i Lavh ila Qalam ham,
Raxshi izidin bo‘lub mukarram.

Rafraf yo‘lig‘a qadamni solib,
Bir-bir oti birla payki qolib.

Borlig‘ to‘nin egnidin solib chust,
Yo‘qlug‘ kamarini bog‘labon rust.

Davrida jihotdin asar yo‘q,
Unsurdin jismig‘a xabar yo‘q.

Ne davrida oltidin maosir,
Ne jismida to‘rtdin anosir.

Tan birla borib, vale borur chog‘,
Ne o‘t-u ne suv, ne yel, ne tufrog‘-

Kim, tan anga jondin ortug‘ erdi,
Jon ikki jahondin ortug‘ erdi.

Solib o‘zin anda bexudona,
O‘zdin chiqibon bo‘lub ravona.

Qolib o‘zi, ul o‘zida qolmay,
Solib o‘zin-u o‘zini solmay.

Bir yerga yetibki, aql yetmas,
Ul vajh ila aql bovar etmas.

Poya topib anda qoba qavsayn,
Diydor o‘lub anga qurrat ul-ayn.

Tun anbari zulfini qarortib,
"Mozog'"[3] ko'ziga surma tortib.

Ochqoch basarin bu to'tiyodin,
Ravshan qilibon "va mo tag'o"din[4].

Chun ko'zi bu surmadin ochildi,
Maqsud tilab nazora qildi.

Fahm ettiki, jilva qilmish oyin,
Shodurvoni jalol-u tamkin.

Haq ochib o'z ollidin niqobin,
Yetmish ming pardayi hijobin.

Chekti ani ul haramg'a onsiz,
Ne jism-u ne jon, ne jism-u jonsiz.

Ko'rgach o'zin ul haramda mahram,
Mahv o'ldi bu mahram, ul haram ham.

Chun yor qoshinda bor topti,
O'zni tilagoncha yor topti.

O'zni chu ko'rub aroda nobud,
Izhor etib o'zga arzi maqsud.

Haqdin neki fahm etib xitobin,
Ham Haq so'zidin topib javobin.

Haq har ne ato qilib nasibi,
Ham Haq bilib-u bilib habibi.

Har neki alardin o'zga ag'yor,
Balkim, yo'q alardin o'zga dayyor.

Bal keldi alar demak xatodin,
Isnayniyat chiqib arodin.

Aylab o‘z-o‘ziga arzi maqsud,
Maqsudi bo‘lub o‘zida mavjud.

Ummat yozug‘in tilab tamomi,
Topib tilaganni ulcha komi.

Har neki, tilab xujasta soyil,
Bo‘lmay nima topmog‘ig‘a hoyil.

Har necha talab qilib fuzunroq,
Istardin ani topib burunroq.

Topqoch neki Haqdin istab oni,
Avd ayladi mohi osmoniy.

Yuz qo‘ydi bu korgahg‘a purjo‘sh,
Behush va lek yuz jahon hush.

Oy bordi-yu keldi mehri raxshon,
Dur bordi-yu keldi bahri Ummon.

Borurda edi chu dastayi vard,
Chun keldi bahori nozparvard.

Haq lutfidin ilgida baroti,
Mazmuni bori ulus najoti.

Xat jaybida afv xomasidin,
El maxlasi naqshi nomasidin.

Borib keluri bo‘lib iki gom,
Qay bir burun erkanida ibhom.

Ey g‘amzada qalblar davosi,
Motamzada jismlar shifosi.

Har ishki, gireh – kalidi sendin,
Har kimdaki bim – umidi sendin.

Men xastaki, xor-u zor erurmen,
Lutfungdin umidvor erurmen.

Elga nazaring chu chorarasdur,
Men xastag‘a bir ko‘z uchi basdur,

Bahri karaming chu bo‘ldi ma’lum,
Bir qatradin etma bizni mahrum.

V

So‘z gavhari vasfidakim, gavhar so‘zi aning qoshida gavhar ollida bir qatra suvdek bo‘la olg‘ay, bir necha so‘z surmoq va Ganja hakimi ta’rifidakim, ganji Qorun[1] aning “Panj ganj”i[2] qoshida ganj ollida vayronadek ko‘rungay – ganjfishonliq qilmoq va Hind sohirinikim[3], Kashmir jodulari aning ollida ip esha olmaslar – aning gavhari silkiga tortmoq va o‘z nazmining churuk rishtasin va uzuk torin ham alarg‘a ulamoq[4].

Ul damki, yo‘q erdi bud-u nobud,
Ma’dum edi emdi har ne mavjud.

Haq kavng‘a solmamish edi pay,
“Konallohu lam yakun ma’ahu shay”[5].

Avvalg‘i nasimi ofarinish-
Kim, qildi vujud sori junbish.

Insof ila har kishi solur ko‘z,
Anglar so‘z edi-yu munda yo‘q so‘z-

Kim, bo‘ldi chu amri “kun” huvaydo,
Bo‘ldi “fayakun” g‘ulusi paydo.

Bas avvalg‘i sado so‘z o‘lg‘ay,
Har savtqa ibtido so‘z o‘lg‘ay.

Ey so‘z, ne balo, ajab guharsen!
Gavhar neki, bahri mavjvarsen!

Ul bahrki, muncha naqshi dilkash,
Bir mavj ila ayladi munaqqash.

Yer qa’ri-yu toki charx avji,
Majmui aning burunqi mavji.

Derlar seni dur, savob emas bu,
Sen javhari ruh-u, dur – quruq su[6],

Demakki, sanga shabih erur dur
Ul nav’ dururki, durg‘a mo‘ldur[7].

Aytib sovumas tarona sensen,
Olib qurumas xizona sensen.

Olam eli zarra yig‘sa jovid,
Nurini kam aylagaymu xurshid?

Igna uchi birla jazb etib nam-
Kim, bahr suyini aylagay kam.

Ham qadr-u atoda bahri aflok,
Ham lutfu bahoda gavhari pok.

Xoma bila, ulki, seni sizdi,
Gavharni qaro ipakka tizdi.

Til zikring ila chu topti tarjih,
Tishlar anga bo'ldi inju tasbih[8].

Bu til bila kimsa topmadi kom,
Juz ganjfishoni Ganjaorom[9].

Ayvoni sharaf nuhufta ganji,
Mizoni lutf xizonasanji[10].

Ma'ni diramig'a sikkapardoz,
Uzlat haramida mahrami roz.

Sarrishtai diqqati girehnok,
Har bir girehida yuz duri pok.

Ganjinai fikri gavharoyin,
Andin bori xalq o'lub guharchin.

Ko'ngli sadafi bo'lub guharrez.
Kilki qamishi dog'i shakarrez.

Vahdat guharin eliga olg'on,
Uzlat kamarin beliga cholg'on.

Ma'ni haramin musaxxar etgan,
So'z bikrini g'arqi zevar etgan[11].

Har Turi fazilat uzra Muso,
Ham Qofi qanoat uzra Anqo[12].

Muso emas ersa, kilki nag'u –
Javfi aro muzmar etti jodu?

Anqo gar emas nedin hamesha,
So‘z Qofida uzlat etti pesha?

Nazm ahlining afsah ul-kalomi,
So‘z durrig‘a muntazim Nizomiy[13].

Ul Ganjada ganjdek nihoni
Besh ganj qo‘yub, vale nishoni[14].

Har ganjida sayrafiyi idrok,
Hadsiz topibon javohiri pok.

Har javhari mulklar xiroji,
Shahlarning zeb-u farri toji.

Ma’ni duridin bu ganj qismi,
Alfoz-u iborati tilismi[15].

Ulkim, qo‘li ochsa ohanin diz,
Lekin bu tilism ocharg‘a ojiz.

Ko‘rgach bu tilism sohiri Hind,
Jodulig‘ ishida mohiri Hind.

Kilki uchi safhag‘a fusunrez,
Ul safha jahong‘a fitnaangez.

Har safhada nazmi gohi tahrir,
Fitna aro bir savodi Kashmir[16].

Har nuqta bu safhada baloye,
Ruxsor uza xoli dilraboye.

Ham xatlari shohrohi Bobul,
Ham kilkida javf chohi Bobul[17].

Ham sohiri xomasi fusunsoz,
Ham jodui tab'i sehrpardoz.

Aylab bu tilism oni ojiz,
Sohir netgay chu ko'rdi mo'jiz.

Qochmay vale, o'ylakim, zabune,
Ul ham qilib o'truda fusune.

Besh qal'aki, barcha erdi xoro,
Besh maxfiy ganji oshkoro[18].

O'trularida tugatdi besh qasr-
Kim, har biri keldi ziynati asr.

Ham toshida naqshi dilkash etti,
Ham ichlarini munaqqash etti.

E'joz ila sehr aro tafovut,
Bor onchaki, Ka'ba ollida but[19].

Lekin but o'lub emas jamodi,
Yo'ng'on ani butgar ustodi.

Bor ul but gulruxi parivash,
Savdosida yuz xirad mushavvash.

Bori boshig'a tushub havoye,
Ul o'truda urdi dast-u poye.

Tenglik anga xud gumon emastur,
Chun yaxshi durur, yomon emastur.

Chun yetti bu bazmgahg'a Ashraf,
Bo'ldi o'zi xo'rdig'a musharraf[20].

Menkim, bu taraf guzor qildim,
Bu ranjni ixtiyor qildim.

Avvalda ko‘p ayladim taammul,
To ko‘ngluma kirdi bu taxayyul-

Kim, Ganjada ganjlar yoshurg‘on,
Har ganjigakim, yasadi qo‘rg‘on.

Yo hindnajodi hinduviyzod-
Kim, qasrlarini qildi obod.

Ham qal’a uchun kerak durur shahr,
Ham qasrg‘a bog‘-u sabzadin bahr.

Bo‘lsa menga fursat ul qadar chog‘-
Kim, shahr ila tarh solibon bog‘.

Bog‘ini riyozi xurram etsam,
Shahrini savodi a’zam etsam.

Bu nav’ edi doimo xayolim,
To bo‘ldi qazodin ul majolim-

Kim, ikki burung‘ig‘a qo‘yub gom,
Kom o‘ldi manga ravo saranjom.

Emdiki, uchunchi nomayi dard[21],
Qildi meni aql-u hushdin fard.

Ummedki, bu yana iki ham-
Kim, ermas iki burung‘idin kam.

Ya’ni ham oningki, “Panj ganj”i,
Ham so‘ngra munungki, ganji panji.

Aytilg‘on ikisi betaammul,
Ul nav’ki, ayladim taxayyul.

Bo‘lg‘ay bu murodg‘a kushodim,
Yetgay bu kushoddin murodim.

Bu komg‘a yetmayin ne tadbir,
Chun multafit o‘ldi holima pir.

VI

Valoyat sipehrining axtari jahontobi va hidoyat ma’daning gavhari serobi va nazm avjining mehri falakehtishomi va maoniy jomining rindi sofiyoshomi, ya’ni Mavlono Nuriddin Abdurahmon Jomiy[1] madhiga nukta surmak va aning durdli jomin sumurmak[2].

So‘z gulshanining shukufta vardi,
Ilm oyatining varaqnavardi.

Qadrig‘a ul avj uzra poya-
Kim, mehr tutub tahida soya.

Na’laynidin aylabon malak hal,
Surtarga sudo‘ bo‘lsa sandal[3].

Xamdinki, asosi boshida tob,
Chekmakka iki jahonni qullob[4].

No‘gida sinoni aylagach kin,
Ko‘r aylab dev ila shayotin[5].

Yuz donaki, subhasi aro qayd,
Yuz fayz qushini aylabon sayd.

Ul torki, donalar beliga,
Bil, habli matin jahon eliga[6].

Ibriqi vuzusi bahri gardun,
Har qatraki, tomsa durri maknun[7].

Lo'la anga fayzi novdoni,
Andin oqib obi zindagoni.

Ka'bi[8] yeri davrayi irodat,
Davr ahlig'a halqayi saodat.

Sajjoda masjidida mehrob,
Ka'ba uyiga kirarga abvob.

Mehrobi uza yozilg'on Alloh,
Evning iyasi eshikda ogoh.

Boshig'a chu bilsa sajda chog'in,
"He" davrasidin sunub ayog'in.

Bal sajdada jismi chun topib xam,
Aylab ani "he" xamig'a mudg'am.

Har sajdada Haqqa bo'yla vosil,
Besajda dog'i bu vasl hosil.

Cholib falak uzra ko'si rif'at,
Aytib malak ichra darsi himmat.

Sochib laqabi jahon aro nur,
Zoti bila nurun alo-nur[9].

Abdurrahmondin oti nomiy,
Lekin topib ishtihor Jomiy.

Ey ilm yuziga mash'alafro'z,
Fayz oyinasig'a sayqalando'z.

Ey borcha suluk ichinda murtoz,
Foyiz sanga fayzi birla fayyoz.

Chun ilming bahrig'a tushub mavj,
Bu yetti hubob uza tutub avj.

Xomangdin durri ma'ni oqib,
So'z silkiga nutqung oni toqib.

Kilking javfida sayr etib ul,
Ul nov-u bu dur xiromig'a yo'l.

Ul yo'l aro kordoni ma'ni,
Balkim, kelibon jahoni ma'ni.

Chun xavfdin aylabon qadam fard,
Olam yuzida bo'lub jahongard.

Ya'ni tutubon jahon yuzini,
Bal arsayi osmon yuzini.

Ham nazming nasrdek kelib xub,
Ham nasring nazmdek diloshub.

Bu nazming ila nasring sipohi,
Olam yuzini tutub kamohi.

Gar "Xamsa"ni etmay murattab,
Kilking yana so'z qilib murakkab.

Ul damki, xaroshi xoma qilding,
O'zga nima naqshi noma qilding.

Lekin kishi bo‘lsa fikratandesh,
Ul ganjga ham erur adad besh.

Chun “Silsila” aylading huvaydo,
Yuz aqlni qilding anda shaydo.

Chun “Tuhfa”ni el balosi etting,
Jon tuhfalarin fidosi etting.

Chun “Subha”ni kilking etti tavzih,
Solding malak ichra zikri tasbih.

Chun qilding “Ahsan ul-qasas” fan,
Ul qissa ulusqa bo‘ldi ahsan.

“Devon”niki, aylading muhayyo,
Sochti boshig‘a guhar Surayyo.

Ko‘rguzdung tortmay g‘am-u ranj,
Besh ganjlariga bo‘yla besh ganj.

Nazming sifati bayondin ortuq,
Nasringniki, dermen, ondin ortuq.

To nukta ulusqa kom bo‘lg‘ay,
Fayzi aning elga om bo‘lg‘ay.

Fayzing bila bahramand olam,
Olam eli poymoli, men ham.

VII

Ul shoh madhidakim, Chin va Hind shohlari aning arsayi bazmida shatranj shohlaridek harakatdin muarro va falaki farzinrav pili hamul pillardek ostonig‘a rux qo‘yub sarkashlikdin mubarrodurur va Ko‘kbo‘z ashhabi sipehri tezdav va Bahrom qamar nochaxi bila oti ollida bir piyodarav[1].

Chun yovarim o‘ldi baxti farrux,
Qo‘ydi manga fath ila zafar rux.

Himmat tutubon Junaydi soniy[2].
Ochtim bu xazoyini maoniy.

Bor erdi chu kirdim anda bebok,
Olam-olam javohiri pok,

Oldim bu javohiri samindin,
Sofi dur-u la’li otashindin.

Jayb-u etagimni ayladim kon,
Yo‘q erdi ko‘tarmak o‘zga imkon.

Andin chiqtim chu shod-u xurram,
Qo‘ynum to‘la, jayb ham, etak ham.

Tegramda hujum etib xaloyiq,
Men kimsa tilab ul ishga loyiq

Kim, arsayi bazmi ichra yetsam,
Borini aning nisori etsam.

Chun yor edi baxti jovidona,
Tortar edi meni bexudona.

To eltti bir xujasta manzil,
Har nav’ murod anda hosil,

Jannat kibi anda bazmgohe,
Taxt ustida bir xujasta shohe.

Baxt ayttikim, etak, qo‘yun och,
Shah boshi uza ovuch-ovuch soch.

Chun sochmog‘ini shior qildim,
Bor-u yo‘qini nisor qildim,

Dedimki, bilay ne shoh erur bu,
Ne arsayi borgoh erur bu.

Bor edi shahi sipehrtamkin,
Ya'niki, muizzi davlat-u din.

Din nusratining alamtirozi,
Ya'ni Sulton Husayni G'ozi[3].

Sha'nida nuzul oyati shar',
Adli bo'lubon himoyati shar'[4].

Din ilmining andin intizomi,
Islomg'a pok zoti homiy.

Islom "alif"i anga livo bil,
"Sin" kungiri qasri Arshso bil.

Ham "lom"i livog'a zulfi parcham,
Bu qasr sutuni so'ng "alif" ham.

"Mim"in qilibon aso naziri,
Musodek ul anga dastgiri.

Muso kibi Haq ishiga ma'mur,
Taxti islom anga kelib Tur.

Bu Tur uza topqali tasalli,
Haq har nafas aylabon tajalli.

Yo'qsa anga taxtdin tanaffur,
Haq dargahi tufrog'i tahassur.

Olam uza shoh zoti poki,
Darvesh zamiri dardnoki.

Pili falak ollidin gurezon,
Pashsha pari sinsa ashkrezon.

Sher uzra qilichi barq choqib,
Mo‘r o‘lsa shikasta yoshi oqib.

Tig‘i gar etib fano jahonni,
Xulqi tuzotib yano jahonni.

Shahlar aro o‘rni toqi aflok,
Darveshlar ollida ovuch xok.

Kibr ahli qoshida Arshi a’zam,
Faqr ahli qoshida zarradin kam.

Darvesh desam ulus uza shoh,
Shohi darvesh, borakalloh![5]

Desamki, erur saxo anga fan,
Demaklik erur quyoshni ravshan.

Desam, bordur janobi a’lo,
Gardunni demak durur muallo.

Umr etmay ilm kasbig‘a sarf,
Boqmay varaq uzra harf-barharf.

Lekin zehni borin qilib hal,
Ul yanglig‘kim, nabiyi mursal[6].

Har ilmda, bir kishiki, a’lam,
Yetgach ocha olmay ollida dam.

Olam aro ilm ilmi dindur,
Din ilmi fiqh erur yaqindur[7].

Bazmi aro har faqihi mohir,
Bir mas’ala qildi ersa zohir,

Yuz shubha qilib bori muvajjah-
Kim, noqil emas biridin ogah.

Chun mas'alago‘ qolib muattal,
O‘z shubhalarin o‘zi qilib hal.

Ul deb ne o‘qub varaqda mutlaq,
Bu deb neki ko‘ngliga solib Haq.

Chun mas'ala bobida sochib dur,
Yuz mujtahid aylabon tahayyur.

Har yerdaki, ul debon masoyil,
Andin fuqaho yozib rasoyil.

Ko‘ngliga masoyil oncha ma'lum-
Kim, bo‘lmay yuz kutubda marqum:

Ko‘shish ilan oni yod tutmay,
Bir qatlaki, eshitib unutmay.

Har nuktaki, ko‘rguzub vuzuhin,
Shod aylab Abu Hanifa ruhin[8].

Yo‘q fiqh faqat hadis-u tafsir,
Har qaydaki, daxl qildi bir-bir.

Har yonki, tavajjuh etti – yetti,
Andoqki, kerak takallum etti.

Ko‘ngliniki, shar bo‘lub munazzah,
Xayroti bila ulus muraffah.

Har sori bino qilib masojid,
Odamcha maloyik anda sojid.

Yolg‘uz demayinki, qiblagahlar,
Faqr ahliga turfa xonaqahlar.

Har sharbat ayog‘i jomi Jamshed,
Har sadqa fatiri qursi xurshed[9].

Marg‘ub g‘izo yeb anda muhtoj,
Matbu' libos olib yalang‘och.

Har yo‘ldaki, ofat ehtimoli,
Gardung‘a chekib raboti oliy.

Bori safar ahlig‘a panoh ul,
Horib yetganga takyagoh ul.

Chun topti musofir anda orom,
Och o‘lsa – taom-u kirsa – hammom.

Mulkida qayonki, el xiromi,
Sahroyi adam tutub haromi.

Chun jazm qilib bu ishni tojir,
Sud istayu mulkidin muhojir.

Manzil qilur o‘lsa tog‘ uza bog‘,
Tamg‘odin ko‘ngli ichra yo‘q dog‘.

Dilxoh ila topmasa xaridor,
Kolosini qilmayin padidor.

Gar yig‘sa, berib qumoshig‘a pech,
Taklif eta olmayin kishi hech.

Shahr ichida xojavor javlon
Aylab ne salomi-yu ne havlon.

Tojir bu sifat yana raoyo,
Bir nav’ farog‘ etib muhayyo-

Kim, har biri o‘z ishig‘a mashg‘ul,
Hosil qilib ulcha komi mahsul.

Dona tutubon jahon yuzin chum,
Ul nav’ki ko‘k yuzini anjum.

Bug‘doy bila arpa bersa soyil,
Bo‘lmay agar inju bo‘lsa moyil.

Donag‘a gadoy mayl qilmay,
Bal shahrda bir gado topilmay.

Bu amn ila adli benihoyat
Shahr ahlig‘a boisi kifoyat.

Har sudki, bexasorat aylab,
Bo‘ston-u saro imorat aylab,

Ul elgaki, dasht soridur mayl,
Turk-u arab-u buluj-u har xayl,

Lola kibi zohir aylabon ko‘rk,
Egri qo‘yubon qizil teri bo‘rk,

Qo‘yg‘a bo‘ridin bo‘lub amonliq,
Qo‘ychi iti birla posbonliq.

Desam bu degancha o‘n-u gar yuz,
Mingdin bir emas bu so‘zni, bil, tuz.

Bu turfaki, ul jahonxudovand,
Yuz munchag‘a ham emas rizomand.

Yo Rabki, ber ulcha komi oning
Olam yuzin et tamomi oning.

Bo‘lmoqqa jahonda adl-u dodi,
Mundin dog‘i ko‘p esa murodi,

Aydoqki tilar muyassar ayla,
Olamni anga musaxxar ayla.

VIII

Xilofat taxtig'a zeb ila zayn va saltanat shaxsig'a qurrat ul-ayn, ya'ni Sulton Badiuzzamon Bahodur ibn Abulg'ozi Sulton Husayn Bahodurxon "xalladallohu taolo mulkahumo va sultonahumo va avzaha alal-olamina birrahumo va ehsonahumo" hazratida niyoz arzi[1].

Kim bahri sifotin etsa idrok,
Tong yo'q sifat aylasa durin pok.

Gardun so'zin aylagan shumora,
Xurshed hadisidin ne chora.

Gulshan sifatin degonga bir-bir,
Gul vasfin etarga qayda tadbir.

Aytildi chu shoh uchun sanoye,
Shahzodag'a ham kerak duoye[2].

Shahzoda nekim, shah-u shahanshoh,
Shahlar eshigida xoki dargoh.

Ham kishvari adl toza bog'i,
Ham saltanat avjining charog'i,

Shahlig' chamanida sarvi gulchehr,
Adl-u ehson sipehrida mehr.

Olam eli ichra qahramon ul,
Ya'niki, Badiuzzamon ul[3].

Gar oti o'lub Zamon Badei.
Zoti kelib ins-u jon badei.

Alloh, Alloh! Ne ot erur bu,
Ne pok-u xujastazot erur bu.

Andoqki, malakvash o‘ldi zoti,
Keldi malakiy bori sifoti.

Judi ilayida to‘qquz aflok,
Aflok qoshida to‘dayi xok.

Royi janbida mehri anvar,
Mehr ollida zarradek muhaqqar.

Adli yorutub jahonni jovid,
Ul adl boshida “ayn”i xurshed.

Chun qahri sharori ko‘kka roje’,
Ul “shin” uza nuqta Nasri Voqe’

Yakroni bo‘lib chu charxpaymoy,
“Nun” o‘rnig‘a na’l anga yangi oy.

Kin vaqtiki, ochilib kamandi,
“Dol” o‘rnig‘a fath zulfi bandi.

O‘qi yungi shahpari malakdin,
Otqoch o‘tubon to‘quz falakdin.

Chavgong‘a[4] chu qilsa azmi maydon,
Maydon aro qilsa mayli chavgon.

Chavgoni boshi hiloli tobi,
Dasta anga hay’ati shihobi.

Maydon falak etgali tak-u po‘y,
Anjum talashib bo‘lur uchun go‘y.

Har qaysig‘a teksa savlajone[5],
Qadr o‘tkaribon falakdin oni.

Razm ichra qitoli umrfarso,
Bazm ichra jamoli olamoro.

Bazmida sipehr xoni minu,
Ul xonda nujum qursi limu.

Xunyogar-u nag‘masoz Nohid,
Lekin daf aning qo‘lida xurshed.

Taxtiga kelib sipehr soya,
Chiqmog‘ig‘a ne mehr poya.

Har poyaki, keldi mehr yo badr,
Topib bori poybo‘sidin qadr.

Bu poya bila yasalg‘ach ul taxt,
Taxt ustida xusravi javonbaxt.

Egri qo‘yubon boshi uza toj,
Yuz tojvar itlarig‘a muhtoj.

Qo‘llarni qovushturub yiroqdin,
Farmonig‘a muntazir qiroqdin.

O‘ltur, deb angaki, bo‘lsa farmon-
Kim, yo‘q anga mundin o‘zga armon.

Bosh yerga qo‘yub sano demakdin,
Turfa buki, bosh o‘tub falakdin,

Bazmida bu nav’ do‘sh-bardo‘sh,
Shahlar bori yondashib qadahno‘sh.

Soqiylari hur yo paridek,
Ko‘k davrida mehri xovaridek.

May kimga tutub bu nav’ soqiy,
Qolmay anga aql-u hush boqiy.

May dema, zuloli zindagoniy,
Soqiysi hayoti jovidoniy.

Shahkim, ichib ul mayi ravonbaxsh,
Bazm ichra bo‘lub hadisi jonbaxsh.

Gah so‘z bila elga jon bag‘ishlab,
Bir so‘z bila gah jahon bag‘ishlab,

To bo‘lg‘usidur jahon shohi,
Ofoti zamon uchun panohi.

Ham shoh jahonpanoh bo‘lsun,
Ham ahli jahong‘a shoh bo‘lsun.

IX

Ul tun mahobati ta’rifidakim, savodi ishq ajdahosi dami o‘tining buxori va anjumi ul olamso‘z o‘tning sharori erdi va mundoq tunda xayol musofiri savdo adhamiga minib, har yon azm etmoq va ishqning yuz ofatliq dashtiga yetmak va ofat yog‘inlaridin balo to‘foniga qolmoq va balo choqinlari aning joniga shavq va muhabbat haroratin solmoq va ishq duri shabcharog‘in ul kecha topmoq va ul sham’i hidoyat bila so‘z maydoni javlonig‘a chopmoq va Layli xayoli bila ko‘rushmoq va Majnun savdosig‘a tushmoq[1].

O‘tgan kechakim, sipehri purfan,
Nur ustiga bo‘ldi zulmatafkan.

Dahr uzra esib nasimi shabgir,
Ko‘k javfi aro sochar edi qir.

Men gunbazi qirgunda mahbus,
Ul qir etibon eshikni madrus.

Davron uzra abri qirmonand,
Tun qiri yuziga qirpayvand.

Jismim bo‘lubon bu qir asiri,
Ko‘nglumga maqar sipehr qiri[2].

Markab anga tavsani taxayyul,
Har yon chopar erdi betaammul.

Shabrangi jahonda ko‘p yugurdi,
Chun barri Arabqa yetti, turdi-

Kim, topti mashomi ishqdin bo‘y,
Tark etti bu bo‘y ila tak-u po‘y[3].

Chun vodiyi ishq topti manzil,
O‘tmakligi mushkil erdi, mushkil.

Rokibg‘a dog‘i darang bo‘ldi,
Markabning ayog‘i lang bo‘ldi.

Ham sarsari oh etib havo fosh
Yummay to‘kar erdi ham bulut yosh.

Ya’ni esar erdi yel dog‘i tez,
Yomg‘ur dog‘i erdi vahshatangez.

Tun tiyraligi demakdin ortuq,
Ko‘zni yumub istagan yorug‘luq.

Gah Tur uza lam’a ko‘rguzub barq,
Andoq yorubonki, mehrdin sharq.

Yo Muso etib ayon tamanno,
Haq Tur uza aylabon tajallo.

Ul nav’ki, Tur-u sohibi Tur
Bo‘lg‘on kibi g‘arqi lujjayi nur.

Gah Yasrib[4] uza bu barq inib tez,
Zulmatqa ashi'asi ziyorez.

Andoqki, rasuli Hoshimiykesh[5],
Hajr ichra chu bo'ldi vuslatandesh.

Me'roj tuniki, avj tutti,
Yuz lam'asidin jahon yorutti.

Chun barqvash o'ldi osmondav,
Yasribqa bu barqi soldi partav.

Gah Quds uza ul choqin sochib nur,
Tun mushkiga to'kar erdi kofur.

Andoqki, Xalil o'tin zamona[6],
Chekturgay dud aro zabona.

Yo o'tqa borurdi barqkirdor,
Namrud[7] yuziga solib anvor.

Har lahza ayon bo'lub Yamandin,
Tashlar edi otashin kamandin[8].

Andoqki, Suhayl[9] bo'lsa tole',
Bo'lg'ay qaro tun Yamang'a lome'.

Yo'q, yo'qki, Uvays[10] ko'ngli tobi,
Qilg'ay qora tunni mohtobi.

Gah solib Abu qubays[11] uza tob,
Andin bo'lubon haram safoyob.

Yo nur bo'lub haramg'a nozil,
Ul tog' uza ham yorub manozil.

Gohi Izam[12] uzra lam'aafgan,
Shox uzra, nechukki, nori Ayman[13].

Andoqki, salam yog‘ochlarin dur,
Ziynat bergay ayon etib nur.

Gah Najd[14] uza o‘t choqib jahong‘a,
Shu’la chekib ul o‘t osmong‘a.

Hijron qaro shomi zor-u mahzun,
Chekkan kibi o‘tluq oh Majnun.

Gah Shom[15] uza chatri bemadoro,
Subh aylabon anda oshkoro.

Andoqki, qilib karashma mayli,
Zulf ichra jamolin ochsa Layli.

Sekrir edi ul choqin payopay,
Andin ko‘runub qabila-vu hay[16].

Yo‘qkim, choqilurda betaammul,
Yuz hay-u qabilani qilib kul.

Bo‘lg‘on soyi barq nuri parron,
Har yon ko‘runub sibo‘i darron.

Qaplon bila babr-u sheri xunrez,
Qon to‘kkali changlar qilib tez.

Ushshoq taniki, bo‘ldi tufroq,
Har yon ko‘runub so‘ngaklari oq.

So‘kso‘k kibikim, chu bo‘ldi suda,
Yotqay yozi uzra to‘da-to‘da[17].

Kun ganjin iturub ajdaholar,
Tun xayli kelib qaro balolar.

Yog‘in demakim, bulut adudek,
Paykon to‘kub elga qatra sudek.

Har sori qaro bulutqa junbush,
Aylab qora devdek g‘urunbush.

Har damki, bo‘lub alar misosi,
Ko‘k toqini darz etib sadosi.

Aqshom dema zulmati maxofat,
Jon qasdig‘a har sari yuz ofat.

Hayratda musofiri sabukpay,
Bo‘lmay oyog‘ida bir qadam tay.

Xud qayda qadam urar majoli,
Ul bir nimakim, yo‘q ehtimoli.

Yuz ofat ichinda jon ovuchlab,
Ming mahlakadin nihon ovuchlab.

Qo‘ymay anga xavf-u za’f gah tob,
Ul tor kibiki, ko‘rsa mahtob.

Ne aql aning rafiqi, ne hush,
Bejon va gar o‘lsa joni, behush.

Yuz qatla kechib ramida jondin,
Ohangi rahil etib jahondin.

Ofatdin ochmay ikki ko‘zni,
To chekti saharg‘a tegru o‘zni.

Tong yeli chu tun kulin supurdi,
Mehnat bulutini dog‘i surdi.

Betob musofiri ramida,
Bir lahzaye bo‘ldi oramida.

Deb o‘zigakim: “Erur bu tunmu?
Yo dashti baloda tiyra kunmu?

Munchamu bo‘lur jahonda ofat,
Har yon qadam ursa onda ofat?

Ne vodiy ekin bu tiyra vodi-
Kim, dam yo‘lini tutar savodi”.

Ul bo‘lmayin ushbu ishta voqif-
Kim, qildi nido xujasta hotif[18]-

Kim: “Keldi bu dasht – ishq dashti,
Jon ofati keldi sarguzashti.

Har barqki, ko‘rdung – ozari ishq,
Har lam’asi barqi xanjari ishq.

Har tiyra sahobi zulmatandud,
Gardun uza ishq o‘tidin dud.

Yomg‘ur dema, qatrayi bahoron,
Ishq aylabon anda tirboron.

Darranda sibo‘kim, solib sho‘r,
Bu dashtda har taraf ushog‘ mo‘r[19].

Ajdar kelib ul fazoda nole,
Sheri yala mo‘ri xastahole.

Qish oldorotib humumi elni,
Yoz ilpirotib samumi yelni.

Ofat “alif”i kibi tikanlar,
Lolasida ishqdin tuganlar.

Kimsa bo‘la olmay anda sokin,
Sokin neki, yo‘q mururi mumkin.

Juz bir kishikim, sipehri bulbod,
Bilmas yana bir aning kibi yod[20].

G‘am tufrog‘-u suyidin – sirishti,
Ishq o‘ti-yu yeli – sarnavishti.

Sargashta-u po‘yagarnihod ul,
G‘am bodiyasida girdbod ul.

Jismida anosiri murattab-
Kim, ayladi paykarin murakkab[21].

Har tuprog‘i dard ko‘yidin gard,
Ham suyi – zuloli chashmayi dard.

Ham yeliga qism – sarsari oh,
Ham o‘ti samumi ishqi jonkoh.

Vayron tani g‘am qushi makoni,
Sing‘on boshi ham qush oshyoni.

Savdo tutuniga sochi monand,
Har tori junun ayog‘ig‘a band.

Ishq ichra junun aning sifoti,
Majnun deyilib jahonda oti.

Bu dasht anga maqom-u maskan,
O‘ti – gul-u, xori dashti – gulshan.

Bir nodira ishqi mubtalosi,
Ne nodirakim, jahon balosi.

Andin Ajam-u Arab alamda,
Yo‘q misli Arab bila Ajamda[22].

Ishq ichra, nechukki, ul yagona,
Bu – husnda ofati zamona.

Afsonalari jahonda nomiy,
Nazm aylab Xusrav-u Nizomiy-

Kim, ishq so‘zin rivoyat aylab,
Ham bu ikidin hikoyat aylab.

Andoqki, bo‘lub demakka mayli,
Nazm avjining axtari Suhayliy[23]-

Kim, holati nazm aro erur fard,
Durposh bayoni nazmparvard.

Xusrav ruhig‘a yetkurub shayn
Lekin bu biriga qurrat ul-ayn.

Har necha qilib biriga bedod,
Ruhin yana birning aylabon shod.

Chun surmish kilki durfishonni,
Tahrir etmish bu dostonni.

Maqsudki, bo‘yla turfa maqsud,
Yo‘q dahr sahifasida mavjud.

Bu xaylki, bu dam o‘ldi ma’lum-
Kim, ayladilar bu qissa manzum.

Bu dashtqa qilmayin guzar hech,
Topmay bu baliyadin xabar hech.

Eshitgan ila avomdin so‘z,
Yo roviyi notamomdin so‘z.

Bu qissag‘a oncha berdilar zeb-
Kim, bo‘lmas vasfi ichra so‘z deb.

Senkim, bo‘lubon sipehr yoring,
Bu bodiyag‘a tushub guzoring.

Bilding, anga hol ne ekandur,
Anduh-u malol ne ekandur?

Munda yetib, ul kishiki, yong‘ay,
Ne degay-u, desa kim inong‘ay?

Menkim, otim o‘ldi hodiyi ishq,
Maskan manga ushbu vodiyi ishq.

Aytay Majnun so‘zin sanga rost,
Layli g‘ami ichra bekam-u kost”.

Bu so‘z debon etti qissa og‘oz,
Oxirg‘acha bo‘ldi nuktapardoz-

Kim, bo‘yla-u, bo‘yla holi oning,
Anduh-u g‘am-u maloli oning.

“Chun qissani anglading ravon bo‘l,
Sung‘il varaq-u qalam sori qo‘l.

Sendin raqam aylamak hikoyat,
Bizdin sanga so‘z sori hidoyat.

Sabt aylamasang alarcha rangin,
Ma’nisi daqiq-u lafzi shirin.

Lek o‘lg‘usi dard-u so‘zi ko‘prak,
Hangomayi dilfuro‘zi ko‘prak.

Ul yon gul-u sunbul o‘lsa mavjud,
Sen o‘t yoqqung, ayon qilib dud.

Ko‘rsang ul yon duri yagona,
Sen qilg‘ung ko‘z yoshini dona.

Bo‘lsa ul yon sarvi dilxoh,
Bo‘lg‘usi bu yon fig‘on bila oh”.

Chun ishq havolasini bildi,
Sidqi dil ila qabul qildi.

Jonig‘a yetishti zavq-u holat,
Raf o‘ldi bori g‘am-u malolat.

So‘z derga belini bog‘labon rust,
Ul markabi uzra sekridi chust.

Yetkurdi chu hujrag‘a iqomat,
Muazzin chekti saloi qomat.

Chun qildim adoi farzi Bori,
Qo‘l bordi davot-u xoma sori.

Ul nav’ki, hotif etti irshod,
Men ham qildim fasona bunyod.

X

Qaysning adam majlisidin qutulub, vujud mahdig‘a tutulg‘oni va qon yutmoqdin xo‘rish va ishq doyasidin parvarish topqoni va ishq zoti choshnisidin el ko‘ziga shirin va dardi azaliy haroratidin xaloyiq nazarig‘a isig‘ ko‘rungoni[1].

Bu silsila halqasida dilgir,
Bu nav’ chekar sadoyi zanjir.

Kim, barri Arabda komrone,
Bor erdi Arabqa hukmrone.

Mahkumi aning necha qabila,
Iqbolig‘a istabon vasila.

Bechora ulusqa chorasoz ul,
Xongustar-u mehmonnavoz ul.

Osmoqdin aning qazoni tushmay,
Tun-kun o‘ti o‘chgali yovushmay-

Kim, bodiya ichra yo‘l qilib gum,
Bu o‘t anga tiyra aqshom anjum.

Donish anga kasb-u jud – pesha,
Donish bila jud etib hamesha.

Ot-u tevasi hisob ila jo‘p,
Qo‘y-u qo‘zisi hisobdin ko‘p.

Aylab ani umri sur’atoyin,
Bir yoshi yo‘qidin asru g‘amgin.

Moli ko‘p-u, umri sustpayvand,
Farzandg‘a erdi orzumand-

Kim, eskiribon hayoti raxti,
Mayl etsa yiqilg‘ali daraxti.

Naxli bo‘lg‘ay yonida navbar,
Ra’nolig‘i, o‘ylakim, sanavbar[2].

Itgach shajari balandpoya,
Solg‘ay boshig‘a bu naxl soya.

Ya’ni duri bo‘lsa gum sadafdin
Xayli yorug‘day duri xalafdin.

Butrotqali molini havodis,
Qo‘ymag‘ay agar bor o‘lsa voris.

Umriga uyoqsa mehri xovar,
Tuqqon esa yona mehri anvar.

Ul mehr chu irtifo‘ tutqay,
Majmui qabilasin yorutqay.

G‘ofilki, qurudi chun guliston,
Gulbong etmas hazordaston[3].

Yo g‘am tuni o‘chsa sham’i anvar,
Parvonadin o‘lmas uy munavvar.

Komingni aningdek et taxayyul-
Kim, topmasang etgasen tahammul.

Chun Tengriga qildi ko‘p tazarru’,
Topti nekim ayladi tavaqqu’.

Chun komi aning bor erdi farzand,
Berdi xalafe anga Xudovand.

Qaysi xalafe, xalifazode,
Ishq ahlig‘a qiblai murode.

Nutfaki, bo‘lub bu mazhari ishq,
Ma’ni sadafida gavhari ishq.

Tan maxzanining nuhufta simi,
Jon gulshanining yorug‘ nasimi.

Mehr oyati ollida huvaydo,
Manshuri vafo yuzida paydo.

Hukm ayladi mulki ishq shohi-
Kim, dahrni moh to ba mohi.

Sur ichra yarog‘lasunlar oyin,
Ko‘k toqini bog‘lasunlar oyin[4].

Ul toq uza dardi jovidona,
Cholsun bu tarabda shodiyona.

G‘am xayli aro xuro‘sh tushti,
Savdo cherikiga jo‘sh tushti.

Ochti ko‘zini balo sunub qo‘l-
Kim, seli baloga aylagum yo‘l.

Boshin siladi firoqi avbosh-
Kim, yog‘durg‘um bu bosh uza tosh.

Yub og‘zini dard har yomondin-
Kim, oh o‘ti ko‘kka chekkum ondin.

Ko‘ngli sori ishq bo‘ldi moyil-
Kim, yo‘q manga bo‘yla pok manzil.

Alqissa: atosi topqach ul dur,
Ko‘p sochti guhar, qilib tafoxur.

Qays ayladi o‘g‘li otini bot-
Kim, o‘z atosig‘a bu edi ot.

Hifz ayladi oni necha doya,
Har nav’ ishidin toparg‘a voya.

Chirmab yana kish-u os birla,
G‘uncha kibi yuz libos birla.

Yotquzdilar oni mahd ichinda,
Gul yofrog‘i tushti shahd ichinda[5].

Doya kibi baxt ila saodat,
Alqissa: nechukki, bo‘lsa odat.

Mardum kibi ko‘zda asrab oni,
G‘ofil emas erdilar zamone.

Ko‘z uyida hifzini qilib fosh-
Kim, ko‘z ichida ajab emas yosh.

Ko‘z mahdi aro tutub ul orom,
Zarf-u mazruf, mag‘z-u bodom[6].

Qo‘ymas edi tegrasidagi el-
Kim, esgay aning sori sovuq yel.

Sut bo‘g‘zidin o‘tgach-o‘q bo‘lib qon,
Bag‘ri bu bahonadin to‘lub qon.

Mahd etmak ila tanini ranja,
Tifl erkanida ko‘rub shikanja.

Yerda yuruy olmasida beshak,
Varzish qilibon kichikdin emgak.

O‘t ko‘rsaki, mayl etib nihoni,
Ishq o‘ti tasavvur aylab oni.

Bo‘lmay g‘ofil dame g‘am-u dard,
Ulg‘aytibon oni dardparvard.

Mahd ichraki, tortibon fig‘onlar,
Afg‘onida darddin nishonlar.

Bo‘lg‘och tili lafzdin xabarliq,
Har lafzki, deb bori asarliq.

Chun el bila boshladi takallum,
El hushin etib takallumi gum.

Ruxsorida lam’ayi malohat,
Guftorida nash’ayi fasohat[7].

Har nuktakim, ul rivoyat aylab,
El ko‘ngli aro siroyat aylab.

Ne qilsa bayon xiradg‘a ma’qul,
Boshdin ayog‘i nazarda maqbul.

Har sori xabar topib qaboyil,
Ko‘rmakligiga tilab vasoyil.

Atrofdin el kelib talosha,
Ul nodirani qilib tamosha.

Ba'zi yuzidin topib tahayyur,
Ba'zi so'zidin qilib tafakkur.

Jondin suyub oni benavolar,
Har kimki, ko'rub, qilib duolar.

Bas tifli ajabki, yuz kuhansol,
Bo'lg'aylar vasfida aning lol.

Sevmakda ato-ano muvofiq,
Ma'shuq bir erdi, ikki oshiq.

Behad eshitib chu bulajab so'z,
Debkim, anga tushmasun yomon ko'z.

Jon pardasidin yopib parandi,
Ko'z mardumidin sochib sipandi[8].

Yetgach yoshi to'rt-u besh arosi,
Ta'lim so'zin solib atosi.

Istatti qaboyil ichra pire,
Ta'lim berurga benazire-

Kim, maktab aro xujasta farzand,
Bo'lg'ay bori ilmdin barumand.

Chun ilm ila arjumand bo'lg'ay,
Ofoq aro sarbaland bo'lg'ay.

Ey piri muallimi muaddab,
Aql o'ldi qoshingda tifli maktab.

Bu tifl iligiga bir varaq ber,
Lekin manga ishqdin sabaq ber!

XI

Qaysning xirad maktabida ulum avroqin evurgoni va ishq tundbodi yetib, ul avroqni sovurg'oni, ya'ni Layli husni gulshanidin za'f xazoni kanora qilib, sihhat bahori nasimidin latofat gullari ochilib, maktab azmi qilg'oni va ul gullardin Qays ko'ngli ayog'ig'a oshiqliq tikanlari sonchilg'oni[1].

So'z darsini, ulki, berdi ta'lim,
Bu nav' etti fasona taqsim-

Kim, Qaysg'a ilm uchun murag'g'ib,
Har yon chu tilattilar muaddib.

Topildi hunarvar ustode,
Odam ichida malaknihode.

Lek asru hay ichra erdi pobast,
Dars ichra topib kalomi payvast.

Ul turfa qabilada sarafroz,
Har ishta hay ahlig'a navosoz.

Shaxse edi, bas, azim shoni,
Rif'atda sipehrdin nishoni.

Qahr etsa dami samum yanglig',
Xoro iligida mum yanglig'.

Xoni karamida mehri xovar,
Bir qursi panirdek muhaqqar[2].

Tun atlasig'a chu yo'q karona,
Xaylida bir eski xaylxona.

O't qahrig'a bo'lmayin hamovard,
El xaylidin elta olmayin gard.

Qo‘ymay g‘ami dahrdin tabohi,
Ul elga ihotayi panohi.

Ganjida ko‘p erdi gavhar-u dur,
Bir durdin etib, vale tafoxur.

Bo‘stonida yuz gul erdi xudro‘y,
Bir guldin aning dimog‘i xushbo‘y.

Bir mash’al ila ko‘zi munavvar-
Kim, uchquni erdi mehri xovar.

Bir sham’ ila hajlasi muzayyan-
Kim, charx uyi andin erdi ravshan.

Sham’e-yu ne sham’, chashmayi nur,
Nureki, yomon ko‘z ollidin dur.

Naxle-yu, ne naxl, sarvi ozod,
Sarve-yu, ne sarv, rashki shamshod.

Oye-yu, ne oy, badri tole’,
Badre-yu, ne badr, mehri lome’[3].

Shahd ikki labi, vale ratabno‘sh,
Badr ikki yuzi, vale qasabpo‘sh.

Zulfi tunida uzori xurshed,
Xurshed uza zulfi shomi ummed.

Ne shomki, chun ochib savodin,
Qo‘ymay ko‘ngul ichra subh yodin[4].

Boshkim, qo‘shib ikki egma qoshi,
Husn ichra ikisining taloshi.

Chun voqif o‘lub bu mojarog‘a,
Mushkin xutaba kirib arog‘a.

Chun vusma berib alarg‘a tazyin,
Minoyi o‘lub hiloli mushkin.

Yo‘qkim, iki sarvi navdamida,
Har sori nasimdin xamida.

Ko‘zlar iki sho‘x kofiri mast,
Har qaysig‘a boqsa uyqu hamdast.

Ul sarvlar ostida uzolib,
Uyqu tamaig‘a soya solib.

Mujgon safining qaro balosi,
Ko‘zlar uza soyaning qarosi.

Yo‘q soyaki, to‘rt saf chekib zang,
Majmui libosi surmairang.

Ochquncha yumub ko‘z ul sipah tez,
Bir-birga tegib qilurg‘a xunrez.

Dema bu sipahni xayli hindu,
Chin dashti kiyiklariga mo‘ndu[5].

Mushk oncha sochib bu ohuyi Chin-
Kim, ayladi mo‘ndularni mushkin.

Yuz, ravzayi Xulddin nishona,
Xol anda fireb etarga dona.

Ul donag‘a sayd o‘lub bir odam,
Bu donag‘a borcha ahli olam[6].

Shahdi labidinki, komi shirin,
Andin kelibon kalomi shirin.

La’lida yig‘ib zaxirayi jon,
Og‘zi suyi anda shirayi jon.

Jon topibon, ulki, o‘psa oni,
Mundin debon obi zindagoni.

Ham jon kelib ikki la’li maygun,
Ham tavqi zaqan kelib anga nun[7].

Bir toza niholi sarvqomat-
Kim, jilvasidin solib qiyomat.

Ne ayb, qiyomat etsa har dam,
Ko‘rganga yetar chu o‘zga olam.

Bel rishtayi joni zor yanglig‘,
Jon pardasi ichra tor yanglig‘.

Toreki, yopib libosi oni,
Jon pardasida bo‘lub nihoni.

Ham gavhari rishta shug‘lidin pok,
Ham la’lig‘a yo‘q gazandi hakkok[8].

Pok erdi, nechukki, rost da’vo,
Bikr erdi, nechukki, xos ma’no.

Yo‘q ikki sochi tuniga g‘oyat,
Ya’ni iki layli benihoyat.

Andin bo‘lub oti jilvaoroy,
Andoqki, Barot-u qadr aro oy[9].

Kimningki, bo‘lub demakka mayli,
Malfuz o‘lmay bag‘ayri Layli.

Guldek yuz ila bu toza gulshan,
Aylab otaning ko‘zini ravshan.

Bir uy qilibon ota murattab-
Kim, bo‘lg‘ay ul uy bu oyg‘a maktab.

Lutf ichra, nechukki, xirgahi moh,
Sokin bo‘lub anda mohi xirgoh.

Uyni yorutub dabiri mazkur,
Ta’lim olibon farishtadin hur.

Atfol tutub ul uy ichin chum,
Ko‘k xirgahini, nechukki, anjum.

Ul xayl aro mohi majlisoroy,
Andoqki, nujum arosida oy.

Chun Qays so‘zi deyilmish erdi-
Kim, volidi fikr qilmish erdi:

Ustodg‘a qilmoq oni taslim,
To qilg‘ay anga ulum ta’lim.

Yo‘q erdi qabilalarda maktab,
Bu maktabdin o‘qurg‘a ansab.

Andoqki, bo‘lur arabda ma’hud,
Aylab neki, rasm bo‘lsa mavjud.

Topshurdilar oni nuktadong‘a,
Gavharni Muhiti bekarong‘a.

Chun topti bu nav’ gavhari pok,
Bahr o‘ldi bu zavqdin tarabnok[10].

Soatni chu ixtiyor qildi,
Lavh uzra sabaq nigor qildi.

Aylab anga lavhi siym taslim,
Filhol etti sabaqni ta’lim.

Ta’limig‘a belni chust qildi,
Ne ul dedi, bu durust qildi.

Har necha sabaq debon fuzunroq,
Go‘yoki, bilib edi burunroq.

Hamdarslari bu holatidin,
Ojiz edilar xijolatidin.

Bir kun edi hamsabaqqa hamtak,
Ikkinchi kun o‘tmish erdi beshak.

Kun bor edikim, besh-o‘n sabaqni,
Anglab evurur edi varaqni.

Oz vaqtda ayladi zamona,
Oni bori ilm aro yagona.

Ul vaqtki, ul zamona fardi
Maktabg‘a kelurni boshlab erdi.

Layli dema, ul buti parizod,
Bir oriza[11] birla erdi noshod.

Tab’ida quyosh kibi harorat,
Ayshig‘a solib edi marorat[12].

Har tab’ki, zoti o‘lsa mahrur,
Oz hirqat etar tanini ranjur.

Zoreki, o‘chuk yonar charog‘i,
Bot o‘rtanur ortuq o‘lsa yog‘i.

Kun qumni qilur necha qiziqroq,
O‘t yonsa bo‘lur yana isiqroq[13].

Bor erdi quyosh mizoji nori,
Qumning ham esib nasimi hori.

Marg‘ubi edi ratab bila shahd,
May ichgali ham qilur edi jahd.

Shahd-u may-u tab' ila havo to'rt,
Chun mushtail o'ldi soldilar o'rt[14].

Jismiki, bor erdi yosamin gul,
Hummo qilur erdi otashin gul!

Terkim, gulidin bo'lub ravona,
Uyni qilibon gulobxona.

G'uncha kibi hullalarda noyob,
Xurda kibi o't anga solib tob.

Kam bo'lsa mizojig'a harorat,
Titratma qilur edi sharorat.

Shamshodig'a titramak padidor,
Tong yelidin, o'ylakim, sapidor.

Chun zilzila bo'ldi ersa xora
Bo'lur nafas ichra pora-pora.

Ul tang'aki, lutfdin edi gul,
Yel titraturiga ne tahammul.

Boshi uza jam' o'lub ahibbo,
Hozir qilur erdilar atibbo[15].

Bemorg'a mushkil erdi parhez,
Andoqki, ko'zi qilurda xunrez.

Bu hol ila erdi sarvi gulxad-
Kim, bo'ldi mizoji za'fi mumtad.

Har necha sipehr edi hasadgor,
Ham bo'ldi tabiati madadgor.

Za'f ichra tabiat o'lsa mushfiq,
Behroqki, tuman tabibi hoziq.

Yo‘q ersa mizojidin muvoso.
Jon bersa ne sud elga Iso[16]-

Kim, bo‘lsa tabiati muolij,
Jismidin etar marazni xorij.

Chun qildi tabiati muruvvat,
Za’f o‘ldi gum-u yetishti quvvat.

Yor o‘ldi hakimning iloji,
Sihhat sori qo‘ydi yuz mizoji.

Mayl etti mizojig‘a salomat,
Tab’ig‘a yuz urdi istiqomat.

La’li labi no‘shxand bo‘ldi,
Naxli qadi sarbaland bo‘ldi.

May tab’ig‘a bo‘ldi ishratangez,
Qon to‘kmak uchun ushatti parhez.

Bo‘ldi yana ul uzori gulgun,
Husn ichra burung‘idin ham afzun.

Bir kun erikib mahi muaddab,
Tushti boshig‘a havoyi maktab.

Mashshotayi husni olamoro,
Oroyishin etti oshkoro.

Ul husnki, zebi olam erdi,
Zeb ustiga yona zeb berdi.

Zulf-u yuzi xad yonidag‘i dol,
Fam nuqtasi og‘zi ustida xol[17].

Aylab yuz o‘tin yoqorg‘a ta’jil,
Go‘gurd o‘ti yuzda har taraf nil.

O‘tdin gul ochib chu gulsitong‘a,
Ul gul bila o‘t solib jahong‘a.

Farqi uza zulfi anbarolud,
Gulfom o‘tig‘a anbarin dud.

Oraz uza zarvaraq nigori,
Ul o‘t-u bu dudning sharori.

Yuz uzraki, o‘t yoqib jabini,
Axgar anga la’li otashini.

Jodulig‘i birla xoli hindu,
La’li o‘tida nihon qilib su.

Yo‘qkim, labi obi zindagoni,
Suv ichra o‘t aylabon nihoni.

Ul la’l o‘tidin jahong‘a kuymak,
Yo‘q-yo‘q, ne jahonki, jong‘a kuymak.

O‘tlug‘ iki ko‘zi surmaolud,
Ul o‘tg‘a dag‘i bu surmadin dud.

Bu o‘tlar aroki, orazi g‘arq,
O‘rtarg‘a jahonni hosilan barq.

Ne barqki, barqi ofat ul yuz,
Yo boriqayi latofat ul yuz.

Yuz girdida iqdi gavhar andoq-
Kim, oy ila bo‘lg‘ay axtar andoq.

Me’jar sochi uzra tori noyob,
Ul nav’ki, vasl shomi mahtob[18].

Husn ichra ayog‘idin boshi xub,
Boshdin ayog‘ig‘a tegru mahbub.

Ko‘rgach bu baloyi jovidona,
Qo‘zg‘olmay naylasun zamona?!

Bu shakl ila ul jahong‘a oshub,
Solib sekiz osmong‘a oshub.

Keynida necha kanizi hamqad,
Borcha gulro‘y-u arg‘uvonxad.

Maktab sori jilva ayladi soz,
Boshtin ayog‘ig‘a husn ila noz-

Kim, sayr ila ko‘ngli xurram o‘lg‘ay,
Hamdarslarig‘a hamdam o‘lg‘ay.

Xurram ko‘rub oni farrux ustod,
Qilg‘ay bori sarvlarni ozod.

Qizlar bila azmi gulshan etgay,
Gulshanni jamoli ravshan etgay.

Maktabni yorutg‘ach ul pari chehr,
Andoqki, sipehr gunbadin mehr.

Borcha qilib ehtiromin oning,
Yuqori yasab maqomin oning.

Shod o‘ldi jamolidin dabiston,
Andoqki, bahordin guliston.

Lekin bu bahori zindagoni
Bir naxlni ayladi xazoni.

Yo‘q, yo‘qki, tutoshti sarbasar o‘t,
Boshtin-ayog‘ o‘ldi ul shajar o‘t.

Yo shu’laki, har biriga yetti,
El bargi xazon tasavvur etti.

Ya'ni ko'rub oni Qaysi mahzun,
Ruxsorini qildi kahrabogun.

Ham chehrasi rangi kahrabodek,
Ham ko'nglida qo'zg'alon sabodek.

Har dam yiqilurg'a jismi moyil,
Hushi dog'i lahza-lahza zoyil.

Topib anga jismi notavon za'f.
Ko'nglida dog'i zamon-zamon za'f.

Tag'yirpazir ko'zga holi,
Ko'zga neki, har dam o'zga holi.

Chun zo'r keturdi ishqi bebok,
Avval qadah oldi hushini pok.

Bal may isi birla mast bo'ldi,
G'am xaylig'a zerdast bo'ldi.

Ko'p sa'y o'ziga qildi hamdast,
To bo'lmadi yerga soyadek past.

Ko'rgach hamono nigori zebo,
O'z ko'nglini topti noshikebo.

Nozukluk ila chu qildi mafhum,
Kim erkanin etti yaxshi ma'lum.

Qolmadi havosida qarori,
Shavq o'tig'a tushti joni zori.

Oning dog'i bildi iztirobin,
Ishqi o'tidin ichida tobin.

Bildiki, gar etmas ishiga chora,
Ul hol o'lur elga oshkora.

El solsalar iztirob arog‘a,
Bir nav’ tushar hijob arog‘a-

Kim, yor o‘la olmay anda sokin,
Bo‘lmas diydor umidi mumkin.

Ta’jil ila qo‘pti lo’bati shang-
Kim, bog‘ sori qilurbiz ohang.

Atfol dog‘i bilib g‘animat,
Oning bila qildilar azimat.

Taklif etti buti shakarlab-
Kim, har kishi bo‘lsa ahli maktab:

“Bir kungina tarki dasht qilsun,
Gullar bila bog‘ gasht qilsun”.

Chun kirdi arog‘a bo‘yla surat,
Azm ayladi Qays ham zarurat.

Chun Qays alarg‘a bo‘ldi yo‘ldosh,
Gulshan ichidin chiqordilar bosh.

Ey gulshani ishq bog‘boni,
Gulgun qadahe ketur zamone.

To gulki, bu gulshan ichra sochqung,
Ma’lum etayin ne gullar ochqung.

XII

Bahor farroshi nafas-nafas esgan nasimlar puvlamaki bila lola charog‘in yorutqonda va sahob musha’bidi lahza-lahza tushgan choqin chushkurmokidin tog‘ dimog‘in qurutqonda ul ko‘zin husn charog‘i yorutqon va dimog‘in ishq savdosi qurutqonining gulruxlar bila bog‘ tavfig‘a azm etgoni

va Layli husni gulining nasimi dimog'ig'a yetib bir yo'li o'zidin ketgoni[1].

Mehr istadi chun Hamal farog'i,
Dasht uzra butar qo'ziqulog'i.

Gul sham'i havoyi gulshan aylar,
Gulshanni furug'i ravshan aylar.

To'ti bo'lurig'a charx etar zavq-
Kim, qavsi quzahni[2] aylagay tavq.

Gar to'ti o'lurg'a qilmas ohang,
Aylar nega yerni to'tagi rang?[3]

Yo to'ti o'lub sipehri xazro,
Bo'lur anga jo'ja farshi g'abro[4].

A'zosidakim, butub yangi par,
Tutqon bori yerni sabzayi tar.

Tun-kunni qilur binafsh sizg'on,
Kofur ila mushkdin soqizg'on.

Sorig' gul uza sabuhi yomg'ur,
Oltun tabaq ichra ko'rguzur dur.

Yoxud yaraqon[5] o'tin qilib tez,
Sorig' yuziga bo'lur araqrez.

Marz uzra kiyar sebarga javshan,
Shashpar ko'tarur boshig'a savsan[6].

G'uncha boshi uzra ko'rguzur xud,
Yax tig'i qilur chamanni padrud[7].

Meva yig'ochig'a siym o'kulur,
Andoqki, diram aro ko'mulur.

Ilgin ko‘rubon chinor xoli,
Kuydurur ichin diram xayoli.

Tog‘ bag‘rida, sel yo‘qki, har tosh
Farhod[8] firoqidin to‘kar yosh.

Sahroda ne lola bo‘lsa barbod,
Parvez[9] kulohidin berur yod.

Har g‘unchayi lola huqqayi la’l,
Ochilsa livoda shuqqayi la’l[10].

Chun bargi tusharga mayl qildi,
Bag‘riqaro dasht uza yoyildi.

Dasht uzraki, sayr o‘lur sabog‘a,
Bag‘riqarolar uchar havog‘a.

Suv ichra binafsha har zamoni,
So‘na boshidin berur nishoni.

Yosh g‘unchag‘a istamak bo‘lub ish,
Jola tushub og‘ziga bo‘lur tish.

Yo g‘unchaki, kulgusin uzotur,
Davron toshi og‘zini qonotur.

Har balbalani qilur makoni,
Turna ko‘zi-yu tazarv qoni[11].

Nargis olur o‘lsa bodadin kom,
Noranj terisidin yasar jom.

Nasrin bargi to‘kulsa sahbo,
Kup yog‘ini aylar oshkoro.

Zanbaq varaqi aro separ mushk-
Kim, atri dimog‘ini qilur xushk[12].

Go‘yo tutulub shamimi chog‘i,
Bog‘ ichra binafshaning dimog‘i.

Dol o‘ldi dimog‘i za’fig‘a bu-
Kim, shabnam birla oqizur su.

Shudrun to‘kulub chaman qilur fosh,
Xashxosh gul yuzinda xashxosh[13].

Har qushqina jufti birla purjo‘sh,
Hampar bo‘lur uchsa, qo‘nsa hamdo‘sh.

Bargiki, bo‘lur yig‘ochqa xil’at,
Qushlarg‘a bo‘lur maqomi xilvat.

Har xaylki, raf’ etib nadamni,
Sahro sori qo‘ysalar qadamni,

Chun azmi sharobi nob etarlar,
Jayran qo‘zisin kabob etarlar.

Bu faslda ul guruhi cholok,
Gulshang‘a yoyildilar tarabnok.

Bog‘e edi Ravzadin nishona,
Shom ahli yasab nishotxona.

Har naxli falakka tegurub bosh,
Parvin bila Xo‘sha aylabon fosh.

Najd etagidin chiqib bulog‘i-
Kim, toza bo‘lub bu nav’ bog‘i.

Davron toshi emdi oni ko‘mmish,
Ul chashma suvin ko‘zini yummish.

As’hobg‘a mayli lola-vu bog‘,
Ul ikki[14] ichinda loladek dog‘.

As'hobg'a g'uncha sori ohang,
Ul ikki, nechukki, g'uncha diltang.

Ishq ichra necha yetib maloli,
Mahvash qilur erdi zabt holi.

Bedilg'a bu hifz mushkil erdi-
Kim, hush ila aqli zoyil erdi.

El, har neki, so'rsa fahm qilmay,
Fahm etsa, javob derni bilmay.

Ishqin necha aylamay debon fosh,
Andin ajab amrlar urub bosh.

Gah ko'zidin oqib ashk nogoh,
Gohi chekib ixtiyorsiz oh.

Ahvolida, har zamonki, tag'yir,
Ko'ngli g'amin aylab elga taqrir.

Tag'yirig'a topib oni chora-
Kim, yorig'a aylagay nazora.

Lekin solayin degach nazar tez,
Ko'ngli o'ti tortibon sharar tez.

Boqay desa dog'i quvvati yo'q,
Boqmay desa dog'i toqati yo'q.

Ko'z uchi bila boqib chu gohe,
Jondin chekib andoq o'tlug' ohe-

Kim, bog' yuzin xazoni aylab,
Ko'k bargini za'faroni aylab.

Mahvash qilibon nazora nogah,
Bo'lmoqqa aning o'tidin ogah.

Ham jismida pech-u tobin anglab,
Ham ko‘nglida iztirobin anglab.

O‘z ko‘nglida ham topib asarlar,
Oning g‘ami o‘tidin shararlar.

Bir furja toparg‘a ko‘p qilib mayl-
Kim, bir nafas o‘lsa g‘ofil ul xayl.

Maqtulig‘a yetkurub hayote,
So‘rmoq bila qilsa iltifote.

Anglatsa o‘z iztirorini ham,
Ishqi o‘tining sharorini ham.

Bog‘ erdi vase’-u, xalq – soyir,
Ashjor g‘ulusi elga sotir.

Gulbun chamanining ittisoli.
Ishq ahlig‘a pardayi visoli[15].

Atfol bo‘lub o‘yung‘a mash’uf,
Sarv-u gul o‘lub alarg‘a ma’luf.

Sayr ichra yetishti mohi dilxoh,
Bir gul chamani ichiga nogoh.

Gulbun bila rust to‘rt yoni,
Kirsa kishi kimsa topmay oni.

Kirgach anga ul shukufta gulzor,
Ko‘rdi tikon ichra bulbuli zor.

Kirmish edi anda Qaysi g‘amnok,
Gul yanglig‘ etib yaqosini chok.

O‘z holig‘a zor yig‘lar erdi,
Besabr-u qaror yig‘lar erdi.

Og‘zida taronayi firoqi-
Kim, yor yetishti ittifoqi.

Chun bulbulini guli shukufta.
Topti bori xalqdin nuhufta.

Har necha yo‘q erdi so‘zga tobi,
Ko‘nglida ko‘p erdi iztirobi.

Yo‘q erdi guziri necha so‘zdin,
Borg‘udek o‘lub deguncha o‘zdin.

Bunyod etti hijob birla,
Bal xijlati behisob birla:

“K-ey turfa yigit, ne holating bor,
Ne nav’ g‘am-u malolating bor?

Kim, shodlig‘ing yo‘q o‘zgalardek,
Obodlig‘ing yo‘q o‘zgalardek.

As’hobg‘a mayli bog‘-u gulzor,
Ham tan sanga resh-u ham ko‘ngul zor.

Bu damki, esib nasimi navro‘z,
Gul atrini qildi majlisafro‘z.

Bog‘ o‘ldi bahordin gulafshon,
Sunbul bu gul uzra kokulafshon.

Bu faslda azmi gulshan etgay,
Bo‘ston haramini maskan etgay.

Bor, oning uchunki, shod bo‘lg‘ay,
Har bandig‘a bir kushod bo‘lg‘ay.

Sen nola qilib g‘amin nedin sen,
Ashking oqizib hazin nedin sen?

Ishrat chog‘i mehnating ne ya’ni?
Sho‘robayi hasrating ne ya’ni?

Bu g‘am sanga qaydin o‘ldi hodis-
Kim, bo‘ldi bu shiddatingg‘a bois?”

Boisni chu so‘rdi ul dilafro‘z,
Bedil chekibon bir ohi jonso‘z,

Shirin so‘zidin bo‘lub edi lol,
Qon yosh ila yuzga yozdi ahvol.

Yo‘q, yo‘qki, zaboni hol birla,
Sharh ayladi bu maqol birla:

“K-ey jonima hayrat o‘ti solg‘on,
Ko‘nglumni burun nazarda olg‘on.

Avvalki, jamolidin sochib barq,
O‘t ichra vujudum aylagan g‘arq.

Zulf ochmoq ila olib qarorim,
Qilg‘on qaro ro‘z-u ro‘zgorim.

Avvalki, fasona zohir etgon,
Ko‘nglumning ishini oxir etgon.

Qilg‘onni yoshurmog‘ing ne erdi?
Mendin yana so‘rmog‘ing ne erdi?

El onglamasun debon namuna,
Urmoq ne bu na’li bozguna![16]

Sendin yetibon bu shiddat oxir,
Kimga toqoyin bu tuhmat oxir?!

Ko‘nglumniki, olmishang nihoni,
Sendin ola olmog‘um xud oni-

Kim, a'jami aylab o'zni[17] yona,
Bu nav' surar labing fasona.

Jonimniki, o'rtading bas erdi,
Tonmoq bu sifat kerakmas erdi.

O't uzra ne erdi quymog'ing yog'!
Kuyganga ne erdi qo'ymog'ing dog'!

Chun bo'yla necha xurush qildi,
Za'f etti-yu tarki hush qildi.

Tufroq uza bo'ldi ul sifat past-
Kim, yerdagilarga bo'ldi hamdast.

Qo'ynig'a olib nigor boshin,
Sochib ko'zidin yuziga yoshin.

Behushg'a aylab iztirobi,
Har dam yuziga urub gulobi.

O'lturganiga o'zi yebon g'am,
Yig'lab tutar erdi bo'yla motam.

Istab ani bir-iki dilorom,
Ul voqe'a ichra qo'ydilar gom.

Gar zulf ila mushkbez edilar,
Ikkisi anga kaniz edilar.

Ko'zlariga dahr o'lub qarong'i,
Qo'rqub dedilar: "Ne hol erur bu?"

Mahvash ishidin chu parda qo'pti,
Ikkisining ollida yer o'pti.

Ul ishniki, voqe' o'ldi bexost,
Bir-bir dedi ul ikisiga rost.

Dahr etti chu sirrin oshkora,
Yig‘lab tiladi g‘amiga chora.

Bor erdi birisi dardparvard,
Filhol sanamg‘a bo‘ldi hamdard.

Dedi: “Yema g‘amki, bok emastur-
Kim, ishq o‘tidin halok emastur.

Sen qo‘pg‘il-u bizga topshur oni,
Azm ayla qabilag‘a ravoni.

To bo‘lmasun el bu ishdin ogoh,
Biz fikr etali, nechukki, dilxoh”.

Mahvash ul ikov degandek etti,
Ko‘nglin qo‘yub anda, evga ketti.

Bedil kishisin topib alar ham,
Qildilar ul ishga yor-u mahram.

Chun bo‘ldi rafiq anga mulozim,
Bo‘ldi ul ikov ham uyga ozim.

Ey soda rafiq, benavomen,
Ishq ilgiga zor-u mubtalomen.

Bexudmen-u o‘lturur navoyib,
Bir lahza boshimdin o‘lma g‘oyib!

XIII

Qaysning hajr shabistonida shabnam gulobi yuziga sochilg‘onidin ko‘zi ochilg‘oni va bulbuli shabxez bila ishq dostonlari adosida nola qilg‘oni va bulbul soyasidek tufroqqa yiqilg‘oni va atosi aning bulbuldek fig‘onlarin eshitib boshig‘a yetgoni va mahmil qafasig‘a solib olib ketgoni[1].

Chun gulshani charx guluzori,
Mag‘rib sori tortti amori.

Anjum guli birla bu shabiston,
Olam yuzin ayladi guliston.

Ul toza bahori nozparvard,
G‘unchadek ichini qon qilib dard.

Soz etti qabila sori ohang,
Bedil g‘amidin valek diltang.

Behol qabilasig‘a ketti,
G‘amdin anga yetti ulcha yetti.

Gulshan aro Qays hushdin fard
Yotib edi yerda, o‘ylakim, gard.

Ham mag‘zida hushdin xabar yo‘q,
Ham jismida ruhdin asar yo‘q.

Yorim kechakim, nasimi gulbez
Bo‘ldi chaman ahli uzra gulrez.

Gul atri dimog‘iga solib hush,
Ochti ko‘zin ul g‘aribi madhush.

Ko‘rdi o‘zini chaman ichinda,
Sarv-u gul-u yosuman ichinda.

Bulbul boshi uzra nag‘mapardoz,
Ahvolig‘a navha aylab og‘oz.

Gul holig‘a chun nazora aylab,
Gulgun yoqasini pora aylab.

Nargis shabnamdin ashk etib fosh,
Ahvolig‘a yummayin to‘kub yosh.

Chun ko‘ksida hajrdin ko‘rub dog‘,
Ko‘ksi uza lola kuydurub dog‘.

Zaxmi ko‘kidin binafshada g‘am,
So‘giga[2] kiyib libosi motam.

Topib chu vuquf bu azog‘a,
Ashjor alam chekib havog‘a.

Sunbul qilibon qaro uzorin,
Ochib qaro zulfi mushkborin.

So‘gig‘a oqar su zor yig‘lab,
Un tortib-u so‘gvor yig‘lab.

Sarv o‘lmay mehnatidin ozod,
Qolmay shamshod dardidin shod.

Debkim, ani qildi ishq bejon,
Chirmonib o‘ziga ishqpechon.

Sabza qilib o‘zni sarbasar til,
Aytib g‘amidin fasona har til.

Bu so‘glar aylab ul nazora,
Topmay o‘lmakdin o‘zga chora.

Har yon boqib anda yor topmay,
Anduhi o‘ti qaror topmay.

Ne davrida xayli do‘stdori,
Ne ollida sarvi guluzori.

Xurshed ketib, kelib qaro shom,
Yo hajr kuni, vale siyahfom.

Yo hajr o‘ti butratib duxonin[3],
Aylab qora dahr xonumonin.

Ko‘ngliga o‘kuldi ko‘hi anduh,
Anduhi yig‘ildi ko‘h to ko‘h.

Sog‘indi qachon nazora qildi-
Kim, charx uyi boshig‘a yiqildi.

Chun dardig‘a topmadi karona,
Dard ashkini ayladi ravona.

Chok ayladi tortibon yaqosin,
Chekti tan ofiyat libosin.

Yo‘qkim, bu libosini suvurdi-
Kim, jismidin oni o‘tqa urdi.

Chun bo‘ldi libosi otasholud,
Gardung‘a yetishti ohidin dud.

Yo‘q, yo‘qki, bu dud ohi erdi,
O‘rtanguchi jismi kohi[4] erdi.

Gohi bu osmonda shu’la, gah dud,
Andin tutubon jahonni kahdud[5].

Kahdud falakka yetkurub bosh,
Aflok ko‘ziga kelturub yosh.

Koj urdi sorig‘ yuziga oncha-
Kim, oni ko‘k etti ul taponcha[6].

Garchi yuzi erdi za’faroni,
Bo‘ldi gulidin ko‘ki nishoni.

Ko‘nglida bu za’farondin ozor,
Kulmak o‘rnida yig‘latib zor.

Ko‘ksiga urub firoqdin tosh,
Yerga urub ishtiyoqdin bosh.

Ko‘ksi aro shu’layi firoqi,
Bu o‘t bila dog‘i ishtiyoqi.

Ko‘ngliga sipah chekib alamlar,
Ohi o‘ti ko‘rguzub alamlar[7].

Solib bu sipah ichiga oshub,
Ko‘ngli mulkin qilib lagadko‘b.

O‘tmay bu sipah eli kamohi,
Yetib yana bir balo sipohi.

Har xayli jafo qo‘lin sunub keng,
Ul mulkni yer bila qilib teng.

G‘am xayli ichinda sondin ortuq,
Har nechaki, desam ondin ortuq.

Bu nav’ edi hajri ibtilosi,
To chekti alam sahar livosi.

Tun urdi ko‘murlarini darham,
Mehr o‘tini subh ayladi dam.

Ko‘k gulshani gullari to‘kuldi,
Gullarki, to‘kuldi g‘uncha kuldi[8].

Ko‘k bog‘ida gullar o‘ldi nobud,
Yer bog‘ida gullar o‘ldi mavjud.

Ul bog‘da har nekim sochildi,
Go‘yoki, bu bog‘ aro ochildi.

Bedil ko‘rubon yorug‘ jahonni,
Chekti yana oh ila fig‘onni.

Gul boshig‘a evrulub sabodek,
Uchrab ko‘ziga gul oshnodek.

Debkim: "Qani ul guli shakarxand-
Kim, bu gul erur yuziga monand?"

Ul chehradin erdi yodgori,
Bo'lmasa edi yonida xori.

G'uncha sori boqibon urub pech,
O'xshatmayin oni og'zig'a hech.

Gah sarv ayog'ig'a qo'yub yuz,
Ohin yana sarvdek chekib tuz.

Debkim: "Gar emas qadi ravoni,
Lekin qadidin erur nishoni".

Gah mehr qilib binafshag'a fosh,
Bir lahza ko'tarmay ollidin bosh.

Atridin o'lub murod komi,
Ul turra isi topib mashomi[9].

Gah sabzag'a surtubon uzorin.
Ko'kka chekibon fig'on-u zorin-

Kim: "Gulshan aro xirom chog'i,
Tegmish sanga gulruxum ayog'i".

Nargis ko'zi aylab oni volih,
Yori ko'zidek ko'rub biaynih.

Yig'lab ko'rub oncha ranj-u temor-
Kim, za'f qilib, nechukki, bemor.

Tufrog'da ko'rub ayog' nishoni,
Yopib iki ko'zi birla oni-

Kim: "Yor ayog'i yetmish erkin,
Tufrog'ini surma etmish erkin".

Gohi tilabon suvdin nishona,
Ashkin qilibon suvdek ravona-

Kim, "Jilva qilurda ul sumanbo',
Aksini topib edi ekin su".

Bulbul bila soz etib navoni,
Bulbuldin oshar edi fig'oni-

Kim: "Bejihat o'ldi bu maloling,
Chun yoring ila erur visoling.

Maskan sanga bo'ldi toza gulshan,
Gulbun uza aylading nishiman.

Gulshan aro mahrami haramsen,
Gul suhbati ichra muhtaramsen.

Go'yo bu murod emas pisanding,
Yo yor visolidin o'sanding-

Kim, shom-u sahar qilib marog'a,
Ming til bilan un solib arog'a.

Elga yeturub unungdin ozor,
Aytursen o'zungni oshiqi zor-

Kim, sen kibi ursa ishqdin dam,
Ishq ahli qachon tutar musallam?!

Sen ahli visolsen, dam urma,
Hajr ahli qoshida nukta surma!

Miskin meni dardmandi majruh,
Topmay tan aro nishonayi ruh.

Ya'ni g'am o'tida jismi zorim,
Yo'q jon kibi sarvi guluzorim.

Sen tortma nola mubtalovor-
Kim, nola erur manga sazovor.

Ollingda sening visoldin bog‘,
Bag‘rimda mening firoqdin dog‘.

Yoningda sening guli bahori,
Ko‘nglumda mening firoq xori”.

Chun chekti bu yerga navhayi dard,
Bo‘ldi yana aql-u hushdin fard.

Ul nav’ yiqildi tortibon oh-
Kim, joni, degilki, chiqti nogoh.

Bosh ustidagi nigahboni-
Kim, topshurub erdi qizlar oni.

Bir gulbun aro tutub kanora,
Ahvolin etar edi nazora.

Chun holin aning bu nav’ bildi,
Qo‘pti-yu qabila azmi qildi.

Yetgach qilibon qadamni rahko‘b,
Uy ichra xud erdi behad oshub.

Bu voqeadinki, Qays ul shom,
Tutmaydur edi vatanda orom.

Har yon kishilar qilib ravona,
Andin tilar erdilar nishona.

Chun ul ish edi xilofi odat,
Har dam edi g‘amlari ziyodat-

Kim, yetti xujastafol qosid,
Bo‘ldi borig‘a ravo maqosid[10].

Andin bo‘lub ul guruhi afgor,
Itgon Yusuflarin talabgor[11].

Ul dog‘i qilib tarona og‘oz,
Ko‘rganga bo‘lub fasonapardoz.

Har qissaki, anglabon tamomin,
Sharh etti yoshurmayin kalomin.

Chun bo‘ldi ayon bu mojarosi,
Behol o‘lubon ato-anosi.

Bo‘ldilar ani tilarga ozim,
Bal ahli qabila ham mulozim.

Qosid dag‘i xayl aro qadamkash,
Ul yerga, deginki, ul sitamkash.

Ko‘rgach ani aylabon nazora,
Ko‘nglak dema, ko‘ksi pora-pora.

Tufrog‘ ila yer uza hamog‘ush,
Aylab g‘ami ishq g‘orati hush.

Bori qilibon fig‘on-u zori,
Hozir qilibon ravon amori[12].

Aylab anga mahmil ichra manzil,
Manzil sori azm qildi mahmil.

Ey mahmili ishq sorboni,
Azm ayladi dard korvoni.

Bir gom qabila sori solma,
Har sori bu xayl borsa qolma.

XIV

Qaysning hajr shomida anduh xaylxonasidin chiqib, visol qabilasig'a azm etgoni va ul qabila o'ti bila hamzabonliq va iti bila hamdostonliq qilib, qabila qirog'ig'a yetgoni va Layli aning unidin hashamdin chiqib, bir-birin ko'rgach, ham ul va ham bu o'zidin ketgoni[1].

Bu nomayi dard uza qalamkash,
Mundoq qalamin qilur raqamkash:

Kim, Qaysi ramidahushi behol,
Bilmas edikim, yetishti ne hol?

Chun mag'zida hush bo'ldi paydo,
Ochdi ko'zin ul zaifi shaydo.

Ato-anosida g'am uza g'am,
Ne g'am uza g'amki, so'g-u motam.

Bu mehr ila manglayin o'pti,
Ul boshig'a evrulurg'a qo'pti.

Fahm ayladi Qays chun bu holat,
Suv qildi vujudini xijolat.

Ul birga xijolat aylabon fosh,
Bu bir ayog'idin olmayin bosh.

Ya'niki, uyotdin o'zda qolmay,
Andoqki, yuqori boqa olmay.

Chun ko'rdi ato bilo anosi-
Kim, oni halok etar hayosi.

Ahvolig'a qildilar muvoso,
So'z demadilar nasihatoso-

Kim, bu ish anga shigift tushmish,
Bu hodisa nogirift tushmish:

"Biz ko'p so'rsak bu so'z maqoli,
Nobud etar oni infioli[2].

Bu voqe'a tarki tutti erkin,
Ul vasvasani unutti erkin.

Tutqay oni emdi tab'i sofi,
Bu ishgaki, aylagay talofi.

Iffat haramida kesh tutqay,
Taqvo bilan zuhd pesh tutqay".

Qo'ptilar etib bu fikr loyiq,
Yo'qkim, ul ikov, bori xaloyiq.

Bu deb: "Anga turfa hol tushmish".
Ul debki: "Ajab xayol tushmish".

Xalq ollida dev urub anga yo'l,
Bilmay munikim, pari emish ul[3].

Har kim uyi sori gom solib,
G'am hujrasi ichra Qays qolib.

Bir lahza yengib ani tafakkur,
O'z holatig'a etib tahayyur.

Bir dam ishiga qilib nazora,
Topmay qatig' emgakiga chora.

Ishq ichra tutarg'a ko'h-u vodi,
Man' aylab ato-anosi yodi.

Tutmoqqa saloh ishq etib zo'r,
Ko'ngli mulki aro solib sho'r.

Ul choqqachakim, sipehri xudkom,
Ofoq uza yoydi pardayi shom.

Kofurni yopti mushki suda,
Ko‘k sham’i jahong‘a sochti duda.

Tiyra uy ichida ul g‘amandud,
To‘lg‘onib o‘ziga o‘ylakim dud.

Chekkach yana ishq o‘ti zabona,
Qo‘ymadi vujudidin nishona.

G‘am xayli ko‘ngul hisorin oldi,
Ishq ilgidin ixtiyorin oldi.

Layli g‘ami o‘yla qildi bedod-
Kim, ato-anoni qilmadi yod.

Oshiqlari holini unutti,
Ma’shuq uyining yo‘lini tutti.

Yuz urdi balo qabilasig‘a,
Ul mohliqo qabilasig‘a.

Ne gom solurda hushi yori,
Ne po‘ya qilurda ixtiyori.

Har dam yiqilib-qo‘pub urub gom,
Es birla ne sayr anga, ne orom.

Qo‘pub-yiqiluri mastlardek,
Bexudlug‘i mayparastlardek,

Chun bo‘ldi qabila o‘ti paydo,
Ul o‘t bila kuydi zori shaydo.

Ko‘ngli aro qo‘zg‘olib sharori,
Qolmodi sharoradek qarori.

Ko‘kka chekib ohi otasholud,
O‘t sori yuz urdi, o‘ylakim, dud.

Til chekti demak uchun tarona,
Ul nav’ki, o‘t chekar zabona.

O‘tdek dam ila tutub sarog‘oz,
O‘tqa boqib o‘ldi nuktapardoz:

“K-ey hajr tunida axtari ishq,
Raxshanda, nechukki, gavhari ishq.

Bal mash’alayi farog‘ sensen,
Yo gavhari shabcharog‘ sensen.

Dud ichra shararlaring hujumi,
G‘am shomi taharruki nujumi[4].

Sargashtayi g‘amg‘a tun savodi,
Lam’ang kelibon xujasta hodi[5].

Dudung bila dahr anbarolud,
Yo‘q dudkim, ul savodi maqsud.

Ko‘mgan kulung ichra har fatire,
Ko‘k xoni aro mahi munire.

Har ko‘zniki, ul yetib yoshortib,
Uchqon kulung anga surma tortib.

Gar qilmasa ko‘z yorutmoq ohang,
Ko‘zga nega keldi surmayi rang?

Yo oningdek ocharg‘a ko‘zni,
Xokistari etti surma o‘zni?

Axgar sanga har biri samin la’l.
O‘rtarg‘a ko‘ngulni otashin la’l.

Rangi nori-yu, tab'i nori,
Rummoni o'lub bu la'l bori[6].

Toj ustida la'ldin tarabdur,
La'l ustida toji zar ajabdur!

G'am shomi aro qo'lumni tuttung,
Hijron tunida ko'zum yoruttung.

Madhingni etay ne nav' zohir,
Shukrungni ne til bila dey oxir?

Oy-kun sanga ikki manqal o'lsun,
Heming bori ud-u sandal o'lsun[7].

Doim bu tariq-u shevani tut,
Ham yor-u ham jahonni yorut".

Kam qilmamish erdi bu navoni-
Kim, haydin keldi it fig'oni.

Ham jismig'a pech-u tob tushti,
Ham ko'ngliga iztirob tushti.

Faryod qilib ravon ul itdek,
Yuz nav' chekib fig'on ul itdek.

Andoqki, jafoyi osmondin,
Oqshom kishi qolsa korvondin,

Istab ani cheksa na'ra yori,
Ul ham chekgay fig'on-u zori.

Dasht uzra ul un so'ngicha ketgay,
To maqsad-u manzilig'a yetgay.

Solur edi gomi bexudona,
Og'zida valek bu tarona:

"K-ey mujdayi jon hazin nafiring,
Ruhumg'a g'izo biyik safiring[8].

Ham g'am tuni ko'rguzub vafo sen,
Ham gumshudalarg'a rahnamo sen.

Ul ko'yga evrulub qo'yub bosh-
Kim, boshinga men ham evrulay kosh.

Ul ko'ygakim, bo'lub badandesh,
Changol-u tishing tanin qilib resh.

El qoni ayog'laring hinosi-
Kim, jonim ayog'laring fidosi.

Men gar topmay bu komronliq,
Sen aylabon anda posbonliq.

Bukim, sen-u men biz ikki hamdam,
Men xor-u valek sen mukarram.

Sen yor eshigida shod-u masrur,
Mahrum men g'arib-u mahjur.

Sen ko'yida har taraf shitobon,
Men zorg'a jilvagah – biyobon.

Sen ko'yida tosh uza qo'yub bosh,
Boshimg'a firoqi yog'durub tosh.

Sen mendin o'lub vafoda afzun,
Ham sidqda, ham safoda afzun.

Yo'qsa ne uchun falak xiromi
Xor etti meni, seni – kiromi?

Bu shukrg'akim, sipehri xunxor,
Qildi seni muhtaram, meni – xor-

Kim, soz etibon fig‘onni mendin,
Gohi o‘p ul ostonni mendin”.

It birla tuzub bu mojarosin-
Kim, ko‘rdi qabilaning qarosin.

Oshufta ichiga yuzlanib sho‘r,
Qolmadi yurur ayog‘iga zo‘r.

Har necha yururg‘a sa’y qildi,
Chirmashti ayog‘i-yu yiqildi.

Nechaki, yiqildi, qo‘pti yona,
Yer o‘pmak edi anga bahona.

Chun hayg‘a yiqila-qo‘pa yetti,
Jon og‘zig‘a yetti, hushi ketti.

Gah hushida, goh hushidin fard,
Hay davrig‘a aylar erdi novard[9].

G‘am xayli baland poyasi ul,
Fitna cheriki taloyasi[10] ul.

Har lahza chekib fig‘oni jonso‘z,
Tortib o‘tlug‘ damin jahonso‘z.

Layliki, edi arab balosi,
Ham bor edi Qays mubtalosi.

Ko‘nglida qilib nuhufta dardin,
Forig‘ bo‘lub erdi xob-u xo‘rdin.

Tun-kun ichida aning xayoli,
Jonig‘a murod aning visoli.

Ul kecha bu choqqa tegru qayg‘u,
Qo‘ymaydur edi ko‘ziga uyqu.

Har dam urar erdi zulfdek pech,
Og‘zi kibi sabri yo‘q edi hech.

Tiyra qilibon kunin qaro tun-
Kim, nogah eshitti bir hazin un.

Ul undin ichiga tob tushti,
Ko‘ngliga ham iztirob tushti.

Qo‘pti dog‘i qo‘ydi ul sari gom,
Ko‘nglidin itib qaror-u orom.

Majmui qabila uyqu masti,
Illo buki, ishq poybasti.

Beishq ulusqa kom uyqu,
Ishq ahlig‘adur harom uyqu.

Voqif edi doya holatidin,
Ishq ofati-yu malolatidin.

Ham Qaysg‘a erdi mehribon ul,
Shavqidin etib fidoyi jon ul.

Maktab aro zoli mehrpesha,
Ko‘nglini so‘rub aning hamesha,

Ham bu yasab o‘zni doyamonand,
Ham ul munga aylab o‘zni farzand.

Ul oy chu yugurdi, chiqti doya,
Bordi so‘ngg‘icha, nechukki, soya.

Oyni chekar erdi ishqi bebok,
Ul yerga, deginki, Qaysi g‘amnok.

Bir-birini ko‘rgach ikki dilxoh,
Chektilar aningdek otashin oh-

Kim, o‘tlaridin jahon yorushti,
Xirmanlarig‘a bu shu’la tushti.

Emdiki, kul o‘ldi xirmani hush,
Behush yiqildi ikki madhush.

Doyaki, bu ishqi pok ko‘rdi,
Ul shu’layi so‘znok ko‘rdi.

Bu nav’ iki ishq o‘tig‘a tafson,
Og‘izlari noladin sadafson[11].

Bo‘lg‘onda bir vasl oshkoro,
Nutq urg‘ali yo‘q biriga yoro.

Ne bu anga dard-u rozin aytib,
Ne ul g‘ami jongudozin aytib.

Xurshed uyoqti bo‘lmayin layl,
Devor yiqildi yetmayin sel.

Ko‘p g‘am yedi so‘gvor yig‘lab,
Ikkisiga zor-zor yig‘lab.

Vahm ettiki, kimsa bilsa nogoh,
Bo‘lg‘uncha ul ikki o‘zdin ogoh.

Bo‘lg‘ay ikisiga xavfi jon ham,
Bo‘lg‘ay talaf ikki notavon ham.

Egniga qo‘yub birini holi,
Andoqki, quyoshni charx zoli,

Ul hamlda xam qilib qadin ham,
Ul nav’ki, zoli charxi qadxam[12].

Kelturdi-yu bistarig‘a soldi,
Yotquzdi-yu yondi po‘ya oldi.

Ul yerga, deginki, Qaysi bedil
Tufrog‘ uza yotmish erdi g‘ofil.

Kuyub onadek g‘amida joni,
Gah sudradi, gah ko‘tardi oni.

To chekti qabiladin yiroqroq,
El vahm-u gumonidin qiroqroq.

Kim ko‘rsa bu holi badpisande,
Jonig‘a tegurmagay gazande.

Devonani chun yiroq chiqordi,
Yondi-yu pari qoshig‘a bordi.

Yetkurdi-yu yotti doyagona,
To tongla ne o‘ynag‘ay zamona.

Ey zoli zamona, dod-u faryod!
Atfolinga necha zulm-u bedod?!

Bu xaylnikim, halok etarsen,
O‘z bag‘ring, erurki, chok etarsen!

XV

Qaysning g‘oyib bo‘lg‘onig‘a qabila ahli hozir bo‘lub, yeldek tog‘ va vodiyg‘a yetib, aning bir qum ichinda bexud yotqonin nazora etib, yel xoshokni eltgandek uyga eltganlari va aning ul pari ishqida xirad tariqin unutqoni va Majnunluqqa shuhrat tutqoni[1].

Mehnat tunidin fasonaovar,
Bu qissag‘a bo‘yla toqti zevar-

Kim, ul kecha Qaysi zori bedil-
Kim, bo‘ldi qabila sori moyil.

Layli hashamig‘a chun yovushti,
Tushti anga har ne ishki, tushti.

Kunduz ko‘rub uyda oni g‘oyib,
Tushti eliga yana masoyib.

Ham qildi atosi yig‘lamoq soz,
Ham etti anosi navha og‘oz.

Har yon kishilar qilib ravona,
Andin tilamak uchun nishona.

Jam’eki, izin topib saranjom,
Layli hashami sari urub gom.

Ul pay chu yetib muhoziyi hay[2],
Haydin chiqibon yana iki pay.

Bo‘lg‘och uchov ikkisi uzolib,
Qum uzra aning nishoni qolib.

Andoq topibon bu xayli chovush-
Kim, bo‘lg‘on ekin ul ikki behush-

Kim, qum uza qolibon nishona,
Yonmoqlari vaz’i bexudona.

Bir yotg‘oni sudralib shitobon,
Devona kibi tutub biyobon.

Bir yotg‘on o‘lub nihon paridek,
Yoxud kecha mehri xovaridek,

Bir iz yonibon qabila sori,
Kelgan sari-o‘q tushub guzori.

Ul jam’ bilibki, bo‘yla holat,
Ne ishlarga qilur dalolat.

Sudralgan xat bila tutub yo‘l-
Kim, qum uza yo‘l yasab edi ul.

Topib ani qum arosida gum,
Yel esib-u jismini yopib qum.

Tufroq aro g‘arq poy to farq,
Oning bila yo‘q o‘luk aro farq.

Qum ichra nuhufta zor jismi,
Jonsiz kibi xoksor jismi.

Ul xayl etibon yaqolarin chok,
Yig‘lab boshi uzra zor-u g‘amnok.

Andoq sog‘inibki, go‘yi oni,
Ko‘mmishlar o‘lturub nihoni.

Tortib ani tufrog‘ini ochib,
Tufrog‘ni boshlarig‘a sochib.

Anglab bir asiri dard-u ohi,
Og‘ziga nafas kelurni gohi.

Shukr aylabon o‘ldilar yana shod,
Devona ko‘ngulni aylab obod.

Tongib birov ustiga ani rust,
Azm ayladilar qabilag‘a chust.

Holin ko‘rubon bu nav’ atosi,
Yig‘lodi-yu g‘olib o‘ldi yosi.

Aylab anosi dag‘i fig‘onlar,
Ko‘zdin to‘kubon yuzig‘a qonlar.

To qo‘pti kelib dimog‘ig‘a hush,
Boshi quyi erdi, og‘zi – xomo‘sh.

O‘z holida ko‘rmayin salomat,
El har saridin qilib malomat.

Ul debki: “Sanga bu ne havasdur”,
Bu deb: “Havas o‘lsa muncha basdur”.

Har yondin o‘lub nasihatangez,
Har pand anga bir sinoni xunrez[3].

Qattig‘ so‘z ilaki, pand etib fosh,
Devona boshig‘a yog‘durub tosh.

Bu toshki, zohir o‘lmay otib,
Tan yo‘qki, so‘ngaklarin ushotib.

Bu dedi: “Kerak qulog‘ig‘a pand”,
Ul dedi: “Kerak ayog‘ig‘a band”.

Ul kun dag‘i bo‘ldi so‘z bila kech,
Oshufta yigitga yo‘q xabar hech.

Ne zajr mizoji ichra noxush,
Ne lutf tabiati aro xush[4].

To dahr yoshurdi kun charog‘in,
Savdozada qildi tun dimog‘in.

El aylabon uyqu sori ohang,
Savdo qilib oni uyda diltang.

Sekrib chiqibon qabiladin tez,
Dilbar hashami sori solib xez.

Tongla yana zor-u notavonlar,
Har yon yugurub qilib fig‘onlar.

Topib yana oni zor-u mahzun,
Dard ichra burung‘idin ham afzun.

Har tun bu sifat aning firori,
Har kun bu bo‘lub alar shiori[5].

Chun oshti qiyosdin balosi,
Islohdin o‘tti mojarosi.

Devonag‘a hush ahlidin pand,
Majnun so‘zidur dog‘i xiradmand[6].

Har lahza oshib aning balosi,
Har kun tilabon aning davosi[7].

Tadbirida el fusuni oshib,
Dam birla o‘ti batar tutoshib[8].

Ojiz bo‘lubon ato-anosi,
Balkim, bori xayl-u aqrabosi.

Nosihlari dam-badam zabunroq,
Savdosi zamon-zamon fuzunroq.

El yetmog‘ida chu bo‘ldilar sust.
Ul dog‘i jununin ayladi rust.

Savdo qilib oni muxtalifhol,
Tinmay yugurub so‘ngicha atfol.

“Majnun” bila aylabon xitobin,
Kim har ne desa, berib javobin.

El deb chu yetishsa ul jigarxun:
“Keldi Majnun-u keldi Majnun”.

Ul bo‘lub otin biluridin yot,
Mundin dog‘ikim, ne nimadur ot?

O‘z oti-yu qavm-u xayli oti,
Yo‘q yodida g‘ayri Layli oti.

"Layli, Layli" debon chekib un,
El deb: "Majnundur, ushbu Majnun".

Bu surat ila har saboh-u har shom,
Layli hashami sori urub gom.

Atrofiga evrulub necha davr,
O'z ko'ksiga toshdin qilib javr.

Har gomki, ko'ksiga urub tosh,
Avval qadam o'rnig'a qo'yub bosh.

Har davrda deb: "To'kulsa qonim-
Kim, sadqa qabilasig'a jonim".

Andin so'ng ashkidin to'kub sel,
Sahro sori chun qilur edi mayl.

Manzuri qabilayi dilorom,
Sayr ichra keyin-keyin urub gom.

Ul damki, arog'a kirsa hoyil,
Bo'lur edi dasht sori moyil.

Ey dashtni aylagan vatangoh,
Yo'l ozmisham, o'l zamone ogoh.

Qoldim o'ronishda, tut qo'lumni,
Ko'rguz karam aylabon yo'lumni.

XVI

Majnunni bexabar oshiqlig'idin Layli atosi xabardor bo'lub, Majnun atosig'a til sinoni, balki sinon lisoni bila zaxmzabonlar yiborgoni va ul bu halohil zahrin no'sh etib, singurub, Majnunni salosil va ag'lol bila muqayyad qilg'oni[1].

Bu safhani aylagan nigorish,
Afsona bu nav' etar guzorish:

Kim, qildi chu gardishi zamona,
Majnun so'zin el aro fasona.

Har kim tiliga bu erdi mazkur,
To barcha Arabda bo'ldi mashhur.

Layli atosig'a ham nihoni,
Arz etti bir-ikki mehriboni-

Kim: "Omir elida Qaysi badro'z,
Bu haydaki, erdi donishomo'z.

Topib ilm-u xiradg'a payvand,
Ham olim edi-yu, ham xiradmand.

Bo'lmish boridin farog'i go'yo,
Xabt etmish aning dimog'i go'yo[2].

Dasht uzra fig'on qilib hamesha,
Kezmak anga bo'lmish emdi pesha.

Oshuftalig'ig'a yo'q nihoyat,
Devonalig'ig'a had-u g'oyat.

Lekin el aro budur iborat-
Kim, aql-u havosig'a bu g'orat-

Bir ishq g'am-u balosidindur,
Bir hursifat havosidindur".

Some'[3] chu eshitti bo'ldi g'amgin,
Tishlab iligin dediki: "Miskin!

Ta'rifida ko'p o'tar edi so'z,
Go'yoki, anga tegurdilar ko'z.

Bas, qobil edi-yu dilpisand ul,
Ozodavash-u niyozmand ul.

Aqli komil-u kalomi ma'qul,
Bor erdi manga ham asru maqbul.

Ne erkin aning atosi holi,
Bechora anosining maloli?

Ne o'tdin ekin bu tobi oyo,
Ko'ngli aro iztirobi oyo?

Qay guldin ekin bu xorxori,
Qay sarvdin ashki jo'ybori?

Bu holig'a kim vasila erkin
Qiblagahi ne qabila erkin?"

Noqil dedi: "Ey xujastasurat!
Chun so'rdung erur demak zarurat;

Bu ishq gar o'lsa zisht yo xub,
Aylarlar ulus bu hayg'a mansub.

Go'yoki, ulus gumoni jupdur-
Kim, bu ishiga dalil ko'pdur.

Bu dashtda ko'p durur qaboyil-
Kim, ko'ngli emas biriga moyil.

Lekin anga har saboh-u har shom,
Yetmay bu qabilag'a yo'q orom.

Ham qiblayi joni bu qabila,
Ham jon-u jahoni bu qabila.

Bu hajla erur harimi iffat,
Esmay anga juz nasimi iffat[4].

Atrofida pardalar namudi,
Ismat bila zuhd tor-u pudi[5].

Lek ohi yeli yetishsa bebok,
Ko‘k pardasi bo‘lsa ham qilur chok.

Afg‘onida barcha bexabarliq,
Alfozida barcha pardadarliq.

Tab’i xush-u nazmi ham ravondur,
Andoqki, sanga dog‘i ayondur.

Nazmida bori bir ism mazkur-
Kim, ermas zikri bizga maqdur[6].

Biz oynuq, emdi sen bilursen,
Bu ishta, ne fikrkim, qilursen”.

Eshitguchi bildikim, nedur hol,
To‘lg‘ondi o‘ziga, o‘ylakim, nol[7].

Boshin tutub o‘ldi bir zamon gech,
So‘z demadi yaxshi, yo yomon hech.

Chun yaxshi taammul etti laxte,
Til chekti, nechukki, sho‘rbaxte.

Noqilg‘a dediki: “Tez urub gom,
Qil sayyidi omiriyg‘a e’lom:

“Kim, bo‘yla hadisi nomunosib,
Ne bizga-vu, ne sanga munosib.

Bor ermish ulus tilida jori,
Sendin bu ajab ko‘rundi bori-

Kim, mundoq ish anglab oshkoro,
Bu choqqacha aylading madoro-

Kim, topsa ishi junung‘a payvand,
Majnung‘a iloj – band erur, band!

Bilmangmu shukuh-u savlatimni,
A’rob aro mol-u shavkatimni?!

Ham o‘g‘lunga, ham sanga bilurmen-
Kim, har ne qilay desam qilurmen!

Lekin sanga bu tag‘oful o‘lmish,
G‘aflat yuzidin tajohul o‘lmish.

Qil zabtin aning, chu bo‘ldung ogoh,
Mundin norikim, nauzu billoh!..[8]

Bo‘lsa yana bo‘yla amr zohir,
Avval ani aylagumdur oxir.

So‘ngra sanga dog‘i qahr surgum,
Xaylingni bu dashtdin iturgum!”

Bu qahr o‘qidin chekib zabona,
So‘z homilin ayladi ravona.

Qosid kelibon aning payomin,
Aytur kishiga dedi tamomin.

Some’ chu eshitti so‘z hisobin,
So‘z topmadi degali javobin.

Ko‘nglini ul ish malul qildi,
Chora yo‘q edi – qabul qildi.

Qosid qo‘pubon chu bo‘ldi rahko‘b,
Tushti bu qabila ichra oshub.

To‘sh-to‘shqa chiqib bori qabila,
Majnung‘a topib yig‘or vasila.

Topib ani bir qum ichra nolon,
Qilg‘on kishidek qaroqchi tolon.

Dasht uzra anga qaror bermay,
Kelturdilar ixtiyor bermay.

Soldilar ani uy ichra bexud,
Zanjir ila aylabon muqayyad.

Andomi salosil ichra mahkam,
Har silsila pech-pech-u xam-xam[9].

Ey silsilayi junun aro band,
Bo‘lg‘il bu salosil ichra xursand.

Bu qayd ila kimki, shod bo‘ldi,
Mustavjibi yuz kushod bo‘ldi[10].

XVII

Majnunning firoq chohida tanur ichidagi o‘tdek tobi va hajr bandida tuzoqqa tushgan qushdek iztirobi va hakim fusunidin jununining tug‘yoni va tabib parhezidin isitmasining g‘alayoni va o‘z zahrkomlig‘ig‘a to‘kkan talx-talx sho‘robasi va bu sho‘robadin komida achchig‘-achchig‘ xunobasi va ko‘ngli o‘tidin temur bandi suv bo‘lg‘oni va suvdek sahro azmi qilib ashki suyidin vodilar to‘lg‘oni[1].

Bu halqa aro asiri qullob,
So‘z rishtasidin bu nav’ ochar tob:

Kim, telba chu bo‘ldi band asiri,
Ul band aro yuz gazand asiri.

Bir necha kun uyda erdi pobast.
Faryod anga goh baland-u goh past.

Yo‘q kunduz-u kecha xo‘rd-u xobi,
Dom ichida qushdek iztirobi.

Uyqu ko‘zidin tutub kanora,
Har kirpiki, uyqug‘a katora.

Ul ko‘zda ne nav’ turg‘ay uyqu-
Kim, bir nafas anda turmag‘ay su?

Ko‘ngli aro hushdin xabar yo‘q,
Ne hushki, ko‘nglidin asar yo‘q.

Qolmay chu solib balo o‘ti jo‘sh,
Tanda ko‘ngul-u ko‘ngul aro hush.

Savdo o‘tidin yonib charog‘i,
Dudig‘a maqar bo‘lub dimog‘i.

Bu dud chu ul uy ichra ortib,
Taqvo-yu xirad yuzin qarortib.

Emdiki, bu ikki toshibon raxt,
Anda urubon junun shahi taxt.

Ul dud bo‘lub sipohi savdo,
Har dam solib ul sipoh g‘avg‘o.

Bu nav’ dimog‘i ichra oshub,
Ko‘nglini junun etib lagadko‘b[2].

G‘am xanjari birla yora ko‘ngli,
Ne yoraki, pora-pora ko‘ngli.

Oning bu sifat g‘am-u balosi,
Bu turfaki, notavon atosi

Boshi uzra kelturub hakime-
Kim, bergay anga umed-u bime.

Ul ishq balosidin xabarsiz,
Ko‘ngli bu zabonadin shararsiz.

Anglab chu tabib iztirobi,
Har lahza anga qilib azobi,

Gah nukta surub nasihatomez,
O‘tin bu nafasdin aylabon tez.

Sharbat icharin iroda aylab,
Qon yutmog‘ini ziyoda aylab.

Berganda g‘izo olur uchun bahr,
Og‘zig‘a navolalar kelib zahr[3].

Chun man’ etib ashki xunfishonin,
Afzun qilib oh ila fig‘onin.

Chun debki: “Fig‘onni aylagil kam”.
Qon yoshi bo‘lub fuzun damodam.

Gohiki, yog‘och olib, urub rust,
Kulgu qilibon ramidani sust.

Chun kulgusidin topib xijolat,
Yig‘lamog‘i yetkurub malolat.

Har lahza anga qilib jafoye,
Ko‘rmak ani xastag‘a baloye.

Fahm aylamayin hakimi bedard-
Kim, o‘rtar ani ne so‘z-u, ne dard.

Paykondin etay debon tanin pok,
Jismin qilur erdi har taraf chok.

Bu chok tikarga mehribonlar,
Igna chekibon demay, sinonlar.

Paykon uchun ul tanini yorib,
Tikmakka bu xayl o‘q chiqorib.

Javrida bularg‘a bu tak-u po‘,
Paykon xud o‘lub g‘am o‘tidin su[4].

Ul sular oqib bori ko‘zidin,
Bechora sudek borib o‘zidin.

Gah o‘zida, gah yo‘q o‘zida,
Gah su, gah qon aning ko‘zida.

Bu nav’ edi necha vaqt holi,
Lahza-lahza oshib maloli.

Bir tunki, sipehri zulmatandud
Kun safhasin etti anbarolud.

Vah, tun demakim, qaro baloye,
Kun ganjini yutqon ajdahoye.

G‘am do‘zaxining buxor udi[5],
Otashkadayi firoq dudi.

Dudidin o‘lub malak siyahbol,
Tulidin o‘lub falak kuhansol.

Tong bulbuli tumshug‘i tutub rust,
Xuffosh qanotlarin qilib sust.

Bir uchi unutib ibtidoni,
Bir uchi sog‘inmay intihoni.

Tun yo‘qki, qarong‘u mehnatobod,
Oshiqlar-u xastalarg‘a – jallod.

Har telbaki, notavoni savdo,
Ul kecha anga jahoni savdo.

Bedardni masti xob qilg‘an,
Dard ahli ishin xarob qilg‘an.

Bu kechada dardmandi mahzun,
Hijron tunining asiri Majnun.

O‘z holig‘a chun taammul etti,
G‘am barqi vujudini kul etti.

O‘z holig‘a qildi navha og‘oz,
Har dardig‘a bo‘ldi navhapardoz-

Kim: “Bo‘lmasa netkay erdi budum,
Yo bo‘lsa edi adam vujudum?

Men xastani aylamakta mavjud,
Ne erdi ekin qazog‘a maqsud?

Jismimg‘a, qadarki, ruh berdi.
Bermasa edi ne bo‘lg‘ay erdi?

Chun jismima ruh bo‘ldi yo‘ldosh,
Tuqqon nafas o‘lsam erdi, ey kosh!

Ma’lum etibon chu o‘lganimni,
It ollig‘a solibon tanimni.

Jonimni xalos etib anodin,
Qutqorsalar erdi ming balodin.

Jismimni talashsa erdi itlar,
Qonimni yalashsa erdi itlar.

Qut aylasa qon-u raglarimni,
Chaynab, ushotib so‘ngaklarimni.

Ul to‘’maning ustida ulushub,
Qut aylasalar edi urushub.

Bal it dag‘i hayf bu g‘izog‘a,
Solmoq nedur itni ham balog‘a.

It jismimakim, tish urg‘ay erdi,
Urg‘on nafas-o‘q quturg‘ay erdi.

Telba bo‘lub o‘t jahong‘a solib,
Yuz xastayi notavong‘a solib.

Tor aylar o‘kush nafas charog‘i,
O‘lturgay edilar oni dog‘i.

Avlo bu ediki, shayn boshlab,
Kuydursalar erdi o‘tqa toshlab[6].

Ul o‘t aro pech-u tob birla,
Kuysa edi iztirob birla.

Qolg‘och kuli o‘t aro nishoni,
Sovursalar erdi ko‘kka oni.

Ul ko‘kka dag‘i yetib kasofat,
Bo‘lg‘ay edi shoyad abri ofat.

Emdiki, ne bu va ne ul o‘ldi,
Jismimg‘a baqo sori yo‘l o‘ldi.

Yetmasdin burno ishqdin zo‘r,
Kosh o‘lg‘ay edi iki ko‘zum ko‘r.

Izhor etibon bu benavoliq,
Qilsam edi qut uchun gadoliq.

Muhtoj bo‘lub ilik-ilikka,
Sayr etsam edi eshik-eshikka.

Bir luqmag‘a men bo‘lub balokash,
Bir luqmaxo‘r ollima asokash.

Bu hodisayi halok ichinda,
Onsiz yiqilib mag‘ok[7] ichinda.

Tortib bu mashaqqat-u baloni,
Ko‘rmagay edim bu ibtiloni[8].

Ko‘zdin u anog‘a uchramishmen,
Yuz dard-u balog‘a uchramishmen.

Bo‘lmasa ul ikki[9] motamangez,
Boshimg‘a iki baloi xunrez,

Bo‘lg‘aymu edim nazarda ma’zur,
Qilg‘aymu edim kishini manzur?

Mash’uf bo‘lub nazar ishiga
Bergaymu edim ko‘ngul kishiga?

Xossa, ne kishiki, jon balosi,
Ne jonki, bari jahon balosi.

Ulkim, el agar ochib niqobin,
Ko‘rguzsa jamoli oftobin.

Bir lam’adin[10] o‘t jahong‘a tushgay,
Balkim, to‘quz osmong‘a tushgay.

Ul o‘t ichida quyosh fatiri,
Oyni n e deyinki, qursi qire[11].

Men dahrda bir zaif xasmen-
Kim, jismda xascha ham emasmen.

Ko‘z ko‘rmak ila yig‘ib havasni,
Ul o‘tg‘a g‘anim etar bu xasni.

Netkay necha bo‘lsa ishq bebok,
Ming barqning o‘trusuda xoshok?

Chun zo‘r qilib bu mubtalog‘a,
Solg‘ay bu azim ibtilog‘a.

Qo‘ymay ul o‘tqa xos bo‘lmoq,
O‘rtanmak ila xalos bo‘lmoq.

Hijron o‘ti o‘lg‘ay anga ro‘zi-
Kim, bo‘lg‘ay ming bu o‘tcha so‘zi.

Hajr o‘tida ham junung‘a solg‘ay,
Ham mehnati gunagung‘a solg‘ay.

Bo‘lmay bu baliya birla xursand,
Zindong‘a solib ham aylagay band.

Chun hush ila aqlini iturgay,
Boshig‘a hakim ham keturgay.

Yuz mehnat-u bim dardi bir yon,
Bedard hakim dardi bir yon.

Jon yora qilurg‘a ul qo‘yub yuz,
Pand ahli sepib yarosig‘a tuz.

Yuz muncha g‘am o‘lsa umrfarsoy,
Bo‘lsam edi ko‘h-u dashtpaymoy.

Gah tog‘ aro nola ursam erdi,
Gah bodiyada yugursam erdi.

Filjumla bor erdi ehtimoli,
Qilmoq nafase ko‘ngulni xoli.

Bir uy qachon o‘lsa o‘tqa maskan,
Bog‘lansa eshik, tutulsa ravzan[12].

Chok o‘lmoqdin maof bo‘lg‘ay,
Bal har tarafi shikof bo‘lg‘ay.

O‘t har tarafin shikof qilmoq,
Bo‘lg‘ay anga mujibi yiqilmoq.

Ko‘nglum uyin etti qayg‘u zindon,
Jism uyi yana qarong‘u zindon.

Zindonki, tanimdur anda mahbus,
Ham tungluki, ham eshiki madrus.

Ichkarrak uy ichra g‘ussa tobi,
Bal furqat o‘tining iltihobi.

Uylar, ne ajab, yorilmoq oxir,
Bir-biri uza yiqilmoq oxir.

Bu ikki-uch uy chidorg‘a ne had,
Bal yetti-sekiz rafi’ gunbad.

Ul o‘t tafidin ayon qilib larz,
Ochilg‘ali har biriga yuz darz.

Ovaxki, bu o‘tdin o‘ldi tobim,
Yo‘q, yo‘qki, ichimda iztirobim.

Kulbamda-vu maskanimda bu o‘t,
Jonimda bu o‘t, tanimda bu o‘t.

O‘t ichra, birovnikim, solurlar,
Bandini ayog‘idan olurlar.

O‘t band ila bo‘ldi jilvagohim,
Mundoqmu azim emish gunohim?

O‘t, oncha emaski, bu qaro dud,
Yo‘q dudki, shomi dudaandud.

Jonimda oning qaro balosi,
Ko‘nglumda ham oning ibtilosi.

Tun yo‘qki, meni qaro bosibdur,
Yo ko‘hi g‘am-u balo bosibdur.

Gar bosmadi jismim ul og‘ir yuk,
Mundoq nega bo‘ldi betaharruk?

Yo jon qushi uchti jismi xasdin,
Azmi vatan ayladi qafasdin?”

Tang‘a ne taharruk ixtiyori,
O‘lgan harakatdin o‘ldi ori.

Jismini qilib mazanna sokin,
Tolpinmoq edi ishi va lekin[13].

Chun jismi edi nahif asru,
Oyog‘, iligi zaif asru.

Solg‘onda oyog‘-ilik urub tob,
Jon rishtalarig‘a kelturub tob.

Ham sing‘on emish yig‘ochg‘a payvand,
Har chiqmish ayog‘idin temur band.

Chun topti bu iztirobi taskin,
Chekkach oyog‘ ul g‘aribi miskin.

Ko‘rdiki, xalos erur ayog‘i,
Ikki qo‘li, balki bo‘yni dog‘i.

Yuz shukr ila yerga qo‘ydi boshin,
Ko‘zdin oqizib niyoz yoshin.

Ohista qo‘pub eshikni ochti,
Borg‘oncha zaif oyog‘i, qochti.

Bir dashtqa ketti ul makondin-
Kim, qat’i yiroq edi gumondin.

Ey qaydi zamona birla xursand,
Bo‘lg‘on senga o‘zlukung og‘ir band.

O‘zlukdin o‘zungni ayla ozod,
To dashti fanog‘a kirgasen shod.

XVIII

Laylining sarvi xiromoni gulshandin uyga xirom qilg‘onda Ibn Salom[1] ko‘ngli qushi ul sarv sori havo qilg‘oni va ul havoda bahor nasimi shukufa yafrog‘in to‘kkondek diram-poshliq qilib, umed gulbunidin murodi guli ochilg‘oni va ul nasim taharrukidin sarvi gulrux soyadek takassur tufrog‘iga yiqilg‘oni[2].

Mundoq dedi so‘z guharfishoni,
Ayturda bu nuktadin nishoni-

Kim, uyga sumanbari gulandom,
Chun bog‘din etti azm ul shom.

Olam aro chehradin gul ochib,
Xay[3] birla gulob yerga sochib,

Zohir qilib ul gul-u gulobi,
Ishq o‘tidin o‘zga ob-u tobi.

Har bir mongishida yuz latofat,
Yo‘q, yo‘qki, sochib jahong‘a ofat.

Gul bargiga sarv uzra manzil,
Ham sarvi ravoni gulga homil.

Ta’rif qilurcha yuz jamoli,
Vasf etgucha yuz ming e’tidoli.

Lekin g‘ami ishqdin mushavvash,
Uyga borur erdi ul parivash.

Yo‘lda oni ko‘rdi navjuvone,
Xayli arab ichra komrone.

Solim anga barcha aybdin zot,
Baxt Ibni Salom deb anga ot[4].

Ham otig‘a yo‘q shumora paydo,
Ham qo‘yig‘a yo‘q kanora paydo.

Sahroni tutub tevasi yakband,
Haykal aro barcha ko‘hmonand.

Chun molig‘a kimsa bilmayin son,
Har mushkil o‘lub qoshida oson.

Mehnat tunida yo‘l aylagan gum,
G‘am yo‘q chu ko‘rar diramdin anjum.

Chun Ibni Salom ko‘rdi oni,
Shavq o‘tig‘a tushti xasta joni.

Ul chora ishiga bo‘lmadi sust,
Payvand xayolin ayladi chust.

Azm etti qabilasig‘a filhol,
Yig‘di neki, mumkin erdi amvol.

Yuz nav’ hadiyayi kiromi,
Yuz tuhfayi naqd barcha nomi.

Hodi qilibon necha xiradmand,
Afsonaguzor-u shayxmonand.

Sharh aylab alarg‘a orzuni,
Ul bobda barcha guftugo‘ni.

Maqsudg‘a so‘zni band aylab,
El barcha so‘zin pisand aylab.

Yuklab bori tuhfa-vu xizona,
Maqsad sari bo‘ldilar ravona.

Layli otasi bo‘lub xabardor,
Ul mujdadin o‘ldi bahrabardor.

Chun Ibni Salomni burunroq
Tonir edi barchadin fuzunroq-

Kim, yor anga hush ila xiraddur,
Moli-yu jihoti beadaddur.

Ham xayli Bani Asadg‘a[5] voli,
Yuz xayli Bani Asadcha moli.

Topib chu bu nav’ komronliq,
Yuz mehr ila qildi mizbonliq.

Mehmonlar ani chu ko‘rdilar garm,
Fosh ayladilar shafoat-u sharm.

Tortib neki tuhfayi kiromand,
Andin so‘ng o‘lub fasonapayvand.

Izhor etibon viqor-u tamkin,
Yuz nukta surub balog‘atoyin.

Ta’riflar, o‘ylakim, sazodur,
Mazkur etib ulcha muddaodur.

Maqsudlarin chu aylabon fosh,
Posux tilay-u[6] quyi solib bosh.

Some’ chu qilib g‘arazni tahqiq,
Dediki: “Xudoy bersa tavfiq,

Ul qilsa o‘g‘ullug‘um havosi,
Bo‘lg‘aymen-u men dag‘i atosi.

Durrum anga zebi torak o‘lg‘ay,
Inshoolloh, muborak o‘lg‘ay.

Lekin anga sabr ham kerakdur-
Kim, shoxi gulum shikastarakdur.

Ham navras erur bu naxli ummed.
Ya’niki, hilol erur bu xurshed[7].

Ham tab’ida qolmasun maloli,
Ham sarvig‘a yetsun e’tidoli.

Andin so‘ng bu xujasta farzand,
Ne komki, bo‘lmish orzumand.

Kelsun dog‘i jomi vasl etib no‘sh,
Sarv o‘lsun-u gul bila hamog‘o‘sh”.

Ummed ila barcha shodmona,
Uylar sari bo‘ldilar ravona.

Ul vaqtkim, ul buti diloro,
Gulshan sari bo‘ldi mahfiloro.

Bog‘ ichra kezarda har taraf tez,
Gullar anga ochti ishqi xunrez-

Kim, rozi ochildi har biridin,
Bal qon isi keldi har biridin.

Ya’niki, sug‘urdi tig‘i bebok,
Ko‘ngli aro soldi chok uza chok.

Chun g‘unchani pora-pora qildi,
Ishq ichra anga bu gul ochildi.

Yo‘qkim, chamanida g‘unchai dard,
Chok o‘lg‘ach ochildi otashin vard.

Chun ishq bu otashin gul ochti,
Gulbarg kibi sharora sochti.

Bu o‘t bila kuydi joni dog‘i,
Balkim, tani notavoni dog‘i.

Bas, yo‘q edi ishq o‘ti gudozi,
Yetti g‘ami hajr turktozi[8].

Ul ravzadin ul nishonayi hur,
Ham oshiq-u ham zaif-u mahjur.

Hosil xo‘r-u xobi ketmish erdi,
Ul sori azimat etmish erdi.

Har dam bo‘lur erdi notavonroq,
Ahvoli nafas-nafas yamonroq.

Lekin bu so‘z erdi qiyl-u qoli-
Kim, sayrda avd etib maloli[9].

Bo‘lmish tanig‘a isitma ozim,
Za’f o‘lmish aning bila mulozim.

Degan anga o‘zni yor-u yovar,
Bu so‘zni qilurlar erdi bovar.

Lekin bilur erdi ba’zi oni-
Kim, o‘zga balo durur nihoni.

Doya bila necha mahrami roz,
Bor erdilar anga g‘ussapardoz.

Ranjida g‘amin erurlar erdi,
Dardida ko‘ngul berurlar erdi.

Anglab edi doyayi jigarso‘z,
Har ul necha mahrami g‘amando‘z-

Kim, Ibni Salom ishini ul hur
Fahm etgach o‘lur mizoji ranjur.

Ham jismi zabunroq o‘lg‘usidur,
Ham dardi fuzunroq o‘lg‘usidur.

Andin yoshururlar erdi behad-
Kim, bilmagay oni sarvi gulxad.

Ul ishq o‘tidin mushavvash erdi,
Bu shu’la ichinda sarkash erdi.

Bir kun necha xayl-u oshnosi,
Nisbat aro xesh-u aqrabosi.

Kelmishlar edi iyodatig‘a,
Bal mehnatining ziyodatig‘a.

Bir zoli ramidahushi fartut,
Tadbiri xato-vu aqli mabhut[10].

Bedilni dame qilurg‘a xushdil,
Til chekti, ne tilki, tig‘i qotil.

Zohir qilib ul g‘ami nihoni,
Soldi arog‘a bu mojaroni-

Kim: “G‘am yema, ey guli sumanbar,
Zulfung sepib ul yuz uzra anbar.

Tonglaki, yetib zamoni sihhat,
Topsa badaning nishoni sihhat.

Baxt ichra ayon bo‘lub kushoding,
Hosil bo‘lg‘ay bori muroding.

Ul nav’ki, yo‘q sanga nazire,
Yoring dag‘i tushti dilpazire.

Mahvashlar aro bu guftugo‘dur,
Iqboling alarg‘a orzudur.

Lekin bu talab natija bermas.
Davlat ishi sa’y birla ermas.

Baxting mayi to‘ldi, shukrilillah,
Bas turfa ish o‘ldi, shukrilillah”.

Ul kimsaki, dostonin aytib,
Ham otin-u, ham nishonin aytib.

Bu so‘zlar eshitgach ul diloro,
Bildi ne ish o‘lmish oshkoro.

Ko‘nglin buzub ul sifat masoyib,
Za’f etti o‘zidin oni g‘oyib.

Ey maxfiy o‘lub, valek zohir,
Ko‘zga g‘oyib, ko‘ngulga hozir,

Chun yorutqung ko‘ngul charog‘i,
Qil jilva ayon ko‘zumga dog‘i.

XIX

Ul g‘azoli mushkin saydig‘a Bani Asad ahli qasdi ma’lum bo‘lib, quyosh zarrin g‘azolasi mag‘rib xilvatgohida sorg‘orib titrab, shafaq xunobin to‘kkandek xilvat uyda tufrog‘ va qon aro iztirob ko‘rguzgoni va falak zolidek anosi ul ishdin voqif bo‘lub aning holig‘a navha tuzgoni[1].

So‘z chashmasin, ulki, qildi kovish,
Bu nav’ su ayladi tarovish[2]:

Kim, za’f ila sarvi sidrapoya-
Kim, yotmish edi, nechukki, soya[3].

Chun hushig‘a keldi ayladi yod,
Ul so‘zniki, andin erdi noshod.

Ortar edi dam-badam maloli,
Ko‘nglin qila olmas erdi xoli.

Ko‘rdiki, halok bo‘lg‘udekdur,
Umri to‘ni chok bo‘lg‘udekdur.

Doyasig‘a ko‘p tazallum etti,
Yuz ajz bila takallum etti:

“K-ey holima aylagan madoro,
Sirrim nazaringda oshkoro.

Sendin ishim o‘lmag‘an nihoni,
Har mehnatim o‘lsa bilgan oni.

Bir so‘z eshitib durur qulog‘im-
Kim, shu’lasidin kuyar dimog‘im.

Go‘yo oni sen dag‘i bilursen,
Lekin mendin nihon qilursen.

Gar daf’ eta olsang erdi oni,
Qilg‘ung edi anda sa’yi joni.

Sen daf’ etmak emas chu maqdur,
Tong yo‘q seni tutsam anda ma’zur.

Lekin erur ushbu iltimosim,
Bir dam tutsang eshikda posim-

Kim, ko‘nglum erur xalul asru,
G‘avg‘odin erur malul asru[4].

El kirmasa xilvatimg‘a bir dam,
Qo‘ysa meni mehnatimg‘a[5] bir dam”.

Doya ko‘ziga qo‘yub ilikni,
Chiqti dag‘i bog‘ladi eshikni.

“Turmang, – dedi, – uyga yoqin ul, bu-
Kim, kirmish ul oy ko‘ziga uyqu”.

Layli ko‘rub eldin uyni xoli,
Chok etti urub yaqoni holi.

Gah baxti ko‘ziga urdi tufroq,
Gah boshi uza sovurdi tufroq.

Ko‘ksinki, urub figor qildi,
Tirnog‘i bila shiyor[6] qildi.

Ekti sochibon sirishki anbuh,
Tan mazrai ichra tuxmi anduh[7].

Rangin yoshidinki, to‘kti xunob,
Yuz safhasi ichra chekti abvob.

Har bobida yozilib hisobi,
G‘am darsida bir balo kitobi.

Hasrat ovuchin qoqib, chekib oh-
Kim, tortar edi fig‘oni jonkoh.

Ul unlar ila topib damodam,
Iqbol-u nishot qushlari ram.

Egar edi koj urub qamarni,
Kun chashmasi ichra nilufarni.

Ul yuzga bo‘lurga g‘ayr mahram,
Kiydurur edi libosi motam.

Debkim: “Nedur, ey sipehri zolim,
Solmoq bu shikastalikka holim?

Naxlimg‘aki, erdi zerdasting,
Ne erdi shikast uza shikasting?

Naxliki, ushotting oni oson,
Tufroq ila qaddi bo‘ldi yakson.

Tortib yana teshayi jafoni,
Yuz pora ne erdi qilmoq oni?

Emdiki, qilib jafo pisandin,
Bedoding ayirdi band-bandin.

Nedur yana juzv-juzvin olmoq,
Otashkadayi balog‘a solmoq?

Men bor edim ul niholi navras,
Yo‘q shoxima xor-u tegrama xas.

Shoxi tarabim bu dam qilib gul,
Boshim uza tongla ochilib gul.

Ne naxlima mevadin nishoni,
Ne bargima ofati xazoni-

Kim, bag‘rig‘a xor tiktim erkin,
Ne ko‘kka boshimni chektim erkin-

Kim, ishq eliga qotting oni,
U sarsar ila ushotting oni.

Ishq oni ushotkach oshkora,
Hijron qo‘lig‘a berib katora,

Boshtin-ayog‘ini yora qilding,
Ajzosini pora-pora qilding.

Chun aylading oni necha parkand,
Qilmay munga ham o‘zungni xursand.

Kuydurgali juzv-juzvin olding,
G‘am do‘zaxi ichra dog‘i solding.

Do‘zax manga emdi bu xabardur-
Kim, jonima o‘tidin sharardur.

Yo‘q, yo‘q, ne shararki, barqi ofat,
Andin bori dahr g‘arqi ofat.

Ofat o‘ti dahr aro tutoshsa-
Kim, dudi oning falakdin oshsa.

Andin manga tushsa bir sharora,
Kul bo‘lmoqdin yo‘q o‘zga chora.

Xossa, tutoshib bu notavong‘a,
Andin sharare tushub jahong‘a.

Ham dahrni qilg‘ay otasholud,
Ham ko‘kka yetishgay o‘tidin dud.

Ul o‘t aro bu zaifi g‘amnok,
Qaysi g‘amnok, balki xoshok.

Xoshok dema, shikasta mo‘re,
Joni yukidin tanig‘a zo‘ri.

Ul mo‘rg‘a tushsa bo‘yla do‘zax,
Ovax, nechuk etgusidur, ovax.

Ul mo‘r meni shikastapomen-
Kim, bu tomug‘ ichra mubtalomen.

Bir mo‘r ne qilmish o‘lg‘ay, ey charx,
Qilmoqni ne bilmish o‘lg‘ay, ey charx-

Kim, qasdig‘a tez o‘lub xiroming,
Ming barq ila bo‘lg‘ay intiqoming.

Men xud bu sifat balo asiri,
Yuz mehnat-u ibtilo asiri.

Ul zori zaifi noguzirim-
Kim, bordurur mening asirim.

Oyo, ne ekin g'amimda holi,
Chirmonmoq ila tani chu noli?

Ishqum o'tida yodarmu erkin,
Hajrim g'amida chidarmu erkin?

Shavqum chiqorurmu erkin ohin,
Ohi uchururmu jismi kohin?

Savdoki, sochim g'amida tortar,
Har lahza nechuk jununi ortar?

Chun qaddim uchun tuzar navoni,
Ne nav' biyik bo'lur fig'oni?

Chehram tilab o'lsa navhaangez,
Aylarmu ekin sirishki gulrez?

Zulfum shikanida qilsa atnob,
Jismig'a nechuk tushar ekin tob?

G'amzam sari bo'lsa fikratandesh,
Sonchilur ekinmu bag'rig'a nesh?

La'limki, suv oqizur ko'zidin,
Borurmu ekin sudek o'zidin?

Og'zim so'zin aylagach takallum,
Bo'lurmu ekin adam aro gum?

Belim sori chun tushar xayoli,
Qolurmu vujudi ehtimoli?

Qoshim xamidin chu tortqach voy,
Qaddi xam o‘lurmu, o‘ylakim, yoy?

Fikreki, mijamdin aylar erkin,
Yuz xor aro ko‘ngli naylar erkin?

Ko‘zum sari sursa mojaroni,
Ko‘rmas ekin oq ila qaroni.

Ernim g‘ami ashkin etsa Jayhun[8],
Borurmi ekin ul ashki maygun?

Xolim g‘ami yeb to‘yarmu erkin,
Ko‘z mardumini o‘yarmu erkin?

Yod etsa tazarvdek xiromim,
Bo‘lurmu ekin asiri domim?

Istarmu ekin yuzumni har kun,
Yo‘qlarmu ekin sochimni har tun?[9]

Dardimdin o‘zi yodob ekinmu,
Hajrimdin ishi xarob ekinmu?

Bas yo‘q anga muncha mehnat-u g‘am-
Kim, bilgusidur bu qissani ham.

Bu ishki, emas xujastafoli,
Xud bo‘lmog‘ining ne ehtimoli.

Olam eli bir yon o‘lsa yaksar,
Mumkin emas o‘lmog‘i muyassar!

Sog‘ing‘ay ul emgak oshnosi,
Mendin bo‘lmoq bu ish rizosi.

Gar har g‘am aro o‘zumni solmon,
Bu g‘amg‘a, netayki, tuza olmon.

Faryodki, o‘lgudek g‘amim bor,
Tong yo‘q, gar o‘zumga motamim bor”.

Xilvatda anga bu navhalar ish,
Ongdib anosi kaminda ermish.

Anglab oni bo‘yla munqalibhol,
Ko‘p bo‘ldi bu g‘amda muztaribhol.

Tun-kun ishi mohpora fikri,
Bu dard-u g‘amig‘a chora fikri.

Ey choranamo, ilik yig‘ishtur-
Kim, dardima chora sa’b ishtur.

Chora tilamakdin et kanora,
Bechoraliq angla bizga chora.

XX

Majnunning atosi ani ishq bodiyasidin kelturub, Ka’ba tavofig‘a olib borg‘oni va ul munojot bahonasi bila ko‘nglidagi chirni yozg‘oni va duo qilmoq taronasi bila xotiridag‘i maxfiy maqosidin tilidin chiqorg‘oni va Arafot[1] ahlidin arasot[2] qo‘porg‘oni[3].

Mundoq dedi noqili maoni,
Qilg‘och bu bade’ so‘z bayoni-

Kim, qochti chu ul ramidapayvand,
Ul tun evidin ramida monand.

Kunduz eli uyda topmay oni,
Boshlab yana navha-yu azoni.

Har yon chiqibon yayog‘-u otliq,
Qaytib bori topmayin uyotliq.

Lol etti yana atosini g‘am,
Behol-u hazin anosini ham.

O‘lturdilar ikki zori bexud[4],
Ko‘p fikr etib, ettilar yana rad.

Ko‘p so‘z yuzin ul ochib, bu yopti,
Oxir munga so‘z qaror topti-

Kim, har saridin uzub tavaqqu’,
Tengriga-o‘q aylabon tazarru’.

Haqdin ikov oni istagaylar,
Paydo-vu nihoni istagaylar.

Xushvaqt qilib niyoz ahlin,
Osudazamir roz ahlin.

Har go‘shanishin-u benavoye,
Qilg‘aylar aning uchun duoye.

Haq rahm etib ikki benavog‘a,
Bergay oni ul ato-anog‘a.

Haj mavsimi erdi ittifoqi,
Aylab bori Ka’baning yaroqi[5].

Borib necha kun tilab o‘z-u yot,
Majnunni topib keturdilar bot.

Qildilar ani ul ishdin ogoh,
Ul ish anga ham bor erdi dilxoh.

O‘lturtub ani amori ichra,
O‘tni manqali hisori ichra.

Fursatni bori bilib g‘animat,
Ka’ba sori qildilar azimat.

Chun bo‘ldilar ul haramg‘a mahram,
Yo‘q, yo‘q, ne haramki, Arshi A’zam[6].

Yer uzra sipehrdin nishone,
Tufroq uza, balki, osmone.

Yer maqdamidin falakka monand,
Ul bu falak uzra Arshpayvand.

Har rukni kelib sukung‘a maqrun,
Arkon anga misli rub’i maskun[7].

Yo so‘fiyi mazhari jamoli,
Juz haqdin o‘lub zamiri xoli.

Yer nat’ida o‘lturub murabba’,
So‘fi kibi egnida muraqqa’.

O‘rnida, nechukki, qutbi sobit,
Atrofi ushoq toshi savobit.

Ne qutbki, tegrasida aqtob,
Mujgon bila xokro‘bi abvob.

Mehnat xasin anda topmayin el,
Azbaski, malak qanotidin yel.

Avjida maloik uchmog‘i fosh,
Har kecha, nechukki, xayli xuffosh[8].

So‘zdek topibon asosi mahkam,
Ko‘zdek kiyibon libosi motam.

Tavfidin ulusqa zilli shohi,
Atrofi sipehr sajdagohi.

Majnung‘a ko‘rungach ul salobat,
Ko‘ngli sari yuzlanib mahobat.

Ishq etti dimog‘ini mushavvash,
Ko‘ngli aro shavq yoqti otash.

Yog‘durdi ko‘zi yoshin yog‘indek,
Oh urdi-yu sekridi choqindek.

Davrida haramning o‘ldi doyir,
Yer girdida misli charxi soyir.

Yuz birla qilib toshini zarkor,
Ashkin oqizib, nechukki, pargor.

Ruxsori supurgach ul eshikni,
Halqasig‘a urdi chust ilikni.

Har bormog‘ig‘aki, rust o‘lub tob,
Bir halqag‘a tushti necha qullob.

Ul tavqi murod ichiga darham,
Qullobi muhabbat o‘ldi mahkam.

Qullobi chu bo‘ldi halqag‘a band,
Zanjiri tazallum o‘ldi payvand.

Bir nav’ tazallum ohi chekti,
Ul dud ila g‘am sipohi chekti-

Kim, charx libosin etti ul dam
Ka’ba to‘nidek libosi motam.

Aylab ani bo‘yla motami zor,
Faryod ko‘tardi motamivor.

Dediki: “Ayo Hakimi dono,
Har hukmda hokim-u tavono!

Ey ishq o‘tin aylagan jahonso‘z,
Andin meni notavonni jonso‘z.

Ey urg‘on ul o‘tni xirmanimg‘a,
Xirman neki, jon bila tanimg‘a!

Ey ishq angakim, mulozim etgan,
Hijron o‘tin anga lozim etgan!

Ey kimgaki, ishqdin solib band,
Talx aylab anga nasihat-u pand!

Ey ishq ila onikim qilib fosh,
Atfoldin anga yog‘durub tosh!

Ey kimniki, aylagan parichehr,
Devonasi sori bermagan mehr!

Ey jon aro solib ozari ishq,
Ko‘ngul sadafida gavhari ishq[9].

Ishq ichra bukun meni shikasta
Kelmishmen asir-u poybasta.

Har ragi tanim ichra ishq bandi,
Jon rishtasi ishqning kamandi.

Tori badanim aro bo‘g‘unlar,
Ham ishq tanobidin tugunlar.

Jismim aro dog‘i bekarona,
Ishq o‘tlaridin kelib nishona,

Mamlu aning o‘ti birla jonim,
Jonim neki, mag‘zi ustuxonim.

Bu ishq o‘tikim, bayon qilurmen,
Muhlik g‘amini ayon qilurmen.

Demonki, meni tarabg‘a xos et,
Yoxud g‘ami ishqdin xalos et!

Dermenki, manga bu o‘tni har dam,
Afzun qil-u, qilma zarraye kam!

Chek, aynima ishq to‘tiyosin,
Ur qalbima ishq kimiyosin!

Ko‘nglumga fazo harimi ishq et,
Jonimg‘a g‘izo nasimi ishq et!

Ishq isidin et damimni mushkin,
Ishq o‘tidin et yuzumni rangin!

Bo‘ynum uza, “ayn”in aylagil tavq,
“Shin”in qil ichimga shu’layi shavq.

“Qof”ni manga ayla ko‘hi anduh,
Ko‘nglumga g‘amini ko‘h to ko‘h,

Uch nuqtasini sharora ayla,
Ikkisini ikki xora ayla[10].

Ul shu’lag‘a ham kerak sharora,
Bu qofg‘a dog‘i xora pora.

Jonimg‘a sol ul sharorani ham,
Boshimg‘a ur ushbu xorani ham.

Yuz munchag‘a elni mone’ etma,
Ming munchag‘a meni qone’ etma!

Ko‘nglum g‘am ila to‘q ayla, yo Rab!
Ishq ichra meni yo‘q ayla, yo Rab!

Derlar manga: “Ishqni unutg‘il,
Layli g‘amidin kanora tutg‘il”.

Alloh-alloh, bu ne so‘z o‘lg‘ay,
Ul qavmg‘a Tengri uzr qo‘lg‘ay.

Yo Rabki, bu xushguvor boda,
Jomi talabimg‘a quy ziyoda!

Ul bodadin o‘yla tut manga qo‘sh-
Kim, yodima hargiz o‘tmasun hush!

Layli ishqin tanimda jon qil,
Layli shavqin ragimda qon qil[11].

Dardimni najotim et, Ilohi,
Yodini hayotim et, Ilohi!

Har damki, emas aning xayoli,
Ko‘nglum uyin andin ayla xoli!

Har o‘tki, yo‘q anda ishq so‘zi,
Men xastag‘a qilma oni ro‘zi!

Huyiki, emas aning g‘amidin,
Fosh etma bu telbaning damidin.

Dardimg‘a xayolini tabib et!
Jonimg‘a visolini nasib et![12]

G‘ayrin nazarimda foni ayla,
Mehrin manga jovidoni ayla!

To bo‘lsa hayotdin nishonim,
Savdosini qil tan ichra jonim!

Jon chiqsa bu jismi notavondin,
Yodi bila-o‘q chiqor jahondin.

Tanlar tirilurga qo‘ysalar yuz,
Ko‘yi yelidin tanimni tirguz!

Do‘zax manga yetsa jovidoni,
Ishqi o‘tidin qizitqil oni.

Jannat sari cheksa sarnavishtim,
Vasli haramini qil bihishtim.

Onsiz meni bir dam etma mavjud,
Budumni qil onsiz o‘lsa nobud!”

Garm aylabon oni bu munojot,
Atrofida lol ahli hojot.

Ul qoyil-u yuz asiri g‘amgin,
Borining o‘lub hadisi “omin”!

Bexud qolibon faqir atosi,
Hayron bori xesh-u aqrabosi.

Bu navha-vu ashk-u nolishidin,
Bori yudilar ilik ishidin.

Ul ham chu tugatti navhayi dard,
Bo‘ldi yana aql-u hushidin fard.

Oxir ko‘tarib necha dilafgor,
Manzillarin o‘ldilar talabgor.

Ishq o‘ti ko‘ngulni kuydurur chog‘.
Man’ig‘a su quysalar bo‘lur yog‘.

Haj tavfida ishqini iroda,
Kam aylab-u ul bo‘lub ziyoda.

Ey, zoyiri Ka’bayi saodat,
Lutfungdin etarmen istifodat-

Kim, bizni dag‘i duoda yod et,
Bu ishq o‘ti shu’lasin ziyod et!

XXI

Majnunning vahshatlig‘ eldin ulfat rishtasin uzgoni va biyobon vahshiylari bila uns navosin tuzgoni va kiyiklar bila Navfal[1] ovi aro qolg‘oni va Navfal visol va’dasi kamandin aning bo‘ynig‘a solg‘oni va kiyiklarni ozod qilib, oni sayd qilg‘oni va ko‘nglin ovlag‘oni[2].

Qilg‘on bu fasona kov-kovi,
Bu qissag‘a bo‘yla bo‘ldi rovi-

Kim, yondi chu haj tavofidin xayl,
Har kim vatanig‘a ayladi mayl.

Majnun atosig‘a ranji jovid,
O‘g‘lidin o‘lub tamom navmid.

Zabtini bilibki, mumkin ermas,
Befoyda ish natija bermas.

Avd etti tutub jahonni yoshi,
Ma’yus bori uruq-qayoshi.

Devona dag‘i yonib shitobon,
Qat’ aylab tog‘ ila biyobon.

Har kun yana bir taraf xiromi,
Har tun yana bir daman maqomi.

Ne turg‘onida qarori oning,
Ne azmida ixtiyori oning.

Yo‘q hech so‘z aytmoqqa mayli,
Aytur so‘zi bu qadarki: “Layli”.

Ham Layli o‘lub tilida zikri,
Ham Layli o‘lub ichida fikri[3].

Har yon nazar etsa oshkoro,
Layli nazarida jilvaoro.

Tasvir etib yuzi xayolin,
Ko‘zga keturub qadi misolin.

Ikkisiga chun qilib taammul,
Sarv uzra gul aylabon taxayyul.

Ham sarvning ollida qo‘yub bosh,
Ham ul gul uchun ravon qilib yosh.

Layli g‘amidin qilib tafakkur,
Yuz bayt-u g‘azal deb, o‘ylakim, dur.

Ham qofiyasi aning sifoti,
Ham barcha radifi oning oti.

Eshitgach ani g‘amin-u dilshod,
Yuz zavq-u nishot ila tutub yod.

Abyotig‘a ma’ni otasholud,
Nazmi chiqorib dimog‘din dud[4].

Har lafzida shavq harfi mubham,
Har harfida ishq sirri mudg‘am.

Ul nazm ilakim, tuzub navoyi,
Solib ulus ichra hoy-hoyi.

Pajmurdag‘a jon mulosiq aylab,
Afsurdani zor-u oshiq aylab.

To hush dimog‘ig‘a solib tob,
Abyot deb, o‘ylakim, duri nob.

Chun monei hush o‘lub jununi,
Yova so‘z o‘lub aning fununi.

El har ne takallum etsa bilmay,
O‘z so‘zini dog‘i fahm qilmay.

O‘rtab ko‘nglin junun g‘am ichra,
Har dam solib o‘zga olam ichra.

Kelmay nafase o‘ziga hushi,
Sahro vuhushi kibi xuro‘shi.

Ne yig‘larig‘a g‘azab muayyan,
Ne kulmagiga sabab muayyan.

Ruxsori taponcha birla majruh,
A’zosida yo‘q nishonayi ruh.

Bu holatidin gahi qilib havl,
O‘z holig‘a aylar erdi lohavl.

Ul naqshni yona ishqi bebok,
Filhol yur erdi ko‘nglidin pok,

Tog‘ ichra uni tushub sabodek,
Qum uzra tani quruq giyodek.

Yoshlardek etib yig‘i-yu faryod.
Qilmay ato-anosin, vale yod.

Yor aylab-u oshno baloni,
Sog‘inmay yor-u oshnoni.

Anduh yeb, etib jafo mayi no‘sh,
Ichmak-yemagi bo‘lub faromo‘sh.

Ko‘z yoshidek o‘lmay oramida,
Jayran kibi xalqdin ramida.

Nafs itligidin kechib tamomi,
Dasht uzra kiyik muteu romi.

Har qumg‘aki, maqdami yetishib,
Bir dasht kiyik oni erishib.

Girdida kiyik to‘la yaboni,
Ul o‘rtada, o‘ylakim, shuboni.

Gohi o‘pubon munung jabinin,
Gohi silabon aning surinin.

Har yon bo‘ri posbon itidek,
Yo‘q, yo‘q, ne dedim, shubon itidek.

Bu dashtqakim, tushub guzori-
Kim, ko‘kka yetib fig‘on-u zori.

Navfalki, Arabda erdi nodir,
Tig‘ig‘a qadar, o‘qig‘a qodir.

Yaxshilik ila Arabda mavsum,
Oromgahi bu marz ila bum.

Ul kun qilibon havoi naxchir,
Ov amrig‘a qilmish erdi tadbir.

Har xayldin el qilib murattab,
Sahro sori surmish erdi markab.

Charga aro qolmish erdi Majnun[5],
Davrida kiyik adaddin afzun.

Har saydki, ul sipahni ko‘rdi,
To‘sh-to‘shdin aning sori yugurdi.

Borisig‘a ish anga yalinmoq,
To mumkin aning sori sig‘inmoq.

Navfal ko‘rub ul xilofi odat,
Hayrat anga ajz etib ziyodat.

So‘rdi elidinki: “Bu g‘arobat-
Kim, ko‘nglum aro solur mahobat.

Siz ham ko‘rasizmu, yo‘qsa yo‘qmu,
Yo keldi mening ko‘zumga-o‘qmu?”

Ul xaylda ba’zi erdi hamroh,
Majnun ishidin sarosar ogoh.

Navfal qoshida surub hikoyat,
Ul qissani qildilar rivoyat.

Navfal dag‘i ishq ko‘rgan erdi,
G‘am dashti aro yugurgan erdi.

Bu ishniki, bildi yig‘ladi zor,
Ul sayd qilurdan o‘ldi bezor.

Dediki: “Ne kimiyo erur ishq,
Ne boriqayi ziyo erur ishq-

Kim, har kishiniki, qildi g‘amnok,
G‘ashdin qilur o‘yla qalbini pok-

Kim, vahshki, bo‘lmas el bila rom,
Sahro aro tutmas onsiz orom.

Ishq o‘yla vujudin oritibdur,
Andoq bashariyati itibdir-

Kim, vahshg‘a yo‘q qoshida dahshat,
Chun ketti basharliq, itti vahshat”.

Tark ayladi saydg‘a jafoni,
Elga dedi: “Tashlang o‘q-u yoni!

Ham itligingizni tashlangiz chust,
Ham itlaringizni bog‘langiz rust!”

Chun xaylig‘a qildi bo‘yla ahkom,
Tushti, dag‘i qo‘ydi ul taraf gom.

Majnun ko‘rub oni oshnovash,
Kelmakligi keldi ko‘ngliga xush.

Garchi dad-u dom qildilar ram,
Majnuni ramida turdi bir dam.

Yetgach, Navfal salom qildi,
Majnun anga eihtirom qildi.

Dedikim: “Ayo xujastadiydor,
Chehrangda xujastaliq padidor.

Ham mehri safo yuzungda tole’,
Ham nuri vafo engingda lome’[6].

Yuz kom sanga nasib keldi,
Sendin ko‘zuma g‘arib keldi-

Kim, g‘ofil ulus kibi chekib o‘q,
Vahsh etidin o‘zni istamak to‘q.

Chun yo‘q bu g‘izog‘a ehtiyojing,
Ozor nedin tilar mizojing-

Kim, nafs nishotig‘a chekib xayl,
Qon to‘kkali ko‘nglung aylagay mayl.

Bu zulm ila ul g‘izomu bo‘lg‘ay,
Sendin bu sifat ravomu bo‘lg‘ay?

Gar ursa tikan ayog‘inga nesh,
Ko‘nglung ayog‘ing uchun bo‘lur resh.

Ne mazlima yoyin o‘ldi qurmoq,
O‘q chekmak-u jonvorni urmoq?

Haq berdi bularg‘a dog‘i joni,
Oyini hayotdin nishoni.

Bu necha ramida jonidin kech,
Bejurm guruh qonidin kech!”

Navfal ko‘rub ul kalomi durposh,
Yer o‘pti-yu qo‘ydi ollida bosh.

Dedikim: “Ayo farishta payvand,
Kelmay sifating basharga monand!

Bu so‘zki, muroding erdi, bildim,
Har neki deding, qabul qildim.

Jonimg‘a ravo ko‘ray qilich, o‘q,
Lekin bu suruk ramidag‘a – yo‘q.

Chun sen qilding hikoyat izhor,
Emdi manga ham hikoyate bor”.

Majnun anga berdi bo‘yla posux-
Kim: “Aytqil, ey jamoli farrux”.

Navfal dedi: “Ulki, qilding irshod-
Kim, qilma ramidalarg‘a bedod.

Bildim nafasing halovatini,
Qo‘ydum borining adovatini.

Senkim, eldin qilib judoliq,
Qilmishsen alarg‘a oshnoliq.

Yo‘q el bila ulfating ziyodat,
Bu ish ham erur xilofi odat.

Insonki, erur charog‘i binish,
Bal chashm-u charog‘i ofarinish[7].

Andin o‘zin aylamak ramida,
Hayvon bila bo‘lmoq oramida.

Aql ollida besabab ko‘rundi,
Sendin manga, bas, ajab ko‘rundi.

Andoq dedilarki: guluzore,
Solmish yuragingga xorxore[8].

Gar andoq ish o‘lg‘on ersa hodis,
Bo‘lg‘on esa mundoq ishga bois.

Bo‘lg‘il bu ramidalardin ozod,
Kezgil necha kun mening bila shod.

Ul yerdaki, zor-u mubtalosen,
G‘am domida bastayi balosen.

Imkoni borincha aylayin jahd,
Tokim, qilay oni sanga hammahd.

Yer tutmasa naqd-u mol-u darxost,
Har sori sipoh ishin qilay rost.

Yo to‘hfa-u moli xost birla,
Ul bo‘lmasa, zarbi rost birla.

Gar davri falak muovin o‘lg‘ay,
Har nav’ bilaki, mumkin o‘lg‘ay.

Bu uqdadin istabon kushoding,
Koming bila yetkuray muroding.

Gar bo‘lmasa ul g‘araz muyassar,
Bordur xud anga evaz muyassar.

Farzand qilay seni o‘zumga,
Minnatni qo‘yay yoruq ko‘zumga.

Lekin dad-u domdin chekib gom,
Tutqil bu ramida birla orom.

Odam bila vahsh keldi kam jins,
Odamg‘a ham odam o‘ldi hamjins.

Gar yor visoli o‘lsa koming,
Bu ishda kerakdur ehtimoming”.

Chun vasl so‘zin eshitti Majnun,
Shavq o‘ldi burung‘idin ham afzun.

Xushholliq etti oni behol,
Beholliq etti nutqini lol.

Yuz sa’y bila qilib takallum,
Ko‘zida su, og‘zida tabassum.

Dedi: “Nekim aylading xitobim,
Borisig‘a bor edi javobim.

Chun vasl so‘zin deding unuttum,
Ul barchasidin kanora tuttum.

Bu va’daki, qilding oshkoro,
Bo‘lmasa vafosig‘a madoro.

Yuzumduru – ashhabing tuvog‘i[9],
Boshimduru – markabing ayog‘i”.

Ikki sori mundoq o‘lg‘och ozarm,
Bir-birlarini so‘rushtilar garm.

Ul poyada ixtilot bo‘ldi-
Kim, mujibi yuz nishot bo‘ldi.

Chun vasl ila berdi mujdagoni,
Navfal olib uyga bordi oni.

Ey hajrda jismi notavoning,
Chun mujdayi vasl topti joning.

Gar vasl ishi maholvashdur,
Filhol bu mujda bore xushdur.

XXII

Navfalning Layli gavharin Majnun iqdi silkiga tortar uchun gavhardek so'zlar nazm silkiga tortib Layli atosig'a yiborgoni va aning so'z gavharin ushotib, payvand rishtasin uzgoni va Navfal sipoh chekib, ul dog'i adovat yasolin tuzgoni va kin arsasig'a ot surub dod tilashgonlari va falak mansubalaridin bir-biridin qoyim ayrilishqonlari va berk yerlar hisor qilib tushgonlari[1].

Bu dasht tay aylagan musofir,
Bu nav' etti fasona zohir-

Kim, yor o'lub ul iki yagona,
Chun bo'ldilar uy sori ravona.

Navfal tiladi necha suxanvar,
Har mushkil ish ichra royi anvar,

Sharh aylab alarg'a surati hol,
Layli hashamig'a qildi irsol.

Aylab atosig'a bo'yla payg'om:
"K-ey tavsani baxt-u toleing rom!

Qays ulki, Arabda bebadaldur,
Har fazlda el aro masaldur.

Layli sari ishqi pokpayvand,
Qilg'on emish oni orzumand.

Ifroti hayo-vu infioli,
Qo‘ymay qilurig‘a sharhi holi.

Qavm-u xaylin unutqon ermish,
Ul ishq ila dasht tutqon ermish.

Savdo aro bo‘lmish o‘yla maftun-
Kim, el der emishlar oni “Majnun”.

Xayling aro kasbi ilm qilmish,
Olamda ne ilm bori bilmish.

Sen dog‘i ishin bilur emishsen,
Doim sifatin qilur emishsen.

Bo‘lg‘onda bu ishq mubtalosi,
Ne fikrni aylamish atosi.

Gar xud sanga ermas erdi farzand,
Farzandinga xud bor erdi monand.

Sen dog‘i ilik chekib ishidin,
Ahvolini anglamay kishidin,

Qo‘ymishsen oni asiri anduh-
Kim, tutmish gah dasht, gahi ko‘h.

Mundoqmu bo‘lur muruvvat oxir?
Mardumlig‘ ila futuvvat[2] oxir?

O‘tkandin shikva etsa bo‘lmas,
Har negaki, o‘tti, yetsa bo‘lmas.

Men dasht aro tilab nishoni,
Uyga keturubmen emdi oni.

Etibmen o‘zumga yor-u farzand,
Bo‘lmish yana voqif-u xiradmand.

Emdi budur iltimos-u darxost-
Kim, qilsoq ikov nikoh ishin rost.

Ko‘z ustida ulcha rasm-u oyin,
Jon o‘rtada ulcha aqd-u kobin.

Dur toj uza aybdin yiroqdur,
La’l o‘lsa yonida yaxshiroqdur.

Gar to‘lg‘ar esang bo‘yun bu ishdin,
Vahm aylagasen ko‘ngul qolishdin.

Bu so‘z bila ko‘p berib tabarruk,
Aylab alar ul sori taharruk.

Layli atosi ham o‘lg‘och ogoh,
Majlis yasabon, nechukki, dilxoh.

Payg‘om ahlini aylab ikrom,
Ikromini aylab ahli payg‘om.

Some’g‘a qatig‘ kelib bag‘oyat,
To‘lg‘ondi o‘ziga benihoyat.

Bevaqt o‘lub etti bo‘yla taqrir:
“Kim, mundoq emish azalda taqdir-

Kim, ul buti Chin-u mohi Farxor,
Bu bog‘da gar gul o‘lsa, gar xor.

Bir o‘zga muhib habibi bo‘lg‘ay,
O‘zga kishining nasibi bo‘lg‘ay.

Alqissa: qazoi osmoni,
Yetkurdi yana birovga oni.

Gar bo‘lmasa erdi ham bu surat,
Yo‘q erdi manga base zarurat,

Navfal so‘ziga itoat etmak,
Har ishgaki, amr qildi, yetmak.

Xossaki, qilib so‘zini taqsim,
Bir qismin umed etib, birin bim.

Ummed ila ko‘nglum aylagay xush,
Bimi bila xotirim mushavvash.

Ul oyki, asiri beadaddur,
Bu lahza birovga nomzaddur.

Gar topsa bu so‘zidin nadomat,
Ul nori-yu biz beri – salomat.

Bu so‘z bila topmas o‘lsa taskin,
Gar lutf ayon qilur va gar kin.

Lutf aylasa forig‘ o‘lturubbiz,
Kin ko‘rguzur o‘lsa ham turubbiz.

Andoq dag‘i bo‘lmasun anga fahm-
Kim, kinidin etgumizdurur vahm.

Razm aylasa azm qilg‘umizdur,
Azm aylasa razm qilg‘umizdur”.

So‘zni chu bu yerga xatm berdi,
Dedi: “Boringizki, so‘z bu erdi!”

Qo‘ptilar ul el topib xijolat,
Navfalg‘a keturdilar malolat.

Navfalg‘a chu bo‘ldi qissa ma’lum,
Bo‘ldi u xabardin asru mag‘mum[3].

Ul nav’ki, va’da qilmish erdi,
Bu ish bo‘lurini bilmish erdi.

Jam' ayladi har qabiladin xayl,
Filhol urushqa ayladi mayl.

Majnunni qilib yonida yovar,
O't ostida yel kibi takovar.

Ham to'nig'a yetkurub shamoma,
Ham boshig'a chirmatib amoma.

Ul har ne qilurdin o'lmay ogoh,
Gah nola qilib, gahi chekib oh.

Ot qay sarikim, borur dam urmay,
Tursa dag'i yo'l yururga surmay.

Tayyor qilib sipohi jarror[4],
Jarrorliq ichra barcha tayyor.

Majnun ishi sa'y-u hiylasig'a,
Surdi Layli qabilasig'a.

Ogah bo'lg'och alar dog'i bot,
Oyini jalodat aylab isbot.

Har yon kishi chopturub yig'ib el-
Kin, amrida mahkam aylabon bel.

O'tru chiqibon adug'a holi,
Ko'shish bila tuzdilar yasoli-

Kim, fahm etib o'yla qahr-u kinlar,
Charx ayladi har dam ofarinlar.

Navfal cheriki dog'i chekib saf,
Usruk tevalar kibi sochib kaf.

Bu nav' iki sipohi xunrez,
Qon to'kkali barcha vahshatangez.

Bir-birga yetishtilar g‘azabnok,
Qatl etgali barcha tund-u bebok,

Markab yeli arsani supurdi,
Ozarm giyahlarin sovurdi[5].

Andoqki, yog‘in yog‘ar bahoron,
Maydong‘a su urdi tirboron.

Dasht uzra egarguchi hayunlar,
Oshubda, o‘ylakim, quyunlar,

Pech urmoq ishida har sinone,
Boshin kishi yanchg‘on yilone.

Dol o‘ldi sinoni shed yanglig‘,
Hay’at bila bargi bed yanglig‘[6].

Itik qilich istab el haloki,
Bosh qirqar uchun, nechukki, poki.

Poki kibi tezlik qilib fosh,
Qirqib, lekin soch o‘rnig‘a bosh.

O‘q toyirikim, uchub havog‘a,
Yo‘l hay’ati ko‘rguzub balog‘a.

Chun uchqali ochilib qanoti,
A’do tanidin uchub hayoti.

Paykonlar o‘lub havog‘a moyil,
Yuz kavkabi nahs barcha qotil.

Har tang‘aki, marg o‘tini yoqib,
Umr axtari turmayin uyoqib.

Har sori shihobvor harba,
Chun mayl qilib tamom zarba.

Bo‘lsa zirih andoq o‘tub ondin-
Kim, igna harir-u parniyondin[7].

Xanjar qilib o‘zni muttasil til,
Qon to‘kmak etib oni qizil til.

Ul zaxmi zabon ila hamesha,
El bag‘rini yormoq anga pesha.

Gurz aylab o‘zin ulusg‘a sarko‘b,
El mag‘zida har dam andin oshub.

Nogahki, zuhur etib xilofi,
Bosh kosalari bo‘lub g‘ilofi.

Na’ra bila kirdi abri g‘arron,
Ul abrg‘a barq tig‘i burron.

Ul – abri balo, bu – barqi ofat,
Andin bori dahr g‘arqi ofat.

Ostida hayuni vahshatangez,
El, o‘ylaki, abrni qilur tez.

Parranda xajangi javzi hurdum,
Sayr amrida raj’at ichra anjum.

Sur’at aro barqdin daraxshi,
Raj’at aro barqgom raxshi.

Rokib anga qatldin urub dam,
Parxosh kuni[8], nechukki, Rustam.

Har bir arabi taassuboyin,
Ravshan qilib oncha shu’layi kin-

Kim, ko‘kka bo‘lub sharori payvast,
Daryo suyi aylay olmayin past.

Bu nav' iki sipohi qotil,
Bir-birga chu bo'ldilar muqobil.

Navfal sipahi qalinroq erdi,
Qahrining o'ti yalinroq erdi.

A'dosi bu shu'lani ko'rub garm,
Farz o'ldi tariqi hazm-u ozarm[9].

Chun bor edi elga bimi ofot,
Yer berkiga moyil o'ldilar bot.

Go'yo bo'lub erdi kun dog'i kech,
Bir sori shikast tushmadi hech.

Navfal dag'i yondi shod-u xurram,
Yer topti sipah tusharga mahkam.

Chun ikki cherikka bo'ldi taskin,
Kin ahlig'a zohir o'ldi bas kin.

Zulmat sipahi chu soldi soya,
Anjum yurutub anga taloya.

Chin xusravi qildi tarki avrang,
Yer yuzini tutti xusravi Zang[10].

Ul ikki sipah qilib madoro,
Hazm o'ldi alarg'a oshkoro.

Har sori taloyalar ravona,
To tongla ne aylagay zamona?

Ey ishq elining silohsho'ri,
Keldi manga g'am sipohi zo'ri.

Tut mayki, dame farah topoyin,
Ul xaylg'a bosh yalang chopoyin.

XXIII

Layli atosi o'z xaylin Navfal sipohi qoshida zabun ko'rub, aduvg'a chekkan tig'ni o'z jigariga urmoq istagoni, ya'ni Layli qonin oqizay, degoni va ul quyoshni Majnun tushta ko'rub, zavolini ravshan qilg'oni va motamzada tundek Navfal oldida axtari ashkin oqizg'oni va Navfalning razm o'ti tarkin tutub yong'oni[1].

Roqimki, uzotti til sinonin,
Bu nav' evurur qalam inonin-

Kim, ul kun urush chu bo'ldi qoyim,
Qo'nmoqqa sipoh bo'ldi noyim.

Navfal chu urushqa erdi tolib,
Xasmi sori bo'ldi vahm g'olib.

Layli atosi ko'rub elin sust,
Chora sori bog'ladi belin rust.

Chorlatti ravon uruq-qayoshin,
Soldi orag'a ul ish kengoshin.

Ko'p guft-u shunid arog'a tushti,
Ko'p tul bu mojarog'a tushti.

Oxir munga qildi so'zni ko'tah-
Kim: "El qochibon nauzu billah[2].

Navfal sori o'lsa fath yovar,
Sursa hashami sori takovar,

Hukmin surubon amirlardek,
Laylini chekib asirlardek.

Xaylim aro solsa bo'yla afsus,
Tushsa qaro yerga nang-u nomus.

Ul lahza ajab balo bo‘lur ish,
Yo o‘lmak-u yo jalo bo‘lur ish.

Bo‘lur qaro yer tubiga bormoq,
Bo‘lmas arab ichra bosh chiqormoq.

Bo‘lguncha bu nav’ amri noxush,
Bir fikr kelur base manga xush-

Kim, tongla ul oyni hozir aylay,
Bir damda ishini oxir aylay.

O‘q ignasidin tikay libosin,
Xanjar suyidin ezay hinosin.

Tufroqqa solay qadi niholin,
Yerga kiyuray qoshi hilolin.

Har necha ko‘zum charog‘i uldur,
Jonim tar-u toza bog‘i uldur.

Ofat yelidin o‘chub charog‘im,
Toroji xazong‘a qolsa bog‘im,

Xushroqki, aduvg‘a kom bo‘lg‘ay,
Nomus manga harom bo‘lg‘ay”.

Chun so‘zni bu yerga ayladi band,
Tahsin etib, o‘ldi barcha xursand.

Navfal sori nusrat erdi hosil,
Xayl-u sipahi edi qaviy dil.

Majnung‘a g‘arib holat erdi,
Gah zavq-u gahi malolat erdi.

Chun yor visolin aylabon yod,
Ko‘ngli bu umid ila bo‘lub shod.

Lek o‘lmog‘i yor xayli mag‘lub,
Ko‘nglin aning aylar erdi mankub.

Oshiqlik ishi erur zabunluq,
Mehnat chahi ichra sarnigunluq.

Bedilni yengib edi bu qayg‘u-
Kim, baxt ko‘ziga soldi uyqu.

Ko‘rdiki, kelur nigori zebo,
Botin-ayog‘ig‘a xazz-u debo[3].

Yo‘q, yo‘q, ne nigor, sarvi gulchehr,
Ne sarv-u, ne gulki, g‘ayrati mehr.

Ko‘z chashmasida zuloli beg‘ash,
Jon gulshanida niholi sarkash.

Sahroyi latofat ichra lola,
Ne lolaki, mushkbo‘ g‘azola.

Daryoyi malohat ichra gavhar,
Gavhar neki, aksi mehri xovar.

Ko‘z mardumidek ko‘ngulga yoqqan,
Ya’niki, hamisha ashki oqqan.

Hajr uyida sham’i olamafro‘z,
Ya’niki, ishi gudoz ila so‘z.

Ko‘z yoshini subhdek yoshurg‘on,
Ya’ni guli mehrdin dam urg‘on.

Sabrini oqizg‘on ashki seli,
Ya’ni mah-u mehr rashki Layli.

Ham og‘zida ohi ishtiyoqi,
Ham savtida navhayi firoqi.

Yetgach alif qadin qilib dol,
Majnun ayog‘ini o‘pti filhol.

So‘ngra quchushurg‘a bo‘ldi moyil,
Bo‘ynig‘a qo‘lin qilib hamoyil.

Dedikim: “Ayo rafiqi joni,
Yo‘q, yo‘qki, anisi jovidoni,

Ishqingda otam yaroq qilmish,
El ham, ore, ittifoq qilmish-

Kim, qatlima tongla aylab ohang,
Qonim bila yerni aylagay rang.

Mehrimg‘a qarin zavol qilg‘ay,
Qonimni shafaqmisol qilg‘ay.

Mehrimni shafaqvash etsa qonim,
Yer ostini aylagay makonim.

Ishqingda manga bu erdi maqsud-
Kim, ko‘rsam o‘zumni anda – nobud.

Davron bu murodima yeturdi,
Ne istadim ollima keturdi.

Ishqingda ne orzuki, ettim,
Ul nav’ki, komim erdi – yettim.

Tushti mening ollima ajab yo‘l,
Sen yaxshi qol emdi-yu tirik bo‘l”.

Bu so‘z bila ko‘zdin oqizib rud,
Devonasi birla qildi padrud.

Majnung‘a degach bu so‘zlar ul oy,
Seskandi aningdek aylabon: “Voy!”

Kim, uchti ulus ko‘zidin uyqu,
El hayrat etibki: “Ne edi bu?”.

Motamzadalar kibi o‘kurdi,
Navfal sori ashkidek yugurdi.

Yetgach, yer o‘pub so‘z etti og‘oz:
“K-ey xasmg‘a g‘olib-u sarafroz!

Tengri uchun emdi chekmagil tig‘,
Qo‘y, kina-yu razm qilmog‘il big‘!

Kim, tig‘ing etar ko‘ngul shikofi,
Jon qasdi etar aning masofi.

Tongla yana razm tuzma oxir,
Payvandi hayotim uzma oxir!

Kin yoyin ilikdin aylagil yo‘q-
Kim, jonima tegmagay mening o‘q”.

Hayrat bila Navfal etti taftish-
Kim, erdi xilofi odat ul ish.

Arz ayladi kayfiyatni Majnun,
Navfalki, eshitti, bo‘ldi mahzun.

Jazm ettiki: “Bu qaziya chindur,
Majnun tushi begumon yaqindur”[4].

Anglab edi ko‘nglining safosin,
Bal oyinayi jahonnamosin-

Kim, aylamas anda oshkoro,
Juz sidq jamoli jilvaoro.

Chun tun arabi musofirona,
Har sori tushurdi xaylxona.

Ko‘k mazrai ichra betavahhum,
Oq uyini tikti turki anjum[5].

Ham bu xabar o‘ldi elga tahqiq,
El barcha qilib so‘ziga tasdiq.

Navfal hashamig‘a qo‘ydi yuz bot-
Kim, yetmagay ul sanamg‘a ofot.

Majnun dag‘i qildi dasht azmi-
Kim, fath qarini bo‘ldi razmi.

Eykim, manga hamdam-u qarinsen,
Mustavjibi yuz ming ofarinsen.

Bandangmen, agar qilib meni shod,
Boshingdin evurub etsang ozod.

XXIV

Majnunning Navfaldin ayrilg‘oni va bodpoyin devboddek surub, bodiya azmi qilg‘oni va Zaydg‘a[1] yo‘luqub ahvolin ma’lum etgoni va anga yetgan bedoddin muning ham ko‘ngliga alam yetgoni va aning istirzosi uchun harne borin anga berib, Layli hashami ko‘chgan yerga ketgoni[2].

Bu safhani aylagan munaqqash,
So‘zga bu sifat bo‘lur raqamkash:

Kim, yondi chu Navfali vafokesh,
Layli eli bo‘ldi fikratandesh-

Kim, Navfal ishi ajab ko‘rundi,
Yonmog‘lig‘i besabab ko‘rundi.

Vahm ayladilarki; “Makr etgay,
G‘ofil qilibon boshig‘a yetgay”.

Ul dashtdin ettilar ravon ko‘ch,
Qilg‘on kibi hajg‘a korvon ko‘ch.

Bog‘landi chu buxti uzra mahmil,
Oromgah o‘ldi o‘zga manzil.

Ul tolei korsoz bo‘lg‘on,
A’dosig‘a sarfaroz bo‘lg‘on.

Bosh tortg‘on o‘yla sham’i baxti-
Kim, kuygan uyi-yu barcha raxti.

Iqboli samandi sekrigan chust,
Tufroq uza oni tashlagan rust.

Baxti chamanida butgan ul vard-
Kim, boshig‘a atridin yetib dard.

Ya’ni Majnuni dilramida
Borur edi bo‘lmay oramida.

Nogoh yo‘luqti dardmande,
Yetgan anga dahrdin gazande.

Majnun ko‘rub anda g‘am nishoni,
G‘amgin bo‘ldi-yu so‘rdi oni[3]-

Kim: “Charx ne ish boshingg‘a soldi-
Kim, bo‘yla girih qoshingg‘a soldi?

Mendek ne uchun malolating bor,
De, Tengri uchun ne holating bor?”

G‘amgin chekib ohi dardparvard,
Bu nav’ dediki: “Ey juvonmard!

Menmen arab ichra xoksore,
Bemoya-u tiyraro‘zgore.

Ul poyada ajz-u benavoliq-
Kim, ro‘zi uchun qilib gadoliq.

Layli hashami mening panohim,
Ul hay tufrog‘i takyagohim.

Ul xayl otim xitob etib Zayd,
Bir xayl iyol etib meni qayd.

Bu vaqtki, Navfali jafogar
Majnung‘a bo‘lub mute’-u chokar.

Ozarmg‘a saddi roh chekti,
Layli eliga sipoh chekti.

Hech ish bo‘lmay aroda voqe’,
Bo‘ldi yana manzilig‘a roje’.

Layli eli, vahm etibki, nogoh,
Ul vaqtki, o‘lmasa el ogoh.

G‘ofil qilib elni emdi ketgay,
Yong‘ay dag‘i etgay ulcha etgay.

Bordi esa ixtiyor ilikdin,
Ochilmas ish ul zamon bilikdin.

Jur’atdin erur nishot qilmoq,
Lekin kerak ehtiyot qilmoq.

Mash’uf o‘lubon bu nukta derga,
Chektilar ulusni berk yerga.

Chun qildi qabila ahli shabgir,
Tun olam aro sochar edi qir.

Chun ko‘ch elidin nazarni, yozdim,
Ochquncha yumub nazarni – ozdim.

Manzilda bo‘lub alar qarori,
Men tushgan emishmen o‘zga sori,

Chun mehr sahar yo‘lin yorutti,
Ikki tevalik yo‘lumni tutti.

Navfal sipahini tarqatib jazm,
Qilg‘on emish uyga ul ikov azm.

Tutmoq mutaazzir erdi go‘sha,
Anbonchada harne erdi to‘sha[4].

Oldilar-u ikki, uch diram ham,
Bal har ne bor erdi besh-u kam ham.

Bu, oncha emas ediki, yona,
Chektilar ikov-la toziyona[5]:

“Naqdingni netibsen, aytg‘il!” deb,
“Ko‘mgan yeri sori qaytg‘il” deb.

Urmoq bila jismim aylabon resh,
Chun tortmadilar nima kam-u besh.

Soldilar-u qildilar azimat,
Men fursatni bilib g‘animat,

Gom urg‘ali bu taraf oshuqtum,
Tokim sanga bu zamon yo‘luqtum.

Sen dog‘i agar alardin o‘lsang,
Sahroda kishi talardin o‘lsang.

Yo‘q kisada naqddin nishonim,
Bordur kerak ersa naqdi jonim”.

Majnun eshitib bu mojaroni,
Otdin solib o‘zni, quchti oni.

Yig‘lab dedi: “Ey rafiqi majruh!
Netgay sanga aylasam fido ruh?

Jonim badaning shifosi bo‘lsun,
Boshim qadaming fidosi bo‘lsun[6].

Navfal elidin ne bo‘lsa hodis,
Majnun anga o‘lg‘on o‘lsa bois.

Majnun menu tiyraro‘zmen, bil,
Tig‘ ol, neki xotiring tilar qil.

Jismim tilagancha ayla yora,
Ko‘nglumni xud ayla pora-pora.

Vahm etma, bu ishda tangdilmen-
Kim, harneki aylasang, bihilmen[7].

Gar qatlima aylamassen ohang-
Kim, olam eligadur bu ish nang.

Har naqding uchun evazdur otim,
Har o‘zga jihotingga jihotim”,

Deb harneki, kiymish erdi, so‘ydi,
Majmuin aning qoshida qo‘ydi.

Ham qoshig‘a chekti bodpoyin,
Qolqon-u qilich-u o‘q-u yoyin.

Ko‘p bo‘yla qilib ramidadilliq,
O‘pti ayog‘in tilab bihilliq.

Dediki: “Agar azimat etsang,
Layli hashamig‘a yona yetsang,

Ne til bila dey, yetur salomim,
Yo bo‘yla-vu bo‘yla de payomim-

Kim, oncha mening xijolatim bor,
Ul poyada sa'b holatim bor-

Kim, mumkin emas takallum etmak,
Xud bo'lmas ani tavahhum etmak.

Bo'ldung chu baloda rahshunosim,
Bordur sanga muncha iltimosim-

Kim, yor qabilasin erishgil,
Qay soriki, bordilar, yetishgil.

Ham olma yuzungni ul makondin,
Boshingni dag'i ul ostondin.

Jisming ul eshikda xoksor et,
Shukronag'a jonni ham nisor et.

Jon bergali bermasa ko'ngul yor,
Menda dog'i jon bila ko'ngul bor.

Ikkisini sanga topshuromen,
Tufrog' aro tanni yoshuromen.

Jonim eshigida ayla pomol,
Ko'nglumni itining ollig'a sol".

Oni bu fasona aylabon tez,
Eshitguchi ko'ngli hayratangez.

Bilgach o'zin, anglabon kalomin,
Yer o'pti-yu qildi ehtiromin.

Dedikim: "Ayo guzini ayyom,
Ishq oyati ichra harfi idg'om!

Ul hajr tuniga subhi ummed,
Ne subhi umed, mehri jovid.

Mehriga saodat avji matla',
Ismat hulali yuziga burqa'.

Ul nav' g'amingda notavondur-
Kim, elga hadisi dostondur[8].

Ham og'zi aro sening maqoling.
Ham ko'ngli aro sening xayoling.

Gar qilsang ishorateki, sursam,
Sendin xabare anga yetursam.

Bu mujdadur anga jondin ortuq,
Bal harneki, dermen, ondin ortuq.

Nekim manga sen rioyat etting,
Muncha nimakim, inoyat etting.

Sendin anga aytsam fasona,
Ul bergusi ikki muncha yona.

Har so'z desang anga yetkururmen,
Amr o'lsa, javob keltururmen.

Ham kom topar iki dilorom,
O'rtada manga dag'i yetar kom".

Majnun dedi: "Ey rafiqi hamdam!
Jonbaxsh daming yaramg'a marham.

Hijroni tilimni lol etibdur,
So'z derni manga mahol etibdur.

Lekin chu ishimni so'rdung oxir,
Holim bu dururki, ko'rdung oxir-

Kim, menmeni dardmandi mahjur,
To bo'lg'ay otim qoshingda mazkur.

Sen, chunki, bu yorliq qilursen,
Harne der esang o‘zung bilursen.

Oyini vafo shioring o‘lsun,
Bor emdiki, Tengri yoring o‘lsun”.

Zayd o‘ldi falakrav uzra rokib,
Surdi, andoqki, Najmi Soqib[9].

Ul tez qabila sori surdi,
Majnun dag‘i yondi, po‘ya urdi.

Ul yerga degin yugurdi jondin-
Kim, ko‘chmish edi qabila ondin.

Ey yor manozili nasimi,
Jon atri berur daming shamimi.

Yetgach bu shamim bexud o‘ldum,
Jonon xabarin de, yo‘qsa o‘ldum!

XXV

Quyosh chashmasi saraton makoni bo‘lg‘ondakim, harorat fartidin havo hubob[1] sardobalarida[2] pinhon va o‘t xoro musomotida[3] nihon bo‘lurda Majnunning o‘tdek iztirob va havodek shitob bila Layli hashami o‘rnig‘a yetib, qo‘tur itni nazora etgoni va it oshnog‘a yaling‘ondek ul oshnoro‘y itga yaling‘oni va eldin hayratangez xitob eshitib, vahshatomez javob bergoni va ul it qoshidin kiyiklar suhbatig‘a yetgoni va Zayd aning mushkin g‘azolidin raqami mushkbor yetkurgoni[4].

Bu arsada aylagan tak-u po‘y,
So‘z sohatida[5] bu nav’ urur go‘y-

Kim, yetti chu ul damang‘a Majnun-
Kim, sayr etib erdi mehri gardun.

Kun tush edi-yu tamuz fasli,
Javzo bila Mehrtob vasli[6].

Kun garm bo‘lub haloki jong‘a,
Layli kibi o‘t solib jahong‘a.

Har yelki, esib haroratomez,
Majnun damidek jarohatangez.

Tinmay yugurub quyun takidin,
Qum uzra ayog‘i kuymakidin.

Xurshed haroratidin anjum,
Yer soyasi ostida bo‘lub gum.

Ko‘k tab’ig‘a chun harorat oshib,
Jismig‘a shafaqdin o‘t tutoshib.

Tog‘din, kishikim, tilab nishoni,
Bir to‘da qiziq kul anglab oni.

Jismidag‘i otashin guharlar,
Andoqki, kul ichra o‘t ko‘marlar.

Daryoga solib isig‘ havo tob,
To‘lg‘onmog‘i o‘z-o‘ziga girdob[7].

O‘rdak anga chun ayog‘ uzotib,
Su jo‘shi ayog‘in ilpirotib.

Ul su tafidin tilab farog‘in,
Parda aro chirmabon ayog‘in.

Oqartib ekinni mehri purnur,
Ko‘k xatni, nechukki, tab’i mahrur[8].

Bug‘doy bori xo‘shadin orilib,
Toba naxudi kibi yorilib.

Xirman yerida tazarv-u durroj,
Yer tobasidin terub qovurmoch.

O‘rgamchi shaboqqa parda solib,
Ul parda ichinda soya olib.

Itlar tili yerga tegurub bosh,
G‘urra Asad ichra aylabon fosh.

Qurteki, harorat o‘rtab oni,
Tarmeva aro kirib nihoni.

Ul mevani mehr parvarishta,
Aylab bori xom ekanda kishta[9].

Ko‘llar yeri suvni jazb etib pok,
Suv hasratidin tanida yuz chok.

Ul ko‘nglini hajr chok qilg‘on,
G‘am jonini dardnok qilg‘on[10].

Ul yerga yetishti nogahondin-
Kim, ko‘chmish edi qabila ondin.

Evruldi hamul damanni bisyor,
Ne aql, vale anga ne his yor[11].

Ko‘chmish edi bori xaylxona,
Yerda qolib o‘rnidin nishona.

Har yerdaki, ko‘rdi uy makonin,
Yuz birla supurdi ostonin.

To sayr ila yetti ittifoqi,
Ul yergakim, ul sanam visoqi.

Ko‘ngliga tutoshti o‘yla niyron[12]-
Kim, xilqati mulkin etti vayron.

Ham jismig‘a pech-u tob tushti,
Ham ko‘ngliga iztirob tushti.

Bilxossa ishqi xonapardoz,
Ko‘ngli aro soldi maxfi ul roz-

Kim, yor maqomi bu damandur-
Kim, tufrog‘i joniga vatandur[13].

Ham dilbar isin topib dimog‘i,
Bo‘ldi yana toza ishq dog‘i.

Ko‘nglini g‘am ayladi lagadko‘b,
Joni aro tushti oncha oshub-

Kim, dahrni qo‘zg‘adi nihoni,
Ko‘nglidagi ishq qo‘zg‘aloni.

Bir dam chu bu o‘ti topti taskin,
Qo‘pti yana ul g‘arib miskin.

Manzilg‘a yuz urdi gom-bargom,
Yuz qo‘ydi-yu sajda qildi har gom.

Jonon uyi o‘rnini chu topti,
Jon pardasi birla oni yopti.

Kirpiklar ila yerin supurub,
Tufrog‘ini ko‘z aro yoshurub.

Ashki bila balchig‘ aylab oni,
Berkitgali ravzani baloni.

Bir lahza tanur ichinda itti,
O‘tlug‘ damidin ani qizitti.

Kullarni ko‘ziga surma tortib,
Ko‘z uyini surmadek qarortib.

Oxur aro lahzaye qo‘yub gom,
Kah bargidek anda tutti orom.

Har donani, tomidinki, chekti,
Ko‘ngli aro mehr tuxmi ekti.

Kiz porasin ohi kuydurub chust
Boshi yarasig‘a bog‘ladi rust[14].

Har yon yugurur edi urub oh-
Kim, bir qo‘tur itni ko‘rdi nogoh.

Eti teri zahmatidin orib,
A’zosi xaroshdin qizorib.

Ham suyi ravon og‘iz-burundin,
Ham jismi judo bo‘g‘un-bo‘g‘undin.

Qon qo‘ymay solcha raglariga,
Jildi yopishib so‘ngaklariga.

A’zosida unda-munda bir tuk,
Ul ham bo‘lub anga bir og‘ir yuk.

Qilmay yurumakka mayl hargiz,
Quyrug‘i yukin chekarga ojiz.

Erniki, yopilmayin tishiga,
Ya’niki, kulumsub o‘z ishiga.

Ko‘ziki, o‘zin chuqurg‘a solib,
A’zosig‘a boqqali uyolib.

Og‘zi nafasi nasimi mehnat,
Quyrug‘ anga zayli “mim”i mehnat.

Yuz yo‘l tanig‘a yasab jarohat,
Mehnat kiribon chiqarg‘a rohat.

Baskim, tani ravzan uzra ravzan,
Ravzan-ravzan bo‘lub anga tan.

Yaralari ichra qaynashib qurt,
Ham anda alarg‘a to‘ma, ham yurt.

Qilg‘och yarasini qurt darham,
Til birla yalamoq anga marham.

Balkim, bu adug‘a qahr surmak,
Har lahza alarg‘a til tegurmak.

Qonlig‘ jasadida bir suruk zog‘,
Bir lolada, o‘ylakim, necha dog‘.

Uchub-qo‘nub aylab anga qinlar,
Zaxm ustida, o‘ylakim, chibinlar.

Yo‘q anga chibin qo‘rur majoli,
Qush qovg‘ali xud ne ehtimoli?

Majnun ko‘rgach, bo‘lub mushavvash,
Ko‘ngliga bu zulm keldi noxush.

Itga qo‘yubon tani itoat,
Ul xaylg‘a boshladi shafoat:

“K-ey tal’at-u lavningiz muborak,
Bo‘lg‘on manga barcha toji torak.

Boshimdaki, yuz yara nishoni,
Har bir-biringizning oshyoni.

Ko‘nglumdaki, yuz teshuk teshib oh,
Har bir-biringiz uchun vatangoh.

Aylang bu xarobani nishiman-
Kim, javr-u jafo chekar kishiman.

Ko‘zumni cho‘qung, tanimni tishlang,
Oning ko‘zin-u tanin bag‘ishlang.

Qasdingiz agar nahif itdur,
Bu xasta dog‘i zaif itdur”.

Ko‘rdiki, bu uzr-u loba-u pech
Qushlarg‘a tafovut aylamas hech.

Faryod ila vahshat etti og‘oz,
Ram topib, alarg‘a bo‘ldi parvoz.

Keldi-yu ul it tabonin o‘pti,
Gah paykari notavonin o‘pti.

Ko‘p ko‘rgach, aning tanida yora,
O‘z ko‘nglagin etti pora-pora.

Oldi-yu oritti yoradin qon,
Ul paykari pora-poradin qon.

Qonin tanidin chu ayladi kam,
Bog‘ladi yarolarini mahkam.

O‘z ko‘nglagini anga jul etti,
Qon yoshidin oni gulgul etti.

Chun bo‘ldi ani tongordin ozod,
Yuz dard ila nudba qildi bunyod:

“K-ey mehr-u vafo bila sirishting,
Anduh-u malol sarnavishting.

Ul damki, taningda sihhat erdi,
Ko‘nglungda shukuh-u quvvat erdi.

Ta'bing topibon mizoji xuffosh,
Hazming beribon yazakka xashxosh[15].

Vahming qilibon bo'ri ko'zin to'rt,
Har tun tanig'a ko'zi solib o'rt.

Changingga palang ko'z solur chog',
Boshtin-ayog'i bu g'ussadin dog'.

Babr ollinga, o'ylakim, saqatlar,
Tirnog'ingdin tanida xatlar[16].

Bars otlamog'ing malolatidin,
Bog'lab ko'zini xijolatidin.

Nasrin debon el kafing makonin,
Parvin deb ulus izing nishonin[17].

Ilgingga hino yoqib muayyan,
Gah jayran-u goh gavzi jayran[18].

Bo'ynung aro sho'xlar tanobi,
Boshing uza shohlar rikobi.

Gohiki, g'azab bila irildab,
Gardun asadi sori xirildab.

Bu damki, malol ila bo'lubsen,
Ya'niki, bu hol ila bo'lubsen.

Sendin qilur ersa el tanaffur,
Bordur manga suhbating tafoxur.

Bir kun, neki, ko'yi ichra hurdung,
Itlar bila har taraf yugurdung.

Har tun, neki, tortibon fig'oni,
Bo'ldung eshigida posboni.

Bir vaqt, nekim, vafo yo‘lidin,
Boshingg‘a so‘ngak yeding qo‘lidin.

Bir chog‘, neki, lutf etib aroda,
Solib edi bo‘ynunga qiloda[19].

Jonim bo‘lsun taning nisori,
Bag‘rim bo‘lsun tishing figori.

Yo Rab, falak aylabon g‘aming raf’,
Bo‘lsun bori za’f-u mehnating daf’.

Ham burnodin emdi chustroq bo‘l,
Ham toza-u tandurustroq bo‘l.

Ul dam yana bo‘lsa baxt hamdam,
Bo‘lsang yana ul eshikka mahram.

Yotlig‘ sifatini tutmag‘aysen,
Men xastani ham utunmag‘aysen.

Jonim olib ul taraf guzor et,
Tufrog‘ig‘a ko‘yining nisor et.

Itlar bila aylasang tak-u po‘y,
Mendin borining qoshida yuz qo‘y.

Ko‘yida so‘ngak g‘izo qilur dam,
Yod et bu zaif jismini ham.

Gar tole’-u baxt yor topsang,
Jonon haramig‘a bor topsang,

Bor ahli qovub ul ostondin,
Kimsa seni “chiq!” demasa ondin.

Tun bo‘lsa-vu ul haram panohing,
Dahlezi ichinda takyagohing.

Yotib engaking ilikka qo‘ysang,
Tumshug‘ung o‘shul eshikka qo‘ysang.

Mendin ul eshikni o‘p nihoni,
Yo‘q, o‘ylaki kimsa bilgay oni”.

Og‘zig‘a ko‘zini surtubon ko‘p,
Dediki: “Ayog‘i tufrog‘in o‘p.

Ikkisini tirnog‘ing bila o‘y,
Bir yerdaki, ul ayog‘ bosar qo‘y”.

Bu nuktalar ul qilib shumora,
O‘tkunchilar aylabon nazora.

Har kim tanib oni zor yig‘lab,
G‘am ko‘nglin etib figor yig‘lab.

Tonimag‘on aylabon tahayyur,
Ahvolig‘a yo‘l topib tag‘ayyur.

Ko‘ngli kuyub o‘yla mojarodin,
Bir so‘xta so‘rdi ul arodin:

“K-ey ishq o‘ti ichra axgar o‘lg‘on,
Ne axgarkim, samandar[20] o‘lg‘on.

Bu o‘t bila paykaringga tarkib,
Bu o‘t bila xilqatingga tartib.

Zoting bo‘lub o‘t bila sirishta,
Tong yo‘q, desalar seni farishta.

Ham keldi farishtavash sifoting,
Ham bo‘ldi malak sifot zoting.

Munchaki, topib sen itga ulfat,
It birla malak aro ne nisbat?

Har uydaki, bo‘lsa itga manzil,
Bo‘lmas malak ul uy ichra nozil.

Nevchun arongizdadur masofot,
Chun bor ul ikov aro munofot?”

Majnun dedi yig‘labon chekib oh:
“K-ey ishqdin o‘lmag‘on sen ogoh!

Yo‘q, seni malak desam g‘aribi-
Kim, yo‘q sanga ishqdin nasibe.

Mendekni erur malak demak, rev-
Kim, ko‘rsa meni qiroq tutar dev.

Ishq o‘rtadi ul sifat vujudum-
Kim, bo‘ldi nabud barcha budum.

Ul o‘t aro aylasang taammul
Topqung badanimni to‘dayi kul.

Ne tong agar it xirom qilsa,
To‘da kul aro maqom qilsa?

Har itgaki, yetsa bir jarohat,
Kuldin yetishur tanig‘a rohat.

Bu itning erur jarohati ko‘p,
Demak, bo‘lmas kul ustidin qo‘p.

Yo‘q, yo‘qki, emastur itlik onda,
Itlik manga xatm erur jahonda.

It menmen, ulusqa or menmen,
Boshdin-ayog‘i figor menmen!

Ko‘p zaxm tanimni urdi barham,
Ul keldi bu zaxmlarg‘a marham-

Kim, bo‘lsa tanida ko‘p figori,
Har zaxmdin o‘lsa iztirori-

Kim, marham ila davosi qilsa,
Jonin ne ajab fidosi qilsa?

Bo‘lsa edi menda yuz tuman jon,
Bir topmag‘ay erdi bu badan jon.

Borin anga zor qilg‘ay erdim,
Yo‘lig‘a nisor qilg‘ay erdim”.

Bu erdi fasona-vu fusuni-
Kim, qildi yana g‘ulu jununi.

Yodig‘a chu kirdi vahshiyi dasht,
Qilmoq kiyik-u qulon bila gasht.

Ul itning ayog‘-iligin o‘pti,
Naxjir azimatig‘a[21] qo‘pti.

Bo‘ldi yana soyiri biyobon,
Ma’nuslarin[22] tilay shitobon.

Ul lahzaki, Zayd bo‘ldi qosid,
Layli sari topibon maqosid.

Hay ichida chun qaror topti,
Xilvatda ul oyg‘a bor topti.

Ul pardalar ichra g‘unchakirdor.
Bu tashqari bo‘ldi anga sirdor.

Nekim, bilib erdi yoridin so‘z,
Devonayi beqaroridin so‘z.

Ko‘rguzdi demakda ehtimomin,
Arz ayladi ollida tamomin.

Layli chu aning so‘zin eshitti,
Ko‘ngli temurin dami eritti.

Joni aro andog‘ o‘t tutoshti-
Kim, dudi aning boshidin oshti.

Gisusimu erdi anbarolud,
Yo chiqmish edi boshig‘a ul dud?

Gisu kibi pech-u tob topti,
Tob ichra o‘zin xarob topti.

Yuz uzr ila Zayd sori boqib,
Hasrat suyi ko‘zloridin oqib:

“K-ey tan aro jon berib kaloming,
Jismimg‘a ravon berib payoming!

Jon dardig‘a chorako‘sh sensen,
Odam demayin, Suro‘sh[23] sensen”.

Ko‘p uzr qilib so‘ziga payvand,
Naqdina base topib kiromand.

Tashqari yibordikim: “Muni ol,
Oz erdi qoshimda naqd filhol.

Uzrungni bu nav’ qo‘lmag‘umdur,
Yuz munchag‘a qone’ o‘lmag‘umdur.

Bo‘lg‘aymuki, lutf ila vafodin,
Bir ruq’a bu zori mubtalodin.

Devonavashim sori yetursang,
Ham munda javobini keturs ang?”

Zayd etmadi dilsitong‘a minnat,
Dediki: “Erur bu jong‘a minnat.

Bot bo‘lki, harif muntazirdur,
Bu amrda maks, bas muzirdur”[24].

Layli tilabon davot-u xoma,
Filhol muharrar etti noma.

El anglaridin ichida yuz bim,
Qosidg‘a nihoni etti taslim.

Qosid olib o‘ldi dashtpaymo,
Ul yergakim, ul g‘aribi shaydo.

Ish kayfiyatin solib arog‘a,
Topshurdi bitikni benavog‘a.

Ne erkanini chu bildi Majnun,
Za’f etganidin yiqildi Majnun.

Jismig‘aki, yerga past tushti,
Noma kibi yuz shikast tushti.

Ul nomag‘a chun kushod berdi,
Mazmuni o‘qur zamon bu erdi.

XXVI

Laylining “laylat ul-badr”dek safha bayozida “laylat ul-qadr”dek nomasi savodin Majnun o‘qub, og‘zi visol shahdidin shirin bo‘lg‘onda komig‘a zanbur nishi sonchilg‘oni va zanbur nishidek xoma no‘gin tez etib javobida kog‘az tabaqini shahdolud qilg‘oni[1].

“Ul Tengri oti bila bu manshur-
Kim, berdi ko‘ngulga ishqdin nur.

Urg‘och mayi ishqning salosi,
Odamg‘a yetishti ibtilosi.

Bir jur'aki, chekti ul jigarxun,
Mast o'ldi, ne mast, balki majnun.

Ul may bila, kimgakim, berib bahr,
Talx etti firoqdin qotib zahr.

Berganga muforaqat balosin,
Yetkurdi muvosalat shifosin[2].

Bulbulniki, qildi zor-u g'amnok,
Gul ko'nglagini ham ayladi chok.

Parvona gudoz-u so'zi andin,
O't sham'g'a dog'i ro'zi andin".

Chun bo'yla sochib base javohir,
Andin so'ng etib bu nukta zohir-

Kim: "Ushbu raqamki, naqshi Chindur,
Bir xastag'a bir shikastadindur.

Ya'ni meni zori mabtalodin,
Sangaki, qutulmading balodin.

Ey ishq o'tida xasim, nechuksen,
Ey bedil-u bekasim, nechuksen?

Ey bo'lg'ali ishqim ichra madhush,
Bir jur'ayi vasl qilmag'on no'sh!

Ey furqatim ichra gar yog'ib tosh,
Ming tosh yebon yashurmayin bosh!

Ey hajrim o'tida gar bo'lub kul,
Har shu'la ko'runubon anga gul!

Ey xori g'amimni jong'a urg'on,
Gulbongin aning jahong'a urg'on!

Ey silsilayi junun elingda,
Dad quyrug‘idin rasan belingda[3].

Holing nedurur firoqim ichra?
Fikring nedur ishtiyoqim ichra?

Sochingga yopushsa xor-u xoshok,
Kim tortar ekin birin-birin pok?

Farqingki, emish qush oshyoni,
Kim urkutur erkin andin oni?

Boshingki, sipehr ushotti darham,
Kim bog‘lar erkin alarg‘a marham?

O‘ltursa yuzungga gard-u xori,
Kim oritur erkin oni bori?

Jismingki, qonasa g‘am toshidin,
Kim yur ekin oni ko‘z yoshidin?

Xoreki, kafingg‘a borur erkin,
Kirpik bila kim chiqorur erkin?

Hajr o‘ti taningni kuydurur chog‘,
Kim sochar ekin ul o‘tqa tufrog‘?

Qum uzra yiqilsa jismi zoring,
Kim bor ekin anda g‘amgusoring?

Har yon yugururda zor-u bekas,
Soyang sanga hamrah erkin-u, bas.

Tog‘ ichida issig‘ o‘lsa ma’lum,
Soya qilur erkin ustunga bum.

Vayronada muhlik o‘lsa anduh,
Chug‘z aylar ekin boshing uza “vuh”.

Hijron tuni joning olsa bebok,
Subh aylar ekin sanga yaqo chok.

G‘am za’fida dasht uzra yotsang,
Qum bistar ekin ayog‘ uzotsang.

Tun boshinga vahsh o‘lur ekin jam’,
Ollingda bo‘ri ko‘zi ekin sham’.

Qon yutqali istasang piyola,
Topilmas ekin, magarki, lola.

O‘lturur ekin chibin qoshingg‘a,
Evrulur ekin quyun boshingg‘a.

Ey kosh sipehri tiyraanjum,
Bergay manga dog‘i ul tana’um[4]-

Kim, tun-u kun o‘lg‘amen rafiqing,
Yo‘lsiz yugururda hamtariqing.

Sen bo‘lsang-u men jahonda mavjud,
Bo‘lsa yana koinot nobud.

Gah sobit-u gah jahonda sayyor,
Yo‘q dahr diyori ichra dayyor.

Dilxoh ila ikkimiz maoshi,
Oyini visol betahoshi[5].

Ma’man badanimg‘a qo‘ynung o‘lsa,
Maskan iligimga bo‘ynung o‘lsa.

Gah egnima takya qilsa boshing,
Tavqi zaqanimda bo‘lsa qoshing.

Gah yuzuma tutsa yuzung orom,
Og‘zingga yetursa lablarim kom.

Yetsa tanima tilarda voya,
Hamxobalig‘ing, nechukki, soya.

Naylayki, sipehri harzanovard
Qildi bu muroddin meni fard.

Sening, nechakim, g‘amingg‘a yo‘q mahl
Chun er kishisen bu sahl erur, sahl.

Har sori uray desang takingni,
Tutquchi tikandur etakingni.

Etok dag‘i poybanding ermas,
Davri zihi ham kamanding ermas.

Miskin meni zori poybasta,
Yo‘q, yo‘qki, zaifi poshikasta.

Ne mayli sukun, ne haddi raftor,
Yuz qaydi balo aro giriftor.

Bo‘lmoq yuz alam uyida mahbus,
Bir yon, yana bir yon o‘ldi nomus.

Er majlisi ichra roh erur zeb,
Xotun kishiga saloh erur zeb.

Bu mehnati ishq pech-darpech,
Nomus chu ketti barchasi hech.

Pardasini g‘uncha aylasa chok,
Barbod etar oni charxi bebok.

Sensizki, g‘amim dame kam ermas,
Sendin gar emas ko‘p, oz ham ermas.

Sen tortibon ohi otasholud,
Men o‘t yoqibon chiqormayin dud.

Har necha g‘amimdin oh chekting,
Navfal bilakim, sipoh chekting.

Xaylim yuziga balo urub koj,
Ahl-u hashamimg‘a bimi toroj.

Istab ato ham haloki jonim,
To‘kmak tilabon yer uzra qonim.

Men muncha baliyat ichra xushdil-
Kim, yorg‘a kom bo‘lsa hosil.

Gar voqea juz halok emasdur,
Yuz muncha ham o‘lsa bok emasdur.

Mundog‘ dag‘i dedilar fasona-
Kim, Navfal ila bo‘lub yagona.

Chun hajlasi sori ko‘z solibsen,
Qo‘lmoqqa qizini so‘z solibsen.

Bo‘lsun sanga baxt yor-u yovar,
Billah, manga tushmadi bu bovar.

Bo‘lsa dag‘i chun sanga erur kom,
Ne kom sanga, manga erur kom.

Bog‘ ichra qo‘yub qadamni bir kun
Ko‘rmish edim ul sanamni bir kun.

Ham xub-u ham elga mehribondur,
Necha desa yaxshig‘ina jondur.

Yovar sanga Haq taborak o‘lsun,
Bu xayr ishing muborak o‘lsun.

Bo‘lsang necha oning ila xurram,
Yod ayla gahi bu xastani ham.

Insofg‘a ham kanora tutma,
Bizni dag‘i bir yo‘li unutma”.

Majnun o‘qug‘uncha bo‘yli noma,
Za’f etti tani misoli xoma.

Zayd ollig‘a har zamon qo‘yub bosh,
Arz ayladi seldek to‘kub yosh:

“K-ey chok yurakka choraandesh,
Marham aro yoshurub base nesh.

Bu nomaki, jonni qildi betob,
Yozmoqqa javob yo‘qtur asbob”.

Zayd aylab edi borin murattab,
Kog‘az dag‘i xoma-vu murakkab.

Qo‘ydi borisin qoshig‘a bir-bir,
Ul qildi javobi noma tahrir.

Zayd oldi-yu yo‘lg‘a xez soldi,
Har lahza qadamni tez soldi.

Po‘yada sabaq berib sabog‘a,
Topshurdi bitikni dilrabog‘a.

Xilvatg‘a kirib ochib sumanbar,
Ko‘rdi suman uzra gardi anbar.

Chun soldi savodig‘a nazar tez,
Bu nav’ bo‘lub edi guharrez.

XXVII

Majnunning ko‘z qarosi va kirpik xomasi bila jon safhasida yozg‘on ko‘ngli shurhalari sharhin Layli o‘qub ishq ittihodi

iqtizosi aning ko'ngli jarohatlaridin muning ham ko'nglin og'ritqoni va aning talxkom bo'lg'onidin munung dog'i komin ochitqoni[1].

"Ul Tengri oti bila bu noma-
Kim, ishq elidin ko'tardi xoma.

Fardeki, yo'q avval ibtidosi,
Hayyeki, yo'q oxir intihosi.

Tog' balchig'i uzra jola urg'on,
Qum tufrog'i uzra mola urg'on.

Har kimniki, aylabon pariro'y,
Ta'n aylagan anga odat-u xo'y.

Hajr emgokini qatig' yaratqon,
G'am sharbatini achig' yaratqon.

Ishq o'tig'a kimni kuydurub chum,
Ma'shuqig'a bermagan tarahhum.

Qilg'on necha oshiq o'lsa noshod,
Ma'shuqig'a iqtizosi bedod.

Oshiq ichi yuz ming o'lsa parkand,
Ma'shuqni qilmay anga xursand.

Ma'shuqqakim, esib nasimi,
Oshiq ichiga solib jahimi!"

Chun bo'yla bo'lub fasonapardoz,
Andin so'ng etib bu nukta og'oz-

Kim: "Ushbu g'am-u alam bayoni,
Jon safhasida bog'ir nishoni.

Mendinki, ichim g'amingda qondur,
Sangaki, g'aming tanimda jondur.

Ya'ni bu junun fasonasidin,
Rasvoliq o'ti zabonasidin.

Gulruxlar arosida parig'a,
Anjum aro mehri xovarig'a,

Ne haddim ila duo degaymen,
Yuz madh bila sano degaymen?

Madhing degali dag'i qoni til?
Bo'lsa de olurmu ham oni til?

Kun vasfini qilmoq oshkoro,
Xuffosh tiliga qayda yoro?

Har nechaki, chekti tilni savsan,
Gul vasfida keldi lol-u alkan.

Har necha bu nav'dur nazirim,
Yo'q bir necha nuktadin guzirim:

Ey kishvari husn podshohi,
Husn ahli bu kishvaring sipohi.

Ey noz-u karashma bog'ida vard,
Ne vard, bahori nozparvard.

Ey lutf jahonining bahori,
Yuzung bu bahor lolazori.

Bo'lg'onda sahar yeli gulafshon,
Zulfingnimu aylamas parishon?

Mashshota[2] qilurda vusmani pok,
Qoshingnimu aylamas girihnok?

Sarmast ko'zungki, erdi bemor,
Sog' o'lmog'i bo'ldimu padidor?

Ruxsoring o‘tida xoli hindu,
O‘zidek ulusni kuydururmu?

Gulbarg uza sunbulung tushub hech,
Qil yanglig‘ ururmu o‘t uza pech.

Yuzung xayi-yu soching tanobi,
Bormu ul ikovning ob-u tobi.

Og‘zingki, adamda bor edi gum,
Aylarmu ayon ani takallum?

Qadding qilibon havoyi raftor,
Aylarmu jahon elin giriftor?

Noz uyqusidin ocharmusen ko‘z,
Yuz noz ila elga dermusen so‘z?

Ko‘yungdaki, yo‘q mening kibi xas,
Xasdin dag‘i qadr ichinda vopas[3].

Bu ermish irodayi Ilohi-
Kim, sirrini bilmas el kamohi-

Kim, ko‘zki, o‘yulg‘ay erdi, ey kosh,
Ne ko‘zki, kesilgay erdi bu bosh.

Ul orazi dilrabog‘a tushgay,
Jon birla ko‘ngul balog‘a tushgay.

Fikr etsam edi bu nav’ o‘zumni,
Ko‘r etgay edim iki ko‘zumni.

Men kim edim-u bu dardi jovid?!
Zarra boshida havoyi xurshed.

Bexost yuzunga bir nigohim,
Tushganga mening nedur gunohim-

Kim, muncha kelib balo boshimg‘a,
Yuz dard-u balo qaro boshimg‘a.

Devona bo‘lub chiqib jahondin,
Ovora diyor-u xonumondin.

Har kun vatanim bir o‘zga vodi,
Har tun yana bir daman savodi.

Qum nat’i bo‘lub mening saririm,
Kun qursi bo‘lub mening fatirim.

Ot manga jibol qullasidin,
To‘n manga samum hullasidin.

Gah yor-u musohibim dad-u dom,
Gah tutmay alar bila ham orom.

Dasht uzra chu vahshatim topib tul,
Ram topib vahsh, bal qochib g‘ul.

Hayratda vuhush vahshatimdin,
Mehnatda tuyur mehnatimdin[4].

Anduh-u balo gumondin ortuq,
Za’f onchaki, bo‘lmas ondin ortuq.

Bir tavri adam bo‘lub manga jism-
Kim, anga vujud beribon ism.

Bu za’f bila chu po‘ya qilib,
O‘rgamchi tanobidin yiqilib.

Ko‘ksumniki, tig‘i hajr etib chok,
Kirib hasharot ichimga bebok.

Ko‘ksum ichida chibin solib sho‘r,
Ko‘zum uyida vatan qilib mo‘r.

Bu nav' qotig'lig'-u iriklik,
Yodingdin o'lub manga tiriklik.

Bu damki, guharnisor xomang
Tahrir etibon yetishti nomang.

Alfozin o'qurda ruh toptim,
Har harfida yuz futuh toptim.

Lekin iki so'z edi muharrar-
Kim, jonima soldi o't muqarrar.

Avvalki, nazarga bo'ldi ma'lum,
Navfal ishi bo'lmish erdi marqum-

Kim: "Tortib ikov sipohi xunrez,
Xaylim sari tig' chektingiz tez".

Alloh-Alloh, bu ne balodur,
Kim rishtani, derki, ajdahodur?

Pashsha kim-u pillik xayoli,
Yo mo'rg'a sherlik majoli?

Bu mundoq edikim: ul sipahbad,
Yetganda manga sipah edi dad[5].

Bilgach g'ami notavonlig'imni,
Ishqing aro xastajonlig'imni.

Bo'lmish nafase qoshimda sokin,
So'zlar dag'i demish ulcha mumkin.

Men bir dam o'zumdamen, dame yo'q,
Mundin ajab elga olame yo'q.

So'z ichra chu ko'rdum iztirobin,
Bilmon, ne dedim aning javobin.

Ul oldi meni-yu uyga ketti,
Ul yerga yetishti ishki, yetti.

Chun kina-vu qatlin angladim rost,
Qildim neki, mumkin erdi darxost-

Kim, qinig‘a soldi xanjari kin,
Tutti yonibon uyida taskin.

Bo‘lg‘onda fusun qilurg‘a hamdam,
Uylanmak ishin dedi ekin ham.

Ne angladim aylagan xitobin,
Ne oniki, ne dedim javobin.

Ko‘nglumdin o‘lub ham erdi barbod,
Nomang o‘qug‘ondin ayladim yod.

Qilmoq manga mundoq ishni mansub,
Tutg‘aymu muruvvat ahli mahsub?

Men muncha balo chekib vafoda,
Sen bo‘yla xayol-u muddaoda.

Nekim, bitiding nechuk qilay rad,
Ne qilsa qilur kim o‘lsa bexud[6].

G‘avg‘oyi junung‘a mubtalomen,
Boshtin-ayog‘img‘acha xatomen.

Nomangg‘a fido ko‘ngul, ko‘zum ham,
Lekin sanga bor bir so‘zum ham.

Navfal so‘zikim, qilib eding zabt,
Mendin emas erdi voqe’ ul xabt[7].

Ul ishq-u junundin o‘ldi hodis,
Sen ishq bila junung‘a bois.

Uylanmak ishiki, nisbat etding,
Bizga o‘z ishingni tuhmat etding-

Kim, Ibni Salom etib xayoling,
Balkim, tama’ aylabon visoling.

Ko‘nglini, atong qilib tarozi,
Bo‘lmish ne ul istaganga rozi.

Sen rozi erur-emasni bilmon,
Bilmas nima tuhmatini qilmon.

Hay, hay, ne fasonalar bo‘lur bu,
Xorij ne taronalar bo‘lur bu?

Go‘yo savdo yo‘lumni urdi,
Hushumni junun eli sovurdi.

Chun so‘zda shuur emas shiorim,
Yo‘q harza demakda ixtiyorim.

Devonamen, ey pari sifat hur,
Ma’zurdur, ulki tutsa ma’zur.

Bo‘ldum chu sening g‘amingda nobud,
Nobudg‘a nukta qayda mavjud?

Yo‘qning, neki, so‘z bo‘lur xitobi,
Tutmoq kerak oni yo‘q hisobi.

Yo‘qluq manga gar urubturur yo‘l,
Sen bor bo‘l-u bu yo‘qqa yor o‘l.

Iqbol ila baxt yoring o‘lsun,
Jonlar naqdi nisoring o‘lsun”.

Maktub o‘qug‘uncha sho‘xi marg‘ub,
Ko‘p topti shikan, nechukki, maktub.

Har bir so‘zi ichra fikr etib kech,
Ko‘p urdi o‘ziga nomadek pech.

Insofg‘a, chunki, daxl berdi,
O‘z so‘zlarining javobi erdi.

O‘z nomasidin bo‘lub mushavvash,
Bu noma zamirini qilib xush.

Ta’viz etib ul savodi mavzun,
Oning bitigin, nechukki, Majnun[8].

Ey qosidi nomabar, xabar ne?
Degil sanga ravshan o‘lsa harne?

Bir so‘z ila dardima davo ber,
Nomang bor esa, chiqor mango ber!

XXVIII

Majnunning atosi devboddek dasht atrofig‘a evrulub o‘z devonanihodin sargashtalikda topmog‘i va junun dashti qaroqchilari har dam aning hushi korvoni xaylin savdo sipohig‘a asir etgondin g‘arib holot mulohaza qilg‘oni va nasoyih hush dorusi bila ani lahzaye o‘ziga kelturgoni va o‘zi bila uyiga yetkurgoni[1].

Bu nomani, ulki, qildi marqum,
Afsonani bo‘yla etti ma’lum,

Kim, telbayi benavo atosi,
Yuz g‘ussag‘a mubtalo anosi.

Chun muddate o‘g‘lidin edi fard,
Ko‘nglini jarohat aylabon dard.

G‘olib bo‘lub anga ishtiyoqi,
Sahro sori tushti ittifoqi-

Kim, topsa fig‘on-u zor qilg‘ay,
Shoyadki, ichiga kor qilg‘ay.

Afg‘onig‘a mulhaq aylabon pand,
Shoyad ani aylagay zabonband[2].

Yuz nuktaga tilni qoyil etgay,
Shoyad ani uyga moyil etgay.

Ruhin qilib ul umed toza,
Har sori surar edi jamoza[3].

Chun necha kun ul talabda chopti,
Oxir ani bir buzug‘da topti.

Xushroq buzug‘ anga xonumondin,
Lekin o‘zi ko‘p buzug‘roq ondin.

Oshuftalig‘i gumondin ortug‘,
Ne kelsa gumong‘a ondin ortug‘.

Gahi tutub o‘lturur edi mo‘r,
Gah tufroq ila yasar edi go‘r.

Gah shug‘li kesak toshurga ta’jil,
Yasar edi ul kesak bila mil[4].

Gah sochar edi boshig‘a tufrog‘,
Gah tish bila olur edi tirnog‘.

Gah tomg‘a qo‘pub minar edi chust,
Har sori ayog‘larin etib rust.

Chimdir edi englarini har dam,
Chaynar edi yenglarini har dam[5].

Gah chug‘z bila navoda hamdard,
Gah bum yuzidin oritib gard.

Ham chug‘z qo‘nub qo‘lig‘a gustox,
Ham bum boshig‘a surtubon shox.

Tom uzra, ne xatki, cheksa nogoh,
Ul xat kelib ixtiyorsiz “oh”.

Boshig‘aki, urdi zaxm gardun,
Boshi tukidin adadda afzun.

Qonlig‘ ko‘zida tikan bila cho‘p,
Kirpiklaridin hisob aro ko‘p.

Ko‘rgach atosi bu nav’ holot,
Hayrat ani qildi o‘rnida mot.

Dediki: “Nedin, misol ekin bu,
Subhonalloh, ne hol ekin bu?

Kim ko‘rdi bu nav’ odamizod-
Kim, bermagay, o‘yla, odami yod”.

Har nechaki, sa’b edi bu surat,
Gom urdi aning sori zarurat.

Ko‘rgach atosin, kanora tutti,
Go‘yo atolig‘ haqin unutti.

Yig‘lab atosi yaqo qilib chok,
Bunyod etti hazing-u g‘amnok:

“K-ey yuz yaralig‘ bog‘irg‘a pora,
Mendin nega aylading kanora”.

Majnun atosi ekanni bildi,
Oh urdi-yu ollig‘a yiqildi.

Boshin ko‘tarib quchub atosi,
Jonin tilab aylamak fidosi.

Chirmashtilar, o‘yla chust-u mahkam-
Kim, jins iki harf o‘lsa mudg‘am.

Bir lahza yig‘idin erdi oshub,
Hijron achig‘idin erdi oshub.

Oshublari chu topti taskin,
Bunyod etib ul zaifi miskin

Dedikim: “Ayo ramida farzand!
Payvand bag‘irg‘a, balki parkand.

Ko‘ksim yarasini so‘kma muncha,
Bag‘rim qonini to‘kma muncha.

Sening taning o‘lsa yora g‘amdin,
Mening jigarim bo‘lur alamdin.

Bir dam jigarimg‘a qilma kovish,
Ko‘rgilki, ne nav’ etar tarovish.

Ul lahzaki, yo‘q edi nishoning,
Qonim aro muzmar erdi qoning.

Aylab tilaringni muddaolar,
Sadaqa berib-u qilib duolar.

Och to‘yg‘azibon, yalangni yoptim,
O‘ldum deganimda seni toptim.

Uch-to‘rt yoshingg‘a tegru payvast,
G‘am qolmadi bermagan manga dast.

Sen qatrayi sutdin olg‘ucha kom,
Yuz qatrayi qon qilib men oshom.

Aylab toboningni chun tikan resh,
Mening jigarimga sanchilib nesh.

To ilm-u adabni kom qilding,
Maktab tarafi xirom qilding.

G‘ofil bo‘lmay ishingda g‘amdin,
Borur-kelurungda har qadamdin-

Kim, fazl-u kamol yoring o‘lg‘ay,
Ilm-u hunar ixtiyoring o‘lg‘ay.

Qilg‘onda tanim rahil yodin,
Yetsa manga charxi bevafodin.

Ul ishki, ato-anomg‘a yetti,
Bir-bir, andoqki, barcha ketti[6].

Sen bo‘lg‘asen, ul zamon qoshimda,
Gahi oyog‘imda, gah boshimda.

Ruh etgan ila tanimni mahjur,
Chun sham’i hayotim o‘lsa benur.

Rishta kibi pech-u tobing o‘lg‘ay,
Parvonadek iztirobing o‘lg‘ay.

Sen umrg‘a bo‘lg‘asen vasilam,
Sendin yorug‘ay yana qabilam.

Gar nuridan o‘lsa sham’ mahjur,
Mash’al solg‘ay qabilag‘a nur.

Gum bo‘lmag‘ay el ichindin otim,
Begonag‘a qolmag‘ay jihotim.

Yiqqon, neki, maxzani hisori,
Bo‘lg‘ay naqdim qo‘lida bori.

Yel hajlama solmag‘ay guzar tez,
Kimsa hashamim sori nazar tez.

Ruhum bo‘lubon xalaf bila shod,
Qolg‘ay bori qavm-u xaylim obod.

Emdiki, bu ish qoshimg‘a keldi,
Har neki, dedim boshimg‘a keldi.

Subhimg‘a yetishti shomi mehnat,
Shomimg‘a yuz urdi subhi rihlat.

Tush-tushdin ichimga qo‘ydi yuz g‘am,
Bu bir g‘am-u sendin o‘ldi yuz g‘am.

Sham’img‘aki, zulmat o‘ldi hodis,
Ohing bo‘lub o‘chmagiga – bois.

Jon qushi tilab ucharni har dam,
Faryoding anga yana berib ram.

Ishq ichra tusharga joni zoring,
Bildukki, yo‘q erdi ixtiyoring.

Har amrki, bo‘lsa g‘oyati bor,
Har mahlakaning nihoyati bor.

Ishq ahli jahonda ko‘rmadukmu?
Bu vodi aro yugurmadukmu?

Bo‘lmoq bu sifat bir ishda mag‘lub.
Ahli xirad ollida emas xub.

O‘t ichraki, tushti benavoye,
Chiqti agar urdi dast-u poye.

Tolpinsa chiqar g‘ariq yumkin,
Tolpinmasa, o‘lmayin ne mumkin?

Sen ham bu baloda qolma mundoq,
Bir yo‘li o‘zungni solma mundoq.

Tushsa qadahi billur aro mo‘r,
Tadbir kerak chiqorg‘a, yo‘q zo‘r.

Har dardki, Haq kishiga berdi,
Ham Haqdin aning davosi erdi.

Haqkim, sanga soldi bu baloni,
Ojiz emas etgali davoni.

Bu dag‘dag‘adin kanora ista,
Har fikr ila o‘lsa chora ista.

Bir yo‘li agar gumon emastur,
Tadrij ila ham yomon emastur.

Tadrij ila tifl o‘lur xiradmand,
Sokinlik ila qamish bo‘lur qand[7].

Yuz yil kishi umr agar tilar bil-
Kim, sabr kerakdur anga yuz yil-

Kim, etsa manora uchi voya,
Birdur chiqar-u tusharda poya.

Chiqmoqlig‘ida agar kerak mahl,
Lekin tushari, base, erur sahl.

Sen dog‘i, bu yergakim, yetibsen,
Tadrij ila yo‘lni qat’ etibsen[8].

Yonmoqqa ham o‘ldung ersa moyil,
Kelganchadurur yo‘lungda manzil.

Yon emdiki, raxna basta ermas,
Mundoq safaring xujasta ermas.

Men, bo‘yla, hazing-u zor sensiz,
Anong dag‘i beqaror sensiz.

Oqshomdin tongg‘a joni mahzun,
Tongdin oqshomg‘a ashki gulgun.

“O‘g‘lum” der-u ul sifat chekar voy-
Kim, charx o‘qining qadin qilur yoy.

“Bo‘tam” debon aylar ul sifat pech-
Kim, qolmas ruhidin asar hech.

Yig‘lab urar, o‘yla, tosh uza bosh-
Kim, qolur alamda boshidin tosh.

Bu o‘t chu dimog‘in etti mahrur,
Oq sochi sochar yuziga kofur.

Bilmish chekaringni ko‘hi anduh,
Anduhi bo‘lubdur, o‘ylakim, ko‘h.

Tufroqqa yiqilmog‘ing chu bilmish,
Tufroq uza ul dag‘i yiqilmish.

Sensiz erur, o‘yla, dard-u g‘amliq-
Kim, qolmishdur bir-ikki damliq.

Men bo‘yla-vu ul zaif bo‘yla,
Kel ikkalamizga chora o‘yla!

Ummedi hayotimiz ketibdur,
Ohangi rahilimiz yetibdur.

Begonani uy sori yovutma,
O‘rnungki, qiziqdurur, sovutma.

Biz ikki sening g‘amingdin o‘lsak,
Sen o‘lma-yu motamingdin o‘lsak.

Bu ishta Haq aylasa xitobing,
Fikr etki, ne bo‘lg‘usi javobing?”

Surdi chu atosi bo‘yla afsun,
Yig‘lab oyog‘iga tushti Majnun.

Kirpik bilan chun yo‘lin supurdi,
Posuxda bu nav’ nukta surdi[9].

“K-ey xayling eshigi qiblagohim,
Darding o‘tini yorutqay ohim.

Har choraki, sen qilib taxayyul,
Ko‘nglum o‘ti xirmanin qilib kul,

Har sabrki, sen topib nihoni,
Ashkim seli oqizib oni.

Bu necha, takallumiki, surdung,
Kuygan ko‘ngul o‘tig‘a su urdung.

Yo‘q-yo‘qki, qo‘yarg‘a dog‘ uza dog‘,
O‘t yoqding-u quydung ustiga yog‘.

Nutqung, neki, ayladi raqamzad,
Ayturg‘a javob yo‘q manga had.

Hukmung manga orzuyi jondur,
Boshimg‘a bu hukm ham ravondur.

Ollingda ne so‘z de olg‘amen cho‘q,
Gar bo‘lsa javobim, ul dag‘i yo‘q.

Lekin sanga bu emas nihoni-
Kim, bo‘yla qazoyi osmoni-

Kim, tori o‘lub bu notavong‘a,
Rasvo qildi bori jahong‘a.

Bu nav' balo bo'lurg'a jori,
Bo'lmas kishining o'z ixtiyori.

Ishq o'tiki, bir sharora ondin,
To'fon qo'porur bori jahondin.

Yuz sho'lani maskanimg'a urdi,
Ming barqni xirmanimg'a urdi.

Xirman sari tushsa bir sharora,
Kuymakdin emastur anga chora.

Ming barq tushursa ishqi bebok,
Netgay aning o'trusida xoshok.

Ne buyrug'ung o'lsa so'z demasmen,
Majnun men, lek Qays emasmen.

Sarveki, sen aylading taammul,
Xas bo'ldi-yu, xas bu dam erur kul.

Bu kulga, magarki girdbode,
Bergay yana sarvdek savode.

Yetgandaki, aylading nazora,
Ko'rdungki, meni siyahsitora.

Yo'q mayli sukun-u azmi raftor,
Ne mehnat aro edim giriftor.

Qochmoqlig'im erdi tonimasdin,
Balkim, toniringg'a arzimasdin.

Dad har sori ketsa, ketmak o'lmas,
Nasnosni odam etmak o'lmas[10].

Bo'lmog'lig' iting erur murodim,
Yo'q itcha o'zumga e'timodim.

It kimsaga bevafolig‘ etmas,
Boshin olib o‘zga sori ketmas.

Men iyasiga uzr qo‘lg‘on itmen,
Bu dashtda telba bo‘lg‘on itmen.

Mumkin esa telba it oyilmoq,
Yoxud anga e’timod qilmoq.

Sen dog‘i meni xiradnihod et,
Har ishtaki, qilsam e’timod et.

Uzrumni qoshingda qo‘ldum oxir,
Har ishta maof bo‘ldum oxir”.

Chun aytti uzrining tamomin,
Tez urdi jamoza sori gomin.

Yeshti rasani jihozidin chust,
O‘z bo‘ynig‘a bog‘ladi ani rust[11].

Topshurdi rasan boshin atog‘a,
Dedi: “Ne desang bu mubtalog‘a,

Itmen iligingda bo‘yni bog‘liq”,
Deb qildi o‘zini to‘rt ayog‘liq.

Yeshti ato bo‘ynidin rasanni,
Azm etti havo qilib vatanni.

To tutti junun yo‘lin Navoyi-
Kim, bo‘ldi vatang‘a rahnamoyi?!

Majnundek atosi dog‘i yo‘qtur,
Maskang‘a havosi dog‘i yo‘qtur.

XXIX

Navfalning Majnun qabilasi mehmonlig'idin uyiga borg'och, Majnun atosig'a mizbonliq qilg'oni va payvand rishtasi oralarida mahkam bo'lub, mehmon uyiga kelguncha Majnun biyobong'a azm qilib, Layli shubonig'a yo'luqqoni va shubon itidek loba qilib, shubon ani qo'ylar arosida yashurg'oni va Laylini ko'rgach qurbon qo'yi bila Xo'tan jayranining yiqilmog'i va har qaysini bir vasila bila o'z qabilalarig'a eltmoqlari[1].

So'z noqasining rahilko'shi
Bu nav' chekar hudi xuro'shi[2]-

Kim, chun hashamig'a keldi Majnun
Shod o'ldi alarki, erdi mahzun.

Ham qo'ydi atosi notavonliq,
Ham bo'ldi anosi toza jonliq.

Kiydurdilar anga xazz-u debo,
Xil'atlari barcha chust-u zebo.

Har sori yetishti bu hikoyat-
Kim, "Hush anga aylamish siroyat".

El ko'nglida bu xayol pishti,
Navfalg'a dag'i xabar yetishti.

Ul xud yeb aning g'amin hamesha,
Zikrin qilib erdi vird-u pesha.

Ko'ngliga xayolidin tafakkur,
Jonig'a visolidin tahayyur.

Bu so'zni eshitgach o'ldi xushdil,
Borib ko'rariga bo'ldi moyil.

Otlandi-yu surdi ul taraf ot,
Majnun eli ham xabar topib bot.

Soz aylab asosi mehmoni,
Xushdilliq ila tushurub oni.

Majnun bila ul sipahbadi chust,
Yuz mehr bila quchushtilar rust.

Oqshomg'acha komronlig' aylab,
Bu xayl anga mizbonlig' aylab.

Ul xud bo'lubon bu ishga xushhol,
Majnun o'z ishiga qolibon lol.

Chun Navfali mehr yuz yoshurdi,
Majnuni falak yoshin oshurdi[3].

Rah to'sha kulicha yoydi kavkab,
Navfal dag'i yo'lg'a soldi markab[4].

Borur edi barcha yo'l aro shod,
Majnun qolibon uy ichra noshod.

Lekin atosig'a yuzlanib kom-
Kim, Navfal aning sori qo'yub gom.

Ham ayladi shod-u xurram oni,
Ham xayl ichida mukarram oni.

Ko'ngliga tushub, bu so'zki, Navfal,
Majnunni chu ko'rmish erdi avval.

Layli eli birla harb etib big'-
Kim, chekti aning ishi uchun tig'.

Majnun g'amini chu yer ekandur,
Payvand so'zin dag'i degandur[5].

Shak yo‘qki, erur bu ishga moyil-
Kim, qildi bizing hashamni manzil.

Yo‘qsa Majnung‘a yo‘qtur ul yo‘l-
Kim, kelgay ani ko‘rar uchun ul.

Emdi budurur adab manga ham-
Kim, hay elini qilib faroham.

Oning sari xizmat etgabiz fosh-
Kim, bo‘lg‘ay aning ishiga podosh[6].

Topsaq yana lutf ila madoro,
Ul so‘zni ham etsak oshkoro.

Rozi esa baxtdin quvonsoq,
Yo‘q desa qabila sori yonsoq.

Istatti hasham ulug‘larin bot,
Arz etti alarg‘a bu maqolot.

Borisig‘a dilpazir tushti,
Qilmoqlig‘i noguzir tushti.

Majnun ishi, chunki, erdi matlub,
Oning boruri ko‘runmadi xub.

Har neki, kerak qilib muhayyo,
Yorim kecha, o‘ylakim, Surayyo.

Jam’ o‘lubon aylabon bu tadbir,
Qildilar o‘shul guruh shabgir.

Bu kom aro yuz fasona boshlab,
Har birki, tugandi yona boshlab.

Borur edilar debon bu so‘zni,
Bu so‘z bila xushdil aylab o‘zni.

To dashtni oncha qildilar tay-
Kim, Navfal uyig‘a qo‘ydilar pay.

Ul ham qilib ulcha sharti ikrom,
Manzilda berib alarg‘a orom.

Qildi tarab-u nishot oncha,
Ul xayl ila inbisot oncha-

Kim, bori ko‘rub mahalni qobil,
Bo‘ldilar o‘shul g‘arazg‘a qoyil.

Navfalga g‘araz chu bo‘ldi masmu’,
Ko‘ngliga bu nukta keldi matbu’.

Dediki: “Bu so‘z deyilmish erdi,
Majnung‘a bu g‘am yeyilmish erdi.

Qildim chu qabul anga raqamzad,
Emdi dag‘i qilmog‘umdurur rad.

Siz emdi qo‘yung hasham sori gom,
Men sur ishini qilay saranjom[7].

Sizga dag‘i ulcha dastrasdur,
Ortuq manga orzu emasdur.

Soz aylab eting buyon azimat-
Kim, fursat erur base g‘animat.

To, o‘ylaki, bo‘lsa shart payvand,
Majnunni qilay o‘zumga farzand”.

Miodi nikoh topti ta’yin,
Ul xaylg‘a yonmoq o‘ldi oyin.

Shod uy sari bo‘ldilar ravona,
Bilmayki, ne fe’l etib zamona.

Ul tunki, alarg‘a qolmay orom,
Navfal sari urmish erdilar gom.

Majnunki, uy ichra qoldi diltang,
Ko‘zdin to‘kar erdi ashki gulrang.

Chun qo‘ymadi hajr o‘ti qarorin,
Ishq ilgidin oldi ixtiyorin.

Shavq o‘ti chekib zabona chiqti,
Uydin yana bexudona chiqti.

Dasht uzra yugurdi besar-u poy,
Gah tortib huy-u, gah chekib voy.

Yoy erdi qaddi-yu, novak ohi,
Gardunni qilib nishonagohi.

Bu yoyig‘a chun qurar edi o‘q,
Gardun ko‘ziga urar edi o‘q.

Oyini havolanib tak-u dav[8],
Ul nav’ki, mehri osmonrav.

Eltur edi yor mehri oni,
Bosh urg‘ucha mehri osmoni.

Chun Jadyin sog‘di charx zoli,
Sut qatralarin oritti holi.

Ul sut bila san’at aylabon zol,
Ko‘rguzdi panir qursi filhol[9].

Ollig‘a yetishti bir suruk qo‘y,
Cho‘poni ko‘rundi oshnoro‘y.

Majnunni dag‘i shubon chu ko‘rdi,
Ahvolini lutf birla so‘rdi.

Majnun dedi: "Ey yuzi humoyun,
Qayda seni ko'rmish erdi Majnun-

Kim, tal'ating oshno ko'rundi,
Dardig'a so'zung davo ko'rundi.

Sen ham anga aylading navozish,
Ul dog'i navozishingg'a nozish".

Cho'pon qo'yubon ayog'ig'a bosh,
Bu nav' takallum ayladi fosh-

Kim, "Menkim, ishim erur shubonliq,
Qo'y birla qo'zig'a mehribonliq.

Tilsiz gala hamzabonidurmen,
Layli qo'yining shubonidurmen.

Seni ko'rub erdim ul hashamda,
Maktabda sabaq o'qur alamda.

Ishqing alamin dag'i bilurmen,
Har chora qilay desam qilurmen".

Majnun tobonig'a qo'ydi boshin,
Na'l etti o'tuklarig'a qoshin.

Dediki: "Ayo daming ravonbaxsh,
Nutqung o'lgan tanimg'a jonbaxsh.

Isodek o'lukni tirguzursen,
Xush mu'jizadurki, ko'rguzursen.

Yo'q-yo'qki, shubonlik ichra Muso,
Ilgingda aso ham ajdaroso.

Muso neki, Xizri[10] rohim o'ldung,
G'am zulmatida panohim o'ldung.

Yetkur manga obi zindagoni,
Ya'niki, ko'ray yiroqdin oni-

Kim, hajrida xastajonmen asru,
Rahm aylaki, notavonmen asru".

Cho'pon dedi: "Ey xujasta sohib,
Oqshomg'acha bo'l manga musohib.

Chora tarafi nazora aylay,
Bir nav' ishingga chora aylay".

Majnun chekibon duosig'a til,
Bo'ldi anga ul kun, o'ylakim, yil.

Mag'rib sari mehr aylagach ro'y,
Surdi cho'pon hasham sari qo'y.

Bir qo'y terisin chiqordi filhol,
Majnung'a dediki: "Egninga sol.

Qo'ydek bu terini xil'at ayla,
Boshdin-ayog'ingg'a kisvat ayla.

Qaddingni g'anam[11] ichinda xam qil,
Oshiq esang oni mug'tanam bil-

Kim, kelgusidur buti parichehr,
Andoqki, Hamal fazosig'a mehr.

Qizlar bila o'yna-yu talosho,
Qo'y sog'mog'in etgali tamosho.

Yetganda boshingg'a sen bilursen,
Ne nav', nazorakim, qilursen".

Majnun yopinib terini mahkam,
Qo'ylar aro aylabon qadin xam.

Borur edi to‘rt ayog‘lanib tez,
To qildi zamona fitnaangez.

Qo‘ylar chu qabilag‘a yovushti,
Qizlarg‘a xirom jo‘shi tushti.

Anjum kibi chiqtilar shitobon,
Layli ul aroda mohi tobon.

Chun ishq aro ko‘p bo‘lub maloli,
Oshufta-vu tiyra zulf-u xoli.

Hijron o‘tidin uzorida tob,
Gulbargi sirishk birla serob.

Gesuki, bo‘lub yo‘lig‘a jorub,
Olamg‘a sochib g‘ubor-u osho‘b.

Fitnaki, ko‘ziga surma tortib,
Jon naqdin olurg‘a ko‘z qarortib.

Mujgoniki, qatl aylab ohang,
Yuz shu’lasi dudidin tutub zang.

O‘tlug‘ yuzikim, bo‘lub dilafro‘z,
Majnunkush-u, balki nuktadonso‘z.

Bu nav’ jamol ila yetishti,
Yuz g‘anj-u dalol[12] ila yetishti.

Majnung‘a ko‘rungach ul parizod,
Oyini hayoti bo‘ldi barbod.

Bir ohi falakshikof chekti-
Kim, ko‘kni anga g‘ilof chekti.

Qo‘y ichra yiqildi zor-u bedil,
Qo‘ydekki, qilurlar oni bismil.

Ul nolaki, chekti bemadoro,
Qo‘ylarg‘a ram o‘ldi oshkoro.

Butrashti chu har birisi bir yon,
Qoldi orada g‘arib giryon.

Layli ichin o‘rtab o‘tlug‘ ohi,
Keldi bilayin debon kamohi.

Boqsa yotur erdi yer uza po‘st,
Ul po‘st aro nihon bo‘lub do‘st.

Baskim, g‘am o‘ti tanin qarortib,
Ul mushk o‘ziga nofa tortib.

Mushkin ko‘runib tani nizori,
Layli sochining ,nechukki, tori.

Gulruxg‘a chu bo‘ldi qissa ma’lum,
Oh urdi-yu hushi bo‘ldi ma’dum.

Yor uzra yiqildi sarvqad hur,
Tufroq uza tushti go‘iyo nur.

Ishq ichra tani nizor birla,
Hamxobalig‘ etti yor birla.

Oshiqki, erur ishida sodiq,
Ma’shuq bo‘lur boshida oshiq.

Qizlar bo‘lubon ul ishdin ogoh-
Kim, bo‘yla yiqildi ikki dilxoh.

Gulruxni ko‘tardilar hamul dam,
Vasl o‘lmay alarg‘a, hushsiz ham.

Azm aylab o‘kush fasona birla,
Ul amrda yuz bahona birla.

Sahroda qolib g‘arib-u bexesh,
Hayratda shuboni choraandesh-

Kim, topsa xabar qabila ahli,
Bir dam yo‘q anga hayot mahli.

Mundoqda iki jamozaliq tez,
Yettilar etib jamozalar xez[13].

Bu holat ichinda topqoch oni,
Bir noqa[14] cho‘kurdilar ravoni.

Noqa uza oni qo‘ydilar chust,
Ilgin, ayog‘ini tongdilar rust.

Voqif bo‘lmay qabilada el,
Azm o‘ldi alarg‘a, o‘ylakim, yel.

Mundoq dedi roviyi fasona-
Kim, kelgach atosi uyga yona.

Bildiki, ketibdur ul hamul shom,
Ko‘p yig‘ladi uyda tutmay orom.

Yig‘lay-yig‘lay izin erishti,
Ul yerda yetishtikim, yetishti.

Bog‘lab teva uzra, chunki topib,
Kelturdi uyiga tegru chopib.

Yetkurguncha hashamg‘a oni,
Yuz qatla labig‘a yetti joni.

Chun yetti qabilag‘a yobondin,
Yod etmadi qo‘y bila shubondin.

Ey vodiyi Ayman[15] ichra qo‘ychi,
Itmen sanga o‘z qoshingda qo‘y-chi!

Shug‘lung bila boshladim yo‘lumni,
Tut lutf ila sen dag‘i qo‘lumni.

XXX

Majnun atosi o‘g‘lini ko‘p nasihatlar bila Navfal hashamig‘a olib borg‘oni va Navfal sur asbobini surur bila chiqarg‘oni va tazvij rishtasi aqdi tuzulgoni va ul girih mahkam bo‘lmasdan burun uzulgoni va bir oshiq ma’shuqi vaslidin kom topqoni va yana bir oshiq ma’shuqi vaslin tilay gom urg‘oni[1].

Mashshotaki, so‘z durini terdi,
Bu bikrg‘a bo‘yla jilva berdi-

Kim, uyga chu keldi zori shaydo,
Mag‘zi aro bo‘ldi hush paydo.

Yig‘lab atosi qilib shikoyat,
Etib yana pandi benihoyat.

Ul so‘z demayin malolatidin,
Boqmay atog‘a xijolatidin.

Fahm o‘lg‘och atosining maloli,
Tufrog‘ etib ani infioli.

Yuz yerga qo‘yub tutub qulog‘in,
Ko‘p o‘pti atosining ayog‘in.

Dediki: “Kechur gunohim oxir-
Kim, lutfung erur panohim oxir”.

Ko‘rgach ato ajz e’tirofi,
Dedi: “Bu ishinggadur talofi[2].

Qilg‘on boridin ruju’ qilsang,
Ne ishga desam shuru’ qilsang.

Mendin tilasang rizo qabul et.
Ne shar' etar iqtizo qabul et".

Majnunki, futuvvat ahli erdi,
Ehson-u muruvvat ahli erdi.

Hush o'lsa dimog'i ichra sokin,
Tarki adab ermas erdi mumkin.

Odobi hidoyat ahli yanglig',
Oyini valoyat ahli yanglig'.

Andoqki, tilab Xudo rizosin,
Andin so'ng ato-ano rizosin.

Dedi: "Sanga, har nekim, rizodur,
Qilmog'lig' ani manga sazodur.

Hukm etki, ne nav' etay shiorim,
Etmakda ani ne ixtiyorim?"

Bo'ldi atosi bu nuktadin shod,
Navfal ishidin so'z etti bunyod-

Kim, Navfalkim, Arabdadur toq,
Yo'q, yo'q, ne Arabki, toqi ofoq.

Ko'p bo'ldi sening uchun alamsanj,
Ko'ngliga ishingda yetti ko'p ranj.

Chunkim, yo'q edi azalda taqdir,
Topmadi ishing butarga tadbir.

Emgaklari bo'ynunga erur qarz,
Uzrin qo'lmoq sanga erur farz.

Emdi budurur aning rizosi,
Ham xasta atongning iltimosi-

Kim, zohir etib tariqi payvand,
Qilsoq anga dog‘i seni farzand.

Bir yotlig‘i bor emish parivash,
Boshtin-ayog‘i latif-u dilkash.

Iffat haramida ul jamila,
Savdosida zor yuz qabila.

Vaslin tilar elga xud adad yo‘q,
Ayturg‘a anga valek had yo‘q.

Bu ish biladur manga mubohot,
Ta’xirda keldi bimi ofot.

Mendin tilasang rizo, rizo ber,
Bu qissa rizosini mango ber!”

Majnun tilin andoq ayladi band-
Kim, bo‘ldi rizosi birla xursand.

Xushvaqt o‘lubon qo‘pub tarabnok,
Indatti qabila ahlini pok.

Har neki, kerak ul ish yarog‘i,
Omoda qilib ziyoda dog‘i.

Majnunni yasab libos birla,
Tun-kun kibi kish-u os birla[3].

Hech ish bila favt qilmay avqot,
Navfal sori azm qildilar bot.

Ul ham chu eshitti mojaroni,
Jam’ ayladi xesh-u aqraboni.

Jashn anjumanin[4] azim qurdi,
Ul xaylni bazm aro tushurdi.

Oyini tarabg‘a qo‘ydilar yuz,
Ichku edi necha kecha-kunduz.

Chun bo‘ldi tarab ishiga anjom,
Bir dam ko‘tarildi bazmdin jom.

Ko‘p ziynat-u zeb etib ikovni,
Gulchehra kelin bila kuyovni.

Qizni asrab hijob ichinda,
Oydek to‘quz niqob ichinda.

Bazm ichra kuyovga qo‘ydurub gom,
Berdilar el o‘rtasida orom.

O‘lturdi xatibi Isoe’joz[5],
Haq hamd-u sanosin aylab og‘oz.

Oy birla quyoshni bog‘ladi aqd,
Boshi uza sochtilar, base, naqd.

Chun mehr kelin kibi yoshundi,
Tun yerga kuyov kibi yukundi.

Gardun ko‘rubon bu ish muvofiq,
Kelturdi to‘quz tabaqda sochiq.

Ul uygaki, urmish erdilar taxt,
Taxt ustida solmish erdilar raxt,

Boshladilar ul ikkovni xandon,
Yo‘q kulgu vale alarg‘a chandon.

Majnunni qarin qilib parig‘a,
Topshurdilar oyni Mushtarig‘a.

Uy girdidin elni surdi Navfal-
Kim, qolmadi anda elga madxal.

Ul tegrada jam' yo jarida,
Alqissa yo'q erdi ofarida[6].

Bir pos chu tundin o'tti ul xayl,
Tushluq-tushi qildi uyqug'a mayl.

Navfal yiroq o'lturub ichib mul,
Har dam qilur erdi bir taxayyul.

Savdosi bu yo'lg'a tutti oni-
Kim, uy yonig'a kelib nihoni.

Sokin qilib uy kizini pora,
Ul furjadin ayladi nazora.

Ko'rdi yeridin qizinki, qo'pti,
Majnun qoshig'a kelib yer o'pti.

Bunyod ettiki: "Ey yagona,
Ishq ichra yagonayi zamona.

Ham mehri safo yuzungda tole,
Ham nuri vafo engingda lome'.

Bu nukta erur qoshimda ravshan,
El ollida ham erur muayyan-

Kim, Layli ishida notavonsen,
Ishqida jahong'a dostonsen.

Ko'nglungdur aning g'amida mahkam-
Kim, ishqi erur sanga musallam.

Ko'nglung o'tidin sovutmog'ungdur,
Ul borida yor tutmog'ungdur.

Ikkimiz atosining rizosi,
Solmish sanga bu ish ibtilosi.

Chun kishvari ishqning shahisen,
Ishq ahli o‘tining ogahisen.

Bordur manga dog‘i dardmande,
Ishqim rasanig‘a poybande.

Dardim o‘ti ichra tobi oning,
Men dog‘i kelib xarobi oning.

Lekin ikimiz o‘ti nihoni,
Ne meni ulus bilib, ne oni.

Fikr aylaki, ul asiri mahjur,
Fahm etsa sening bila manga sur.

Bu kecha aning ne holi bo‘lg‘ay?
Umri kunining zavoli bo‘lg‘ay!

Sirrimni sanga chu ayladim fosh,
Sendin manga budur emdi podosh-

Kim, rozi bo‘lub g‘aromatimg‘a[7],
Bo‘ynungni qo‘yub malomatimg‘a.

Qilmay meni el aro fazihat[8],
Qo‘psang dag‘i aylasang azimat.

Har kimgaki, bu fasona yetsa,
Ul xayl seni malomat etsa,

Men bo‘lmasam el aro muotab,
Qilsang sen o‘zungni-o‘q muxotab[9].

Bu nav’ muruvvat o‘lsa sendin,
Izhori futuvvat o‘lsa sendin.

Ummedim erurki, Qodiri pok,
Layliniki, keldi nodiri pok.

O‘z hifzi aro zimonda tutg‘ay,
Har mahlakadin amonda tutg‘ay.

Ham hajrida o‘lmog‘oy shikibing,
Ham vaslini aylagay nasibing”.

Majnung‘a yetib bu so‘zdin ozor,
Ul xasta ishiga yig‘ladi zor.

Dedikim: “Ayo ramidapayvand!
Bo‘l ishq-u muhabbatingg‘a xursand.

Yoringg‘a vafo shioring o‘lsun-
Kim, Tengri hamisha yoring o‘lsun.

Men xud tushubon ichimga anduh,
Qilg‘um edi azmi vodiy-u ko‘h.

Ko‘nglungni qilur uchun rioyat,
Oshuftazamir edim bag‘oyat.

Bu lutfki, sendin o‘ldi zohir,
Uzrungni nechuk qo‘lay men oxir?

Ketmakkaki, jazm niyatim bor,
Ketsam sanga xud ne minnatim bor.

Men xud ketar erdim ushbu soat
Berding safarimg‘a istitoat.

Minnat sanga yo‘q, o‘zumga qo‘ydum,
Jon birla iki ko‘zumga qo‘ydum”, –

Deb qo‘pti anga duolar aylab,
Mundoq karam-u atolar aylab.

Soz etti og‘olig‘-u singillik,
Ko‘p istadi singlidin bihillik.

Chiqti dag‘i azmi po‘ya etti,
G‘am bodiyasig‘a kirdi-ketti.

Navfal ko‘rubon bu turfa holat,
Qiz birla kuyov aro maqolat.

Qo‘pti dog‘i uyga tebradi dang,
May ichra kishi yegan kibi bang.

Ko‘rgoniniki, yod etib uyolib,
Ne asray olib, ne ayta olib.

Uyning yana sori qahr-u kinda,
Qiz oshiqi bor emish kaminda.

Ilgi aro dashnaye[10] tutub tez-
Kim, bo‘lsa ul ikki ishratangez,

Ul ikkini ham halok qilg‘ay,
O‘z ko‘ksini dog‘i chok qilg‘ay.

Pok erdi chu ishqi ichra ul zor,
Ishq ayladi anga o‘tni gulzor.

Majnung‘a tutub o‘zini taslim,
Ko‘p topti tariqi ishq ta’lim.

Tufrog‘ig‘a surtubon jabinlar,
Tavrig‘a dedi ko‘p ofarinlar.

Ham dilbaridin topib nishona,
Oyini vafoda g‘oyibona.

Bexud qilibon bu holat oni,
Ul mehr-u muhabbati nihoni.

Chun shavqida toqati bo‘lub toq,
Uy ichra kirib harifi mushtoq.

Yer ustida ayladi tanin past,
Tufroqqa jonni qildi hamdast.

Ma'shuq chu ko'rdi notavonin.
Yuz sa'y ila asradi fig'onin.

Mehr ila boshig'a soya soldi,
Boshini ko'tardi ko'nglin oldi.

Yillarki, bu ishq aroda erdi,
Kundan-kunga ziyoda erdi.

Bermaydur edi ikovga payvast,
Bu tungicha vasl davlati dast.

Bir-biriga mehr etib padidor,
Bo'ldilar ikovla masti didor.

Juz nafs murodikim, yo'q erdi,
O'zga bori kom dast berdi.

Tong otg'ucha gung-u lol edilar,
Sarmasti mayi visol edilar.

Chun tong qushi nola yod qildi,
Oshiq dag'i xayrbod qildi.

Bosh oldi-yu ketti vasldin shod,
Ma'shuqasi qoldi g'amdin ozod.

Chun subh aro'sining yuzida,
Ko'rguzdi sapidadam sapida.

Mashshotayi charx tutti o'tru,
Kun chashmasidin yuziga ko'zgu[11].

Sur eli yuz urdi bomdodon,
Qiz birla kuyov qoshig'a shodon.

Ul uyda biri edi, ikov yo‘q,
Qiz yolg‘uz edi, vale kuyov yo‘q.

To‘ldi yana g‘amdin ul arozi,
Majnun eli xud o‘lumga rozi.

Navfal bilibonki, nedur ahvol,
Ayturg‘a vale tili bo‘lub lol.

Majnun eliga base qo‘lub uzr,
Aytur so‘zi sarbasar bo‘lub uzr-

Kim: “Tengridin erdi bo‘yla taqdir,
Nekim taqdir erur, ne tadbir?![12]

Ne sizdin edi bu ish, ne bizdin,
Balkim, ne o‘g‘uldin-u, ne qizdin.

Taqdirdin erdi bo‘yla holat,
Shukr aylang-u raf’ eting malolat”.

Bu uzr ila barchani uzotti,
Yondi o‘zi-yu uzoldi-yotti.

Ul nav’ nuhufta ranj-u temor,
Bistar uza jismin etti bemor[13].

Bemormen, ey tabibi hoziq,
Tashxising emas vale muvofiq.

Jonimni olur g‘ami nihonim,
Daf’ ayla-vu yo bag‘ishla jonim.

XXXI

Falak zoli musha’bidlig‘ining buqalamunlug‘i Majnunni Navfal qizi visolig‘a yetkurmasdin burun ayirg‘ondek, Laylini dog‘i Ibn Salom malolatidin salomat ayirib, hajr qaro

tunida ikki nomurodni murodg'a yetkurgoni va badansiz ruhni ruhsiz badang'a kivurgani va ruh bila badan vasli muyassar bo'lg'och, tig'i firoq surgoni va ul suv bila bu visol o'tin o'churgoni[1].

Kilkeki, bu safha qildi xorish,
Afsona bu nav' etar nigorish:

Kim, ul necha kunki charxi purfan-
Kim, ko'proq anga fireb erur fan.

Hazl etti ne hazl, behayoliq,
Majnung'a buyurdi kadxudoliq[2].

Ham Ibni Salom ittifoqi,
Soz ayladi uylanur yaroqi.

Har neki, kerak qilib murattab,
Layli hashamig'a surdi markab.

Chiqtilar alar dag'i topib kom,
Berdilar anga uy ichra orom.

Xaylini dag'i tushurdilar bot,
Bazm ichra qadah keturdilar bot.

Ul nav'ki, rasm erur ziyofat,
Aylab anga dag'i ko'p izofat.

Aysh ayladilar necha tun-u kun-
Kim, ne kuni maysiz erdi, ne tun.

Chun bo'ldi mahalki, aqdi tazvij
Bergay bu nishot ishiga tarvij[3].

Bo'lmish edi soat ixtiyori,
Jam' o'ldi qabila ahli bori.

Til chekti xatibi harzapayvand,
Aqd ichra kuyovni ayladi band.

Chun topti nikoh ishi saranjom,
Layli haramig'a urdilar gom-

Kim, mayl etibon tuman jafog'a,
Bergaylar ul oyni ajdahog'a.

Yor ilgi chu ilgiga yovushti,
Misking'a g'arib qissa tushti.

Tab'i xafaqondin erdi ma'lul,
Ko'p bo'lsa edi qadahqa mashg'ul,

Andoq solur erdi jismig'a pech-
Kim, kelmas edi anga nafas hech.

Ichti necha kun chu bemadoro,
Ul zahmati bo'ldi oshkoro.

Ul nav'ki, tarki hush qildi,
O'lgan kishilar kibi yiqildi.

Ul bo'ldi hayotidan chu mahjur,
Motamg'a mubaddal o'ldi ul sur.

O'lgan sog'inib xaloyiq oni,
Bir uyga keturdilar ravoni.

G'avg'o bo'ldi kuyov boshig'a-
Kim, kelmadi el kelin qoshig'a.

Bechora kelinni lol etib fikr,
Tovusi shikastabol etib fikr.

Ko'ngli aro erdi yuz tafakkur,
Ul bordi-yu keldi ming tahayyur.

O‘z qatlini aylamish edi big‘,
Pinhon qilib erdi zahrliq tig‘-

Kim, xasm topar nafas anga kom,
O‘lturgay o‘zini kom-u nokom.

Ag‘yordin o‘zni ori etgay,
O‘z yori vafosi birla ketgay.

Tig‘ o‘ziga ixtiyor qildi,
Xasmi badanig‘a kor qildi.

Ko‘rguzdi bu tun falak nifoqi,
Ko‘p amri g‘arib ittifoqi.

Bu erdi biriki, ul iki fard-
Kim, jonlari erdi dardparvard.

Bahri falak urdi ul sifat mavj-
Kim, ayladi ikki fardni zavj.

Har birni yana birov bila juft,
Yetkurmadi hech dur aro suft[4].

Bir buki- bu nav’ iki kudurat,
Bir kecha ichinda tutti surat.

Ham ul kecha ayrilishtilar bot,
O‘z bo‘lmayin o‘ldilar yana yot,

Go‘yoki, munajjimi nazarbin,
Bir erdiki, soat etti ta’yin.

Bu ishda munajjim ar zabundur,
Ya’ni “kazab al-munajjimun”dur[5].

Alqissa: kuyov chu bo‘ldi behol,
Za’f ayladi paykarini pomol.

Majmu' el onda erdi ul tun,
Kadbonu-vu zol-u bikr-u xotun[6].

Layli bo'lub ul balodin ozod,
Topti g'amgin zamirini shod.

Ko'rdiki, qoshida kimsa yo'qdur,
El barcha kuyov qoshida-o'qdur.

Ko'ngli to'la erdi, hujra xoli,
Uy yonida bir qum erdi oli.

Uydin tashqari qo'ydi gomin,
Ul qum uza ko'rguzub xiromin.

Tutmas edi lahza-lahza orom,
Sokin-sokin urar edi gom.

Har lahza der erdi shukri Bori,
Borurda yo'q erdi ixtiyori.

To oncha masofat ayladi tay-
Kim, qilsa nazar ko'runmagay hay.

Majnun dag'ikim, tutub biyobon,
Bu sori kelur edi shitobon.

Ul munga, bu anga chun yovushti,
Ikkisiga iztirob tushti.

Layli tanibon aning navosin,
Navha aro nazmi jonfizosin.

Majnung'a yetib aning nasimi,
Qolmay ichida firoq bimi.

To bir-biriga yetishtilar bot,
Kim ko'rdi visol bo'yla, hayhot?

Chun bir-birisin tanishtilar jazm,
Ruh etti badan harimig‘a azm.

Ya’ni badan o‘ldi zor-u majruh,
Ma’shuqi o‘shul badan aro ruh.

Ruhi qudsiy nuzul qildi,
Xoki tan aro hulul qildi.

Ikki guhar o‘rni bo‘ldi bir durj,
Ikki quyosh avji bo‘ldi bir burj.

Bir sog‘ar aro tushub iki mul,
Bir g‘uncha aro butub iki gul.

Bir jismda ikki ruh o‘lub gum,
Bir ko‘z arosida ikki mardum.

Vasl ayladi ikkilikni boqiy,
Vahdat qadahini tutti soqiy.

Bu boda birini mast qildi,
Ul birini mayparast qildi.

Yo‘q, yo‘qki, ikisi mast bo‘ldi,
Ham ikkisi mayparast bo‘ldi.

Bu turfaki, gar iki edi ot,
Topilmas edi bag‘ayri bir zot.

Ikki qadahi obi zindagoni
Qo‘shulsa, kim ayru anglar oni?

Bu qand edi, ul zulolmonand,
Jazb ayladi ul zulolni qand.

Bu su edi ul hubob hosil,
Bir oh ila o‘ldi anga vosil.

Bir lahza sipehr o‘lub muloyim,
Fitna ko‘zin etti kecha noyim.

Aflok vafog‘a bo‘ldi bois,
Aflok uyidin chiqib havodis.

Amn ila zamonayi musha’bad,
Atrofig‘a dahrning chekib sad.

Yor erdi sipehr-u davr yovar,
Aql aylamayin bu ishni bovar.

Har neki, hisobi ofarinish
Aylab ul ikovga vasl xohish[7].

O‘rgamchi shaboqqa julni tirmab,
Tumshug‘ini rishta birla chirmab.

Xuffoshki, sayri davr topib,
Olamg‘a qanoti parda yopib.

Yuziga tushub bo‘ri qulog‘i,
Andin yopilib ko‘zi charog‘i.

Nogah uku chekmagay debon un,
Tumshug‘i etib ko‘zini chobun.

Qo‘ychi itin uyqu devi bosib,
Qo‘ylar yungi rishtasidin osib.

Makr ila savodi anbarolud
Do‘ltu to‘shugiga solibon dud.

Osuda charanda-vu paranda,
Uyquda gazanda-vu daranda.

Imdod ayon qilib taboe’,
Bo‘lmasqa bu nav’ vasl zoe’.

Ne gard qo‘pub, ne el ravona,
Su sokin-u chekmay o‘t zabona.

Yopmoqqa havo mizoji moyil,
O‘tning kurasi yuziga hoyil.

Ham pardatiroz o‘t hariri,
Inmasga sipohi zamhariri.

Ul dog‘i falak yuzin tutub pok,
Bir-bir yuzini to‘qquz aflok.

Nahsiyatidin kechib savobit,
Sayyor saodat ichra sobit.

Oy qursida yo‘q ziyo nishoni,
Yer anga quyosh ko‘mochdoni.

Tong otqucha yummayin ko‘zin Tir,
Aylar edi “in yakodu” tahrir.

Zuhra ne o‘qub, ne cholibon chang,
Parda aro kirmak aylab ohang.

Kun sham’iki, yer tubiga borib,
Xilvat kecha sham’ni chiqorib.

Bahrom chekib sinon, solib sho‘r-
Kim, boqsa yomon ko‘z aylagay ko‘r.

Birjis qo‘l ochubon duog‘a,
Fursat tilab ikki dilrabog‘a.

Nahsiyatidin Zuhal yumub chang,
Tunga berur erdi yuzidin rang.

Tun qirg‘a bulg‘abon qo‘lini,
Berk aylar edi sahar yo‘lini.

Sovuq nafasini urmayin subh,
Tun kullarini sovurmayin subh.

Sodiqqa nafas urar havas yo‘q,
Kozibga xud ul kecha nafas yo‘q.

Tun dudi tutub falak xamini,
Tutmish edi subhlar damini.

Yo‘q elga yorug‘ charog‘i binish,
Uyqu aro qolib ofarinish.

Ul ikki, nechukki, baxti bedor,
Bo‘lub biri-birga masti diydor.

Yillar bo‘lg‘ay falak xilofi,
Bir kechada topibon talofi.

Chirmashtilar, o‘ylakim, tan-u jon,
Yo sarvi sihi-yu ishqpechon.

Gohi bu o‘pub aning ayoqin,
Goh ul islab munung saqoqin.

Bu goh qilib qo‘lini qullob,
Ul tang‘a sochi kibi urub tob.

Ul goh tutub munung qo‘lin tuz,
Gah surtubon anga ko‘z, gahi yuz.

Bu goh ochar edi qulochin,
Chirmar edi qo‘lg‘a yor sochin.

Ya’ni anga, ganjkim, havasdur,
Chirmashsa yilon ajab emasdur.

Ul goh munga ayon qilib dard,
Jo‘lida sochidin oritib gard.

Ya'ni bu savodi g'am g'ubori,
Behkim, manga nofayi totori[8].

Majnun sog'inib o'zini Layli,
Aylar edi noz-u ishva mayli.

Layli o'zini sog'indi Majnun,
Shukr ettiki, yori erdi maqrun.

Ul bu bo'ldi-yu lek bu ul,
Topmadi aroda ikkilik yo'l.

Har ishki, o'tub haloklikdin,
Ayru emas erdi poklikdin.

Ishq ahli bu nav' bo'lsalar pok,
Gar vasl muabbad o'lsa ne bok?

Oshiqki, murodi kom bo'lg'ay,
Oshiqlik anga harom bo'lg'ay.

Alqissa: ul ikki yori dilband,
Chun bo'ldilar o'yla vaslpayvand.

Payvandi sipehrning uzuldi,
Ohangi jafo yana tuzuldi.

Yolg'on kulariga bo'ldi rog'ib-
Kim, qildi tulu' subhi kozib[9].

Chun subh sharori tog'din oshti,
Majnun yuragiga o't tutoshti.

Laylidin o'lub tarab gurezon,
Tong sham'idek o'ldi ashkrezon.

Bildilar ikovki, charxi bemehr,
O'z mehriga zohir etgusi chehr.

Yuz uzr ila qo‘pti sarvi navxez,
Nargislarin aylab arg‘uvonrez.

Sharh ettiki, fitnayi havodis,
Oqshom ne ish etmish erdi hodis.

Ya’ni: “Turarimg‘a yuz jihatdur,
Borsam dag‘i ayni maslahatdur”.

Bag‘ri yarasin bu dog‘i so‘kti,
Ba’zi kecha o‘tkan ishni to‘kti.

Bir-birlarining o‘pub ayog‘in,
Toza qilibon firoq dog‘in.

Devonag‘a qoldi g‘am tuni dard,
O‘z burjig‘a chiqti mohi shabgard.

Xush davlat erur visol shomi,
Ochilmasa subhi hajr domi.

Ul shom yuz ilcha gar havasdur,
Chun subh dam urdi bir nafasdur.

XXXII

Majnunning firoq toshi ko‘ksiga urar uchun Najd tog‘ini[1] oromgoh qilg‘oni va ul tog‘da ko‘zidin to‘kkan bag‘ir xunobasi bila lolazor ochilg‘oni va g‘azoli mushkbo‘yi yodidan mushkin g‘azoli bila takallum tuzgoni va nasimi mushkafshon bila navo ko‘rguzgoni[2].

Afsonasaroyi dardparvard
Mundoq dedi bu fasonayi dard:

Kim, ul kechakim, iki dilorom
Bir-birining vaslidin olib kom,

Dasht uzra birisi qoldi yolg‘uz,
Qo‘ydi birisi qabilag‘a yuz.

Xoli qolib erdi xirgahi moh,
Soldi o‘zin anda mohi xirgoh[3].

El bo‘lmadi holidin xabardor-
Kim, vaslidin o‘ldi bahrabardor.

Ul zumrayi nomurod g‘ofil-
Kim, bo‘ldi anga murod hosil.

Chun subh kuyovdek aylab oro,
Jilva bila bo‘ldi oshkoro.

Tangi nafas etti oni asfar,
Ul rang ilakim, guli muasfar[4].

Sohib xafaqon kuyov ko‘z ochti,
Boshidag‘i el sari so‘z ochti.

Dediki, keturdilar amori,
Azm ayladi o‘z visoqi sori-

Kim, za’fi qachonki, bo‘lsa zoyil,
Bo‘lg‘ay yana aylar ishga moyil.

Layliki, uy ichra tutti taskin,
Hajr anduhindin ko‘p o‘ldi g‘amgin.

Yor isi topib edi dimog‘i,
Onsiz bo‘la olmadi farog‘i.

Ham dardida bor edi qatig‘liq,
Ham ayshida bor edi achig‘liq.

Majnung‘aki, yetti davlati vasl,
Fahm etmagan erdi lazzati vasl.

Kuyub g‘am o‘tig‘a, o‘ylakim, xas,
Vasl oti eshitur erdi-yu bas.

Chun vasl ila toza bo‘ldi joni,
No‘sh etti yuz obi zindagoniy.

To‘kti bu hayot no‘shin ayyom,
Tutti yana zahr to‘la yuz jom.

Hajriki, anga murattab o‘ldi,
Avvalg‘idin emdi as’ab o‘ldi.

Ko‘ngli aro yuz baloyi hoyil,
Bo‘ldi yana Najd sori moyil.

Ul qullaki, Najd derlar oni,
Yer uzra kelib sipehri soni.

Avjiki, yetib falak simoin,
Qoplondin olib qamar nizoin.

Ham qoplonidin Asadg‘a emgak,
Ham takkasi Jady birla hamtak[5].

Gulguna-u vusmadin yuzi fard,
Ya’niki, yo‘q anda sabza-u vard.

Qolqonig‘a oyning urub tig‘,
Bal mehr yuziga yetkurub tig‘.

Tig‘i uza pora-pora xora,
Andoqki, qilichda sangpora.

Xoro edi jismi ko‘h to ko‘h,
Oshiqqa, nechukki, ko‘hi anduh.

Oshiqqa jafo qilur uchun fosh,
Qo‘yni-yu etaklari to‘la tosh.

Har xor anga hajr neshidek tez,
Har xora firoqdek g‘amangez.

Majnung‘a bu tog‘ avji maskan,
Ul avjda xoraro‘bu xaskan.

Ya’ni, buki, tutqoch anda manzil,
Manzuri edi bori qaboil.

Layli hashamin qilib nishoni,
Ko‘zidin iturmas erdi oni.

Bu nav’ qilib g‘amig‘a chora,
Ul hayni qilur edi nazora.

Chiqsa edi ul qabiladin dud,
Aylar edi ko‘zni surmaandud.

Gard o‘lsa falak sori alamkash,
Bor erdi ko‘ziga to‘tiyovash.

Urdi yana ul taraf qadamni,
Tortib yana ohi dam-badamni.

Ul tog‘ uza chiqti otashangez,
Andoqki, biyikka o‘t chiqar tez.

Tikti yana ul qabilag‘a ko‘z,
Dey boshladi o‘z-o‘zi bila so‘z.

Davrida vuhush bo‘ldi paydo,
Hush ichra alar, vale bu – shaydo.

Girdida tuyur bo‘ldilar jam’,
Parvona alar, valek bu – sham’.

Bu nav’ bo‘lub shiori oning,
Ul xayl ila ro‘zgori oning.

Ul vahshki, erdilar jalisi,
Bir jayran edi aning anisi.

Ham ko‘zi-yu bo‘yni sho‘x-u nozuk,
Ham paykar-u shaxsi chust-u chobuk.

Surat anga lutf xomasidin,
Nofa anga jon shamomasidin[6].

Devonag‘a yor-u oshno ul,
Takya qilur o‘lsa muttako ul.

Bo‘ynin quchar erdi ko‘rguzub mehr,
Surtar edi chehriga aning chehr.

Ashkin aritib qulog‘i birla,
Jismini qashib tuvog‘i birla.

Vasfi aro soz etib tarona,
Der erdi qulog‘iga fasona:

“K-ey dilshudalarga oshnoxo‘y,
Boshdin-oyog‘ingg‘a oshnoro‘y.

Molida taning ipak kibi chum,
Ostingda ipak yeriga qoqum.

Ham toza kafal bila surining,
Ham turfa uzor ila jabining[7].

Og‘zing aro loladin navola,
Tildin qolib anda bargi lola.

Tishlar sanga lola uzra mo‘ldur,
Mo‘ldur demayinki, rishtai dur[8].

Qilmoq bila lola bargidin qut,
Erning yopibon dur uzra yoqut.

Rang ichra iki ko‘zung qarosi
Pozahr[9] ila qaro arosi.

Yuz no‘shdin elga yetkurub bahr,
Har ko‘z yumub ochqucha bu pozahr.

Yo qatl qilurg‘a keldi xashming,
Pozahrdin o‘ldi zahrchashming?

Pozahr dema, qaro balo ul,
Jon birla ko‘ngul aro balo ul.

Layli ko‘zidek fusungar-u shang,
Besurma valek surmayi rang.

Nozuk qalaming nazarda mutlaq,
Yo‘ng‘on qalamidurur uchi shaq[10].

Tuynoq emas, anglasam kamohi,
Yuqmish qalam uchig‘a siyohi.

Ra’no so‘ngaging so‘ngakka payvand,
Andoqki, qalamda ham bo‘lur band.

Bu turfaki, yozg‘ali raqamni,
Yo‘nmishsen bandliq qalamni.

Ushbu qalaming bila xirom et,
Layli hashami sari maqom et.

Chiqqanda bahor gashti sori,
Gar tushsa sening sori guzori.

Davr ayla burun, yugur qiroqdin,
Evrul boshig‘a, vale yiroqdin.

Chun davr ila aylasang tak-u po‘y.
Tufroqqa har o‘n qadamda yuz qo‘y.

Tut sayrda yo‘l, valek mendin,
Xoki rahi bo‘l, valek mendin.

Ham yuzni sening yuzungga surtay,
Ham ko‘zni sening ko‘zungga surtay.

Ul yonki, xirom etar ravon bo‘l,
Lola bila gul aro nihon bo‘l.

Yetgach oyog‘ig‘a surt yuzni,
Xoki qadamig‘a ikki ko‘zni.

Bo‘zlab g‘amim ayla oshkoro,
Mungrab mungum ayt bemadoro”.

Bu nav’ kiyik bila niyozi,
Qushlar bila o‘zga nav’ rozi.

Har birga deb o‘yla qissayi g‘am-
Kim, qush tili yolborib damodam.

Jon safhasi uzra noma yozib,
Har lafz yozarda ko‘ngli ozib.

Jon rishtasi birla nomani chust
Bog‘labon alar qanotig‘a rust.

Gah tayri havodin aylab e’lom,
Gah bodi sabodin aylab e’lom.

Ko‘ngli havasi visol birla,
Lekin bu havas xayol birla.

Ul vaslki, topmish aylabon yod,
Oning bila ko‘nglin aylabon shod.

Yuz yil kishi hajr aro chekib dard,
Bo‘lsa nafase visolparvard.

G‘am yo‘q yana bo‘lsa hajr payvast,
Ul ham manga[11], vahki, bermadi dast!

XXXIII

Majnunning ato-anosi aning muhlik firoqidin halok o‘lub, ul alarning bu nav’ voqialarini voqiada ko‘rub, tufrog‘larig‘a yeldek yetib, ato go‘ri boshida yetimlik dardi bila va ano qabri toshida asirlik mungi bila navha qilg‘oni[1].

Bu bazmi g‘am ichra dardparvard,
Bu nav’ chekar surudi purdard:

Kim, Navfal uyidin ul jigarxun,
Ya’niki, g‘aribi xasta Majnun,

Chun bodiya sori azm qildi,
Tonglaki, ato-anosi bildi.

Baskim, kelibon ulus uyoti,
Qat’ o‘ldi ikisining hayoti.

Ozim bo‘lib uyga zorlig‘din,
El ollida sharmisorlig‘din.

Yuzlandi atosig‘a isitmoq,
Ter suyini jismidin ilitmoq.

Bistar uza yotti dard birla,
Issig‘ ter-u ohi sard birla.

Ko‘prak necha qildilar iloji,
Sihhatqa yuz urmadi mizoji.

Hikmat eli ko‘rguzub mahorat,
Kam bo‘lmadi tab’idin harorat.

Sharbat kibi ichsa erdi kofur,
Tab’i o‘ti aylar erdi mahrur[2].

Chun naxli hayot bo‘ldi bebarg,
Sharbat bo‘lur elga sharbati marg.

Gar bersa tabib tuxmiyona,
Bil zahrgiyah butarga dona[3].

Ich qabz topar taranjabindin,
Safro ortar sikanjabindin[4].

Bo‘lur ta’viz birla afsun,
Bois bori ranj o‘lurg‘a afzun.

Bas muhlik edi mariz ranji,
Bo‘lmadi iloj chorasanji.

Chun yetti Suro‘shi osmoni,
Topshurdi vadiati nihoni[5].

Azm ayladi tayri Sidramaskan,
O‘z maskanin etgali nishiman.

Yuzlandi qabilag‘a azoy,
So‘g ahlig‘a tushti hoy-hoye.

Bu voqea ichra notavon zol[6],
Andinki, degaylar o‘ldi badhol.

Bir yondin o‘g‘ul g‘am-u shikanji,
Bir yondin abushqa[7] dard-u ranji,

Baskim, o‘zin etti pora-pora,
Yo‘q erdi hayotidin shumora.

Oq sochin, uzubki, yelga berdi,
Bir tor zaif jismi erdi.

Oni dog‘i gunbazi jafoko‘sh,
O‘z juftig‘a ayladi hamog‘o‘sh.

Gar o‘g‘li firoqi birla ketti,
Ne bo‘lsa abushqasiga yetti.

Tuttilar aning dag‘i azosin,
Kiydilar aning dag‘i qarosin.

Go‘ristoniyi muayyan erdi-
Kim, ul hay eliga madfan erdi,

Chun yetti ko‘z ochmas uyqu chog‘i,
Yondoshti ikovla anda dog‘i.

Mundinki, ne fe’l qildi gardun,
Najd uzra xabarsiz erdi Majnun.

Bir kun oshibon ichiga qayg‘u,
Keldi nafase ko‘ziga uyqu.

Chun ko‘zlari bo‘ldi rohatomez,
Ko‘rguzdi xayoli suratangez-

Kim, ikki kabutari yagona,
Bir uyda chiqordilar javona[8].

Chun chiqti javonag‘a par-u bol,
Charx ayladi oni muztaribhol.

Oshufta bo‘lub dimog‘-u royi,
Bo‘lmish edi muddate havoyi.

Ato-anodin tamom uzuldi,
Sahroyi xayl aro qo‘shuldi.

Ul ikkisi keltururga oni,
Parvoz ila tuttilar havoni.

Toptilar-u rom bo‘lmadi hech,
Jo‘yoi maqom[9] bo‘lmadi hech.

Yondilar alar ikov-la navmid-
Kim, bo‘ldi ayon baloyi jovid:

Yuqoridin indi ikki burgut,
Qildilar iki hamomani qut[10].

Chun voqe’a ko‘rguchi ko‘z ochti,
Ko‘zdin qonlig‘ sirishk sochti.

Chun istadi ul tushiga ta’bir,
O‘z holig‘a dol topti bir-bir.

Bildiki, ato-anosi o‘lmish,
Xurshedi hayoti tiyra bo‘lmish.

Tog‘din qo‘pub ayladi quyi mayl,
Har qo‘lg‘a to‘kub sirishkidin sel.

Ul yergacha aylab oh-u zori,
Gom urdiki, xaylining mazori.

Qildi chu quburni[11] nazora,
Bo‘ldi iki qabr oshkora.

Tufrog‘lar aro yangi yasalg‘on,
G‘am balchig‘idin yuzi suvalg‘on.

Ustiga yog‘ib g‘ubori mehnat,
Butgon ayog‘ida xori mehnat.

Mehnat tikanidin ochilib vard,
Rayhoni mashaqqat-u guli dard.

Lolasidakim, ko‘runub anbo‘h,
Xunobi firoq-u dog‘i ando‘h.

Toshi ushotib nishot ayog‘in,
Gardi yoshurub tarab charog‘in,

Vaz'i, iki sham'kim, yiqilg'on,
Anduh shamoli tiyra qilg'on.

Madfunlari iki g'amsirishta,
Ul nav'ki, sham' ichinda rishta.

Dema iki sham'i munxasifdek[12],
Oshiq tanida iki alifdek.

Qilg'on ani jismi xoksori,
Joni bila ko'nglining mazori.

Chun ko'rdi ato-ano mazorin,
Go'yo choqin urdi jismi zorin,

Boshig'a sovurdi oncha tufroq,
Go'yoki, yiqildi bu kuhan toq.

Tosh urmoq ila tani najandin,
Go'yoki oyirdi band-bandin.

Chekmak bila oh o'ti duxonin,
Tor ayladi dahr xonumonin.

Urdi atosi mazorig'a bosh-
Kim, kul-ko'mak etti boshin ul tosh,

Chun chekti fig'oni jongudozin,
Mundoq to'kti nuhufta rozin:

"K-ey bodiya ahli arjumandi!
Ko'k toqig'a himmating kamandi.

Ne bodiya, balki Makka to Shom,
Dasht ahlig'a xoni rahmating om.

A'robi kiromi zerdasting,
Mendin yetibon bori shikasting.

Ham ko‘nglung o‘lub g‘amimda noshod,
Ham umrung o‘lub ishimda barbod.

Istab meni bo‘lg‘ali farog‘ing,
Mendin o‘chubon yoruq charog‘ing.

Topmoqda meni sochib diramlar,
Topmay mendin, bajuz alamlar.

Gavhar bila zeblig‘ tilab bosh,
Boshig‘a hamul guhar bo‘lub tosh.

Zaxmingg‘aki, istabon fatila,
Dog‘ o‘rtagali bo‘lub vasila.

Tig‘iki, tilab, nechukki, poki,
Ham andin o‘lub taningda choki.

Sham’ istabon uy qilurg‘a ravshan,
Andin kuyub uy, demayki, xirman.

Ya’ni meni mubtaloni istab,
Ikki yuzi chum qaroni istab.

Olib bu qaro esing, qaroring,
Aylab qaroro‘z – ro‘zgoring.

Bu g‘amda netib tirik bo‘lay, voy?
Uzrungni ne til bila qo‘lay, voy?

Amring bila, chunki, tutmadim yo‘l,
Ruhungg‘a nechuk deyin, bihil bo‘l?

Nogoh ar mendin o‘yla to‘ydung-
Kim, g‘am tog‘in orqam uza qo‘ydung.

Bir-bir so‘ngagim ushotting oxir,
Tufroqg‘a tanimni qotting oxir.

Har nechaki, bor esam badaxtar,
Qilg‘on esa toleim rad axtar.

Afv ayla karam bila gunohim,
Ruhungni-o‘q ayla uzrxohim”.

Tosh uzra qilib tanini sarko‘b,
Mijgonini aylabon zaminro‘b.

Chun bo‘ldi vatan anosi go‘ri,
Tushti yana olam ichra sho‘re.

Ko‘ksin yoqa o‘rnig‘a qilib chok,
Urdi yuragiga tig‘i bebok.

Yerni tengiz etti ashkidin sel,
Bolig‘din o‘lub quburi bir xayl.

Qum ustida lek tobi ohi,
O‘z jismini etti toba mohi[13].

Toba uza jismi so‘znoki,
Bug‘doy kibi ko‘ksi uzra choki.

Andoq tani dardnok birla,
Yo‘q, yo‘qki, bu jismi chok birla,

Ko‘p abri bahordek o‘kurdi,
Kaf sel kibi yuziga urdi.

Qildi anosig‘a mo‘ya og‘oz,
Yuz dard ila bo‘ldi navhapardoz:

“K-ey jonima qibla, qiblama nur,
Mushkung bo‘lub emgakimda kofur.

Jonim tarabi, ko‘zum charog‘i,
Ko‘nglum xushi, xotirim farog‘i.

Sen Ka'ba manga-vu men tilab dayr,
Tavfung sori hech qilmayin sayr.

Solib sanga iztirob har dam,
Ka'bamni qilib xarob har dam.

Ka'bam bo'lmish mening xarobim,
Tengriga ne bo'lg'usi javobim?

Jisming sadafida charxi avbosh,
Solg'on emish inju sog'inib tosh.

Tuqqonda ne bo'lg'ay o'lsam erdi,
Tug'mogon ila teng o'lsam erdi.

O'lmay meni mudbiri siyahro'z,
Bo'ldum sanga chun baloyi jonso'z.

Mehrimg'a ko'ngulni moyil etting,
Qo'l mahdim uza hamoyil etting.

Har kun ichinga ishimda qayg'u,
Har tun ko'zunga harom uyqu.

Uyqungni harom etib fig'onim,
Tinmay kecha zor yig'lag'onim.

Kunduz-kecha mehnatimda tinmay,
Ichmakni-yemakni ham sog'inmay.

Gar luqmayi nonki, aylabon qut,
Andin g'arazing bo'lub manga sut.

Bu nav' umed ilaki, nogoh,
Bo'lsa sanga zoli charx kinxoh.

Mehnat yukidin qading xam etsa,
Chin birla yuzungni darham etsa.

Jismingga zarurat o‘lsa bistar,
Boshing dog‘i bo‘lsa takya istar.

Men xam qad ila turub qoshingg‘a,
Gardun kibi evrulub boshingg‘a.

Qul yanglig‘ o‘g‘ullug‘ungni qilsam,
O‘g‘ul kibi qullug‘ungni qilsam.

Har nav’ yetishsa charxdin band,
Mening bila ko‘nglung o‘lsa xursand.

Chun bo‘ldi bu ish ayon hamono,
Sen zor-u zaif-u men tavono.

Ham shaybg‘a qoldi xasta joning,
Ham jilvagar o‘ldi navjuvoning.

Mundoqda meni laimi mudbir,
Bo‘lmay nafase boshingda hozir.

Shafqat bila tutmayin qo‘lungni,
Ko‘z birla supurmayin yo‘lungni.

Ranjing tani notavong‘a qo‘ymay,
Ushbu minnatni jong‘a qo‘ymay.

Yo‘q kam xizmatlig‘ ayladim ko‘p,
Kofiri ne’matlig‘ ayladim ko‘p.

Sendin tun-u kun judolig‘ ettim,
Bilmaslig-u bevafolig‘ ettim.

Solg‘ondek o‘zumni telbalikka,
Ko‘nglung ola olmadim ilikka.

Dardingg‘a xud etmadim davoye,
Bu turfaki, har nafas baloye

Mendin seni notavong‘a yetti,
Ko‘nglung alamimda jong‘a yetti.

Go‘yoki, bu ranji bekarondin,
Chiqting g‘am-u dard ila jahondin.

Men harzasaroyi dashtpaymoy,
Yo‘qkim, Majnuni besar-u poy.

Ruhungniki, ravzadur panohi,
Jannoti naim jilvagohi.

Mendin, bilsamki, shod emasdur,
O‘zdin o‘zuma bu zulm basdur.

Bechoramen, o‘zga naylagaymen,
Dardimg‘a ne chora aylagaymen?”

Deb bo‘yla surudi benavoliq,
Yo navhaki, aylagay azoliq.

Mash’uf bu nav’ so‘zni derga,
Ko‘p urdi sinuq boshini yerga.

To za’f qilib yana dimog‘i,
Past o‘ldi yer uzra jismi dog‘i.

O‘zdin yana ul masoba ketti-
Kim, go‘yo ato-anog‘a yetti[14].

Ey do‘st, boshimg‘a bir nafas yet,
Motamzadaliqqa boq-u rahm et-

Kim, bo‘ldi bu bekas-u faqiring,
Hajr ichra yetiming-u asiring.

XXXIV

Majnunning yor hajri o'tidin kuygan tanig'a ato-ano so'gi yana ikki muhlik dog' qo'yg'an jihatdin mehnati qattig' bo'lg'onin Layli eshitib ul so'xtani kuydirg'on o'tlar tobidin isitib dudidin ro'zgori hayoti qaro bo'lg'oni[1].

Bu safhani aylagan zarafshon
So'z bu sifat etti gavharafshon-

Kim, telbaki, bor edi navosiz,
Chun bo'ldi atosiz-u anosiz.

O'rtab edi oni yor dog'i,
Zam bo'ldi bu ikki zor dog'i.

Hijron berib erdi zahri qotil,
O'lguncha bu so'gi qildi bismil.

Furqat ushoturg'a toshin otti,
Sing'onni bu so'g ham ushotti.

Dard ustiga dardi chun uzoldi,
Ul go'riston ichida qoldi.

Bor erdi maqomi ul hazira,
Olam anga misli go'ri tiyra.

Har kun ishi shayn-u nola qilmoq,
Yuz g'amg'a o'zin havola qilmoq.

O'z jonig'a aylamoq jafolar,
Tutmoq o'zi-o'ziga azolar.

Ato-ano furqati iki dog'
Hijron quyub ikki o't uza yog'.

Garchi iki dog' edi nihonso'z,
Hijron o'ti erdi barqi jonso'z.

Chun muncha g‘am-u balo yig‘ildi,
Ul g‘amkashi mubtalo yiqildi.

Za’f o‘ldi tanig‘a o‘yla g‘olib-
Kim, yotti hamul damanda qolib.

Boshi uza dom-u dad solib sho‘r,
Kiyiklar edi-yu ul qolin go‘r.

Bo‘ldi anga ish chu bo‘yla mushkil,
Bu nav’ rivoyat etti noqil:

Kim, andaki, gulruxi parizod
Bo‘ldi Majnuni vaslidin shod.

Ul vaslni charxi bemuhassal,
Qildi yana hajr ila mubaddal.

Marham yarasig‘a yoqqach-o‘q bot,
O‘t yoqti taloshib oni hayhot.

O‘rtar edi bu o‘t ul sanamni,
Do‘zaxqa solib guli Eramni[2].

Mahzun edi joni zori asru,
Betob tani nizori asru.

Chun yorig‘a yetti bo‘yla motam-
Kim, o‘ldi anga ato-ano ham.

Bu dard g‘amin fuzunroq etti,
Anduhi yo‘lin uzunroq etti.

Ul voqealarki, dast berdi,
Bilmish edikim, sabab ul erdi.

Majnun aning erdi dardnoki,
Majnunning ato-ano haloki.

Bu ishgaki, charx qildi hodis,
Bir vosita birla erdi bois.

Bu mehnat ani najand qildi,
Anduh o'tig'a sipand qildi.

Yig'lar edi bu fasonani deb,
Navha bila bu taronani deb-

Kim: "Ey kajrav sipehri xudroy,
Zulmungdin voy-u yuz tuman voy!

Jonimg'a necha sitam qilursen?
Ko'nglumga nasib alam qilursen?

Bir gulga necha taponcha urmoq,
Yaprog'larini uzub sovurmoq?

Har bargki, bo'yla bo'ldi holi,
Qilmoq bori xalq poymoli.

Ul barg g'am elga bermas erdi,
Bir kavkabi nahsing ermas erdi.

Bir sarvg'a zarbi dast bermak,
Har shoxig'a yuz shikast bermak.

O'rtab o'tunini betaammul,
Shoxin o't-u o'tin aylamak kul.

Ul sarv emas erdi zuzanobing,
Nahsiyatidin jahon xarobing[3].

Bir la'lg'a necha xora otmoq,
Ikki tosh arosida ushotmoq?

Ham bo'lmayin iktifo bu poya,
Toshlar aro aylamak saloya.

Bahrominga[4] ermas erdi hamsang,
Qoni bila tutmamish edi rang.

Chun ko‘rmak bir g‘azoli mushkin,
Chekmak qatlig‘a xanjari kin.

Bismildin ham kanora qilmoq,
Har uzvini boshqa pora qilmoq.

Bu bor edi bir g‘azoli xushbo‘,
Xud shum Asading emas edi bu.

Bir turfa tazarv uchun qo‘yub dom,
Tutqoch qatlida tutmay orom.

Yulmoqqa parin shitob qilmoq,
O‘t uzra ani kabob qilmoq.

Ne bo‘lsa bu erdi bu tazarv-o‘q,
Sayd etguchi Nasri Toyiring yo‘q.

Layliyi zaif-u benavoni,
Yuz dard-u balog‘a mubtaloni

O‘lturmak ila ham etmayin bas,
Hajr o‘tig‘a solmoq, o‘ylakim, xas.

Bu Layli edi nedur xayoling,
Ermas edi hiylapesha zoling?!

Sovrulg‘asiz, ey ravanda aflok!
Qo‘zg‘olg‘asiz, ey nujumi bebok!

Jismimni qatil qildingizlo!
Jonimni zalil qildingizlo!

Bug‘doy kibi necha qovruloyin,
Somon kibi necha sovruloyin?

Ham hujrayi xilqatim buzuldi,
Har rishtayi toqatim uzuldi.

Jismim gardin uchurdi ohim,
Ey charx, arimadimu gunohim?!

Buzdi ko‘nglum uyin shikanjing,
Ey dahr, tuganmadimu ranjing?!

Bu dard-u shikanj ham mangadur,
Yorimdag‘i ranj ham mangadur.

Oningki, ato-anosi o‘lmish,
Go‘yoki, manga bu so‘g bo‘lmish.

Ul gar bo‘lub ersa dardparvard,
Lekin manga ikki onchadur dard.

Anga ato-anoning g‘amidur,
Ham bu manga, ham aning g‘amidur.

Layliki, baloyi furqati bor,
Iki Majnuncha mehnati bor.

Umr anga g‘alat havasdur oxir,
Jon tarki ajab emasdur oxir!”

Chun navhasi o‘ti haddin oshti,
Jismig‘a harorati tutoshti.

Ul o‘tdin isitti mehri gulchehr,
Andoqki, zavol chog‘ida mehr.

Gulbargiki, terdin o‘ldi serob,
Ham topti isitma o‘tidin tob.

Ter suyi bila araqnishin gul,
Hummo o‘ti birla otashin gul[5].

Bor erdi ano ishidin ogah,
Chun qizni bu nav' ko'rdi nogah.

Ko'ngli ishi iztirob bo'ldi,
Go'yo jigari kabob bo'ldi.

Bag'ri kuyaridin ul jigarxor,
Qildi atosin dag'i xabardor.

Yuzlandi anga dag'i malolat-
Kim, ko'rdi qizida sa'b holat.

Yig'lab ato-ano, bal ahibbo,
Boshig'a keturdilar atibbo.

Ko'p bo'ldi quyoshning iztirobi,
Yuzda sorig'i, tanida tobi.

Sihhatqa tabib xasta tolib,
Xasta badanida za'f g'olib.

Sa'y etti hakimi Isaviydam,
Bo'lmodi quyosh harorati kam.

Yo'q erdi muolajatda behbud,
Chun yetti ajal, iloj ne sud?

Har kun tani za'fi ortar erdi,
Anduhi uzoqqa tortar erdi.

Afzun edi dam-badam sudoi-
Kim, tushti bu so'z ham istimoi-

Kim: "Darddin ul asiri motam,
O'lgudek o'lubturur damodam.

Go'riston ichra zor-u mahjur,
O'lgon kishidek hayotdin dur.

Goh o‘zida, goh yo‘q o‘zida,
Mayyit[6] kibi nur yo‘q ko‘zida.

O‘z motami birla jismi ranjon,
Darding xud olur bu jismdin jon.

Bo‘lmish anga yuz g‘am uzra motam,
Sensiz ishi motam uzra motam.

Joni g‘am-u dard poymoli,
Haddin tosh erur xarob holi”.

Mahvash chu eshitti bu fasona,
O‘ti bir edi, ming o‘ldi yona.

Umri kemasi vahalg‘a botdi,
Ko‘nglini o‘lumga qo‘ydi, yotti.

Qilmon yana, ey tabib, parhez,
Dardim o‘ti dam-badam bo‘lur tez.

Sharbatdin erur ichimda tobi,
Bergil iligimga sharbat obi!

XXXV

Xazon yeli bog‘ zebolari hayoti sham’in o‘churganda Layli hayoti bahorining gullarini ajal xazoni tundbodi ko‘kka sovurub Majnunning dog‘i bulbuli ruhi badan qafasin gulbun uzra tashlab, ul havolang‘on gul bargi so‘ngincha havo tutqoni[1].

Chun yetti xazon yelining ohi,
Bo‘ston chiroyini qildi kohi.

Yofrog‘ yuzi bo‘ldi barcha sorig‘,
Oyin magar o‘ldi sorig‘ og‘rig‘.

Har bargki, xastavor yotti,
Yer bistarida oyog‘ uzotti.

Go‘yo tubida uzun sabog‘i,
Bo‘ldi uzun aylagan oyog‘i.

Yel, o‘yla, yetishti Mehrjondin-
Kim, barg ko‘tardi mehr jondin[2].

Titratmaga qo‘ydi yuz shajar ham,
Uy kunjiga chekti yuk samar ham.

Sarsar solibon chamang‘a toroj,
Bo‘ston elin ayladi yalang‘och.

Ul o‘tki, chinor ichiga tushti,
Gardung‘a sharorasi yovushti.

Bo‘ston tifli topib bu hiyla,
Ul o‘t bila kuydurub fatila.

Yel bargin uchursa bog‘ sori,
Gulrez to‘kub bori chinori.

Gard ayladi bog‘ni shabiston,
Yafrog‘ ani qildi kavkabiston.

Bu turfaki, yuz tuman kavokib,
Tufroq sori bo‘ldi barcha g‘orib.

Bir ko‘zgu har axtari xujasta,
Zohir qilibon sabog‘i dasta.

Yuz ko‘rguzmay ne kelsa o‘tru,
Ul nav’ki, oltun o‘lsa ko‘zgu.

Sorig‘ varaq ol obkashdin,
Oshiq yuzi ashki la’lvashdin.

Ul ashk chekib bu yuzda xatlar,
Qatra kibi har sori nuqatlar.

Har bargi shajarg‘a nomai marg
Nuqtalari yanglig‘ ayrilib barg.

Yel suv uza bargi asfar afshon,
Moviy varaqi yasab zarafshon[3].

Yo‘q, yo‘qki, oqar suv tig‘i sofi,
Oltundin o‘lub oning g‘ilofi.

Alvon bila tok bargi ra’no,
Ra’no kaf aro nigori hino.

Ul fasl ketibki, gulda sunbul,
Ochqay gulgun yuz uzra kokul.

Lola kafiga xizob bergay,
Zulfig‘a binafsha tob bergay.

Bir vaqt yetibki, tund sarsar
Yopqay suv hariri uzra marmar.

Gul so‘gini bog‘ toza etgay,
Gardun uza yel xurushi yetgay.

Bulbul topmay o‘zin azosiz,
Bo‘lg‘ay pari bo‘ynig‘a qaro kiz.

Chun yetti bu nav’ ro‘zgori,
Uchradi xazong‘a navbahori.

Gulshang‘a xazon bo‘lub sitezon,
Ashjorig‘a soldi bargrezon.

Gulbargini qildi yer uza past,
Naxlin qora yerga qildi hamdast.

Ham lolasin etti za'faroni,
Ham qildi bahorini xazoni,

Chun soldi xazon sovurdi har yon,
Gul barglarin uchurdi har yon.

Laylig'akim, erdi husn bog'i,
Jannat guli boshidin-ayog'i.

Ul za'f nasimi tez bo'ldi,
Bo'stonig'a bargrez bo'ldi.

Ochildi kamandi zulfidin tob,
Jonlar bo'ynidin oldi qullob.

Husni shahin etti za'f noshod,
Tutqunlarin ochib etti ozod.

Ozodlari o'ldi tezraftor,
Tek qoldi ham onda bir giriftor.

Qoshlari iki qulochin ochib,
Bo'ldi ko'zi uylariga hojib.

Ya'niki, ham anda kirmasun noz,
Ham bo'lmasun ul ulusqa tannoz,

Qon yosh etti gulini toza,
Mashshotayi marg urdi g'oza.

Ya'ni "chu ishq ayirsa jondin,
Chiqqungdur surxro' jahondin".

Xay selidin ul ruxi araqnok,
Yub g'oza-u nil-u vusmadin pok.

Ya'ni iturub xazonda bog'i,
Gul birla binafsha, sabza dog'i.

Shahdi labi tobdin qurushti,
Yo‘q, yo‘q, biri-biriga yopushti.

Ya’ni labin etti nuktadin band,
Bo‘ldi uchug‘ anda muhrmonand.

Chohi zaqan og‘zin ochti dilxoh,
Nilin xoli kabutari choh[4].

Ya’ni bu kabutar o‘lgusidur,
Tufrog‘ ila chah ko‘mulgusidur.

Yopti chu yetishti, bo‘yla, bandi,
Gul uzra binafshagun parandi.

Ya’ni uyoqurda mehri dilkash,
Yuzida binafsh abr erur xush.

Bu holda nozanin musofir
Qildi sakaroti mavt[5] zohir.

Jazm ettiki, ketmagi kerakdur,
Jon tarkini etmagi kerakdur.

Xilvat talab aylabon zamone,
El kasratidin topib amone.

O‘z ollig‘a istabon anosin,
Arz etti nuhufta mojarosin:

“K-ey joning o‘lub mening makonim-
Kim, joninga sadqa xasta jonim.

Ranjimni o‘zungga olding asru,
Dard-u alamimg‘a qolding asru.

Ming yil ham agar tirik bo‘loyin,
Uzrungni ne til bila qo‘loyin?

Xossaki, gulum xazong‘a tushti,
Day yeli bu gulistong‘a tushti.

Bedodi sipehr qildi noyob
Bog‘imda gul-u gulum aro ob.

Sarvumg‘a ajib surat o‘ldi-
Kim, tarki chaman zarurat o‘ldi.

Har hol ila ketmagim yetibdur,
Bu bog‘da bo‘lmog‘im ketibdur.

Bu damki, erur mahalli padrud,
Qissamni yashurmog‘imda yo‘q sud.

Sen bilding-u aylading madoro,
Men emdi qilurmen oshkoro.

Bu lahzaki, topshurub vadiat,
Tufrog‘ sori aylagum azimat.

Desamki, azog‘a qilma ko‘p mayl,
Har sori oqizma ashkdin sel.

Yuz qilma taponcha birla majruh,
Bedod ila ranja aylama ruh.

Yer tutmag‘usi bu so‘z bilurmen,
Bir o‘zga vasiyating qilurmen-

Kim, tutma bu so‘g aro azo ko‘p,
Kiydurma uzoringa qaro ko‘p.

To mumkin o‘zungga sabr yor et,
Taskin-u shikeb ixtiyor et.

Tengri sanga sabr yor qilsun,
Xayling uza poydor qilsun.

Gul borsa chamang'a bo'lmasun dard,
Kun botsa falakka yetmasun gard"[6].

Ko'p bo'yla duolar aylab oni,
Fosh ayladi nuktayi nihoni-

Kim: "Bo'lsa bu motam oshkoro,
Fahm etgusi ahli ko'h-u sahro.

Shak yo'qki, mening g'aribi zorim,
G'am shomida tiyraro'zgorim.

Jismida hayoti yodim o'lg'on,
O'lmakligi xayrbodim o'lg'on.

Gar dasht uza sayr etar sabodek,
Gar tog' aro chirmanur sadodek.

Bu so'z qulog'ig'a yetgusidur,
Bu hodisani eshitgusidur.

Yumkinki, qachon bu roz eshitgach,
Bu qissayi jongudoz eshitgach,

Ruhum sori ruhi istabon yo'l,
O'z qolibin aylagay tihi ul[7].

Yo ulki, bu yon azimat etgay,
Umrum kunidek boshimg'a yetgay.

O'zdin ketorib firoq javrin,
Ko'rguzgay ulusg'a ishq tavrin.

Tufrog'ima tufrog'ini qotg'ay,
Ruhini mening sori uzotg'ay.

Jonsiz bo'lubon tani nizori,
Tufrog' uza yotsa jismi zori.

Zinhorki, aylab ehtiromin,
Yonimda yasog‘asen maqomin.

Ul jismi sharif xud erur pok,
Yoshing bila ham yusang emas bok.

Qo‘y kina-u lutf-u mehr fan qil,
Jon pardasidin anga kafan qil.

Chirma meni dog‘i ul kafang‘a,
Bir jins kafan iki badang‘a.

Farzanddek aylab anga asbob,
Farzanding ila qil oni hamxob.

Chun ruh ila ruh topti payvand.
Bir ahd aro yotqur ikki farzand”.

Yumdi tugatib anosig‘a so‘z,
Ham so‘zdin-u, ham anosidin ko‘z.

Jonin Majnun so‘zida berdi,
Hargiz Layli degil yo‘q erdi.

Chun ko‘rdi anosi bu qaro kun,
Chekti bu qaro kun ichra bir un-

Kim, bag‘ri sipehrning teshildi,
Ul nola o‘qi guzora qildi.

Evruldi boshig‘a dilraboning,
Andoqki, ajal boshig‘a oning.

Ko‘z urdi taboni uzra yig‘lab,
Uyg‘otg‘ali kirpiki qichig‘lab.

Ya’ni: “Emas uyqu vaqti, ko‘z och,
Xandon chekibon ayog‘ni, so‘z och”.

Gah qo‘ynig‘a tortibon qo‘lin chust,
Titrab, yig‘lab quchar edi rust.

Ya’ni anga uyqu haddin ortib,
Uyg‘otmoq uchun qo‘lini tortib,

Oshufta sochin gahi qilib jam’,
Ul tiyra tun ichra ko‘rguzub sham’.

Ya’ni: “Kecha qolmadi qarong‘u,
Ko‘z ochki, munosib ermas uyqu”.

Gah orazig‘a yuzin tegurdi,
Ruxsorig‘a ashkdin su urdi.

Ya’ni su tegib yuziga nogoh,
Seskangay o‘z uyqusidin ul moh.

Ko‘p urdi bu nav’ pech ila tob,
Ko‘z ochmadi mahvashi garonxob.

Uyg‘onmog‘idin chu bo‘ldi navmid,
Tushti quyoshig‘a shomi jovid.

Oq sochini yoydi navha tuzdi,
Har panjaki urdi, borin uzdi.

Ohidin etib jahonni mahrur,
Taskiniga separ erdi kofur.

Ko‘ksini yaqodek etti pora-
Kim, ko‘nglidin urdi o‘t sharora.

Andoqki, yaqoni subh etib chok,
Chekkay shararini mehri aflok.

Tirnog‘larin chu yuzga qo‘ydi,
Tirnog‘ - tirnog‘cha yerlar o‘ydi.

O‘yg‘onlar ichindakim, sizib qon,
Ko‘z chashmalaridek oqizib qon.

Deb navha bila bu tortibon voy-
Kim: “Ne og‘ir uyqudur, bo‘tam, hoy?

Ko‘z ochki, erur havoi ravshan,
Qizlarg‘a erur havoi gulshan.

Borig‘a tavofi bog‘ mayli,
Mavqufki, mayl etarmu Layli?

Yuz zevar-u dur toqibdururlar,
Yo‘lungg‘a sening boqibdururlar.

Marg‘ulayi sunbulung ochoyin[8],
Olamg‘a abiridin sochoyin.

Zohir qilayin yug‘onda oni,
Zulmat aro obi zindagoni.

Ochqonda ani tararda qo‘llar,
Zulmatda qilay padid yo‘llar.

O‘rmak ochilurning o‘lsa daf’i,
Ganjing uza tashlay ikki af’i[9].

Af’i neki, anbarin tanobi,
Bog‘larg‘a ko‘ngullar anda tobi.

Vusmadin etay qoshingni rangin,
Ko‘z tuki qilichig‘a yashil qin.

Ko‘zungga savodi surma tortay,
El ko‘ziga dahrni qarortay.

Gulguna chekarga qilsam ohang,
Zam aylay anga bu chehradin rang.

Har sori uzoringa chekib nil,
Yomon ko‘z uchun ani qilay mil.

Shahdi labing ostida qo‘yay xol,
Ul nuqta kibiki, yozsalar “bol”

Xole qo‘yayin yuzungga yona,
Bo‘stonafro‘zi ichra dona[10].

Soching qilay o‘yla me’jaroro[11],
Ham anda nihon, ham oshkoro.

Egningga solay libosi gulrang-
Kim, rangi xiradni aylagay dang.

Yasab seni ofati zamona,
Gulshan sori aylayin ravona.

Qizlar bila ul taraf xirom et,
Din ahlig‘a zuhdni harom et.

Majnun dag‘i intizor tortar,
Bog‘ ichra fig‘on-u zor tortar.

Sen kech borib ul batang kelsa,
Istab seni bedarang kelsa.

So‘z aytsa ne qilay xitobin?
So‘rsa seni ne beray javobin?

Ham meni, ham oni zor qilma,
Andin meni sharmsor qilma”.

Ul bo‘yla qilib jahonni tiyra,
Ohi bila osmonni tiyra.

Tashqori ato yalang qilib bosh,
Yirtib yaqo, ko‘ksiga urub tosh.

Yalg‘uz ato yo‘qki, qavm-u xayli,
Tortib bu azoda voyi-vayli.

Laylig‘a solib bu hol taqdir,
Majnun so‘zin aylay emdi taqrir:

Yotmish edi ul qubur ichinda,
Uryon ahli nushur ichinda.

Go‘riston ichra joni poki,
Go‘r ahli kibi vujudi xoki.

Laylig‘a chu bo‘ldi notavonlig‘,
Yiqti ani dog‘i xastajonlig‘.

Ma’shuq chu dardnok bo‘ldi,
Oshiqni ne dey? Halok bo‘ldi.

Oning bila barcha hol birla,
Gah tush bila, gah xayol birla.

Gah pok zamir-u goh Hotif,
Dildoridin aylab oni voqif.

Ul kunga deginchakim, parivash
Bo‘ldi ajal ilgidin qadahkash.

Devonada erdi pech ila tob,
Titrab ko‘ngli, nechukki, siymob-

Kim, yetti qulog‘ig‘a xurushe,
Aytur edi bu xabar Surushe:

“K-ey dard-u balo sipohiga shoh!
Ishq ahli qoshingda xoki dargoh!

Ham kishvari dard qahramoni,
Ham zumrayi ishq hukmroni.

Ishq ahlig‘a qullug‘ung havasdur,
Qo‘pqilki, yoturg‘a vaqt emasdur-

Kim, tushti xazong‘a toza bog‘ing,
Tong yeliga uchradi charog‘ing.

Bulbullug‘ung o‘lsa, ayla parvoz,
Parvonalig‘ingni qilg‘il og‘oz!

Yor o‘ldi safar ishiga mash’uf,
Hamrahg‘adurur valek mavquf.

Hamrahlig‘ing aylagungmu zohir,
Yo bo‘lsunmu ul oy musofir?”

Devona chu bildikim, nedur hol,
Garchi tani erdi za’fdin nol,

Qoplon kibi sekridi yotog‘din,
Yo o‘ylaki ko‘k g‘azoli tog‘din.

Yuz urdi qabila sori holi,
Og‘zida tarannumi visoli.

Jon qo‘lg‘a tutub nisorliqqa,
Sekrib o‘zi jonsiporliqqa.

Ham ashki nishot anga yog‘indek,
Ham po‘yada sekridi choqindek.

Mehri o‘ti yorutub jahonni,
Bal mehr kibi tutub jahonni.

Ne ko‘nglida qatldin harosi,
Ne dushmanidin ichinda posi.

El vahm qilib salobatidin,
Ba’zi dad-u dom ofatidin.

Urdi Layli eshigiga gom,
Dadlar tutubon yiroqroq orom.

Xayl ichra shukuhidin tavahhum,
Andoqki, qilib ilik-ayog‘ gum.

Chun yetti ul ostong‘a boshi,
Kirdi uy ichiga betahoshi.

Layli qilibon safarg‘a niyat,
Aylarda anosig‘a vasiyat.

Har nuktaki, aylabon guzorish,
Majnunni qilur edi siporish-

Kim, kirdi uy ichra yori joni,
Yo‘q, yo‘qki, rafiqi jovidoni.

Bir-birga nazar kushod topti,
Ham bu va ham ul murod topti.

Jononig‘a ul fido qilib jon,
Bu jon beribon, nechukki, jonon.

Ul azm etti chu topti yo‘ldosh,
Bu olmadi yo‘lidin aning bosh.

El kirdi uy ichra beshumora,
Majnun sori qildilar nazora.

Jismi yotib erdi yerga maqrun,
Layli bila bormish erdi Majnun.

Hayrat qilib ul qabilani lol-
Kim, topti vuqu’ bo‘lmog‘on hol.

Aylab bori elni ishqi poki,
Ishq ichra bu o‘lmagi haloki.

Chun ta'ziyat o'tin ettilar past,
Bu turfa hadis o'tti payvast-

Kim, dafn ishi bordurur zarurat,
Ul tutqusidur ne nav' surat?

Bori dedilar: "Bu ikki g'amnok,
Har shoyibayi fasoddin pok-

Kim, umrlarida ishqi qotil,
Qilmay nafase alarni xushdil.

Hajr ichra to'yub ramida jondin,
Armon bilan bordilar jahondin.

Chun ruhlarig'adur nihoni,
Jannatda visoli jovidoni.

Netgay qo'shulub iki badan ham,
Go'r o'lsa alarg'a bir kafan ham.

Vasl o'ldi chu ruhlarg'a hosil,
Tufroqqa tufroq o'lsa vosil".

Ham sho'x vasiyatin qilib yod,
Barcha bu fasonadin bo'lub shod.

Aylab ne keraklik o'lsa mavjud,
Mayyitni yasab, nechukki, ma'hud[12],

Bir na'shqa soldilar ikovni,
Jonsiz kelin-u o'luk kuyovni.

Kirdi iki jism bir kafang'a,
Yo'q, yo'q, iki ruh bir badang'a.

Bir na'sh ila ul iki dilorom,
Andoq edikim, dugona bodom.

Yo‘q, yo‘q, dema oni iki dona,
Ul dona emas edi dugona.

Dugonag‘akim, iki badandur,
Har birig‘a boshqa bir kafandur.

Bir dona edi, vale iki juzv,
Bir-biriga, o‘yla, muttasil uzv-

Kim, shiddati vahdati visoli,
Bermay anga ikkilik majoli.

Donadek o‘lub iki badan bir,
Dona qobug‘i kibi kafan bir.

Alqissa: ul ikki yori joni,
Topqoch bu visoli jovidoni.

Na’sh uzra yopib harir-u debo,
Rangi xush-u naqshi dog‘i zebo.

Bosh ustiga eltmak qilib fan,
Ul yergachakim, bor erdi madfan.

Tobut ila ikki dilraboni,
Madfan ichiga kirib nihoni.

Yetkurdilar o‘z nishonasig‘a,
Tufroq g‘aribxonasig‘a.

Tufroqqa qo‘yub alarni hayhot,
Chun tiyra uy erdi chiqtilar bot.

Yoshurdi chu oy-u kun yuzin abr,
Chun go‘r bir erdi, bo‘ldi bir qabr.

Ishq ahlig‘a o‘chti sham’i ummed-
Kim, yer quyi botti oy-u xurshed.

Ne ishq eliga shoh qoldi,
Ne husn avjida moh qoldi.

Layli atosi anosi birla,
Xayli dag‘i aqrabosi birla.

Har kun iki vaqt edi yig‘ilmoq,
Ul qabr boshida navha qilmoq.

Bir-bir berdi mururi ayyom[13],
Tufroqqa alarg‘a dog‘i orom.

Ey navhagar, ayla navha bunyod-
Kim, umr binosi keldi barbod.

Gar bo‘ldi ul ikki yor ozim,
Ne men qolg‘um-u, ne dilnavozim!

XXXVI

Ishq ta’rifidakim, “ayn”ining nurlig‘ tobi tufrog‘ni “ayn” qilur va “shin”ining sharoralig‘ shu’lasi ko‘ngullar xaylig‘a shayn solur va “qof”ining garonsang tog‘i har kimga yuklansa nobud etar va nuqtalarining toza dog‘i har chok ko‘ngulga tushsa lolaning besh bargidek qong‘a bo‘yar[1].

Ey ishq, g‘arib kimiyosen,
Bal oyinayi jahonnamosen.

Ham zotinga darj kimiyoliq,
Ham oyinayi jahonnamoliq.

Bukim, sangadur bu ikkidin zot,
Bir-bir qilayin ikisin isbot.

Qildim esa kimiyo xitobing,
Andin ham erur biyik janobing.

Berdi anga bu natija gardun-
Kim, misga yetishsa qilg‘ay oltun.

Insonniki, xalq qildi Xalloq,
Yo‘q tiynat anga bag‘ayri tufroq.

Senkim, anga oshnolig‘ etting,
Tufroqqa kimiyolig‘ etting.

Oltun qilding uzorin oning,
Balkim, tani xoksorin oning.

Bu nav’ ila dog‘i qilmading bas,
Hajr o‘tig‘a solding, o‘ylakim, xas.

Ul o‘tda chu ehtizoz topti,
Andoqki kerak, gudoz topti[2].

Har g‘ashlig‘dinki, erdi noqis,
Bo‘ldi bu gudoz birla xolis.

Ham oltun o‘lub bu paykari xok,
Ham o‘ldi bu nav’ xolis-u pok.

Chun xolis-u pok-u beg‘ash o‘ldi,
Oltun, neki, kimiyovash o‘ldi.

Garchi sitam-u jafo qilursen,
Tufrog‘ni kimiyo qilursen.

Ikkinchi dedim, yorug‘sen asru,
Andoqki, jahonnamoy ko‘zgu.

Munda dog‘i topilur tafovut-
Kim, ochsa nazar, bilur tafovut.

Ul oinakim, Skandar[3] etti,
Po‘loddin o‘yla paykar etti-

Kim, Rum aro chekib manori,
Boqturdi ani Farang[4] sori.

Chun berdi jamolig'a kushoyish,
Ko'rguzdi Farangdin namoyish.

Topqoch ani bu sifat ziyoliq,
Toqti otig'a jahonnamoliq.

Bu nav'ki, ul demish emasdur,
Menkim, ne dedim hamon-u, basdur.

Xurshedi jahonkushoy sensen.
Mir'oti jahonnamoy sensen-

Kim, qildi sanga nazarni ravshan,
Ko'rdi yer-u ko'kdagin muayyan.

Chun boqqali ixtiyor topti,
Har soriki, boqti yor topti.

Ham naqshi vujudin etti foni,
Ham topti baqoyi jovidoni.

Bu ishqki, baxti komrondin,
Xoli bo'lmay zamone ondin.

Garchi iki nav' o'tti rozi,
Avvalg'ini anglag'il majozi[5]-

Kim, dard-u gudoz-u so'z birla,
Yuz shu'layi jonfuro'z birla.

Chun ayladi poklikka mavsuf,
Ul nav' qilur birovga mash'uf-

Kim, ishq aro firoq ila dard,
O'zlukdin etar tamom ani fard.

Bil so‘ngrag‘i ishqni haqiqiy-
Kim, davlat erur aning rafiqi.

Avvalg‘i vujudin etsa zoyil,
Chun bo‘lsa ikinchisiga moyil.

Yo‘q-yo‘qki, ikinchi oni cheksa,
Ko‘ngliga visol tuxmin eksa,

Ul nav’ ketursa turktozi[6]-
Kim, qolmasa surati majozi,

Mazhardin ko‘rmayin nishoni,
Mazharda o‘zini topsa foni.

Maqsud budur, hayotdin bu,
Bal xilqati koinotdin bu.

Majnung‘a biri bo‘lub musallam,
Bahra topti ikinchidin ham.

Ermas edi o‘zidin bu ishlar,
Bal ishqdin erdi ul kashishlar.

Har kimgaki, ishq yuz ketursa,
Yo mash’ali shavq shu’la ursa.

Tog‘ ersaki, suv qilur vujudin,
Nobud etar nabud-u budin.

Tur uzra tajalli aylagach fosh,
Chayqaldi su yanglig‘ ul qatig‘ tosh.

Bu shu’la ko‘ngulga tushsa kori,
Kuymakda aning ne ixtiyori.

Bu o‘t ne kishiga bo‘lsa ro‘zi,
Kuydirsa ne tong jahonni so‘zi.

Ishq ichraki, jismi to‘lg‘onur bil,
Ul nav’dururki, o‘t uza qil.

Tong yo‘q bu o‘t etsa ashk aro g‘arq,
Yomg‘ur yog‘ar, andakim, tushar barq.

Gar ashk bu o‘tni aylamas kam,
Yomg‘ur suvidin choqing‘a ne g‘am?

Kim, zarq-u riyo-vu sho‘r birla,
Oshiq etar o‘zni zo‘r birla.

Ishqi o‘ti bo‘lmas elga jozib,
Andoqki, ziyoda subhi kozib[7].

Rangin ko‘palak erur dilafro‘z
Parvona kibi emas jigarso‘z.

Oshiq dema, kimni ko‘rsang asfar-
Kim, bo‘lmadi za’faron muasfar.

Bejazb sarig‘ erur riyoliq,
Samg‘ aylay olurmu kahraboliq.

Safratda nechaki, qilsa tavbex,
Oltun bila teng bo‘lurmu zirnix[8].

Har ohki, shaydg‘a yovuqdur,
Ne issig‘ ul oh-u, ne sovuqdur,

Oshiq sovug‘ oh cheksa nogoh,
Olamg‘a solur o‘t ul sovuq oh.

Chun urdi xazon yeli sovuq dam,
Yofrog‘ni qurutdi, churkadi ham.

Bedard kishiki, ashk to‘kkay,
Ul qatradururki, mashk to‘kkay.

So‘z ahli erur to‘kar zamon yosh,
Bir sham’ki, ashkin etsa durposh.

Ishq o‘ldi kishiga boisi dard,
Qilmoq iki kavn fikridin fard.

Parvonani ishq etmasa mast,
Urg‘aymu o‘zini o‘tqa payvast?

Ul damki, kuyarda kechti jondin,
Ne fikri aning iki jahondin?

Telba o‘zin o‘tqa solsa nogoh,
Kavnayn ishidin qachondur ogoh?

O‘t sekrisa tifl emas xabardor-
Kim, hirqatida ne nav’ asar bor?

Ko‘rgan kishi o‘t ko‘rar zabona,
Kuygan kishi ko‘rguzur nishona-

Kim, ishq nasibidur azaldin,
Ul ishq erur bariy[9] xalaldin.

Parvonada xolliq qanoti,
Ishq o‘tidin o‘ldi dog‘ zoti.

Bu dog‘din ibtidoi ahvol,
Ishq etmadi oni forig‘ulbol[10].

Bu ishq o‘tig‘a davomu bo‘lg‘ay?
Har kim tilasa ravomu bo‘lg‘ay?

Yo Rab, meni dardmandi mahjur-
Kim, ishq o‘ti jonim etti mahrur.

Bu o‘tdin ko‘nglum etma mahzun,
Bal shavqini qil damodam afzun.

Ham axgaridin tanim qurutqil,
Ham shu'lasidin ko'zum yorutqil.

Ohimni dudidin nishon et,
Ul dud ila ko'z yoshim ravon et.

Ko'nglum qushikim, samandaroyin,
Otashkadasida topti taskin.

Sochqil shararidin anga dona,
Ber hemasi uzra oshyona.

Ul dona bila to'q ayla oni,
Bu shu'la aro yo'q ayla oni.

Yoq, mug'bacha shu'layi majusi-
Kim, dudi g'amimdur obnusi[11].

Ya'niki, mug'ona sog'aring ol,
Bir sog'ar ila ichimga o't sol!

XXXVII

Shahzodayi sipehrjanob va sipehri xurshedintisob, ya'ni Sulton Uvays Bahodir madhida so'z intihosi va nasoyih bisotida ko'p la'l va durri maknun va mavoiz xonida favokih va niami gunogun ul hazratqa quloqqa olmoq va og'izg'a solmoqning salosi[1].

Ey soqiyi davr! Bir qadah tut,
Huzn ahlig'a sog'ari farah tut.

Avval qadahingni ayla gardun,
Quyg'il anga bodayi shafaqgun.

Chun bo'ldi labolab ul piyola,
Qil oni mening sori havola.

Ko‘rgach ani hushdin boroyin,
Bir dam bila o‘yla sipqoroyin-

Kim, topmasun ul sipehri sog‘ar,
Atrofida qatradin bir axtar.

To so‘zda falaknishonlig‘ aylay,
Axtar kibi durfishonlig‘ aylay.

Topqach duri bahr-u la’li koni,
Shahzoda nisori aylay oni.

Shahzodayi ma’dalatshior ul,
Yetti ato shoh-u shahriyor ul[2]

Sultoni zamon, Uvays ul shoh[3]-
Kim, charx anga keldi xoki dargoh.

Zotig‘a sirishta izz-u tamkin,
Ham lutf ishida chust, ham kin.

Kin andaki, bo‘lsa razm chog‘i,
Lutf andaki, ichsa bazm ayog‘i.

Bazm ichra, demayki, barcha avqot,
Maxluq anga lutfi mahzdin zot.

Zotida hayo bila adab ham,
Ul nav’ki, amm-u xol-u ab ham[4].

Tab’ida saxo bila shijoat,
Dahr etsa, ne tong, anga itoat?

Vasfida necha deyilsa ma’ni,
Gardunni biyik demak, ne ya’ni?

Ham aql ila budurur muvofiq-
Kim, ulki, so‘z ichra bo‘lsa sodiq.

Safha uza kilk etib ravona,
Yozg‘ay necha pandi mushfiqona.

Ey gulshani mulk sarvinozi!
Qay nozki, sarvi sarfarozi!

Bu bir necha so‘z quloqqa olg‘il,
Balkim, necha dur quloqqa solg‘il.

Bilkim, ne jahondadur vafoye,
Ne umr binosig‘a baqoye.

Ham su uzadur jahon qarori,
Ham yel bila umrning madori.

Kim tuprog‘-u sug‘a shod bo‘lg‘ay?
Yelga qachon e’timod bo‘lg‘ay?

Yuz yil kishi gar jahonda shahdur,
Yo‘q ersa gadoyi xonaqahdur.

Marg ajdari chun og‘iz ochar keng,
Yutmoqqa shah-u gado erur teng.

Gar aysh aro sen va gar g‘am-u dard,
Haq yodidin o‘lma bir zamon fard.

Ham qahrig‘a boq-u tarsgor o‘l,
Ham rahmatidin umedvor o‘l!

Shahlar desang, o‘lg‘ay ollinga past,
Past o‘l darveshlarg‘a payvast.

Topsang necha shahlar uzra shahliq,
Faqr ahlig‘a ayla xokirahliq!

Bo‘l banda ato-anog‘a yakson-
Kim, Haq dedi volidayn ehson[5].

Qulluqlarin ayla rasm-u odat,
Kavnayn aro bil muni saodat.

Davlat talab aylasang Xudodin,
Bosh tortma shar'i Mustafodin[6].

Jannatqa borurg'a istasang yo'l,
Bu jodda birla mustaqim o'l.

Nafs aylasa fisq ila tabahkor,
Haq ollida o'zni bil gunahkor.

Cheksa gunah o'ti shu'la payvast,
Qil oni nadomat ashkidin past.

Toat qil-u ko'zga ilma oni,
Ko'rmak bila hech qilma oni.

Toatqa riyoni aylasang zam,
Sog'inmag'il oni fisqdin kam.

Jurmeki, yonidadur nadomat,
Ul keldi najotdin alomat-

Kim, cheksa qadah niyoz birla,
Xushroqki, riyo namoz birla.

Chun Tengriga zohir o'ldi toat,
Ham shar' tariqig'a itoat.

Andin so'ng shoh xizmatin qil,
Ul zilli Iloh[7] xizmatin qil.

Topsang qayu ishta muddaosin,
Sa'y aylay-u hosil et rizosin.

Shoheki, atong anga ag'odur,
Ul sanga ag'odur-u atodur.

Bu ikki atog‘a qil o‘g‘ulluq,
Yo‘q-yo‘qki, bu ikki shahg‘a qulluq.

Bu nav’ iki jahon xudovand-
Kim, sen bo‘ldung alarg‘a farzand.

O‘zdin ikisini ayla xushnud-
Kim, dunya-yu oxiratdadur sud.

Qul bo‘lsang alarg‘a shoh sensen,
Doroyi jahonpanoh sensen.

Bo‘lsa biridin rizo bag‘oyat,
Yetsa yana biridin inoyat-

Kim, bir kishvarg‘a hukm sursang,
Iqbol-u shukuh ko‘sin ursang,

Zinhorki, zulm rishtasin uz,
Insof ila adl qasrini tuz.

Mulk ahlig‘a mehribonliq ayla,
Andoq ramag‘a shubonliq ayla.

Kim bo‘rilik etsa qovla oni,
Ul yer iti birla ovla oni.

Bedodi yetar zamonda asra,
Qo‘yni bo‘ridin amonda asra!

Mazlumg‘a zolim etsa bedod,
Dodin berib ayla xotirin shod.

Maqsudini aylay olmasa arz,
Takror ila so‘rmog‘ini bil farz.

Lutf ayla ani so‘rarda oyin-
Kim, topqay iztirobi taskin.

Taskin bila angla holatini,
Adl aylabon ol malolatini.

Ne zulm qilurg‘a elni qotqil,
Ne zulm qo‘lin o‘zung uzotqil.

Qassobdin o‘yg‘a gar xo‘rishdur,
O‘lturgali oncha parvarishdur.

O‘yg‘a ne asig‘ qilur bu parvor-
Kim, o‘lsa-u bihi kelsa xarvor[8].

El molin o‘zungga mol bilgil,
Xaylin o‘zunga iyol bilgil.

Ya’ni nechuk asralur iyoling,
Mahfuz, nechukki, tursa moling.

Andoq bori el iyolin asra,
O‘g‘ridin amonda molin asra.

Bedodg‘a borsa xalq moli,
Mahshar kuni shahg‘adur savoli.

Gar shahrda istasang rayosat,
Sahroda aningdek et siyosat-

Kim, dag‘dag‘a topmag‘ay muhojir,
Xohi guzari-yu, xoh tojir.

Tojirg‘aki, dast topti rahzan
Nochaxdur aning yonida kahzan.

Bu turfaki, har ne qolsa ondin,
Chun shahrg‘a yetti bimi jondin,

Tamg‘ochi etib boshig‘a javlon,
Har dam tilagay zakoti havlon[9].

Mundoq nimalardin ehtiyot et,
Chun naf'ini topting inbisot et.

Har fisq xayoli qilsa xotir,
Tengrini boshingda angla hozir.

Nafsingg'a ne zulm bo'lsa maqsud,
Shahni ilayingda angla mavjud.

To barcha ishing degandek o'lg'ay,
Ko'nglung nechuk istagandek o'lg'ay.

Dunyoda ishing butub kamohi,
Uqboda ham o'lmag'ay tabohi.

Din jonibidin yetib kushoding,
Yetgay iki dahr aro muroding.

Soqiy, qadahiki, shahzoda,
Tutqay manga ul qadahda boda.

Lojur'a[10] burun o'zi sumurgay,
Ul nav' manga dag'i ichurgay.

XXXVIII

Bu dard navhasi itmomining tarannumi va bu hasrat nomasi ixtitomining takallumi va tartibi avzoining fasonasin tuzmoq va taqsimi atvorining taronasin ko'rguzmoq va sahv-u xato arqomig'a e'tirof varzish etib Haqdin ul bobda talabi omirzish qilmoq'.

Yuz shukrki, bu fasonayi dard,
Har lafzida yuz nishonayi dard.

Jon pardalaridin anda avroq,
Jondin berib ul varaqni ushshoq.

Yozg‘onda midodi ko‘z qarosi,
Yozg‘on qaro qayg‘u mojarosi.

Har yozg‘on “alif” kelib nishonda,
Bir kesgan “alif” nishoni onda.

Nuqta asari nihon tikandin,
Yo‘qkim, qora solmag‘on tugandin.

Har “dol”i aning qadi xamida,
Dard ikki yonida oramida.

Ayni nechakim, nazarg‘a kelgan,
Ul na’lki, hajr aro kesilgan.

So‘z boshlari ichra harf bar harf,
Bu qondin o‘lub yozarda shingarf.

Safha yuzi dard jilvagohi,
Mistar xati hajr shohrohi[2].

Anduh sipohig‘a tushub sho‘r,
Jon mulkin olurg‘a kelturub zo‘r.

Har satr kelib yasoli anda,
Parxosh elidin misoli anda.

Yo‘qkim, bori mehnat-u g‘am ahli,
G‘am dashti ichinda motam ahli.

Majnun g‘amidin bori azoliq,
Layli o‘lumi uchun qaroliq.

Ya’ni bu sifat firoqnoma,
Bo‘ldi manga qatrarez xoma.

So‘gin, nechakim, uzattim oxir,
Yig‘lay-yig‘lay tugattim oxir.

Ey bodi sabo, qaror tutma,
Tinmoqni mizojinga yovutma.

Kez kishvar-u tog‘-u dasht-u vodi,
Yetmay qo‘yma jahon savodi.

Ishq ahlig‘a dahr aro nido qil,
Bu qissa tuganganin ado qil!

Har qaydaki, bo‘lsa beqarore
Ovorayi tiyra ro‘zgore,

Barcha bu taraf azimat etsun,
Tinmay nafase qoshimg‘a yetsun.

Kirsun bu savodi a’zam ichra,
Kezsun bu bilodi motam ichra.

Bu xittaki, ishq kishvaridur,
Sargashtasi mehri xovaridur.

Ishq ahli uchun madoris onda,
Dard ahli tutub majolis onda.

Har kimdaki, bor esa xayole
Kasb etmak ishq aro kamole,

Bir madrasada yasay visoqin,
Hujra aro soz etay yaroqin.

Avval sabaqin nigorish aylay,
Ul madrasada siporish aylay-

Kim, ollig‘a qo‘yub ul varaqni,
Desun birov anga ul sabaqni,

Har kimsaga ulcha qobiliyat,
Ko‘rsun sabaqi g‘am-u baliyat.

Bor anda g‘izo g‘ami jigartob,
Suv o‘rnida qatra-qatra xunob.

Kunduz o‘qumoq balo hadisin,
Ishq ichra yuz ibtilo hadisin.

Shom o‘lsa yemak charog‘ dudi,
Anduh o‘ti birla dog‘ dudi.

To har kim ishi qilib baromad,
Ishq ahli aro bo‘lub saromad.

Mag‘zi aro tushsa ishq jo‘shi,
Chiqsa unidin balo xuro‘shi.

Mehr o‘tig‘a o‘rtanib vujudi,
Yoshursa quyosh yuzini dudi.

Ohi yeli tufrog‘in uchursa,
Ashki suyi o‘tini o‘chursa.

Ham jismidin o‘lmasa asar hech,
Ham ko‘nglidin o‘lmasa xabar hech.

Bu xittanikim, qilib imorat
El kirmagin ayladim ishorat.

Ul ikki yagonayi zamona-
Kim, ishqda keldilar yagona.

Chun chiqtilar ushbu xokdondin,
Jannat sari bordilar jahondin.

Munda beribon qaror alarg‘a,
Oliy yasadim mazor alarg‘a.

Ayvon bila toq beshumora.
Ul nav’ki, gunbaz-u manora.

Ul charx kibi rafe' gunbad-
Kim, bo'ldi alar ikkovga mashhad.

Qandili ichinda sham' mastur
Kecha anga, baski, to'kulub nur.

Lutf ichra kabutari paridek,
Yo'q-yo'qki, Haram kabutaridek.

Ojiz bo'lub ul dag'i bir ishta,
Azbaski, qanot urub farishta.

Beishqqa anda bor bo'lmay,
Zavq-u tarab oshkor bo'lmay.

Beishq ko'runmay anda ko'zga,
Har yon zoyir malakdin o'zga.

Bu xaylki, tortibon g'am-u dard,
Har kim g'ami ishq aro chiqib fard-

Kim, barcha tutub musallam oni
Ul pardada yo'l topib nihoni.

Chun bu haram ichra bo'ldi mahram,
Yuz fayz yetib yuziga har dam.

Yo Rab, angakim, murod erur ishq,
Sarmoyayi e'tiqod erur ishq.

Bu ravza sori keturgil oni,
Bu martabag'a yeturgil oni.

Har dam yana zavq-u hol bergil,
Ishq ichra anga kamol bergil.

Ham ishqini jovidoni ayla,
Har ishqda oni foni ayla.

Nopokki, bo‘lsa ishqdin yot,
Oshiq qo‘yub ersa o‘ziga ot.

Qon yosh to‘kub, o‘ylakim, surohi[3],
To‘foni fasod ichinda rohi.

Ko‘rguzmak ishi yilon kibi pech,
Yo‘q zahrdin o‘zga ko‘nglida hech.

Ishq ichra tutub o‘zini nomi,
Maqsud anga bo‘lsa nafs komi.

Ul kom ila ko‘nglini ovutma,
Bu ravza sori ani yovutma.

Men xastaki, bu raqamni chektim,
Tahriri uchun qalamni chektim.

Yozmoqta bu ishqi jovidona
Maqsudum emas edi fasona.

Mazmunig‘a bo‘ldi ruh mayli,
Afsona edi aning tufayli.

Lekin chu raqamg‘a keldi mazmun,
Afsona anga libosi mavzun.

Bu erdi, g‘arazkim, ul guruhe-
Kim, so‘zda ayon qilib shukuhe,

Bu noma uchun bo‘lub raqamkash,
Safha yuzin ettilar munaqqash.

Gar nuktalari jahonni tutti,
G‘avg‘olari ins-u jonni tutti,

Chun forsi erdi nukta shavqi,
Ozroq edi anda turk zavqi.

Ul til bila nazm bo‘ldi malfuz-
Kim, fors anglar o‘ldi mahzuz[4].

Men turkcha boshlabon rivoyat,
Qildim bu fasonani hikoyat-

Kim, shuhrati chun jahong‘a to‘lg‘ay,
Turk eliga dog‘i bahra bo‘lg‘ay.

Nevchunki, bukun jahonda atrok[5].
Ko‘ptur xushtab’-u sofi idrok.

Gar modda kamrak ersa ne g‘am,
Chun zavqdur asl ul emas kam[6].

Insong‘a erur kamol matlub,
Andin dag‘i dard-u hol matlub.

Har kimga ulum bo‘lsa vosil,
Gar dardi-yu holi yo‘q, ne hosil?

O‘t solsa jahon eliga Majnun,
Bir kuyguchi bo‘lg‘usi Falotun[7].

Anqoni kishi qachon qilur yod.
Ul lahzaki, bulbul etsa faryod?

Some’ necha bo‘lsa dardparvard.
Afsonada ham kerakdurur dard.

Eshitguchi bo‘lsa dardpayvand,
Yorur ichi oning o‘tqa monand.

Qil o‘tqa, nazorakim, kuyar chog‘,
Su o‘churur oni, yondurur yog‘.

Men dog‘i, bu maynikim, suzubmen,
Turkona surud anga tuzubmen.

El ko‘ngliga andin o‘lg‘usi jo‘b-
Kim, keldi bu navhaning mungg‘i ko‘p.

Munglug‘ men-u mung bila payomim,
Munglug‘ kishilar so‘zi kalomim.

Shak yo‘qki, qachonki, bu o‘qulg‘ay,
Kim o‘qusa xotiri buzulg‘ay.

Ko‘zdin chu oqizsa ashk seli,
Majnun kibi yod etarda Layli.

Nomamki, yuzin qaro qilibmen,
Isyon-u gunah aro qolibmen.

Ul su yetibon yug‘ay qarosin,
Yozg‘on bori jurm mojarosin.

Yo Rab, bu raqamki, bo‘ldi marqum,
Har kim o‘qumoqdin etsa ma’lum.

Har neki, o‘qur taammul etsa,
Degan g‘arazim taxayyul etsa,

Ayb istamak o‘lmasa murodi,
Ber borcha hunar sori kushodi.

Bog‘la ayog‘ig‘a ishq domin,
Quy bo‘g‘zig‘a dard-u shavq jomin.

Zanjiri junung‘a basta ayla,
Bu bandin anga xujasta ayla.

Qilsang g‘ami ishq ila ani shod,
Bergil meni dog‘i ko‘ngliga yod!

Shoyad bu mahal bir oh urg‘ay-
Kim, gardi jaroyimim uchurg‘ay.

Ul yel uchurub tani nizorim,
Rahmat uyida berib qarorim.

Isyonima afv bo‘lg‘ay oyin!
Yo Rabki, bu nav’ bo‘lg‘ay, omin!

“Layli va Majnun”ning sharh va izohlari

I

“Layli va Majnun” haqidagi qissa arab xalqlari orasida keng tarqalgani va g‘oyat mashhur bo‘lgani haqida akademik I. Yu. Krachkovskiy shunday yozgan edi: “Sharqda Layli va Majnun G‘arbdagi Romeo va Julyettaga nisbatan mashhurroqdir”.

Ibn Qutayba, Al-Johiz, Abu Bakr al-Volibiy va boshqa arab olimlarining asarlarida Layli va Majnun haqidagi turli-tuman rivoyatlar beriladi. Badiiy adabiyotga kelganda Nizomiy Ganjaviy, Xusrav Dehlaviy, Ashraf, Jomiy, Amir Shayxim Suhayliy qalamiga mansub dostonlar yaratildi. Turkiy tilda esa Gulshahriy, Oshiq Posho, Shahidiy kabi shoirlar Layli va Majnun orasidagi ishq sarguzashtlari haqida o‘z dostonlarida ayrim parchalar berdilarki, “bu parchalar Layli va Majnun afsonasining turkiy tildagi dastlabki kurtaklari sifatida ahamiyatlidir”.

“Layli va Majnun” Alisher Navoiy “Xamsa”sining uchinchi dostoni bo‘lib, 1484-yilda yozilgan. Dostonning kirish boblaridan birida Navoiy an’anani davom ettirib, bu mavzuda asar yozgan salaflarini chuqur hurmat va ehtirom bilan tilga oladi. Ulardan farqli o‘laroq asarini turkiyda yozganini alohida ta’kidlaydi. Navoiy Nizomiyning dostonini “qal’a”ga, Dehlaviynikini yaxshi bezakli “qasr”ga o‘xshatib, o‘zining dostonini esa “qal’a” va “qasr” atrofidagi shahar va bog‘larga qiyos etadi. Shoir o‘z asarini “Firoqnoma”, “Nomayi dard” deb ham ataydi.

"Bu dostonning asosiy g'oyasi ham, qahramonlari ham, sujeti ham Nizomiyda qanday bo'lsa, Xusrav Dehlaviy, Jomiy, Navoiy, Fuzuliy va boshqalarda ham shundaydir. Shunga qaramay, bu mualliflarning hammasi original asar yozgan. Chunki bu qissani har qaysi san'atkor o'zi yashagan tarixiy sharoitdan kelib chiqib, o'z shaxsiy uslubi va shoirlik salohiyati bilan kuylagan".

"Layli va Majnun" dostoni bir necha an'anaviy boblar bilan boshlanadi.

1. Sharq mumtoz adabiyotida aniq an'ana mavjuddir. Unga ko'ra, har qanday asar Xudoning madhi – hamd, unga iltijo – munojot, Muhammad (s.a.v.) ta'rifi – na't kabi maxsus boblar bilan boshlanadi.

Navoiy "Layli va Majnun"ining I bobi ham xuddi shu an'anaga muvofiq Xudo madhiga bag'ishlangan. Unda shoir davrning buyuk so'z ustasi va faylasuf olimi sifatida olamning yaratilishi, tun, kun, oy, quyosh, yulduzlarning, bahor, kuz, qish fasllari va ulardagi tabiatning o'ziga xos jilolari, insonning yaratilishi, yo'qdan bor, bordan yo'q bo'lishi – bular hammasi Xudoning beqiyos qudrati va ulug'ligining ifodasi ekanini ta'kidlab, Unga hamd-u sanolar o'qiydi. U o'zining tajallisi bilan hammaning diliga zavq bag'ishlaydi. Navoiy yaratuvchining "har soridagi tajallisi jahonda Layli bo'lib ko'rinadi, jilva qiladi, uning bu xususiyati esa yaratilganlarni Majnun qilmoqdir", deb yozadi:

Ey har sorikim, qilib tajalli,
Ul mazhar o'lub jahonda Layli.
Ey oniki, Layli aylab otin,
Majnun qilmoq qilib sifotin.

Navoiy – o'z davrining mukammal bilimli farzandi. Uni Alloh ilmidan ayri tasavvur qilish mumkin emas, al-

batta. Hozirgi yangicha fikrlash jarayonida shoir asarlarini uning Allohga, tasavvufga oid qarashlari bilan bog'liq holda o'rganishga e'tibor berilmoqda. Jumladan, "Layli va Majnun" dostoni sof ilohiy sevgi asari sifatida ham tahlil etiladi. Vaholanki, Navoiyning buyukligi va mutafakkirligi shundaki, "Layli va Majnun"da garchi tasavvufga oid talqinlar bo'lsa-da, voqealar zamirida kishi qalbini larzaga soluvchi fojiaviy-majoziy ishq qismati, ijtimoiy adolatsizlik tasviri shu qadar hayotiy tasvirlanganki, bundan shoirning o'zi ham qattiq iztirobga tushadi va: "Yig'lay-yig'lay tugatdim oxir", deb qissaga yakun yasagan edi.

Majnun – telba, devona, jinni demakdir. "Sharqdagi eng mashhur qahramonlardan. Qadimiy arab manbalarining shahodat berishicha, Majnun tarixiy shaxs, Arabistondagi Bani Omir qabilasiga mansub bo'lgan. Uning oshiqlik qismati haqida Sharqda juda ko'p rivoyatlar to'qilgan. U Nizomiy, Dehlaviy, Navoiy kabi ulug' san'atkorlarning ijodida fojiaviy qahramon sifatida o'rin egallagan". Xuddi shu fikrlar Layliga ham taalluqlidir. Layli arab manbalarida kichik epizodik obraz – ko'rinishga ega bo'lgan. Ibn Qutayba o'zining "Kitob ush-she'r va-sh-shuaro" nomli asarida Layli haqida so'zlash Majnunni gapirtirish uchun asosiy kalit edi, degan fikrni bildiradi. Nizomiydan boshlab, bu fikr mahorat bilan rivojlantirildi va Layli dostonda mukammal, yetuk, barkamol ayol obraziga – sevgi va vafo ramziga aylantirildi. Ayni vaqtda dostonda Navoiy Layli va Majnunlar obrazi orqali majoziy oshiq-ma'shuqlar timsolini gavdalantirgan.

2. Ushbu bayt "Xamsa"ning 1960-yil nashrida tushib qolgan. Biz uni "Layli va Majnun"ning tanqidiy matni asosida tikladik.

3. Jallat olouhu va sha'nuh – arabcha: uning ezguliklari va sha'ni ulug' demakdir.

II

1. Shay'an lilloh – arabcha: Xudo yo'lida biror narsa (ber!), demakdir.

2. Mazkur bobda shoir Xudoga munojot qilib, Uni borliqni yaratgan yagona va oliy zot deb qaraydi va o'z gunohlarini, xatolarini kechirishni iltijo qiladi. Shoir dostonni yozishga kirishar ekan, Xudodan madad va ko'mak so'raydi. Bunda Navoiyning Allohga ishonchi, yuksak e'tiqodi, diniy qarashlari o'z ifodasini topgandir.

Munojotlarda ruhiy, ma'naviy poklik, imon va e'tiqod sofligi inson kamoloti uchun hayotiy zarurat ekani ta'kidlanadi.

Navoiy Allohdan iltijo qilib yozadi:

Har necha emas manga bu oson,
Lekin sanga bordur asru oson.

Boq dard-u malolatimg'a, yo Rab,
Rahm ayla bu holatimg'a, yo Rab.

Lutf ayla o'zung sori yo'lum chek,
Chekting chu yo'lum tutub qo'lum chek...

Chun ollima qo'ymading yovuz yo'l.
Sayr ichra nasibim ayla tuz yo'l.

Shukrungg'a tilimni qoyil ayla,
Sajdangg'a boshimni moyil ayla.

O'ksutma hidoyatingni mendin,
Kam qilma inoyatingni mendin...

Har qissada shukr sol tilimg'a,
Har g'ussada sabr ber ilimg'a...

3. Mo arafnok – arabcha: "seni (Alloh) yetarli tanimadik", ma'nosini bildiradi.

4. Ana afsah – arabcha: "men so'zga chechanman", deb boshlanadigan hadisga ishora.

5. Lo uhsi – arabcha: "Senga (Allohim) cheksiz sano ayta olmayman, degan mazmunni anglatadi.

III

1. Ka-sh-shamsi nisfun nahor – arabcha: kun o'rtasidagi (jazirama) quyoshga o'xshaydi, degan ma'noni anglatadi.

2. Ushbu bobda Navoiy Muhammad (s.a.v.) madhiga o'tadi. Shoir Muhammad payg'ambar Islom dinining asoschisi, Xudoning yerdagi rasuli hamda anbiyolarning oxirgisi, uning barcha yaxshi xislatlari, kalomi el uchun o'rnak va tabarruk ekanligini ta'riflaydi. Muhammad (s.a.v.) ning har bir so'zi musulmonlarga ham qarz, ham farz deb ta'kidlanadi:

Buyrug'laring elga qarz yanglig',
Sunnatlaring elga farz yanglig'...

Ruxsoriki, keldi qursi xurshed,
Ul mehr qamarvash o'ldi jovid.

3. Kuntu nabiyyan – arabcha: "Men payg'ambarman", deb boshlanadigan hadisga ishora.

4. Jibril – Jabroil so'zining qisqargan shakli. Xudo bilan payg'ambar o'rtasida vositachi, vahiy keltiruvchi farishta nomi.

5. Sulaymon – Islomda payg'ambar va shan-shavkatli podshoh hamdir. Rivoyatlarga ko'ra, unga yer-u osmon, shamol, dev-u pari, barcha hayvonot olami bo'ysungan. Uning taxtini devlar ko'tarib, shamol uchirib, qushlar esa

boshiga soyabon bo'lishar ekan. Bir kun Hudhud Sulaymonga Sabo shahri va uning malikasi Bilqis haqida xabar keltiradi. Bu ikki baytda shunga ishora qilib talmeh orqali Jabroilning Muhammad payg'ambarga xabar yetkazib turishini Hudhudning Sulaymonga xabar yetkazishiga qiyos etilmoqda.

IV

1. Va-l-layli izo yag'sho – arabcha: tun qorong'isi bilan qasam ichaman (oyat).

2. Diniy manbalarga ko'ra, Muhammad payg'ambarning Makkadan Quddusga borishi va u yerdan Buroq otiga minib ko'kka chiqishi va Xudo bilan muloqotda bo'lib qaytgan tuni – Me'roj tuni deb ataladi. Mazkur bobda Navoiy Muhammad payg'ambarning sayyoralar, yulduzlar, o'n ikki burj aro ko'kka ko'tarilishi tasviri ajoyib manzara kasb etadi. Navoiy ilmi nujumdan yaxshi ma'lumotga ega bo'lganligi sababli sayyora, yulduzlarning nomlarinigina emas, ularning xususiyatlarini ham ko'zda tutadi va tashxis san'atidan foydalanib, koinotdagi jonsiz narsalarni insoniy sifatlarda jonlantiradi va Me'roj tunining mo'jizaviy holatini tasvirlaydi:

"Gardun ko'zini uning – payg'ambarning yuziga ochadi, anjum esa diramin yuziga sochadi"; hamma yoqda uni xurramlik bilan kutib oladilar:

Bahrom ko'rub biyik janobin,
Tashlab qilichin, o'pub rikobin.

Birjisqa chun yetib rikobi,
Ish anga saodat iktisobi.

Soyislig'ig'a Zuhal urub fol,
Gazdastasi bila qo'lida g'arbol.

Savr-u Hamal aylabon fig‘onlar,
Qurboni aning qilurg‘a jonlar...

Bahromni Mirrix ham deydilar; Forslarda Bahrom, yunonlarda Mars sayyorasi. Uni urush homiysi hisoblaganlar. Qadimgi ilmi nujumga ko‘ra, Bahrom beshinchi falak sayyorasi bo‘lib, yerdan kichik, to‘rtinchi o‘rinda turadi. Bu baytda shoir Hazrati Muhammad payg‘ambar Me’rojga ko‘tarilganda, uni ko‘rgan Bahrom qo‘lidan qilichini tashlab; otining rikobi – uzangisini o‘padi, deya ta’riflaydi. Shoir bu voqeaning mushohidlari sayyoralar edi, demoqchi bo‘ladi.

Birjis – Mushtariy (Yupiter) sayyorasining forscha nomi. Ilmi nujumda bu sayyora “Sa’di akbar” va “Falak qozisi” ham deb yuritiladi, joyi beshinchi falakda deydilar. Shoir bu baytda Muhammad payg‘ambar otining uzangisini Bahrom o‘pdi, keyin Birjisga rikobi yetishti va bundan u g‘oyat saodatmand bo‘ldi, deydi.

Zuhal – Saturnning arabcha nomi, Kayvon ham deyiladi. Joyi oltinchi falakda ekan. Shoir bu baytda Zuhal sayyorasi Muhammad payg‘ambarga otboqar bo‘lishni orzu qilganini ta’riflaydi.

Savr – eski astrologiyada osmondagi o‘n ikki burjning ikkinchisi. Quyosh yili hisobida aprel oyiga to‘g‘ri keladi.

Hamal – o‘n ikki burjning birinchisi, unga quyosh mart oyida kiradi, Quyosh yili hisobida birinchi oy nomi mart oyiga to‘g‘ri keladi.

3. Mozog‘ – arabcha: o‘ng-u so‘lga boqmadi (oyat).

4. Va mo tag‘o – arabcha: haddidan ham oshmadi (oyat).

Oyatning to‘liq ma’nosi: (Payg‘ambarning) ko‘zi (o‘ng-u so‘lga) og‘gani ham yo‘q, o‘z haddidan oshgani ham yo‘q (“Va-n-najm” surasi, 18-oyat).

V

1. Qorun – behisob boylikka ega bo'lgan o'ta xasis shaxs. Navoiy o'zining "Tarixi anbiyo va hukamo" asarida Qorunni Muso payg'ambar qarindoshlaridan ekani, ilm-u fazilatda o'tkir, ayniqsa, kimyo fanida mohir, qobiliyatli kishi bo'lganini yozadi. Keyincha, u ko'p oltin to'plab, katta boylikka ega bo'ladi. Xazinasi bilan birga uning xasisligi, imonsizligi osha boradi. U Xudoning buyrug'ini ham tan olmay qo'yadi. Musoning uni dinga, e'tiqodga chaqirishiga ham parvo qilmaydi. Natijada Musoning duoyi badiga uchraydi, tamomi xazinasi, boyligi bilan uni yer yutadi.

2. "Panj ganj" ("Besh xazina") – Nizomiy Ganjaviy (1141–1204)ning yaratgan dostonlari ko'zda tutilmoqda. Ular "Maxzan ul-asror" ("Sirlar xazinasi"), "Xusrav va Shirin", "Layli va Majnun", "Haft paykar" ("Yetti go'zal") va "Iskandarnoma"dan iborat.

Ma'lumki, Nizomiy birinchi bo'lib besh dostonni yaratgan, xamsachilik an'anasini boshlab berdi. Navoiy o'zining "Xamsa"si tarkibidagi har bir dostonning kirish qismida Nizomiy va uning "Panj ganj"ini katta hurmat va samimiyat bilan tilga oladi.

3. Hind sohiri – xamsachilik an'anasining davomchisi Xusrav Dehlaviy ko'zda tutiladi. Xusrav Dehlaviy (1253–1325) Sharq she'riyatining ulkan san'atkorlaridan. U o'zining otashin she'riy g'azallari va "Xamsa"si bilan mashhur. Xusrav Nizomiy "Panj ganj"iga birinchi bo'lib nazira bitgan shoir. Nizomiy dostoni "Layli va Majnun" deb nomlangan bo'lsa, u o'z asarini "Majnun va Layli" deb atagan.

4. "Oldida gavhar bir qatra suvdek tuyuladigan so'z gavhari vasfida bir necha so'z demoq. "Besh xazina"si oldida Qorun xazinasi vayronadek ko'rinadigan Ganja haki-

mi ta'rifida ganj sochmoq; Kashmir jodulari uning oldida ip esholmaydigan Hind sehrgarini uning gavhari shodasiga tizmoq va o'z nazmining churuk ipini va uzuq torini ham ularga ulamoq".

Bu bobda Navoiy o'zidan avvalgi salaflarining "so'zdan qanday foydalanganlari haqida, so'zning qimmati, uni hech qanday dur-u javohirlar bilan tenglashtirib bo'lmasligini, so'z bir dengiz bo'lib, uning tubida cheksiz ma'no olami yashirinib yotganini ta'kidlaydi.

5. Konallohu lam yakun ma'ahu shay – arabcha: Alloh taolo bilan birga hech narsa yo'q edi, ya'ni u yolg'iz edi, demakdir.

6. "Seni dur deydilar. Bu – ma'qul gap emas. Sen ruh javharisan, dur quruq suvning o'zi-ku!"

7. "Demak seni durga o'xshatish, xuddi durni shudringga o'xshatishdir".

8. "Til sening zikring bilan yuksaklik egasi, tishlar esa unga inju tasbehi bo'ldi".

9. "Ganjada maskan tutgan zar sochuvchi kishidan o'zga bir kishi – bu til bilan maqsadga erisholmadi". Bu baytda Nizomiy Ganjaviy va uning "Layli va Majnun" dostoni nazarda tutiladi.

10. "Uning yashirin xazinasi sharaf ayvoni, xazinachisi esa lutf mezonidir", demakdir.

11. "Ma'noning xosxonasini egallagan ham, so'z qizini turli taqinchoqlarga g'arq etgan ham u".

12. Tur – Arabistondagi tog'. Rivoyatlarga ko'ra, Tur tog'ida Muso payg'ambar Xudoning jamolini ko'rishga chiqadi. Qof – butun yer yuzini o'rab olgan deb xayol qilingan afsonaviy tog'. Anqo – afsonaviy qush. Go'yo qushlarning podshohi bo'lib, uning oshiyoni shu tog'da ekan.

13. Afsah ul-kalomi – eng fasih nutqlisi, ravshan bayon etguvchisi.

14. "U Ganjada xazinadek yashiringan-u, lekin besh xazinaga belgi qo'yib ketgan". Bu yerda gap Nizomiy va uning besh dostoni ustida bormoqda.

15. "Bu xazinada ma'ni injulari bo'lib, so'z va iboralari esa uning tilsimidir, lekin bu tilsim shunday mustahkamki, buni har bir temir qo'rg'onni egallovchi ham ochishda ojizlik qiladi".

16. Kashmir – Osiyoda, Himolay va Tibetning o'rtasida joylashgan tarixiy diyor. Kashmir to'g'risidagi dastlabki ma'lumotlar miloddan avvalgi VI asrga oid manbalarda uchraydi.

17. "Undagi yozuvlar Bobil mamlakatining katta yo'liday, qamish qalamining ichi esa Bobil chohidir". Bobil – Chohi Bobil – rivoyatlarga ko'ra Bobil atalgan shaharda bir quduq (choh) bo'lib, ko'kdan yerga tushib gunoh ishlar qilgan ikki farishta chohda yotar ekan, bu chohni sehr manbai ham deydilar. Bu yerda Xusrav Dehlaviy ijodi Bobilning katta yo'liga, qalamining kavagi mazkur chohga o'xshatiladi.

18. "Besh maxfiy xazinani o'z bag'riga olgan toshdan yaratilgan qal'a ro'parasida besh qasr tiklandi". "Besh qal'a"dan maqsad Xusrav Dehlaviyning "Xamsa"sini qayd etmoq.

19. "Mo'jiza bilan sehr orasidagi tafovut Ka'ba oldidagi butchalik kattadir".

20. Ashraf – XIV asrning II yarmi va XV asrning boshlarida yashab, ijod qilgan xamsanavis shoir. Uning to'liq ismi Ashraf ibn Shayx ul-Islom Abu al-Husayn ibn al-Hasan al-Marog'iy at-Tabriziydir. Alisher Navoiyning "Majolis un-nafoyis" tazkirasida Ashraf haqida shunday ma'lumotlar berilgan: "Mavlono Ashraf – darveshvash va nomurodsheva kishi erdi. Va kiyiz bo'rk ustiga qurchuq chirmar erdi. Va el bilan dog'i omizishi oz erdi. Ko'prak avqot "Xamsa" tatabbu'ig'a sarf qilur erdi, to ul kitobni tugotur tavfiqi top-

ti, voqean o‘z xo‘rdi holig‘a ko‘ra yamon bormaydur. Afv fazilatida “Xamsa”sidan bu bayt yaxshi voqe’ bo‘libturkim:

Ba nazdi kase k-o‘ ba donish meh ast,
Zi mujrimkushi jurmbaxshi beh ast...

Mazmuni: Bilimda ilg‘or bo‘lgan kishi qoshida gunohkorni o‘ldirishdan gunohini kechish yaxshidir.

21. Bu yerda “uchinchi nomayi dard” “Layli va Majnun” dostonidir.

VI

1. Abdurahmon Jomiy – buyuk shoir, Navoiyning yaqin do‘sti va ustozi. Jomiy salaflari Nizomiy, Xusrav Dehlaviylarga tatabbu’ qilib, yetti dostonni o‘z ichiga olgan “Haft avrang” asarini yaratdi. Undagi dostonlar: “To‘hfat ul-ahror” (“Himmatlilar tuhfasi”), “Silsilat uz-zahab” (“Oltin zanjirlar”), “Solomon va Absol”, “Sabhat ul-abror” (“Yaxshi kishilar tasbehi”), “Yusuf va Zulayxo”, “Layli va Majnun”, “Xiradnomai Iskandariy” (“Iskandarning donishmandlik kitobi”).

Navoiy “Xamsa”ga kirgan har bir doston muqaddimasida, “Majolis un-nafois”da Jomiyga maxsus o‘rin ajratadi. Jomiyga bag‘ishlab “Xamsat ul-mutahayyirin” asarini yozadi. Jomiy va Navoiy o‘zlarining “Layli va Majnun” dostonlarini bir yilda (1484) tugallaganlar.

2. “Valiylik osmonining jahonga nur taratuvchi yulduzi to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatish konining sof gavhari, she’riyat avji falagining hashamli quyoshi va ma’nolar jomining toza may ichuvchi rindi, ya’ni mavlono Nuriddin Abdurahmon Jomiy madhida nukta surmoq va uning jomidagi durdini simirmoq”.

3. "Bosh og'rig'iga sandal yog'ochini maydalab peshonaga surkalgani kabi, farishta Jomiy kavshlari gardini yuziga surtadi".

4. "Bukilishdan hassasi boshida paydo bo'lgan tob, ikki jahonni tortmoq uchun ilmoqdir".

5. "Uchidagi nayzasi g'azabga kirsa, dev bilan shaytonlarni ko'r qiladi".

6. Bu ikki bayt mazmuni: "Tasbehiga band qilingan yuz dona yuz fayz qushlarini ovlaydi. Donalar belidagi torni jahon xalqi uchun mahkam ip deb bil".

7. "Uning yuvinadigan idishi falak dengizidir. Undan tomgan har qatra suv eng noyob dur bo'ladi".

8. Ka'b – oyoqning to'pig'i demakdir. Shoir bu yerda azizlarning tovoni tekkan yer – muridlar yig'iladigan davrani nazarda tutadi.

9. "Laqabi ham jahonga nur taratadi. Zoti bilan ham nuran alo nurdir". Bu yerda shoir "Nuriddin" so'ziga ishora qilib, "nur ustiga nur" iborasini qo'llamoqda.

10. Bu besh baytda so'z Jomiy tomonidan yaratilgan asarlar ("Tuhfat ul-ahror", "Silsilat uz-zahab", "Sabhat ul-abror", "Yusuf va Zulayxo", "Devon") ustida bormoqda.

VII

Bu bob Sulton Husayn Boyqaro madhidadir.

1. Sulton Husayn Boyqaro Temur ko'ragon naslidan bo'lib, Mirzo Mansur binni Mirzo Boyqaroning o'g'lidir. U 1438-yili tug'ilgan. 1469-yili Hirot taxtiga o'tirib, 37 yil hukmronlik qilgan. Navoiyning bolalikdan do'sti bo'lgan. U Husayniy taxallusi bilan she'rlar yozgan. Bizgacha uning devoni yetib kelgan. Uning qalamiga nasriy "Risola" ham mansub. U 1506-yilda Hirotda vafot etdi. Husayn Boyqaro imkon boricha mamlakatda ilm-ma'rifatni, madaniyat-

ni taraqqiy ettirishga intildi. Bobur Husayn Boyqaroning zamoni haqida yozadi: "Sulton Husayn Mirzoning zamoni ajab zamone edi, ahli fazl va benazir eldin Xuroson, bataxsis, Hiriy shahri mamlu edi. Har kishiningkim, bir ishga mashg'ullug'i bor edi, himmati va g'arazi ul edikim, ul ishni kamolg'a tegurgay".

Navoiy Husayn Boyqaro haqida deyarli hamma asarlarida yozadi. "Majolis un-nafois" tazkirasining sakkizinchi majlisini Husayniy she'riyati tahliliga bag'ishlaydi. Uning nasriy risolasiga javoban (1485-y.) o'zining "Nazm ul-javohir" asarini yozadi va asar muqaddimasida buni e'tirof etadi va Husayn Boyqaro sha'niga madhiyalar o'qiydi. Husayn Boyqaro Navoiyning davlat arbobi sifatidagi faoliyatini, ijodini qo'llab-quvvatlagan. Ular samimiy do'st bo'lganlar.

2. Junayd – sayyid ut-toifa Junayd Bag'dodiy. U haqda Alisher Navoiy "Nasoyim ul-muhabbat" asarida shunday ma'lumotlar beradi: "Ikkinchi tabaqadindur va kuniyati Abulqosimdur va laqabi Qavoririy va Zajjoj va Xarroz Qavoririy va Zajjoj andin debturlarki, otasi shisha sotar ermish va Xarroz aning uchunki, xarz san'atin bilur ermish. Asli Nihovanddindur. Tavallud va manshai Bag'doddin va Abu Savr mazhabida bo'lur ermishki, Imom Shofe'iyning ulug'roq shogirdidur va ba'zi debturlarki, Sufyon Savriy mazhabida ermish...

Junayd ikki yuz to'qson yettida (909-y.) dunyodin o'tubtur. "Tabaqot" kitobida Qushayriy risolasida bu nav' bitibtur va Imom Yofeiy tarixida to'qson sakkizda debtur va ba'zi to'qson to'qqizda debtur". Hijriy ikki yuz to'qson yetti deganda – hozirgi yil hisobimizda to'qqiz yuz to'qqizinchi yil anglashiladi.

Mazkur baytdagi "Junaydi Soniy", ya'ni ikkinchi Junayd deyilganida Husayn Boyqaro ko'zda tutiladi.

3. G'oziy – Husayn Boyqaroning unvoni bo'lib, "Shohi G'oziy" deb ham yuritiladi.

4. Bu baytda shoir Husayn Boyqaro sha'nida muqaddas oyatlardagidek so'zlarni aytish mumkin, uning odilligi esa shariatni himoya qila oladi, demoqchi bo'ladi.

5. Bu baytlar, umuman shu bobning o'zi o'ta madh mazmunida bo'lib, Navoiy Husayn Boyqaroni ko'klarga ko'taradi. Ayni choqqda, Navoiy Husayn Boyqaroning o'tkir zehn egasi ekanini ta'kidlaydi. Uning davlat ishi bilan band bo'lib, ilm bilan shug'ullana olmasa-da, lekin iqtidori har qanday masalani hal qilishga qodir edi, deb qayd etadi.

6. Nabiyi mursal – yuborilgan payg'ambar.

7. Fiqh (arabcha: bilish, tushunish, demakdir) – islom dinining yo'l-yo'riqlari, qoidalari to'g'risidagi huquq ilmi, ya'ni huquqshunoslik.

Fiqh – diniy huquqshunoslik sifatida ikki sohadan: shariat manbalarini ishlab chiqish va shariatni aniq sohalarga tatbiq qilishdan iborat bo'lgan.

8. Abu Hanifa – Imom A'zam Nu'mon ibn Sobit (699–767) – mashhur imom, hanafiya mazhabining asoschisi. Abu Hanifa Kufada tug'ilgan. Hammod ibn Abu Sulaymondan hadis ilmini o'rgangan. U birinchi bo'lib fiqh ilmini farz, sunnat va shart kabi boblarga ajratgan.

9. Jamshid – Eronning qadimgi podshohlaridan biri.

Jamshid jomi – Jamshid yasattirgan tilsimli jom. (Navoiyning ta'rificha, Jamshid hakimlarga buyurib, ikkita jom yasattirgan, birining oti Jomi ishratfizoy – bu jomdagi may ichgan bilan tugamas, to'liq turaverar va qiyshaytirilsa ham to'kilmas ekan. Ikkinchisining oti Jomi getinamoy – bu jomda dunyoda yuz bergan hodisalar ko'rinib turar ekan. Bu jomni "Jomi jahonbin" ham deydilar).

VIII

1. Bu bob Sulton Badiuzzamon madhida yozilgan.

2. Sulton Badiuzzamon Mirzo – Husayn Boyqaroning katta o‘g‘li, Astrobod viloyatining hokimi, otasi vafotidan so‘ng ukasi Muzaffar Mirzo bilan birga mamlakatni boshqaradi. Navoiy “Majolis un-nafois”da u haqda shunday deydi: “Husni surat va husni siyrat bila orasta va jamoli zohiriy va kamoli botiniy bila perosta yigitdur. Razm atvoridin otar-tutarda dilpisand va bazm asbobidin ichmak va bag‘ishlamoqda bemonand. Tab’i ham nazm uslubida muloyimdur”.

Balxni talashib, Badiuzzamonning Husayn Boyqaroga qarshi chiqishi uning mag‘lubiyati bilan tugaydi. Shu nizo oqibatida Badiuzzamonning o‘g‘li Mo‘min Mirzo qatl etiladi. 1497-yil oxirlarida yuz bergan bu dahshatli voqeadan so‘ng Husayn Boyqaro va Badiuzzamon munosabatlari yana-da keskinlashadi. Lekin 1506-yilda Shayboniyning Balxga yurishi ularni bir qadar birlashtiradi. Ular Murg‘ob tomon otlanadilar. Ammo yo‘lda 1506-yil 5-mayda Husayn Boyqaro vafot etadi. Shayboniy Hirotni zabt qilgach, Badiuzzamon Eronga Ismoil Safaviy huzuriga qochadi. “Majolis un-nafois”ning forscha tarjimoni Muhammad Qazviniy ma’lumotiga ko‘ra, turk sultoni Salim Tabrizni egallagandan so‘ng Badiuzzamonni izzat-ikrom bilan Istanbulga olib ketadi. Badiuzzamon tez orada toun (vabo) kasalidan vafot etadi.

Navoiy Badiuzzamon siymosida davlatni idora etish siyosatini puxta bilgan, ilmlardan xabardor, adolatga tayangan valiahdni ko‘rar, undan dono pand-o‘gitlarini darig‘ tutmas edi. “Munshaot” tarkibida Badiuzzamonga yozilgan maktublar ana shulardan dalolat beradi.

3. Badiuzzamon – zamon ahlining ajoyib go‘zali, nodiri, demakdir.

4. Chavgon – “Go‘y va chavgon” o‘yinida ot ustida turib go‘y – to‘pni tutib, to‘xtatib olinadigan uchi egri uzun tayoq.

5. Savlajon – chavgon.

IX

1. “U tun dag‘dag‘asi ta’rifidaki, savdoyi ishq ajdahosining dami o‘tining tutuni va yulduzlari olamni o‘rtaydigan o‘sha olovning yolqinlari edi: shunday tunda xayol sayyohi ko‘rgiliklar otiga minib har tomon yo‘l olmog‘i va ishqning yuz ofatlik dashtiga yetmog‘i; ofat yog‘inlaridan balo dovuliga qolmog‘i va balo yashinlari uning joniga shavq va muhabbat haroratini solmog‘i; ishq duri shamchirog‘ini o‘sha kecha topmoq va u yo‘lchi yulduz bilan so‘z maydoni javloniga chopmoq; Layli xayoli bilan ko‘rishmoq va Majnun dardiga tushmoq”.

2. “Vujudim shu zulmatga asir bo‘lib, ko‘nglimga falak zulmati qo‘ngan edi”.

3. “Ishqning hidini sezgan hamono u ot chopishdan ham qoldi”.

4. Yasrib – Madina shahri shunday deb ham yuritilgan.

5. Rasuli Hoshimiykesh – Muhammad payg‘ambar ko‘zda tutiladi.

6. Xalil – Ibrohim alayhissalomning laqabi.

7. Namrud – Bobil podshohlaridan birining nomi. Rivoyatlarga ko‘ra, xudolik da’vosini qilganda Ibrohim (Xalil) payg‘ambar unga qarshi chiqqan. Namrud uni o‘tga tashlagan, lekin Ibrohim gunohsiz bo‘lgani sababli olovda yonmagan.

8. “Shu yashin har lahzada Yaman tomondan ko‘rinib,

o‘zining o‘tli sirtmog‘ini tashlar, u – Suhayl yulduzi balqib, Yaman tunini yoritgandek edi. Yo‘q-yo‘q, balki Uvays qalbi yolqini qora tunni oydinlashtirmoqda”.

9. Suhayl yulduzi – bir yorug‘ yulduz. Yamandan ravshanroq ko‘ringani uchun Suhayli Yamaniy, Suhayli Yaman deb ham ataganlar.

10. Uvays – Shayx Uvays Qaraniy Alisher Navoiy “Nasoyim ul-muhabbat” asarida Uvays Qaraniy to‘g‘risida, jumladan, shularni yozadi: “Goh-goh Xojayi olam muborak yuzin Yaman sori qilib der edikim, men Xudoning nafasini Yaman tomonidan topdim”. Yuqoridagi talmih orqali ana shu haqiqatga ishorat qilingan.

11. Abuqubays – Qubays tog‘ining nomi.

12. “Ayman anori o‘z shoxini yoritganidek, goho Izam vodiysiga shu’la sochardi”.

Izam – Arabistondagi tog‘ning nomi.

13. Nori ayman – Muso payg‘ambarga ko‘ringan nurli bir daraxt.

14. Najd – Iroq va Hijoz o‘rtasidagi joy nomi.

15. Shom – Suriya va Damashqning sharq qo‘lyozmalarida uchraydigan nomi.

16. Hay – Arab qabilasi. Layli shu qabilaga mansub, qabila boshlig‘ining qizi.

17. “Bu suyaklar cho‘ldagi qurigan o‘t kabi to‘da-to‘da bo‘lib yotardi”.

18. “U buni hali anglab yetmay, g‘oyibdan nido keldi”.

19. “Bu ishq dashtida g‘avg‘o solayotgan yirtqich hayvonlar shu dashtning har tomonidagi qurt-qumursqalarday”.

20. “Moziy dunyo bir kishidan boshqa hech kimning bu vodiyga qadam qo‘yganini bilmaydi”.

21. “Jismini tashkil etgan unsurlar ham uning tuzilishini murakkab qilgan”.

22. Ajam – Arab xalqlari va mamlakatlaridan boshqasi (ko'pincha Eron mamlakati va xalqiga aytiladi).

23. Suhayliy – Shayx Ahmad Suhayliy – XV asrning II yarmida yashab ijod etgan forsigo'y shoir. 1465–1469-yillarda Navoiy samarqanddalik vaqtlarida Shayximbek Suhayliy ham u bilan birga bo'lgan. 1469-yilda Navoiy bilan Hirotga kelgan va Sulton Husayn Boyqaro xizmatiga kirgan. Navoiy uni ardoqlab, yori aziz, der edi. 1470–1472-yillarda Navoiy tavsiyasi bilan Suhayliy muhrdorlik lavozimiga tayinlangan. "Suhayliy" taxallusi qilur uchun, Shayxim Suhayliy derlar erdi", deb yozadi Bobur.

Suhayliy badiiy ijod bilan qizg'in shug'ullangan. Alisher Navoiy "Majolis un-nafois"da yozadi: "Xuroson mulkining mutaayyin elidindur. Kichik yoshidan tab' osori va zehn namudori andin ko'p zohir va hamida axloq va pisandida maosh atvoridin bohir erdi... Avvaldin oxirg'acha faqir bila iltifot va ittihodi ko'p uchun mundin ortuq ta'rifin qilinsa, o'zumni ta'rif qilg'ondek bo'lurdin qo'rqib ixtisor qilildi".

Suhayliyning "Layli va Majnun" dostoni o'z davrida mashhur bo'lgan.

X

1. "Qaysning yo'qlik majlisidan qutulib, vujud beshigiga tutilgani: qon yutmoqdan emish va ishq doyasidan parvarish topgani; ishq zoti bahrasidan el ko'ziga shirin va azaliy dard haroratidan xaloyiq nazariga issiq ko'ringani".

Qays – Majnunning asl nomi.

2. "Hayot uskunasi eskirib, umri daraxti yiqilishga mayl etganda, yonida go'zalligi sanavbar guli kabi yangi ko'kargan niholi (farzandi) bo'lishi kerak".

3. "Bilmaydiki, guliston qurisa, bulbul sayrashdan to'xtaydi".

4. Bu ikki baytning mazmuni: "Ishq mulkining shohi ko'kdan yergacha hukm qildikim, shodmonlik bilan osmon gumbazigacha ziynat berib bayram qilsunlar".

5. "Gul yaprog'i asalga tushgandek, uni beshikka bog'laydilar".

6. "Bodomning ichida mag'iz saqlaganidek, bu bola ham ko'z beshigida farog'atda yashardi".

7. Baytning mazmuni: "Yuzida malohat shu'lalari, nutqida fasohat nash'alari bor". Bu baytda tarse' san'ati qo'llanilgan.

8. "Uni jon yo'rgagiga o'rab, ko'z qorachiqlarini isiriq qilardilar".

XI

1. "Qaysning donolik maktabida ilmlar varaqlarini o'girgani: ishq izg'irini yetib, u varaqlarni sovurgani, ya'ni Layli husni gulshanidan xastalik xazoni chetlashib, salomatlik bahori yelidan latofat gullari ochilib, maktabga yo'l olgani va u gullardan Qays ko'ngli oyog'iga oshiqlik tikanlari sanchilgani".

2. "Uning karam dasturxoni oldida quyosh qora kulchadek qadrsiz".

3. Bu baytda shoir ruju (musalsal) san'atidan mohirlik bilan foydalanadi. Bu san'atga ko'ra predmet, voqea-hodisa yoki shaxsga nisbatan o'xshatishli mubolag'a ishlatiladi. Lekin bu kamlik qilib, yanada kuchli mubolag'a ishlatib, tasvir kuchaytiriladi, bo'rttiriladi.

4. Bu baytlarda tazod san'ati qo'llanilgan. Unga ko'ra, tasvirni bo'rttirish uchun bir-biriga zid tushunchalar qo'llaniladi.

5. "Bularni hind lashkari dema, balki Chin dashtining kiyiklariga qo'yilgan qator tuzoqlardir".

6. Bu baytda Navoiy talmeh san'atidan foydalanib, "ul dona" deganda, Odam Atoning jannatda yegan bug'doy donasiga, "bu dona"da esa Layli xoliga ishora qilmoqda. "Ul dona" bir odamni sayd etgan bo'lsa, "bu dona" esa olam ahlini o'ziga tortadi.

7. "Ikki qizil labi jon bo'lsa, iyak ostidagi bag'baqalari "jon" so'zining "nun" harfidir".

8. Uning pok gavhari hali ipga tizilmagan, la'li esa zargar qo'lidan zarar ko'rmagan".

9. Bu ikki baytning mazmuni: "Ikki qora sochining uzunligi intihosiz ikki qorong'i kecha. Shuning uchun uning ismi barot (hijriy yil hisobida sakkizinchi oy bo'lgan sha'bonning o'rtasi, bayram kuni) va qadr (ramazon oyining "Laylat ul-qadr" (qadr kechasi) deb ataladigan 27-qutlug' tuni) kechasidagi to'lin oydek jilvalanardi".

10. "Bu xildagi pokiza gavharni (Qaysni) topgach, daryo (muallim) bu zavqdan shodlandi".

11. Oriza – kasallik.

12. "Tab'idagi quyoshdek harorat achchiq azob solgan edi".

13. "Chirog'i o'chayozgan bechora chirog'iga yog' quyilsa, yana yonaveradi".

14. "Asal, may va o'z issiq tabiati hamda havoning harorati – to'rttalasi sho'lalanib unga o't soldilar".

15. Ahibbo – arabcha: "muhib" so'zining ko'pligi – do'stlar, atibbo – arabcha: "tabib" so'zining ko'pligi – tabiblar.

16. "Uning mizojidan xastalik ketishiga yordam bo'lmasa, Isoning elga jon berishidan nima foyda?"

Iso – Iso payg'ambar, u mo'jiza ko'rsatib, o'liklarga jon ato qila olgan, tiriltira olgan ekan. Badiiy asarda ko'pincha

Iso nafasi – jon baxsh etuvchi kuch timsoli sifatida keladi. Bu yerda shunga ishora qilinyapti.

17. Bu baytda kitobat san'atidan foydalangan holda Layli zulfining yuzi yonog'iga tegib turishi "xad" so'zidagi "dol"ning turishiga, "fam" so'zidagi nuqta esa labi ustidagi xolga o'xshatiladi.

18. "Uning sochlari ustidagi durrasi vasl shomidagi oydinlikka o'xshardi".

XII

1. "Bahor farroshi har nafas esgan shabadalarni puflamog'i bilan lola chirog'ini yoritganda va bulut nayrangbozi lahza-lahza tushgan chaqin chuchkurmog'idan tog' dimog'ini quritganda, o'sha ko'zini husn chirog'i yoritgan va dimog'ini ishq savdosi quritgan odamning gul yuzlilar bilan bog' sayriga borgani va Layli husni gulining shabadasi dimog'iga yetib, bir yo'la o'zidan ketgani".

2. Qavsi quzah – bahor chog'ida osmonda ko'rinadigan kamalak.

3. "Agar falak to'ti bo'lishni orzu qilmas ekan, nega yerni ko'k rangga bo'yadi?"

4. Yashil falak to'ti bo'lib, yer kurrasini jo'ja qilib ochganda "yer yuzini tutgan maysalar uning a'zosidagi yangi patlarga o'xshar edi".

5. Yaraqon – sariq kasalligi.

6. "Yer yuzi sebarglardan sovut kiyarkan, savsan boshiga gurzi ko'tardi".

7. "G'uncha" boshida jez qalpoq ko'rgan chog' muz tig'i chamanni tark etadi".

8. Farhod – Sharq xalqlari og'zaki ijodi va yozma adabiyotida keng tarqalgan obraz, Navoiyning "Farhod va Shirin" dostonida asosiy qahramon. Baytda Navoiy Farhod qismatidagi hijronga ishora qilmoqda.

9. Parvez – Xusrav Parvez – Sharq xalqlari og‘zaki ijodi va yozma adabiyotida keng tarqalgan obraz. Uning tarixiy ildizi sosoniy podshohlaridan Xusrav Parvez (VI asr oxiri) faoliyatiga borib taqaladi. Badiiy adabiyotda, chunonchi, Firdavsiyning “Shohnoma”si, Nizomiyning “Xusrav va Shirin”ida ideal shoh, Navoiyda esa Xusrav mutlaqo salbiy qahramon sifatida talqin etiladi.

Navoiy “Tarixi muluki Ajam” asarida u haqda yozadi: “Parvez Madoyin taxtiga o‘lturub, ko‘p mamolikni hiytayi tasarrufig‘a kiyurdi. Va maknat va shavkati bir yerga yettikim, andin burung‘i saloting‘a muyassar bo‘lmaydur erdi. Va ba’zi muarrixlar anga muyassar bo‘lg‘on nimalarni (toji, taxti, shu jumladan, kulohi ham) hayrat tariqi bila te’dod qilibturlar”.

Navoiy bu yerda talmeh san’atidan mohirona foydalangan. Unga ko‘ra tasvirda tarixiy shaxslar, voqealar, geografik nomlar, afsona va ayrim asarlarga ishora qilinadi. Baytda “sahrodagi lola yaproqlarining uchishi Parvez kulohini eslatadi”, degani uning kulohi rangiga hamda uning shahid qoniga – o‘g‘li tomonidan o‘ldirilganiga ishoradir.

10. “Lola g‘unchasi la’l qutichasiga o‘xshaydi, ochilganlari esa alvon la’ldur”.

11. “May shishalariga (balbala) tushgan gul barglari turna ko‘ziga yoxud tustovuq qoniga o‘xshaydi”.

12. “Nasrin bargi to‘kilgach ko‘va yog‘ini eslatar, zanbaq (xushbo‘y) gulining bargiga to‘kilgan mushkning hidi uning dimog‘ini quritardi”.

13. “Chamanga yog‘ilgan shudring ko‘knor guli yaprog‘iga ko‘knor donalaridek dog‘lar separdi”.

14. Ul ikki – ya’ni Layli va Majnun.

15. “Bog‘ keng edi-yu, xalq sayr etardi, daraxtlar zichligi elga parda edi. Chaman gul butalarning bir-biriga yopishganligi ishq ahli uchun visol pardasi edi”.

16. Na'li bozguna urmoq – asli ma'nosi teskari nag'al qoqmoq bo'lib, o'zini bilib-bilmaslikka solish, o'zini axtaruvchilarni chalg'itish ma'nolarida ishlatiladi.

17. O'zni a'jamiy aylamoq – jo'rttaga o'zini bilmaslikka solmoq, mug'ambirlik ko'rsatmoq.

XIII

1. "Qaysning ayriliq tunida shabnam gulobi yuziga sochilganidan ko'zi ochilgani; uyqusiz bulbul bilan ishq dostonlari ifodasida nola qilgani va bulbul soyasidek tuproqqa yiqilgani; otasi uning bulbuldek fig'onlarini eshitib, boshiga yetgani va mahofa qafasiga solib olib ketgani".

2. So'g – g'am, musibat, motam, aza, o'lim qayg'usi.

3. Duxonin bo'tratmoq – tutunni burqiratmoq.

4. Bu baytning mazmuni: "Yo'q-yo'q, bu tutunlar uning ohi edi, somon kabi zaif jismi yonardi".

5. Kahdud – somon tutatishidan hosil bo'ladigan achchiq tutun.

6. "U sarg'aygan yuzini shunchalik shapatiladiki, bundan yuzlari ko'karib ketdi".

7. Bu baytda tajnisdan foydalanilgan. Bu san'atga ko'ra, shaklan bir xil, mazmunan boshqa-boshqa so'z (omonim)-lar she'r qofiyalarida ishlatiladi. Birinchi – "alam" – g'am, qayg'u, ikkinchi – "alam" – rang, shu'la ma'nosini anglatadi.

8. Ko'k gulshanining gullari to'kilishi – yulduzlarning so'nishi; g'unchaning kulishi – tong otishi demakdir.

9. Bu ikki bayt mazmuni: "Goh bir lahza ham boshini ko'tarmasdan binafshaga mehrini bildirar va bu binafshaning atridan Laylining xushbo'y zulfini iskagandek murodi hosil bo'lardi".

10. "Xushxabar darakchining xabaridan so'ng, hammalarining ham ko'ngillari joyiga tushdi".

11. Yusuf – Qur'onda nomi zikr etilgan payg'ambar. Sharq xalqlari adabiyotida mashhur bo'lgan "Yusuf va Zulayho" qissasining bosh qahramoni. Ya'qub payg'ambarning o'g'li, akalari tomonidan ko'p aziyat chekkan – chunonchi, cho'lda adashtirilib, quduqqa tashlangan, qul qilib sotilgan va hokazo. Bu yerda Qaysning yo'qolishi Yusuf bilan bog'liq o'sha voqealarga o'xshatilmoqda. Sharq adabiyotida Yusuf obrazi go'zallik va poklik ramziga aylanib ketgan.

12. "Amoru", "mahmil" – odam tushadigan kajava. U tuya yoki filga ortilgan bo'ladi.

XIV

1. "Qaysning hajr shomida anduh guruhi uyidan chiqib visol qabilasi tomon yurgani; u qabila o'ti bilan tildoshlik va iti bilan hamdostonlik qilib, qabila yaqiniga yetgani; Layli uning tovushidan uyidan chiqib, bir-birlarini ko'rgach, u ham, bu ham hushidan ketgani".

2. Infiol – xijolat, uyat.

3. "Xalq uni dev urgan deydi, bilmaydiki, unga pari tegib o'tgan".

4. Bayt mazmuni: qorong'ilikdagi uchqunlar go'yoki harakatdagi yulduzlar edi.

5. "Har tomonni qoplab olgan tun zulmatida shu'la baxt yo'lini ko'rsatadi".

6. "Rangi noriy (anorday qip-qizil), tab'i ham noriy (o'tli), bu la'l butkul anorrang bo'lgan".

7. "Oy bilan kun ikkisi sen yonib turadigan o'choq – manqal; ud, sandal yog'ochlari senga tutantiriq bo'lsin".

8. "Ey, mungli nolang jonimga xushxabarchi, ey g'amgin ovozing ruhimga oziq beruvchi!"

9. "U goh hushda, goh behush Hay qabilasi qo'rg'oni atrofida aylanar edi".

10. Taloya – qo'shinning ilg'or qismi.

11. "Bu xildagi ishq o'tida qizigan ikki shaxs (Layli va Qays)ning noladan og'izlari sadafdek ochiq edi".

12. "O'sha ko'tarishda qaddi bukik kampir ham falakday qaddini xam qildi".

XV

1. Qaysning g'oyib bo'lganidan qabila ahli xabardor bo'lib, tog' va vodiyga yeldek yetib, uning bir qum ichida behush yotganini ko'rib, yel xashakni uchirganidek uyga keltirganlari; Qaysning u pari ishqida aql-u hushini yo'qotib, majnunlik bilan shuhrat topgani.

2. "U iz Hay qabilasi chegarasiga yetgach, qabiladan yana ikki iz chiqib qo'shilganligini ko'rdilar".

3. Bayt mazmuni: har tomondan unga qilinayotgan pand-nasihatlar qon to'kuvchi xanjar kabi edi.

4. "Na uning ruhiga qiynalish malol kelar, na tabiatiga xursandchilik yoqardi".

5. "Har kecha uning shiori shu zaylda qochish, ota-onalarning ishi uni qidirish bo'lib qoldi".

6. "Devonaga esli kishining pand-nasihat qilishidan ko'ra Majnunning so'zi aqlliroqdir".

7. 1960-yilgi "Xamsa" nashrida bu baytlar o'rni almashinib tushgan.

8. Shoir bu bayt mazmunida xalq orasida kasalni davolashda fusunchilar (duoxonlar)ning "kuf-suf"lab dam solishlarini nazarda tutib: "el unga chora ko'rish uchun qancha fusun qilsa, dam solsa, uning u "puf"lari bilan shuncha tutashib ketar edi", degan. Bunda o'tni qancha puflasa, shuncha avj olishi ko'zda tutiladi.

XVI

1. Majnunning oshiqligidan Laylining otasi xabardor bo‘lib, Majnunning otasiga til nayzasi, balki nayza tili bilan zaxmi zabon (tildan (gapdan) yetgan ozor)lar yuborgani; bu halokatli zaharni ichib, singdirib Majnunning otasi o‘g‘lini kishanga solgani.

2. “Hammadan voz kechibdi deydilar, uning miyasiga nutur yetibdi, deydilar”.

3. Some’ – Laylining otasi nazarda tutiladi.

4. “Bu qabila unga iffat go‘shangasi edi, bunga iffat nasimidan bo‘lak narsa aralashmas edi”.

5. “Uning (ya’ni go‘shanganing) atrofiga pardalar tortilgan bo‘lib, uning o‘rish va arqog‘i poklik va zuhddan edi”.

6. “Nazmida har vaqt bir ismni zikr qiladi (Layliga ishora), u ismni aytmoqlik bizga mumkin emas”.

7. Nol – qamish ichidagi ingichka tomir, qiltiriq.

8. Nauzu billoh – arabcha: “Xudo saqlasin”, demakdir.

9. “Uning butun vujudi zanjirband etilgan, zanjir halqalari ham o‘ralgan va egilgan edilar”.

10. “Jinnilik zanjirida band bo‘lgan, bu zanjirlar ichida xursand bo‘l! Kimki bu kishan bilan shod bo‘lsa, yuz kushodlikka erishadi”.

XVII

1. “Majnunning firoq chohida tandir ichidagi o‘tdek o‘rtanishi; ayriliq bandida tuzoqqa tushgan qushdek iztirobi; tabib afsunidan telbaligining tug‘yoni va tabib parhezidan isitmasining g‘alayoni; o‘z baxtsizligiga to‘kkan achchiq ko‘z yoshlari va bu yoshlardan komida achchiq-achchiq xunobasi; ko‘ngil o‘tidan temir bandi suv bo‘lgani va suvdek sahro tomon yurib ko‘z yoshlaridan vodiylar to‘lgani”.

2. Besh bayt mazmuni: "Majnunning Layli ishqi savdosi o'tida chirog'i yonib, dudi esa dimog'i (miyasiga) o'rnashdi. Bu dud u uy ichida ortgan sari taqvo bilan aql yuzini qoraytirdi. Bu ikki (taqvo bilan aql) u uydan ko'chgach, u yerda junun shohi o'z taxtini qurdi. U dud savdo qo'shini bo'lib, u qo'shin har dam g'avg'o soldi. Mana bu xilda dimog'i ichida to'polon yuz berib, ko'nglini junun oyog'osti qildi".

3. "Majnunga bahra olsin uchun berilgan ovqatlar unga zararli luqmalarday bo'lardi".

4. Bu to'rt bayt mazmuni: "Majnun tanini ishq nayzalaridan xalos etaman, deb tabib uning jismini yana chok-chok etardi. Bu choklarni tikadigan mehribonlar, igna bilan emas, balki nayza bilan tikardilar. O'q uchlarini topaman, deb tabib bemor badanini yorgan bo'lsa, bu kishilar uni tikmoq uchun o'q keltirardilar. Bular o'q axtarib ovora bo'lardilar, holbuki g'am o'tida o'q erib, suv bo'lgan edi".

5. Buxor udi – qop-qora bug'i – tutuni.

6. "Eng yaxshisi, meni g'avg'o boshlab, o'tga tashlab kuydirish edi".

7. Mag'ok – choh, chuqur.

8. Ibtilo – baloga qolish, giriftor bo'lish.

9. Bu yerda ikki ko'z nazarda tutiladi.

10. Lam'a – yolqin, porloqlik, ravshanlik.

11. "U o't ichida quyosh bir patirdek, oyni aytib ham o'tirmayman, chunki u kuygan kulchadek bo'lib qolardi".

12. Ravzan tutulsa – tuynuk bekitilsa.

13. "Jismini har xil gumonlar tinchitgan bo'lsa-da, uning ishi talpinmoq edi".

XVIII

1. Ibn Salom – arablarning Bani Asad qabilasi boshlig‘i, katta boylik egasi.

2. “Laylining xiromon sarvi gulshanidan uyi sariga yurganda Ibn Salom ko‘ngli qushi u sarv tomon parvoz qilgani, u parvozda bahor shabadasi gul yaprog‘i to‘kkandek tanga sochib, umid niholidan maqsad guli ochilgani va o‘sha shabada titrashidan gul yuzlari sarv soyadek shikast tuprog‘iga yiqilgani”.

3. Xay – ter.

4. Bu ikki baytning mazmuni: “Arab elidagi bir badavlat navqiron yigit uni – Laylini yo‘lda ko‘rib qoldi. Zotida hech qanday nuqsoni yo‘q bu sog‘lom kishini baxt Ibn Salom deb atagan edi”.

5. Bani Asad – arab qabilasining nomi.

6. Posux tilamoq – javob kutmoq.

7. “Lekin uning biroz sabr qilishi ham kerak. Chunki gulimning (Laylining) shoxi siniqroq. Hali bu umid niholi yosh, ya’ni quyoshim hali hiloldir”.

8. Hajr turktozi – hijron bosqinchisi, talonchisi.

9. “Bu mojaro uni ham hamisha mashg‘ul qilar, sayr va tomoshada ekan, har qadamda maloli oshib ketar edi”.

10. “Yosuman – aqli past, bema’ni, laqma bir kampir ko‘ngilsiz Laylining ko‘nglini xush qilaman deb so‘zga tushdi”.

XIX

1. “U mushkin ohu ovida bani Asad ahlining qasdi ma’lum bo‘lib, quyoshning oltin jayroni g‘arb ovloq go‘shasida sarg‘ayib, titrab shafaq to‘kkandek, u ohuning xilvat uyda tuproq va qon iztirob chekkani; falak zolidek

onasi u ishdan voqif bo‘lib, uning holiga dod-faryod solgani”.

2. “So‘z bulog‘ini qazigan kishi bu chashmadan chiqqan suvni shunday taradi”.

3. “Oliy martabali sarv – Layli dard zo‘ridan soyadek yotar edi”.

4. “Chunki ko‘nglum g‘amdan benihoya o‘ksigan, g‘avg‘olardan ham juda bezgan”.

5. Mehnat-u qayg‘u – azob-uqubat, dard-u g‘ussa.

6. “Ko‘ksini urib jarohatlab, tirnoqlari bilan momataloq qilib tashladi”.

7. “Ko‘zyosh qatralarini sochaverib, tanining tuprog‘iga g‘am urug‘larini ekdi”.

8. Jayhun – Amudaryoning qadimgi nomi.

9. Bu va keyingi baytlarda shoir to‘la izchillik bilan tanosub san’atini qo‘llaydi.

XX

1. Arafot – Makka shahri atrofidagi tog‘ nomi, ziyoratgoh.

2. Arasot – g‘avg‘o, to‘polon, qiyomat.

3. “Majnunning otasi uni ishq biyobonidan keltirib, Ka’ba ziyoratiga olib borgani va u munojot bahonasi bilan ko‘nglidagi yaralarni yorgani va duo qilmoq ohangi bilan ko‘nglidagi maxfiy maqsadini tilidan chiqargani va Arafot ahlidan arasot ko‘tarilgani”.

4. Xush, xud, bexud, darxurd, sarxush, noxush kabi “vov” yoki “zamma” bilan yoziladigan so‘zlardagi “vov”ni “vovi ma’dula”, ya’ni “o‘zgartirilgan vov” deyiladi. Shu so‘zlardagi bu harfni “alif”ga aylantirib, xash, xad, bexad, darxard, sarxash, noxash qabilida talaffuz qilish mumkin. Lekin yozuvda “vov” saqlanadi. Asosan bu hodisa qofiya taqozosi bilan sodir bo‘ladi.

5. Ka'ba – musulmonlarning Makka shahridagi ziyoratgohi. Ka'ba musulmonlar uchun qibla hisoblanadi va u tomonga qarab namoz o'qiladi.

6. Arshi a'zam – osmonning eng yuksak arshi. Ka'baga shunday baho berilmoqda.

7. Bu va keyingi to'rt baytning mazmuni: "Yer yuzining barcha ulug' va kichik odamlari bu manzilga kelib ziyorat qildilar. Yoki u Ka'ba ko'rinishda, ko'nglida Tangridan boshqa hech kimi bo'lmagan so'figa o'xshardi. Yoki o'sha so'fining chopon kiyib, yerda cho'kkalab o'tirganiga o'xshardi. O'rnida qimirlamay turishi qutb yulduzi, atrofidagi mayda toshlar mayda yulduzlardir. Bu qutb yulduzi emas, balki zo'r avliyodirki, ko'p avliyolar kipriklari bilan uning eshigini supurganlar".

8. Xayli xuffosh – ko'rshapalaklar to'dasi.

9. "Xamsa"ning 1960-yilgi nashrida bu bayt satrlari almashinib tushgan.

10. Bu uch bayt ishq so'zidagi harflar: "ayn", "shin", "qof" va nuqtalariga asoslangan so'z o'yini ishlatilgan. Shoir "ishq" so'zidagi "ayn" harfining yozuvdagi shaklini nazarda tutib, uni bo'ynimga tavq – bog'ich halqa qilgin, "shin"ni esa shu'layi shavq ayla, "qof"ni (bu yerda harf nomi nazarda tutiladi) esa menga g'am tog'iga, uch nuqtasini uchqunlarga va qolgan ikkisini toshlarga aylantir, deydi.

11, 12. Bu baytlarda tarse' san'ati qo'llanilgan, ya'ni birinchi misra so'zlari bilan ikkinchi misra so'zlari bir-biriga ohangdosh, vazndosh va qofiyadoshdir.

XXI

1. Navfal – Arab qabilalaridan birining boshlig'i, dostonda Majnunning holatini tushungan, uning xaloskori sifatida bayon etilgan. Navfal garchi davlatmand bo'lsa-da,

inson qadr-qimmatini, uning ichki kechinmalarini chin yurakdan tushunib, yuqori baholaydi. Navfal Majnunning ishqini tushunib, yordamlashsa ham, uning odamlardan uzoqlashib, tog‘-toshlarda, yovvoyi hayvonlar orasida yurishini qoralaydi.

2. “Majnunning vahshatli eldan ulfatlik ipini uzgani va biyobon vahshiy hayvonlari bilan do‘stlik yo‘lini tutgani, kiyiklar bilan Navfal ovi oralig‘ida qolgani; Navfalning visol va’dasi sirtmog‘ini uning bo‘yniga solgani va kiyiklarni ozod qilib, uni tutgani va ko‘nglini ovlagani”.

3. Bu baytlarda g‘oyatda mohirlik bilan tarse’ san’ati qo‘llanilgan.

4. Baytlarning mazmuni: “olovli nazmi dimog‘idan tutun chiqarar edi”.

5. “Majnun bir payt ovchilar qurshovida qoldi”.

6. “Yuzida safo (soflik) quyoshi namoyon bo‘ladi; egnida vafo nuri barq uradi”.

7. So‘nggi uch bayt mazmuni: “Inson aql chirog‘i, qolaversa, butun koinot ko‘zining nuridir. Odamlardan qochib, hayvonlar bilan ulfat bo‘lishing aql oldida sababsiz ko‘rindi; bu holat menga juda qiziq tuyuldi”.

8. Yurakka xorxor solishi – yurakka orzu, sevgi solish.

9. Ashhabning tuvog‘i – bo‘z otning tuyog‘i.

XXII

1. “Navfalning Layli gavharini Majnun shodasi tizimiga tizish uchun gavhardek so‘zlarni nazm ipiga tizib, Layli otasiga yuborgani; uning so‘z gavharini sindirib, aloqa ipini uzgani; Navfal lashkar tortib, u ham adovat qo‘shinini tuzgani va o‘ch maydoniga ot surib dov tilashganlari; falak tadbiri bilan bir-biriga baravar kelmoqlari va xilvat joylarni istehkom qilib turganlari”.

2. Futuvvat – saxovatlik, juvonmardlik, olijanoblik ma'nolarini anglatadi. Ijtimoiy-siyosiy, axloqiy va diniy mafkuraga oid falsafiy ta'limot bo'lib, hunarmandlar manfaatini ifoda qilgan.

3. Asru mag'mum – ko'p g'amgin.

4. Sipohi jarror – qo'rqmas jangchilar to'dasi. Navfal shunday jangchilar bilan Laylining otasiga qarshi kurashga otlanadi.

5. "Otlar shamoli jang maydonini supurib, shafqat va marhamat giyohlarini sovurdi". Bu baytda g'uluv san'ati ishlatilgan. Unga ko'ra aqlga sig'maydigan, imkoniyatdan tashqari kuchli mubolag'a ishlatilgan.

6. "Nayzalarning dastasi oftob doirasidek egilib ketdi. Uchi bo'lsa, tol bargidek edi".

7. Harir parniyon – yupqa va nozik ipak kiyim.

8. Parxosh kuni – jang kuni.

9. Hazm-u ozarm – fikr, andisha, kelishish.

10. Bu ikki baytning mazmuni: "Qorong'ilik qo'shini soya solgach, yulduzlar unga kuzatuvchilik qildi, Xitoy shohi – quyosh o'z taxtini tark etib, yer yuzini esa qorong'ilik bosdi".

XXIII

1. "Laylining otasi o'z kishilarini Navfal lashkari qoshida kuchsiz ko'rib, dushmanga tortgan tig'ini o'z jigariga urmoqchi bo'lgani; ya'ni Layli qonini oqizay degani; u quyoshni Majnun tushida ko'rib, botishdan saqlagani va motamzada tundek Navfal oldida ko'z yoshlari (yulduzlari)-ni oqizgani va Navfalning o'ti pasayib qaytgani".

2. "Xudo ko'rsatmasin, odamlarimiz qochib".

3. Bu besh bayt ruju' san'ati asosida bitilgan. Bu san'atga ko'ra narsa va hodisa dastlab ma'lum obrazli ifoda orqa-

li tasvirlanib, ayni zamonda yanada kuchliroq ta'sir o'tkazish maqsadida undan voz kechib, boshqa kuchli so'z – obraz ishlatiladi.

4. "Navfal angladiki, bu voqea chindir: Majnunning tushi shubhasiz to'g'ridir".

5. Bu ikki bayt tun chekinib, tong yorisha boshladi, degan mazmunni anglatadi. Shoir bu yerda g'oyat go'zal tashbehlar ishlatgan: tun – arab musofirlariga, tong – oq uyga, osmon esa ko'k maysazorga o'xshatiladi.

XXIV

1. Zayd – Laylining qabiladoshi. U ikki oshiq-ma'shuqqa hamdard, ularga xat yetkazib turadi. Zayd Nizomiyda kichik bir obraz bo'lib, asardagi diniy ruhni kuchaytirishga xizmat etadi. Navoiyda esa Layli va Majnun sevgisini, ular xarakterini to'laqonli chiqishida vositachi obraz sifatida o'rni muhim.

2. "Majnunning Navfaldan ayrilgani va yeloyoq otini shamoldek surib, biyobonga yo'l olgani; Zaydga yo'liqib, ahvolini ma'lum qilgani va unga yetgan bedodlikdan buning ham ko'ngliga alam yetgani; unga taskin bermoq uchun o'zining hamma narsasini topshirib, Layli qabilasi ko'chgan yerga ketgani".

3. 1960-yilgi "Xamsa" nashrida bu bayt o'rnida:

Majnun meni tiyra ro'zmen, bil,
Tig' ol, neki, xotiring tilar, qil, – bayti yozilgan.

4. "Ulardan biror pana yerga qochib qutulmoq menga qiyin edi. Xaltamda bo'lgan oziq-ovqatlarimni oldilar".

5. Toziyona – qamchi.

6. Bu baytda ham tanosub, ham tazod, ham tarse' san'atlari ishlatilgan: jon badan, bosh bilan oyoq bir-birlariga mu-

nosabatda bo'lganlari kabi bularning orasida ziddiyat ham bor. Bunda tanosub ham tazod san'ati kelib chiqadi. Jonim – boshim, badaning – qadaming, shifosi – fidosi so'zlari ham, vazn ham qofiya jihatidan bir-birlariga barobar va mos tushganlari sababli tarse' san'ati yuzaga kelgan.

7. "Bu ishdan qo'rqma: men xijolatdaman, har narsa qilsang ham roziman".

8. Bu to'rt baytning mazmuni. "Dedi: Ey ishq oyatiga singib ketgan zamonaning yagonasi! U hajr tunining umid tongi yo'q, balki abadiy quyoshi, jamoli saodat osmonidan chiqadigan pokizalik pardalari yuziga niqob bo'lgan Layli, sening g'amingda shunday notavonki, so'zi elga dostondir".

9. Najmi Soqib – yorug' yulduz. Bu yerda Zaydning Majnundan nomani olib Layli qabilasi tomon tez ot surishi falakning yorug' yulduziga qiyos etilmoqda.

XXV

1. Hubob – suv pufagi, falak gumbazi.

2. Sardoba – karvon o'tadigan yo'llarda suv saqlaydigan chuqur ustiga qurilgan inshoot.

3. Musomot – badanda ter chiqaradigan mayda teshikchalar.

4. "Quyosh chashmasi saraton burjida makon topib, harorat zo'rligidan havo hubob sardobalarida va o't tosh musomotida yashiringanida Majnunning o'tdek iztirob va shamoldek shitob bilan Layli hashami o'rniga kelib qo'tir itni ko'rgani va it o'z oshnasiga yalinganidek, u itga yalingani; eldan hayratangiz xitob eshitib, vahshatomuz javob bergani; o'sha it qoshidan kiyiklar suhbatiga yetgani; uning mushkin ohusidan mushk sochuvchi xabar yetkazgani".

5. So'z sohatida – so'z maydonida.

6. "Yoz faslining tush chog'i bo'lib, javzo oyining eng jazirama vaqti kelgan edi".

7. Ushbu baytlar Navoiyning "Munshaot" asarida ham saraton haroratini tasvirlashda keltiriladi.

8. "Haroratli tabiat sabza mo'ylovni oqartirganidek, quyosh chizig'i ekinlarni qovjiratib-oqartirib yuborgan edi".

9. Kishta aylamoq – mevani quritmoq.

10. Bunda Majnun nazarda tutilmoqda.

11. "Es-hushidan ayrilgan Majnun Layli qabilasi ko'chib ketgan manzilni – damanni aylandi".

12. Niyron – o'tlar, olovlar. Bu yerda Majnun ko'ngliga o't tutashdi ma'nosida kelgan.

13. Bu ikki baytning mazmuni: "Xususan, ko'ngil uyini bezaguvchi ishq, uning ko'ngliga: bu daman yor maqomidir, tuprog'i esa joniga vatandir, degan bir roz soldi".

14. Qadimgi tabobatda yaraga kiyiz kuydirib bosish qo'llanilgan. Bu baytdagi fikr mana shu haqida.

15. "Tab'ing ko'rshapalak mijozini topgan hushyorliging qo'ychivonlarni ko'knori berganday rohatlantirgan".

16. "Yo'lbars oldingda xuddi chala tug'ilgan boladay".

17. "Kaftlaring tushgan yerni karkasga o'xshash ikki yulduz va izlaringni parvin – oltita kichik yulduz deb anglardilar".

18. Gavzi jayran – bug'u, kiyik.

19. Qiloda solmoq – bo'yinbog', tasma solmoq.

20. Samandar – go'yo o'tdan paydo bo'lib, o't ichida yashaydigan jonzot. Bu yerda Zayd Majnunni samandarga qiyos etgan.

21. Baytning mazmuni: "Itning oyoq-qo'lin o'pib, Majnun dasht hayvoni tomoniga ketdi".

22. Ma'nus – o'rgatilgan, o'rgangan, ulfat.

23. Surush – xushxabar yetkazuvchi farishta. Baytda Laylidan xabar keltirgan Zaydni Majnun farishtaga qiyos etadi.

24. "Tez bo'l, do'st kutmoqda, bu ishda to'xtab turish zararlidir".

XXVI

1. "Majnun Laylining kecha to'lin oydek oppoq sahifada laylat ul-qadrdek nomasini o'qib, og'zi visol shahdidan shirin bo'lganda komiga zanbur nishi sanchilgani; qalam no'gini ari nishidek tezlab, javobida qog'oz tovog'ini shira qilgani".

2. "Ayriliq balosiga giriftor bo'lganlarga vasl shifosini ham ato qildi".

3. "Ey junun zanjiri qo'lingda bo'lgan, yirtqich hayvon quyrug'idan belingda arqon bo'lgan odam".

4. "Koshki, nahs yulduzli osmon menga ham u ne'matlarni bersa edi".

5. Bu baytlarda: "Layli o'zining visol orzularini bildirib, jahon ham, butun borliq ham nobud bo'lib, yolg'iz ikkimiz qolsag-u ko'ngil istagancha, xavf-xatarsiz visol kunlarini kechirsak", deydi.

XXVII

1. "Layli Majnunning ko'z qorachig'i va kiprigi qalami bilan jon sahifasida yozgan ko'ngli iztiroblari sharhini o'qigani ishq hamdardligi taqozosi bilan Majnun ko'nglining jarohatidan muning ham ko'nglini og'ritgani; uning ham qayg'ulanib, yegan-ichgani zaharga aylangani".

2. Mashshota – soch o'ruvchi va kelinlarga pardoz beruvchi.

3. Vopas – pastarin, tuban.

4. "Vahshiy hayvonlar vahshatimdan hayratga tushadilar, qushlar ham kulfatimdan ranj-u alam topadilar".

5. "Voqea shunday edi: u lashkarboshi (Navfal) meni ko'rganda yirtqichlar mening qo'shinim edi".

6. Qarang: XX bob, 4-izoh.

7. "Navfal masalasini yozgan eding, lekin u jinnilik mendan voqe' bo'lmagan edi".

8. "Uning ma'nodor, o'lchovli xatini Majnun tumor qilib, taqib olgandek, bu ham uning xatini tumor qilib taqdi".

XXVIII

1. "Majnunning otasi dasht atrofini quyundek kezib, o'z devonanihodini sargashtalikda topmog'i; junun dashti qaroqchilari har damda uning hushi karvoni odamlarini savdoyilik asir etganidan ajib holatga tushib qolgani; nasihatlar hush dorusi bilan uni bir lahza o'ziga keltirgani va o'zi bilan uyiga olib borgani".

2. "Dod-fig'oniga pand-nasihatni ham qo'shdi, shoyad uni tiyiltirsa".

3. "Ko'nglini yaxshi umidlar bilan tinchitib, har tomonga tuyasini surardi".

4. "Goho shoshilib kesak tashish bilan mashg'ul bo'lar va u kesaklardan minora yasashga urinar edi".

5. Bu olti baytda takrir va tarse' san'ati ishlatiladi.

6. Bu baytning mazmuni: "Birin-birin barcha ketganiga o'xshagan, bevafo falakdan ota-onamga yetishgan ish menga ham yetib qolsa".

7. Bu baytda irsoli masal san'ati ishlatilgan. Unga ko'ra shoir o'z fikrini tasdiqlash uchun hayotdan, tabiatdan yoki xalq maqollari, hikmatli so'zlaridan foydalanadi.

8. "Xamsa"ning 1960-yilgi nashrida bu baytdagi misralar o'rni almashgan.

9. "Javobda bunday so'zlarni gapirdi".

10. "Yirtqich hayvon qay tomon ketsa, uning orqasidan ketish yaramaydi, odam yovvoyisini odam qilib bo'lmaydi".

11. Bu ikki baytning mazmuni: "Uzrini batamom aytib bo'lgach, tuya tomonga tez qadam tashladi, yukdagi arqonni chaqqon yechib olib, uni o'z bo'yniga bog'ladi".

XXIX

1. "Navfalning Majnun qabilasida mehmon bo'lib qaytgach, Majnun otasiga mezbonlik qilgani; payvandlik ipi oralarida mahkam bo'lib, mehmon uyiga kelmasdan Majnun biyobonga azm qilib, Layli cho'poniga yo'liqqani; u cho'pon itidek yalinib, qo'ylar orasiga uni yashirgani; Laylini ko'rgach, qurbonlik qo'yi (Majnun) bilan Xo'tan jayroni (Layli)ning yiqilmog'i, har qaysini bir vasila bilan o'z qabilalariga eltganlari".

2. "So'z karvonining karvonboshisi".

3. "Quyosh Navfali o'zini yashirganda, osmon Majnunning ko'z yoshini ko'paytirdi".

4. "Yulduzlar yo'l kulchalarini yoyib yubordilar. Navfal otlanib yo'lga tushdi".

5. "Majnun uchun qayg'urganda, uni o'ziga kuyov qilish masalasini ham aytgan".

6. Podosh – evaz, badal, mukofot.

7. "Sur ishi" – to'y ishi.

8. Bu satr "Xamsa"ning 1960-yilgi nashrida "Ohu havola qilib tak-u dev" tarzida berilgan. U "Layli va Majnun"ning tanqidiy matnida "Oyini havolanib tak-u dav" shaklidadur. Biz ham satrni tanqidiy matndagi holda tikladik.

9. Bu to'rt baytning mazmuni: "Majnunning ohi, osmonkezar quyoshdek havoda yelib-yugurar, uni yori mehri osmon mehri (quyoshi) bosh urgunga qadar eltmoqda edi. Falak kampiri echkisini sog'ib olgach, tezdan sut qatralarini artib oldi (ya'ni sharqdan oqarib tong otdi). Kampir hu-

nar ishlatib, u sut bilan darhol yumaloq pishloqni namoyon qildi (ya'ni quyosh chiqdi).

10. Xizr – "obi hayvon" (tiriklik suvi)ni izlab topgan va undan ichib doim tirik yurgan payg'ambar yoki avliyo kishi. Kishilarga hamrohlik qilishi bilan mashhur. Baytda shunga ishora qilinadi.

11. G'anam – qo'y.

12. G'anj-u dalol – noz-karashma.

13. "Shu paytda ikki tuyali kishi tuyalarini jadallatib yetib kelishdi".

14. Noqa – urg'ochi tuya.

15. Vodiyi Ayman – Arabistondagi joyning nomi.

XXX

1. "Majnunning otasi ko'p nasihatlar bilan Navfal hashamiga olib borgani; Navfal sur asbobini surur bilan chiqargani; nikoh ipi aqdi tuzilib, u mahkam bo'lmasdan burun uzilgani; bir oshiq ma'shuqi vaslidan kom topgani; yana bir oshiq ma'shuqi vaslini tilab yetib kelgani".

2. Talofi – "evaz", "badal" ma`nosida.

3. Bu baytda to'y oldidan Majnunni yasantirib, unga tun va kunga o'xshash, ya'ni qora va oq yungli po'stin kiydirishgani haqida gap boradi.

4. Jashn anjumani – to'y majlisi.

5. Isoe'joz – Iso singari mo'jiza ko'rsatuvchi. Bu yerda nikoh qilish paytidagi imom va u tomonidan o'qiladigan duolarga ishora.

6. "U atrofda ko'pchilik yoki biror ayg'oqchi, xullaski, biror maxluq yo'q edi".

7. G'aromat – pushaymon, qayg'u-hasrat.

8. "El ichida meni yomonotliq qilmay".

9. "Men el ichida mazammatga (gap-so'zga) qolmasam, sen shundan malomatlarga o'zingni tutasan".

10. Dashna – xanjar.

11. Bu ikki baytning mazmuni: "Tong subh kelinining yuzida yorug'lik ko'rsatgach, falak pardozchisi u kelin ro'parasiga quyosh chashmasidan ko'zgu tutdi".

12. Bu baytda irsoli masal san'ati asosida "Taqdirini tadbir etib bo'lmas" maqoli mazmunida foydalangan.

13. "Dard-mashaqqatlar bergan bu sir uning jismini kasallantirib ko'rpaga yotqizdi".

XXXI

1. "Falak zoli nayrangining o'zgarib turishi Majnunni Navfal qizi visoliga yetkazmay turib ayirgandek, Laylini ham Ibn Salom malomatidan salomat ayirib, hajrning qaro tunida ikki nomurodni murodga yetkazgani va badansiz ruhni ruhsiz badanga kirgizgani; ruh bilan badan vasli muyassar bo'lgach, firoq tig'ini surib, o'sha suv bilan visol o'tini o'chirgani".

2. Bu ikki baytning mazmuni: "Ishi ko'proq hiyla va aldovdan iborat bo'lgan falak, bir necha kun Majnun bilan hazillashib, yo'q, balki, behayolik bilan uni uylanishga buyurdi".

3. "Nikoh o'qish soati kelib, bu to'y tantanasini yana rivojlantirar edi".

4. "Bu kecha falak ikkiyuzlamaligi bilan ko'p qiziq hodisalar yuz berdi. Birisi shuki, jonlari dardga to'la u ikki shaxsni falak daryosi mavj urib, har ikkalasini ayrim-ayrim qovushtirmoqchi bo'lib, bularning har birini boshqa birov bilan juft qildi-yu, lekin har ikki gavharni ham bejirim (pok) saqladi".

5. Bu ikki baytning mazmuni: "Go'yoki nazar soluvchi munajjimi edi-yu, har ikki ishga bir vaqtni belgilagan edi, lekin agar bu ishda munajjim ojiz qolgan bo'lsa, aslda "mu-

najjim yolg‘onchidir”, ya’ni haqiqatni oldindan belgilay olmaydi”.

6. Bu ikki baytning mazmuni: “Alqissa kuyov holdan ketib, kuchsizlik uning tanini poymol qilganda, o‘sha kecha butun er va ayol, kampir, qizlar uning boshiga to‘plangan edilar”.

7. Bu baytdan boshlab, oshiq-ma’shuqlarning visol ayyomida jahondagi barcha mavjudotlarning ularga xayrixohligini g‘oyat go‘zal va yoniq ta’rifini beradi: “Jahondagi barcha maxluqotlar, shu paytda har ikkalasining vaslini tilar edilar. O‘rgimchak ham shuvoqqa o‘ralib, iplari bilan o‘z tumshug‘ini bog‘lab olgan edi. Ko‘rshapalak ham qanoti bilan olamga parda solgan edi. Bo‘rining esa quloqlari yuziga tushib, ko‘zining chirog‘i yopilgan edi. Ukki bo‘lsa, nogoh ovoz chiqarib yubormaslik uchun tumshug‘ini parlari ichiga olgan edi. Uyqu devi qo‘ychi itini bosib olgan edi. Bu anbarolud qorong‘i kecha, makr bilan tulkining uyasiga tutun solgan edi. Hayvonot va qushlar tinchlanib, gazanda va yirtqichlar uyquga cho‘mgan edilar.

Bunday vaslning zoye ketmasligi uchun tabiat ham madad ko‘rsatardi. Ne gard uchib, ne yel esar edi, suvlar ham jimgina oqib, hech qanday o‘tning yolqini ko‘rinmas edi. Havo mizoji o‘t ko‘rasining yuzini to‘sib olishga moyil edi. Sovuqlik sipohi tushmasin uchun o‘tning pardasi to‘sqinlik qilardi.

To‘qqiz falak bir-birining yuzini to‘sgani singari shu sovuqlik falak yuzini pok saqlar edi. Harakatsiz yulduzlar esa baxtsizlik keltiruvchi niyatlaridan voz kechib, saodat bag‘ishlovchi yulduzlar orasidan o‘rin oldilar. Oyning kulchasida nur ham ko‘rinmas edi, yer uni quyosh ko‘machdoniga ko‘mgan edi. Atorud (Merkuriy) tong otguncha hech ko‘zini yummasdan, “ko‘z tegma-

sin" oyatini yozar edi. Zuhra yulduzi ashula qilmay, chang chalolmay, parda ichiga yashirinayotgan edi. Quyosh sham'i yer tagiga botib, kecha xilvati o'z sham'ini chiqargan edi. Bahrom (Mirrix) yulduzi g'azab bilan nayza o'qtalib, har kim yomon ko'z bilan qarasa ko'r qilmoqchi bo'lib turar edi. Birjis (Mushtariy – Yupiter) esa shu ikki dilraboga fursat tilab, qo'l ochib duo qilar edi. Zuhal yulduzi esa, baxtsizlik yog'dirishdan nomus qilib, shunga o'z yuzidan qora rang berar edi. Tun ham qo'llarini qoraga bulg'ab, sahar yo'lini to'sar edi. Tong shabadasini urmas va tun kullarini ham sovutmas edi. Chin tong nafas olishga ham havas qilmas, yolg'on tongga esa, bu kechadan o'rin ham yo'q edi. Falak gardishini tun dudlari tutib, tongning damini qaytargan edi.

Eldagi aql charog'ida yorug' ham yo'q, butun maxluqot chuqur uyquga tolgan edi. Ular ikkisi baxti uyg'oq kishilarday, bir-birlarining diydoridan mast bo'lgan edilar. Falakning yillar bo'yi davom qilgan xilof odati, harakatlari bir kechada yo'q bo'lgan edi".

8. Nofayi totor – toza va eng xushbo'y mushk (qora tusli va eng xush isli narsa).

9. "Yolg'on kulishlarga rog'ib bo'lib, yolg'on tong ham ota boshladi".

XXXII

1. Majnun Laylidan ayrilib shu Najd tog' cho'qqisida vahshiy hayvonlar orasida kun o'tkazadi. Bu yerdan Layli qabilasining manzili ko'rinib turardi.

2. "Firoq toshi ko'ksiga urilaverib, Majnunning Najd tog'ini oromgoh qilgani; ko'zidan to'kkan bag'ir qonidan u tog'da lolazor ochilgani; mushk bo'yli ohusi yodi bila so'zga kirib, mushk sochuvchi nasim bilan navo ko'rgizgani".

3. "Oy (Layli)ning chodiri bo'sh qolgan edi, bu chodirning oyi qaytib o'z chodiriga kirdi".

4. "Subh kuyovdek berilib, jilva bilan namoyon bo'lgach, undagi diqqinafas sadbarg guli rangi bilan uni sarg'aytirdi", ya'ni tong otib, so'ngra quyosh chiqdi.

5. "Najddagi qoplondan osmon asadiga kulfat yetardi, echkisi esa osmonning jady (ko'kdagi 12 burjdan biri – u kiyik shaklida tasavvur etilgan) bilan baravar yugurar edi".

6. "Uning surati lutf qalami bilan chizilgan edi, joni esa nofa mushkning xushbo'y hididan edi".

7. Bu ikki baytning mazmuni: "Silliq tanangga ipakli libos kiygansan, ostingga ipak o'rnida qoqum terisi to'shalgan. Sag'riningda esa, toza o'rtik, yuzing ham, peshonang ham ajoyib go'zal".

8. Shoir ma'shuqa tishlarini lola ustiga tushgan shudringlarga o'xshatadi.

9. Pozahr – zaharni qaytaruvchi, zaharga qarshi.

10. Qalaming shaqi – qamish qalamning yoriq qismi.

11. Dostonning boshqa boblari oxirida Navoiy o'z shaxsi nomidan (man, mani, manga) lirik xotima yasaydi. Tanqidiy matnda ham "manga" yozilgan. 1960-yil nashrida esa "sanga" deb xato berilgan.

XXXIII

1. "Majnunning ota-onasi uning muhlik firoqidan halok bo'lib, u bu holni ko'rgani; tuproqlariga yeldek yetib, ota go'ri boshida yetimlik dardi bilan, ona qabri toshida asirlik mungi bilan fig'on tortgani".

2. "Kofurni (g'oyatda oq va xushbo'y modda) sharbat kabi ichgan sari, badanidagi harorat battar ko'tarilar edi".

3. "Agar tabib kasalga tuxmiyona (dorivor o'simlik urug'i, habdori) bersa, uning donalaridan zaharli giyohlar o'sadi".

4. "Tabibning taranjabin (ichni yumshatadigan) dorisi kasalning ichini qabziyat qilar, sikanjabin (safro moddasini yo'qotadigan) dorisi bo'lsa, safroni ko'paytirar edi".

5. Bu uch baytning mazmuni: "Kasal uchun qilingan butun tumor, jodugarlik va duoxonliklar kasalning azobini yana ham oshirishga sabab bo'lar, kasalligining azobi qo'rqinchli bo'lganidan bu azoblarni to'xtatishga iloj topilmas edi. Ko'kdan "Omonatni ber!" degan tovush kelganidan so'ng, o'zidagi jon omonatini topshirdi".

6. Zol – keksa kampir; bu yerda Majnunning onasi ko'zda tutiladi.

7. Abushqa – yoshi ulug' kishi, qari odam. Bu yerda Majnunning otasi ko'zda tutiladi.

8. Javona chiqarmoq – bola ochish.

9. Jo'yoyi maqom bo'lmaslik – o'z joyiga qaytmaslik, o'z yerini qidirmaslik.

10. Hamomani qut qilmoq – kabutarni yemoq.

11. Qubur – arabcha: qabrning ko'pligi – qabrlar, go'rlar.

12. Munxasif – tutilgan, nuri to'silgan, xiralangan.

13. "Lekin qum ustida chekkan ohining alangasi o'z jismini qovurgan baliqday qildi".

14. "Bu holat o'tgach, xayoli yana ota-onasiga ketdi".

XXXIV

1. "Majnunning yor hajri o'tidan kuygan taniga ota-ona hasrati yana ikki o'ldiruvchi dog' qo'yganidan mashaqqati qattiq bo'lganini Layli eshitib, u kuyganni kuydirgan o'tlar tobidan isitib, dudidan o'zining hayot ro'zg'ori qaro bo'lgani".

2. Eram, Bog'i Eram – afsonaviy go'zal va xushhavo bog'. Bu baytda Layli Eram bog'idagi gulga o'xshatiladi.

3. "U sarv sening nahs, jahonni xarob qiladigan zuzanabing (quyruqli yulduz, nahs yulduz) emas edi-ku!"

4. Bu ikki bayt mazmuni: "Bularga qanoatlanmay toshlar orasida talqon qilmoqchisan. Bahroming bilan baravarlashib qonidan rang olgan emas edim". Bu yerda ilmi nujumdagi Bahrom sayyorasining harbiy ishlar – qon to'kishlar homiysi ekani nazarda tutilgan.

5. "Terlari gul yuziga tomib, isitmasi bilan yuzi cho'tdek qizargan edi".

6. "Goh hushida, gohi behush edi, nur yo'q ko'zlarida, murda kabi edi".

XXXV

1. "Xazon yeli bog' zebolari hayoti sham'ini o'chirganda Layli hayoti bahorining gullarini ajal xazoni sovuq shamoli ko'kka sovurib, Majnunning ruhi bulbuli badan qafasini gulbun uzra tashlab, u yaralangan gul bargi so'lguncha uchib ketgani".

2. "Kuz faslining shamoli shunday yetishdiki, barglar ham o'z jonidan kechib yubordi". Bu baytning birinchi misradagi "mehrjon" so'zi "mehrgon"ning arabchalashtirilgani bo'lib, "mezon" burji ma'nosidadir, ikkinchi misradagi "mehr jon" ikki so'z bo'lib, "mehr" (muhabbat)ni jondan ko'tardi, demakdir".

3. Afshon – naqqoshlikda bir turli naqshning nomi. Bu naqshda naqqosh rangni qilqalam bilan qog'oz ustiga sepadi, bunday naqshni o'zbekchaga ayni tarjimasi "sepma" bo'ladi. Navoiy bu ikki misrada naqqoshlikdagi mana shu san'atdan foydalanib, suvni moviy varaqqa (qog'ozga), xazon barglarini uning ustidagi sepilgan "sepma" naqshga va yel (shamol)ni naqqoshga o'xshatadi.

4. "Og'iz yumilgach, iyak chuqurchasi ochiq namoyon bo'lib qolgan" (chuqurcha chohga, uning yonidagi xol kabutarga o'xshatilgan).

5. Sakaroti mavt – jon talvasasi.

6. Bu bayt mazmuni marhumning ota-onasiga aytilgan tasalli so‘zlarni anglatadi.

7. O‘z qolibini tihi aylamak – o‘z tanini ruhdan bo‘shatadi, ya’ni joni badandan chiqadi.

8. Bayt mazmuni: “O‘rilgan sochlaringni yozib, olamga xushbo‘y hidlarni taratsam”.

9. Ikki af’i – ikki ilon, ya’ni ikki o‘rim soch. Laylining onasi qizi o‘lgach, uning sifatlarini aytib yig‘laydi.

10. “Yuzingga gultojixo‘roz donasi kabi qora xol qo‘yay”.

11. Mi’jar – boshga o‘raladigan ro‘mol.

12. “Kerak narsalarni hozirlab, o‘likni odat bo‘yicha yasantiradilar”.

13. Mururi ayyom – kunlar o‘tishi.

XXXVI

1. “Ishq ta’rifidaki, “ayn”ining nurli toblanishi tuproqni chashmadek oqizadi; “shin”ining uchqunlari shu’lasi ko‘ngullar qo‘shiniga nuqson yetkazur; “qof’ining vazmin toshli tog‘i kimga yuklansa, nobud etar va nuqtalarining toza dog‘i har chok ko‘ngilga tushsa lolaning besh bargidek qonga bo‘yaydi”.

2. “U o‘tda agar xushhol bo‘lsa, shu bilan birga u o‘sha o‘tda erib ham ketdi”.

3. Oinayi Iskandar – Iskandar oynasi. Iskandar tomonidan temirga sayqal berib yaratilgan oyna. Go‘yo unda Jamshidning jomidagidek, hamma narsani ko‘rsa bo‘lar ekan. Badiiy adabiyotda Iskandarga bag‘ishlangan asarlar juda ko‘p. Nizomiy, Dehlaviy, Jomiy va Navoiylarning maxsus dostonlari shular jumlasidandir. Ularda Iskandar qudratli hukmdor timsoliga aylangan.

4. Farang – Yevropani anglatadi.

5. Ishqi majoziy – zohiriy ishq, borliq – olam va odamga bo‘lgan muhabbat.

6. “Bu to‘rt baytning mazmuni: “Avvalgisida kishi tozalanib, ikkinchisiga o‘tsa, yo‘q-yo‘q, o‘tish emas, balki haqiqiy ishqni o‘ziga tortib, ko‘ngliga visolning urug‘ini eksa, ham uni butunlay toroj etib, uning ramziy shaklidan asar qolmasa, ko‘rinadigan joydan ko‘rinmasdan maqsadga singib ketsa”.

7. Subhi kozib – yolg‘on tong.

8. Bu uch baytning mazmuni: “Har qanday rangi sariq kishini oshiq deb bo‘lmaydi, chunki har bir sariq gul ham za’faron bo‘lolmaydi. Jazb etolmaydigan sariq yuz riyoli bo‘ladi, samg‘ (daraxt yelimi) kahrabo o‘rniga o‘tmaydi. Sariqlikda qanchalik mashaqqatlar ko‘rgan bilan zirnix (oltingugurt bilan margimush aralashmasi) oltin bo‘lolmaydi.

9. Bariy – pok, chetda.

10. “Yaratilishidanoq uning qanotida dog‘ bor, ishq uni hech bir tark etgan emas”.

11. “Ey kosagul, otashparastlar olovini yoqqin! Mening g‘amim obnus (qora tusli qattiq va xushbo‘y daraxt) yog‘ochiga o‘xshagan qora qayg‘udandir”.

XXXVII

1.“Falak ehtiromli, quyosh nisbatli osmon bo‘lgan shahzoda, ya’ni Sulton Uvays bahodir madhida xotima: nasihatlar bisotida ko‘p la’l va yaxshi saqlangan dur va pand-u nasihatlar dasturxonida mevalar va gunogun noz-u ne’matlarni ul hazratga quloqqa olmoq va og‘izga solmoqning chaqirig‘i”.

2. Bu uch baytning mazmuni: “Daryoning durri va konning la’li kabi so‘zlarni topgach, ularni shahzodaga

bag‘ishlayin. U adolatli shahzodadir, uning yetti otasigacha shoh o‘tgan. Butun koinot, zamona sultoni shahzoda Uvays dargohining tuprog‘i hisoblanadi”.

3. Shahzoda Uvays – Sulton Husayn Boyqaro akasining o‘g‘li.

4. “Zotidagi hayo va odob, xuddi ammasi, xolasi, tog‘asi va otasiga o‘xshashdir”.

5. Ota-onaga bab-baravar qul bo‘l, chunki Xudo: “Ota-ona ehsondir” degan (ya’ni g‘animat va ulug‘ ne’matdir, demak).

6. Mustafo – Muhammad alayhissalomning sifati.

7. Zilli Iloh – Xudo soyasi, podshoh.

8. Bu ikki baytning mazmuni: “Qassobning qora molini parvarish bilan semirtirishi uni o‘ldirish – so‘yish uchundir. Parvarishdan ho‘kiz nima bahra olardi; u botmonlab semirsa bo‘ldi”.

9. Bu ikki baytning mazmuni: “Shunisi qiziqki, o‘g‘ridan qolgan narsa bilan jonni qutqarib, shaharga yetganda tamg‘achi (savdogarlar molidan boj oluvchi) ham uning boshiga kelib, do‘q bilan zakot so‘raydi”.

10. Lojur’a sumurmoq – qultumlamasdan, to‘xtamay simirmoq.

XXXVIII

1. “Bu dard yig‘isi tugashining tarannumi va bu hasratnomasi oxirining aytilishi va tartibi avzoining afsonasini tuzmoq, xato va kamchiliklari raqamlariga e’tirof aytib, bu bobda Haqdan afv so‘ramoq”.

2. “Sahifalarning yuzida dard jilvalanadi, mistar (chiziqsiz) qog‘ozga chiziq tushirish uchun qalin qog‘ozga iplar tortib yasalgan (chizg‘ich) chizig‘i hajrning katta yo‘lidir”.

3. Surohi – may idish.

4. "Forsiy til bilan so'zlar nazm etilganidan, faqat forscha biladiganlargina bahra topdilar".

5. Atrok – turklar.

6. "Agar modda kamroq ersa, ya'ni mazmun unchalik chuqur bo'lmasa, g'am yemaymiz, chunki bunda asli maqsad zavqdirki, bu kam emas".

7. Filotun (Aflotun) – qadimgi yunon (grek) faylasuflaridan, Suqrotning shogirdi va Arastuning ustozi. Eramizdan ilgari 427-yilda tug'ilib, 347-yilda vafot etgan.

Adabiy-badiiy nashr

Alisher Navoiy

LAYLI VA MAJNUN

Doston

Muharrir *Sanjar Tursunov*
Badiiy muharrir *Izzat Yo'ldoshev*
Texnik muharrir *Xosiyat Hasanova*
Musahhih *Iroda Umarova*
Kompyuterda sahifalovchi *Umida Valijonova*

Nashriyot litsenziya raqami AI № 290. 04. 11. 2016 y.
2019-yil 11-dekabrda bosishga ruxsat etildi.
Bichimi 84x108 $^{1}/_{32}$. Tayms garniturasi. Ofset bosma.
18,06 shartli bosma taboq. 11,2 nashr bosma tabog'i.
Adadi 5000 nusxa. 335-raqamli buyurtma.
Bahosi shartnoma asosida.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligining
G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyida chop etildi.
Toshkent, 100128. Labzak ko'chasi, 86.

Telefon: (371) 241-25-24, 241-83-29
Faks: (371) 241-82-69
www.gglit.uz info@gglit.uz

26.300 c.

ALISHER NAVOIY

Layli va Majnun

+16

ISBN 978-9943-6105-9-0